

**TILDA, FIKRDA, ISHDA BIRLIK!**



# UCHINCHI RENESSANS

**ILMIY, ADABIY-BADIIY, ILMIY-AMALIY, ILMIY-NAZARIY,  
IJTIMOIY-FALSAFIY, MADANIY-MA'RIFIY JURNAL**



**ISSN: 3093-9135**

**2026-1**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNKATSIYALAR AGENTLIGI**



**UCHINCHI RENESSANS**

**Ilmiy, adabiy-badiiy, ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy,  
ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy**

**JURNAL**

**URGANCH – 2026**

---

**Bosh muharrir:**

*M.M.Masharipov* – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

*M.M.Matnazarov* – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Mas'ul kotib:**

*A.A.Saparbayeva* – Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi mutaxassisi

**Tahrir hay'ati:**

1. *Sh.S.Sirojiddinov* – ToshDO'TAU rektori, filologiya fanlari doktori, akademik (O'zbekiston)
2. *A.S.Sagdullayev* – Tarix fanlari doktori, akademik (O'zbekiston)
3. *Chiaramonte Giuseppe Carlo* – Pedagogika fanlari doktori (AQSH)
4. *S.E.Normamatov* – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
5. *Sh.M.To'xtosimov* – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor (O'zbekiston)
6. *N.K.Kasimov* – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi prorektori, professor (O'zbekiston)
7. *A.Ashirboyev* – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
8. *Q.B.Yo'ldoshev* – Pedagogika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
9. *N.A.Jabborov* – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
10. *Mustafa Demirci* – Tarix fanlari doktori, professor (Turkiya)
11. *S.K.Salayev* – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
12. *M.B.Kuchkarov* – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali direktori (O'zbekiston)
13. *G.Matyaqubova* – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali professori, O'zbekiston xalq artisti (O'zbekiston)
14. *S.U.Xodjaniyazov* – Pedagogika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
15. *S.A.Karimov* – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
16. *Kürşat Yıldırım* – Tarix fanlari doktori, professor (Turkiya)
17. *I.S.Abdullayev* – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
18. *B.N.Karimov* – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
19. *F.G.Sharipov* – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
20. *K.Ashirkhanova* – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Qozog'iston)
21. *B.I.Abdullayev* – Fizika-matematika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
22. *O'.I.Abdullayev* – Tarix fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
23. *B.B.Elov* – Texnika fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
24. *R.Y.Ro'zibayev* – UrDTI rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
25. *A.I.Primov* – Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

26. **G.Matyaqubova** – O‘zbekiston xalq artisti, san’atshunoslik bo‘yicha falsafa doktori, professor (O‘zbekiston)
27. **A.D.O‘razbayev** – Filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)
28. **Q.U.Pardayev** – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)
29. **Azizullo Aral** – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (AQSH)
30. **Claire Marie Calusin** – Master in Teaching (Flippin)
31. **B.M.Satimov** – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)
32. **S.E.Samandarova** – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)
33. **F.Q.Bobojonov** – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Qoraqolpog‘iston)
34. **Shoira Shams** – O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi (O‘zbekiston)
35. **U.B.Mahmudov** – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)

**Uchinchi Renessans** – bu xalqimizning yangi uyg‘onish davri bo‘lib, unda ilm-fan va ma’naviyat ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu davrda har bir inson o‘z salohiyatini yuzaga chiqarib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intiladi. Ajdodlar merosiga tayanib, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan avlod kelajakni bunyod etadi. Shu bilan birga, san’at va madaniyat inson ruhiyatini yuksaltirib, jamiyatda go‘zallik va tafakkur uyg‘unligini qaror toptiradi. Haqiqiy Renessans – bu fikr erkinligi, ijodkorlik va yuksak qadriyatlarining mushtarakligidir.

Jurnalning ushbu sonida **“Alisher Navoiy merosi va Uchinchi Renessans”** respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanda professor-o‘qituvchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar va milliy urf-odatlarimizni o‘rganuvchi yosh tadqiqotchilarning fikr hamda izlanishlari o‘z ifodasini topgan.



## MUNDARIJA

<b>M.Kuchkarov</b> .....	7
Kirish so‘z. Mir Alisher Navoiy hazratlari haqida	
<b>M.Masharipov</b> .....	8
Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlari	
<b>S.Narmamatov</b> .....	14
Navoiy asarlarining turkiy lug‘atchilik taraqqiyotidagi o‘rni	
<b>N.Kasimov</b> .....	18
Mir Alisher Navoiy – turkiy dunyoning buyuk o‘zani	
<b>B.Amanbayev</b> .....	23
Alisher Navoiy asarlarining teatr san‘atida tutgan o‘rni	
<b>M.Amanbayeva</b> .....	28
Alisher Navoiy g‘azallarining Xorazm qo‘shiqchilik san‘atidagi o‘rni	
<b>Q.Rahimov</b> .....	37
Alisher Navoiy – madaniyat va san‘atning chinakam homiysi	
<b>K.Urazmetova</b> .....	41
Alisher Navoiy asarlarida san‘atning ulug‘lanishi	
<b>Z.Yoqubova</b> .....	46
Navoiy hikmatlarida farzand tarbiyasi	
<b>B.Ro‘zmetova</b> .....	52
Alisher Navoiy ijodida ko‘p tillilik va madaniy integratsiya	
<b>A.Tursunov</b> .....	57
Alisher Navoiy – san‘at va madaniyat homiysi sifatida	
<b>A.Saddinov</b> .....	63
Alisher Navoiy nazmida cholg‘u taronalari	
<b>Sh.Samandarova</b> .....	66
Alisher Navoiy ijodida raqs san‘atining badiiy qimmati	
<b>A.Tillayev</b> .....	73

Alisher Navoiy ijodida raqsning yashirin timsollari	
<b>Sh.Botirov</b> .....	77
Buyuk mutafakkir A. Navoiy ijodining o‘zbek va jahon xoreografiyasida aks ettirilishi	
<b>K.P.Paxruddinrova</b> .....	83
Alisher Navoiy ijodi va raqs san’ati	
<b>N.Otajonov., B.Abdullayeva</b> .....	90
Yetti iqlimga mashhur	
<b>N.Saparboyeva</b> .....	96
Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari tahlili	
<b>A.Saparbayeva</b> .....	105
Foniyning “Sittai Zaruriya” asari tahlili	
<b>M.Mirzaliyeva</b> .....	112
Alisher Navoiy – madaniyat va san’at homiysi sifatida	
<b>G.Urazova</b> .....	116
Sharq mutafakkirlarida komil inson konsepsiyasi: Navoiy va Tusiy qarashlari	
<b>D.Amanov</b> .....	121
“Xamsa” asarlarida san’at va go‘zallik falsafasi	
<b>M.Asqarova</b> .....	125
Alisher Navoiy siymosining zamonlar osha talqini: Fitratdan Ayniygacha bo‘lgan adabiy va ilmiy tafakkur yo‘li	
<b>S.Erkaboyeva</b> .....	132
Alisher Navoiy faoliyat yuritgan davrda san’at, adabiyot va madaniyatning o‘zaro uyg‘un rivoji	
<b>S.Zakirova</b> .....	137
Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qalb go‘zalligi talqini	
<b>B.Turmamatov</b> .....	141
Alisher Navoiy – bugungi kun maqom san’atining ilhom manbayi	
<b>F.Abdurasulova</b> .....	145

---

Alisher Navoiy ezgulik va xayr-saxovat dahosi	
<b>Z.Mirsaidova</b> .....	<b>149</b>
San’at olamida Navoiy hayoti va ijodi	
<b>O.Xoliqova</b> .....	<b>152</b>
Milliy o‘zbek madaniyati – betakrorlik va boylik manbai: Alisher Navoiy misolida	
<b>M.A.Giyasova</b> .....	<b>158</b>
Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik masalalari	
<b>M.Abdusamadova</b> .....	<b>161</b>
Alisher Navoiy nasriy uslubining bir xususiyati (“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi Sayyor” dostonlarining misolida)	
<b>I.B.Axmudova</b> .....	<b>166</b>
Alisher Navoiy – Sharq Renessansining buyuk siymosi	
<b>F.Xamraboyeva</b> .....	<b>171</b>
Navoiy g‘azallarining sahna talqini: raqs orqali badiiy ifoda	
<b>M.M.Muhammadaliyeva</b> .....	<b>175</b>
Alisher Navoiy asarlarida ilm, aql va tafakkur masalalarining yoritilishi va ularning zamonaviy Uchinchi Renessans konsepsiyasi bilan uyg‘unligi	
<b>M.Muxamedova</b> .....	<b>185</b>
Alisher Navoiy asari balet talqinida	
<b>G.Karimova</b> .....	<b>190</b>
Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati	
<b>L.Yusupova</b> .....	<b>192</b>
Navoiy asarlarida insonparvarlik va komil inson g‘oyasi	
<b>D.Tojiboyev</b> .....	<b>197</b>
Hoji Muin publitsistikasida dialektal unsurlar	

---

**KIRISH SO‘Z. MIR ALISHER NAVOIY HAZRATLARI  
HAQIDA**

*Kuchkarov Maxsudjon Bazarboyevich*  
*O‘zbekiston davlat xoreografiya*  
*akademiyasi Urganch filiali direktori*

***Hurmatli ustozlar, aziz mehmonlar va qadrlı anjuman ishtirokchilari!***

Bugun biz buyuk mutafakkir, so‘z mulkining sultoni, o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy hazratlari tavalludining 585 yilligiga bag‘ishlangan “ALISHER NAVOIY ME’ROSI VA UCHINCHI RENESSANS” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda jam bo‘lib turibmiz.

Navoiy nomi – bu nafaqat adabiyot, balki ma’naviyat, tafakkur va komillik timsolidir. Alisher Navoiy o‘zining ulkan iste’dodi va teran tafakkuri bilan turkiy tilni yuksak badiiy darajaga ko‘tardi, uni jahon adabiyoti sahnasiga olib chiqdi. Uning “Xamsa”si, g‘azallari, ruboiylari va ilmiy-falsafiy asarlari inson qalbining eng nozik kechinmalarini, ezgulik va adolat g‘oyalarini, muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini yuksak mahorat bilan ifoda etadi.

Navoiy ijodi – bu komil inson tarbiyasi maktabidir. U asarlarida ilm-ma’rifatni ulug‘laydi, insonni ezgulikka, halollikka va adolatga chorlaydi. Shu bois ham uning merosi asrlar osha o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay, bugungi kunda ham yosh avlodni ma’naviy barkamollikka yetaklab kelmoqda.

Buyuk bobomizning hayoti va ijodi biz uchun ilhom manbai, milliy g‘urur va iftixorimizdir. Uning boy adabiy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish – ma’naviy taraqqiyotimizning muhim omillaridan biridir. Yana bir bor ushbu ilmiy-amaliy anjuman barchamiz uchun madaniyat, ma’rifat va ilhom manbai bo‘lishini tilab, e’tiboringiz uchun rahmat aytaman.

**NIZOMIDDIN MIR ALISHER NAVOIY – JAHON VA O‘ZBEK  
ADABIYOTINING YETUK SIYMOLARIDAN BIRI**

*Masharipov Mansurbek Masharipovich*  
*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*  
*Urganch filiali ilmiy ishlar va innovatsiyalar*  
*bo‘yicha direktor o‘rinbosari, dotsent, filologiya*  
*fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*  
*e.mail: [mansurbekmasharipov@urgiu.uz](mailto:mansurbekmasharipov@urgiu.uz)*  
<https://orcid.org/0009-0001-6582-6239>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning jahon va o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi beqiyos o‘rni yoritiladi. Unda mutafakkir shoirning hayoti, ijodiy merosi hamda turkiy til nufuzini oshirish yo‘lidagi xizmatlari tahlil qilinadi. Xususan, Navoiyning “Xamsa” asari, lirik devonlari va ilmiy-falsafiy qarashlari misolida uning badiiy mahorati va g‘oyaviy qarashlari ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar.** O‘zbek mumtoz adabiyoti, Temuriylar davri, “Xamsa”, ilm-fan homiysi, davlat arbobi, ma’naviyat va ma’rifat, adabiy meros, she’riy devonlar, til taraqqiyoti, Chig‘atoy adabiyoti, “Tarixi muluki ajam”*

***Аннотация.** В данной статье освещается несравненная роль Низомиддина Мира Алишера Навои в развитии мировой и узбекской литературы. Анализируется жизнь поэта-мыслителя, его творческое наследие и вклад в повышение престижа тюркского языка. В частности, художественные способности и идеологические взгляды Навои раскрываются на примере его произведения «Хамса», лирических диванов, а также научно-философских взглядов.*

***Ключевые слова:** узбекская классическая литература, эпоха Тимуридов, «Хамса», покровитель науки, государственный деятель, духовность и просвещение, литературное наследие, поэтические диваны, развитие языка, чигатайская литература, «Тарихи мулуки аджам»*

**Abstract.** *This article highlights the incomparable role of Nizomiddin Mir Alisher Navoi in the development of world and Uzbek literature. It analyzes the life of the thinker poet, his creative heritage, and his services to increasing the prestige of the Turkic language. In particular, Navoi's artistic skills and ideological views are revealed on the example of his work "Khamsa", lyrical divans, and scientific and philosophical views.*

**Keywords:** *Uzbek classical literature, Timurid era, "Khamsa", patron of science, statesman, spirituality and enlightenment, literary heritage, poetic divans, language development, Chigatay literature, "Tarihi muluki ajam"*

O‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkir shoiri Alisher Navoiy (1441 – 1501)dan Sharq klassik adabiyotining barcha janrlariga oid juda katta hajmdagi boy meros yetib kelgan. O‘z davrida yuksak gumanistik g‘oyalarni badiiy barkamollik bilan ifodalab bergan adib asarlari asrlardan asrlarga, nasllardan nasllarga o‘tib ardoqlanib kelmoqda. Yangi avlodlarning ezgu umidlari, ajoyib orzulari yo‘lida ham ilhombaxsh kuchga aylandi. Shuning uchun ham ular inqilobgacha bo‘lgan davrda qo‘lyozma va bosma holda keng tarqaldi. Shoir asarlarining respublikamizdagina emas; balki jahon kutubxonalarida ma’lum bo‘lgan nusxalari shundan dalolat beradi.

Alisher Navoiyning o‘lmas merosini keng qamrovda o‘rganish, ularning ko‘p nusxali nashrlarini tashkil etish asosan bizning davrimizda boshlandi. Shoir asarlarini keng ko‘lamli ravishda o‘rganishga kirishildi. Ulardan ayrimlarini, hozirgi til normalari asosida sharhlar bilan qo‘shib nashr etish yo‘lga qo‘yildi. Bu salmoqli ishlar Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini nishonlash bo‘yicha boshlangan tadbirlarni amalga oshirish munosabati bilan ayniqsa jonlanib ketdi. Natijada Ulug‘ Vatan urushigacha bo‘lgan davrda shoir lirikasidan saylanma nashrlar yuzaga keldi. “Xamsa” dostonini chop etishga kirishildi.

Ulug‘ Vatan urushidan keyingi yillarda shoir merosini nashr etish yangi pog‘onaga ko‘tarildi. 1948-yilda shoir tavalludining 500 yilligini nishonlash munosabati bilan Alisher Navoiyning uch tomdan iborat “Tanlangan asarlar”i chop

etildi. (Bu nashrda ikkinchi tom «Xamsa» dostonlaridan iborat besh kitobni tashkil etadi). Oltmishinchi yillarda esa Navoiynng 525 yillik yubileyi munosabati bilan shoir asarlarining o‘n besh tomligi yuzaga keldi. «Xamsa» ilmiy-tanqidiy matn sifatida bir butun holda kitobxonlarga havola etildi. Alisher Navoiy bularning hammasi buyuk adib asarlarining mukammal nashrini tayyorlashga katta zamin yaratilganligini ko‘rsatar edi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti va Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti shoir tavalludining 550 yilligi oldidan uning yigirma tomdan iborat “Mukammal asarlar to‘plami” ni tayyorlashga kirishildi. Mazkur to‘plam Alisher Navoiy merosini to‘liq qamrab oladi va ilmiy nashrlar sifatida izohlar bilan ta‘minlanadi.

Turkiy xalqlarning “Shamsu-l-millat”i bo‘lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o‘zining hassos she‘riyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag‘ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so‘z san‘atkoridir. O‘z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug‘at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma‘no-mohiyatning keng ko‘lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.

Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi beshta doston 2006-yilda asl matni va mukammal nasriy bayoni bilan G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi tomonidan lotin yozuvida nashr etildi.

Alisher Navoiy tavalludining 570 yilligi munosabati bilan shoir asarlarining 10 jildligi e‘lon qilindi. Shuningdek, “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi to‘rta devon ham nashrdan chiqdi.

Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining so‘nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug‘at ishlanganligi biz hozir navoiyshunoslik deb atayotgan sohaning ancha qadimiy ekanligini ko‘rsatadi.

Shu ma'noda aytish mumkinki, Alisher Navoiyning faoliyati va merosining o'rganilish tarixi shoirning o'z davridan, zamondoshlarining asarlaridan boshlanadi. Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy singari adiblar adabiy tilning boshlovchilari sanalsa, hazrat Navoiy bu tilni kamolotga yetkazdi, yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Arab tili ilmiy til, fors-tojik tili badiiy adabiyot tili sifatida shuhrat topgan bir paytda 30 tan ortiq asarini o'zbek tilida yozib, o'zbek mumtoz adabiy tilini har tamonlama asoslab berdi.

Navoiygacha bo'lgan adabiy til tarqoq holda edi, o'g'uz, qipchoq, o'g'uz-qipchoq, qarluq kabi. Navoiy katta hududdagi lahjalarni birlashtirib, yagona adabiy til holiga keltirdi, uning tepasida o'zi turdi. Mazkur til uzoq yillar davomida o'zbeklar va atrofdagi boshqa turkiy tillar uchun adabiy til sifatida xizmat qildi. Ayni paytda, mutafakkir "Farhod va Shirin" dostonida ushbu til Xitoydan Xurosongacha, jumladan, Sheroz va Tabrizgacha tarqalgani haqida ma'lumot berib o'tadi.

So'z mulkining sohibqironiga qadar biror ijodkor til nazariyasi bilan shug'ullangan emas. Shoir umrining oxirgi paytlarida juda katta hayotiy va ijodiy tajribasini sarhisob qilayotgan davrida, ya'ni 1499-yilda yozilgan "Muhokamat-ul lug'atayn" risolasida mutafakkir oltoy tillari oilasiga kiruvchi turkiy, ya'ni o'zbek tili bilan hind-yevropa tillariga mansub sart (forsiy) tilini fonetik, leksik va grammatik jihatdan solishtirib, chog'ishtirma tilshunoslikka asos soldi.

Alisher Navoiyning olim sifatidagi faoliyati uning nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki tarixshunoslikka doir asarlari bilan ham belgilanadi. U ushbu fan taraqqiyotiga o'zining "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Tarixi muluki ajam" asarlari bilan ulkan hissa qo'shdi<sup>1</sup>. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" risolasi islom dini manbalariga asoslangan asar bo'lib, payg'ambarlar – rasul va nabiyalar hamda hakim zotlar, allomalar tarixiga bag'ishlangan.

Alisher Navoiyning turkiy xalqlar ma'naviy xazinasiga qo'shgan hissasi beqiyos. U zotning yaratgan shoh asarlari insoniyat ruhiy-ma'naviy dunyosi

---

<sup>1</sup> Akademik Aziz Qayumov bu asarlarni aslida umumiy tarix kitobining bo'laklari deb hisoblaydi. Olimning fikricha, Navoiy yashagan davrda tarixshunoslikda mavjud an'anaga ko'ra muayyan hukmdorning tarixini yozishdan avval payg'ambarlar tarixi, so'ngra 4 Ajam sulolalari tarixi, Islom davri tarixi, undan so'nggina zamon tarixiga o'tilar edi.

namoyandalari Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroziy, Dante, Vilyam Shekspir, Lev Tolstoylar ijod namunalari bilan bir safda turadi. Agar qiyoslasak, ba'zi o'rinlarda Alisher Navoiy asarlaridagi yuksak g'oyalar ifodasi "klassik" deya e'tirof etilgan ko'plab g'arb adiblarinikidan ko'ra ustunroq ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shu ma'noda mustaqil mamlakatimiz yoshlarini barkamol inson qilib tarbiyalashda hazrat Navoiy asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, Alisher Navoiy barchamizni ruhiy poklashga, ma'nan yuksaltirishga qodir bezavol ma'naviy qudratdir.

Istiqlolgacha bo'lgan davrda Alisher Navoiy ijodiga nisbatan tor ma'noda yoki siyosiy lashtirilib yondashilganligi bugun sir emas, albatta. Shoir asarlarining noto'g'ri talqinlari, uni dinga salbiy munosabatdagi shaxs sifatida tasvirlashga urinish, tadqiqotlarda Navoiyning ijodiy faoliyatidan ko'ra ijtimoiy va siyosiy ishlariga urg'uning qaratilganligi xalqimizning buyuk ma'naviy merosdan uzoq vaqt bebahra qolishiga sabab bo'ldi. Mustaqillik sharofati bilan alloma ijodkorning asarlari keng miqyosda o'rganila boshlandi. Hazrat Navoiy haqida biz bilmagan ko'plab haqiqatlar ro'yobga chiqdi, shoir asarlaridagi dunyoviy va ilohiy g'oyalar va badiiy mahoratga oid masalalar har tomonlama tadqiq qilishga kirishildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, mutafakkir shoirning ijodini o'rganish va his qilishga barchamiz ehtiyojmandmiz, demak, bu xayrli ishlarni kelajakda yana katta hafsala bilan davom ettirishimiz kerak.

Alisher Navoiy hayoti, navoiyshunoslikning shakllanishi, rivojlanishi va shoirning ijodiy merosi tahlil etilgan mavzular hamda shu mavzularni chizmalarda aks ettirgan ikki yirik qismni o'z ichiga oladi. Alisher Navoiy asarlari talqinlarida diniy va so'fiyona yondashuv, ayni paytda, turli yondashuvlarning mujassam, bir-birini inkor qilmagan holda olinishi alohida e'tiborga molik jihatlardandir. Alisher Navoiyning lirik merosi, xususan, shoirning forsiy she'riyati bilan bog'liq tahlillar, "Xamsa" tahlilida beshlikdagi har bir doston kirish va xotima qismlarining alohida ko'rib chiqilganligi, "Lisonu-ut-tayr" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari borasidagi qarashlar, Alisher Navoiyning yodnomalari, adabiyotshunoslik, tarix va tilshunoslikka, islom fiqhi va tasavvufga oid asarlari tahlili beqiyosdir.

Navoiy dahosining qudrati shunda kuzatiladiki, u o'zining amaliy-badiiy faoliyati bilan turli til, lahja va shevalarga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni umumlashtirdi, muayyan me'yorga solib, sayqallashtirdi. Shu tariqa, yagona adabiy tilga asos solib, uni yuqori cho'qqiga olib chiqdi<sup>2</sup>.

Nihoyat sharqshunos olim Y.E.Bertels Alisher Navoiy va Farididdin Attor dostonlarini qiyosiy o'rganish orqali ("Navoi i Attar") hazrat Navoiyning haqiqiy shoir ekanligini isbotlaydi. Shu tariqa Alisher Navoiy ijodini xorijda keng ilmiy ko'lamda xolis o'rganish ishlari boshlab yuboriladi<sup>3</sup>.

Nemis olimi A.Kurellaning "Buyuk shoirning qayta kashf qilinishi" nomli tadqiqoti g'arb navoiyshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tadqiqotdan so'ng G'arbda Navoiy shaxsiyati endi ikki yo'nalishda: ham buyuk ijodkor, ham davlat arbobi sifatida tadqiq qilina boshlandi. Inglizabon olimlardan M.Sabtelni, V.Feldmen, D.Devin, G.Dikning ilmiy izlanishlari va tarjima borasidagi faoliyatlari, Berlin shahrida Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan simpoziumning tashkil qilinishi va unda navoiyshunos olimlar va shoir asarlari tarjimonlari B.Haynkele, K.Shuning, Yu.Paul, E.Taube va boshqalarning turli mavzulardagi ma'ruzalari g'arb navoiyshunosligining tobora rivojlanib borayotganligidan dalolatdir<sup>4</sup>. Bularning barchasi bugungi globallashuv jarayonida Alisher Navoiy ijodi va shaxsiga butun dunyoda qiziqish va ehtiyojning ortib borayotganini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Хайитметов А. Темурийлар даври адабиёти. – Т.: Фан, 1996.
3. Алишер Навоий: 1441-1501 йил. Адабиётлар кўрсаткичи / Туз. З.Бердиева, А.Туропова. – Т., 1991.

<sup>2</sup> Дилнавоз Юсупова. Ўқув қўлланма. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). Тошкент – 2012

<sup>3</sup> Сирожиддинов Шухрат. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий- типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011.

<sup>4</sup> Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

---

NAVOIY ASARLARINING TURKIY LUG‘ATCHILIK  
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

*Normamatov Sultonboy Ermamatovich*

*ToshDO‘TAU professori, filologiya*

*fanlari doktori (DSc)*

***Annotasiya.** Maqolada Alisher Navoiy asarlarining o‘zbek leksikografiyasi taraqqiyotidagi ahamiyati, adib asarlari tili bo‘yicha yaratilgan lug‘atlarning leksikografik talqini yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** leksikografiya, lug‘at-grammatika, izohli lug‘at, konkordans lug‘at, illyustrativ material, lug‘atchilik tamoyillari, adabiy til.*

***Аннотация.** В статье освещается значение произведений Аlisher Navoiy в развитии узбекской лексикографии, а также рассматривается лексикографическая интерпретация словарей, созданных на основе языка произведений писателя.*

***Ключевые слова:** лексикография, словарь-грамматика, толковый словарь, конкордансный словарь, иллюстративный материал, принципы словарного дела, литературный язык.*

***Annotation.** The article highlights the significance of the works of Alisher Navoiy in the development of Uzbek lexicography and examines the lexicographic interpretation of dictionaries compiled on the basis of the language of the writer’s works.*

***Keywords:** lexicography, dictionary-grammar, explanatory dictionary, concordance dictionary, illustrative material, principles of lexicography, literary language.*

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyoti tarixida qanchalik katta mavqega sohib buyuk siymo bo‘lsa, o‘zbek adabiy tili tarixida ham shunchalik katta mavqe kasb etgan alloma dahodir. O‘zbek adabiyotining keyingi davr taraqqiyotini ta‘minlash uchun

dastlab o‘zbek tilini adabiy til darajasiga ko‘tarishni ilgari surgan Navoiy o‘z ijodi bilan adabiy til tarixida ham yangi bir davrni ochdi, adabiy til rivoji uchun ko‘p kurashdi. Butun umri davomida o‘zbek tilining adabiy til bo‘la olish imkoniyatiga ega ekanligini isbotlash uchun, birinchi navbatda, xalq tiliga, xalq so‘zining ma’nomunosabatiga jiddiy e’tibor qaratdi. Mutaffakkir shoir tilning imkoniyatidagi har ikki jihatdan (so‘zdagi zohiriy va botiniy ma’nolardan) ham san’atkorona foydalanib, o‘zbek adabiy tilida go‘zal badiiy, ilmiy asrlar yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Alisher Navoiy asarlari, ularning badiiy tili o‘zbek adabiyoti, adabiy tili rivojida qanchalik muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, turkiy lug‘atchilik, xususan, o‘zbek lug‘atchiligining tadrijiy takomili uchun ham muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy ijodiyotiga qiziqish shoir hayotligi davridayoq boshlangan edi. O‘sha davr tarixchilari, shoirlari qatorida tilshunos-lug‘atshunos olimlar ham uning ijodiga yuksak baho berishib, undan ijodiy foydalandilar va shoir asarlarini o‘rganuvchilar uchun maxsus lug‘atlar tuzdilar. Shuning asnosida, o‘zbek leksikografiyasida lingvistik lug‘atlarning yangicha turi, ya’ni “ma’lum bir yozuvchi yoki asar tilida qo‘llangan so‘zlarni izohlovchi maxsus lug‘atlar” tipi yuzaga keldi. Bu fikrni tasdiqlagan holda tilshunos olim A.Madvaliyev shunday deydi: “Bunday lug‘atlar tuzish o‘zbek leksikografiyasi tarixida XVI asrdan Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganish maqsadida boshlangan va XVI-XIX asrlar mobaynida turli hajmdagi 10 ga yaqin lug‘at yaratilgan” [1].

Demak, haqiqatan ham, o‘zbek leksikografiyasi tarixida bunday tipdagi lug‘atlarning yaratilishi Navoiy asarlari tilini o‘rganish ehtiyoji asosida yuzaga kelgan. Bu ehtiyoj, birinchidan, shoir asarlari tilini omma tushunishini ta’minlash sababli bo‘lsa, ikkinchidan, yaratilayotgan (alohida holda ajralib, yangi bir adabiy til sifatida shakllanayotgan) o‘zbek adabiy tilini himoya qilish, targ‘ib etish, mustaqil adabiy tilga ega bo‘lish maqomini belgilash maqsadida ham yuzaga kelgan edi. O‘sha davrda Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan birinchi lug‘at “Badoyi al-lug‘at”dir. Bu lug‘at prof.E.Umarovning ko‘rsatishicha, Husayn Bayqaro farmoniga binoan Toli Imoniy tomonidan taxminan 1500-yillarda yaratilgan[2]. Professor

Ergash Umarov o‘z risolasida Alisher Navoiy asarlari asosida yaratilgan “Lug‘ati Navoiy”, “Abushqa”, “Kelurnoma”, “Lug‘ati turkiy”, “Sangloh”, “Kitobi lug‘ati atrokiya” kabi lug‘atlar haqida ham keng ma’lumot berishga harakat qilgan. Shu narsa muhimki, Navoiyning nazmiy, nasriy, ilmiy asarlari matnidagi so‘zlar asosiy illyustrativ material bo‘lib xizmat qilgan bu tipdagi lug‘atlar, birinchidan, “izohli lug‘atlar” xarakterida bo‘lsa, ikkinchidan, tilni ilmiy jihatdan o‘rganishni ko‘proq nazarda tutgan lug‘atlar sanaladi. Boshqacha aytganda, bu lug‘atlarni Alisher Navoiy asarlarini tushunishni ta’minlash va yangi shakllanayotgan eski o‘zbek adabiy tilini targ‘ib qilish, uning o‘ziga xos jihatlarini ommaga singdirish xarakteriga, shakllanayotgan tilning takomillashuviga yordam berishga xizmat qilgan lug‘atlar, deyish mumkin.

Darhaqiqat, Navoiy asarlarini o‘rganish uchun yaratilgan bu kabi lug‘atlar nafaqat mutaffakkir shoir badiiy tilini o‘rganish va tushunish uchun, ayni paytda shoir asos solgan eski o‘zbek adabiy tilining grammatik qonun-qoidalarini o‘zlashtirish uchun ham muhim manba vazifasini o‘tagan. Chunki yuqorida ta’kidlanganidek, bu maqsadda yaratilgan lug‘atlarning aksariyatida Navoiy qo‘llagan so‘z va iboralarning shunchaki izohi berilmagan, balki mazkur birliklarga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlar ham til sathlari bo‘yicha tavsiflangan. Bu holat turkiy leksikografiyada “lug‘at-grammatika”larning takomillashishiga xizmat qilgan. Bular qatorida, lug‘atlarda Alisher Navoiy qo‘llagan so‘zlarning ma’no vazifalari va turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishning maqsad qilinishi va ma’lum darajada bunga erishilganligi, o‘z navbatida, o‘zbek leksikografiyasida “izohli lug‘at”lar yaratish tamoyillarining shakllanishi uchun ham zamin hozirlagan bo‘lsa, ajab emas.

Mazkur lug‘atlarning ta’siri o‘laroq o‘zbek leksikografiyasida keyingi davrlarda ham bu tipdagi lug‘atlarning yaratilishi keng tus oldi. Masalan, “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati” (1972), “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”. 1-4 jildlar. (1983-1984), “Qur’oni karim” so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha ko‘rsatkichli

lug‘ati” (B.Hasanov, 1995), “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati” (T.Mirzayev va b., 2007) kabilar.

Ta’kidlash o‘rinliki, bugungi kun o‘zbek leksikografiyasi fanining istiqbolida ham, ya’ni lug‘atlar va ularning yangi tipdagi shakllarini yaratish ishlarida ham Alisher Navoiy ijodi asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Navoiyning “Xamsa” dostonlari asosida jome’ lug‘at (konkordans lug‘at) va sanama so‘zlik tuzish ishlari yuzasidan bildirilgan quyidagi fikrlarga diqqat qilaylik: “Navoiy asarlari bo‘yicha shoir hayotligidayoq lug‘atlar tuzila boshlangan va hozirgi paytda ham bir qancha lug‘atlar mavjud va yana tuzilmoqda, lekin birontasi Navoiy asarlari so‘zligini to‘la qamrab olgan emas va uning ma’nolar olamini atroflicha talqin qila olgan emas. Shoirning barcha asarlari bo‘yicha jome’ lug‘at tuzilgandagina bu muammo hal bo‘ladi” [3].

O‘z-o‘zidan anglashiladiki, Alisher Navoiy ijodi nafaqat o‘zbek adabiyoti, o‘zbek adabiy tili rivoji uchun, ayni paytda, o‘zbek lug‘atchiligining tadrijiy takomili uchun ham o‘ziga xos tarzda xizmat qildi va qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мадвалиев А. Луғат ва луғат турлари ҳақида. – Ўзбек миллий лексикографиясининг долзарб масалалари мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари тўплами, ТошДЎТАУ. Тошкент- 2017 йил. –Б.37.
2. Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992 йил. –126 б.
3. Қуронбеков А. Навоийнинг “Хамса” дostonлари асосида жомеъ луғат ва санама сўзлик тузиш муаммолари. – Ўзбек миллий лексикографиясининг долзарб масалалари мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари тўплами, ТошДЎТАУ. Тошкент- 2017 йил. –Б.9.

---

**ALISHER NAVOIYNING KOMIL INSON TA'LIMOTI**

***Qosimov Nozim Kazimovich***

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi ilmiy  
ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,  
professor*

***Annotatsiya.*** Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning komil inson haqidagi ta'limoti, ma'naviy - axloqiy tamoyillari tadqiq qilingan.

***Kalit so'zlar:*** ma'naviyat, qadriyat, Navoiy, integratsiya, axloqiy tarbiya, ma'naviy muhit, jamiyat, komil inson.

***Аннотация.*** В данной статье исследуется учение великого мыслителя Алишера Навои о совершенном человеке, а также его духовно-нравственные принципы.

***Ключевые слова:*** духовность, ценности, Алишер Навои, интеграция, нравственное воспитание, духовная среда, общество, совершенный человек.

***Abstract.*** This article examines the teachings of the great thinker Alisher Navoi on the concept of the perfect human being, as well as his spiritual and moral principles.

***Keywords:*** spirituality, values, Alisher Navoi, integration, moral education, spiritual environment, society, perfect human being.

Jamiyatimizdagi bugungi yangilanish, rivojlanish va taraqqiyot jarayonida ma'naviyat va axloq tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Shaxsning ma'naviy yuksalishi va jamiyatning ma'naviy boyligini saqlash muhim qiymatga egadir. Mustaqil O'zbekiston o'zining buyuk kelajagini bilimli, dono, salohiyatli, mehnatsevar, yuksak ma'naviyatli, jismonan sog'lom avlodlar timsolida ko'radi. Bunday talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishini tarbiyalash davlatimizning ustuvor vazifalaridan sanaladi. Buning uchun esa yoshlarni qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqni, ma'naviyat tushunchalarini yanada aniq, izchil tanishtirish, yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa

maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yangicha yondashuvlardan biri – zamonaviy komil inson, an’anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan, axloqiy fazilatlarni o‘z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo‘lmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Birinchi navbatda, yoshlarning ongu-tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim” [1;302].

Ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddatli rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida yangiliklar yaratish, mavjud nazariya va g‘oyalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Asrlar davomida jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim – tarbiya tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Shu sababli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, yangilanishlarga muvofiq ravishda ta’lim-tarbiya mazmuni ham takomillashib borishi lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonida integratsiyalashgan tarbiya va ta’limning ustuvor o‘rin egallashi jamiyat va ta’lim-tarbiya o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikni qaror toptiradi.

Ma’naviyatning axloqiy mezonlari muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma’noda milliy muhit ularning yanada rivojlanishiga ko‘mak beradi, jamiyat a’zolari bundan o‘zlariga kerakli fazilatlarni oladi. Aynan shu belgilar kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ulardagi mushtaraklikni namoyon etadi. Ma’naviyatning axloqiy mezonlarini axloq, odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlar tashkil etadi. “Ma’naviyat” lug‘atida unga quyidagicha izoh berilgan:

“Ma’naviyat (arab. ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan yonmayon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa; ilmiy-falsafiy tushuncha. Shu bilan birga o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no-mazmuni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma’rifatli

inson o'zining hayotiy qarashlari, shaxsiy e'tiqodi, ongu tafakkuri va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif berishi mumkin." [3;345].

Jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi mezon va tamoyillarni qomusiy olimlarimiz yaratgan asarlar orqali o'rganamiz. Ular tomonidan yaratilgan axloqiy fazilatlarni o'z hayotimizga singdirib boramiz. Ajdodlarimiz qoldirgan meros bugungi kunda yoshlarning mukammal tarbiya jarayoniga ham o'z hissasini qo'shmoqda. Ilm-u ma'rifat ma'naviy qaramlikni yo'q qiluvchi vositadir. U insonga kuch, bilim va yuksak salohiyat baxsh etadi.

Axloq tushunchasi juda qadim zamonlardan beri o'z dolzarbligini va ahamiyatini yo'qotmagan. Axloqiy tafakkur ilk bor Qadimgi Sharqda vujudga kelganligi, Shumer, Qadimgi Misr, Qadimgi Turon-Eron va Qadimgi Hindistonda dastlabki axloqiy g'oyalarning paydo bo'lganligi ta'kidlanadi. Qadimgi Yunon va Qadimgi Rim mutafakkirlari yaratgan axloq nazariyalariga, O'rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida ilgari surilgan axloqiy qarashlarga, Temuriylar davridagi axloq va axloqiy fazilatlarga alohida e'tibor berilgan. Ayni paytda yangi va eng yangi davr axloq falsafasi, Sharq va g'arb axloqiy nazariyalarining o'zaro aloqalari hamda bir-biriga ta'siri, olamning umumbashariy axloqiy qadriyatlarining qaror topishida muhim ahamiyat kasb etganligi to'g'risidagi fikrlarga, ilmiy xulosalarga keng o'rin berilgan. Shuningdek, Turkiston ma'rifatchi — jadidlari qarashlari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mutafakkir Mir Alisher Navoiyning buyuk davlat arbobi sifatida amalga oshirgan insonparvarlik va bunyodkorlik ishlari hamon dunyo olimlarini hayratga soladi. Ayniqsa, ulug' shoirning komil inson haqidagi qarashlari doimo asosli, xalqchil va nihoyatda teran ahamiyati bilan yangi ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo'ladi.

Ulug' shoir inson jamiyatga naf keltirishi, boshqalarga ziyon etkazmasligi, foydali ishlari bilan qadrlil va fazilatli deb hisoblaydi. Muhtaram Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Alisher Navoiy bobomizning "Odamiy ersang demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami" degan satrlarida qanchalik chuqur

hayotiy hikmat, falsafa bor. Ya'ni, bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb ta'kidlamoqda ulug' bobomiz" [2;13]. Barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazish aynan mana shu tizim asosida ro'yobga chiqariladi. Shu bois ta'lim tizimida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya rivojiga uyg'un ravishda ta'lim – tarbiya mazmunini yangilab borish muhim talablardan biridir. Mustaqillikdan so'ng o'tgan vaqt mobaynida ushbu talabni inobatga olish orqali ta'lim-tarbiya mazmuniga integratsion g'oyalarni singdirishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi.

Tarix saboqlari insonning irodasini sinaydi va chiniqtiradi. Alisher Navoiy umrini xalqni ma'rifatli qilishga bag'ishlagan ulug' donishmand sifatida adolat, diyonat va imon-e'tiqodning kuchiga ishonadi, eng og'ir, eng murakkab sharoitlarda ham hukmdorlarni adolatli bo'lishga chaqiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod ulug' shoirning komillik tarbiyasi haqidagi qarashlarini qanchalik chuqur va puxta bilsa, jamiyatda o'zining mustaqil o'rnini topishi shunchalik oson kechadi. Uning barcha asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida o'rin berilgan. U umr bo'yi butun dunyoda tenglik, adolat, imon, mehr-oqibat, tafakkur va ma'rifat hukm surishini orzu qildi. Farzandni oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyo, "hayot chirog'i" deb ta'riflaydi, bola tarbiyasi va uni shaxs sifatida shakllantirish masalasini jamiyatning muhim muammosi deb biladi.

Professor Ibrohim Haqqulning fikricha, "Alisher Navoiyning buyukligini bilmaslik o'zbek millatining madaniyati tarixi, milliy-ma'naviy kuch-quvvati va jahon badiiy tafakkuriga qo'shgan buyuk hissasini anglamaslik bilan barobar. Alisher Navoiyning ulug' siymosi ul zotning ruhoniyyati, benazir shaxsiyati va so'zni san'at darajasiga ko'targan ijodkor ekanligi bilan belgilanadi. Uning shu zamonda - yangi asrda ham zamonaviy shoir sifatida yodga olinayotgani behikmat bo'lmas kerak" [4;159].

Darhaqiqat, Navoiy asarlaridagi halollik va pokdomonlik mohiyati, milliy o'zlik tuyg'usi va falsafiy tushunchalar yangi asrda ham mudom insoniyatni

ogohlikka chorlamoqda. Allomaning inson haqidagi diniy-ilohiy qarashlari islomiy tamoyillar ta'sirida shakllangan. U insoniyatni komillik saodati sari chorlar ekan, uning ma'naviyati, tafakkuri, odobi va axloqiy go'zalligiga alohida e'tibor beradi. Hazrat Navoiy iymonli bo'lishni insoniylikning eng birinchi va eng asosiy belgisi deb biladi.

Iymon – faqat insonning vujudini emas, balki ruhini, ko'nglini ham poklaydi. Inson o'zini va o'zligini iymon orqali anglaydi, iymon orqali yetuk ma'rifatga erishadi. Komillik – iymonga sadoqatda, iymon-e'tiqod mustahkamligida yuzaga chiqadi. Shoirning fikricha, insonning ota-onasiga, atrofidagi odamlarga munosabatida uning iymon-e'tiqodi, jamiyatga munosabati, o'zligi, axloqiy go'zalligi namoyon bo'ladi:

Boshni fido ayla, ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa, ano boshiga.  
Bo'lsun adab birla bori xizimating,  
Ham qil adab "dol"i kibi qomating.

“Hayratul - abror” dostonidan olingan mazkur parchada ota-ona xizmatini muhabbat bilan ado etish insonning burchi ekanligi ta'kidlanayapti. Shoir ota-onadan keyin aka-uka va opa-singillarga oqibatli bo'lish borasida ham to'xtalib o'tgan. Uning nazdida o'z yaqinlariga rahmdil bo'lmagan odam boshqalarga ham mehr-shafqat ko'rsata olmaydi. Ulug'larga xizmat, kichiklarga shafqatli bo'lish yuksak ma'naviyat belgisi ekanligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, yoshlar kamolotida ilmga intilish tuyg'usi, tarix ilmini egallash istagi, eng samarali tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash

layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni mustaqil O'zbekiston hayotida ustuvor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin.

Ilm-fanga, ta'lim-tarbiyaga, odob-axloqqa e'tibor tufayli yoshlar ma'naviyatli va ma'rifatli yetuk inson bo'lib yetishishlari shubhasiz. Bugungi ochiq va oshkora, demokratik rivojlanish yo'lidan borayotgan yurtimizda har bir insonning vatanparvarligi muhimdir. Vatanparvarlik, sadoqatlilik, fidoyilik kabi oliy qadriyatlar orqali vatan taraqqiyoti va farovonligi uchun hissa qo'shish o'sib kelayotgan yosh avlodning insoniy burchidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti., 2021.
2. Mirziyoev Sh. Ajdodlar faxrimiz. Yoshlarga donolar o'g'iti. T.: g'ofur g'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar lug'ati. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti., 2021.
4. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007.
5. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. - T.: O'zbekiston, 2001.

## **ALISHER NAVOIY ASARLARINING TEATR SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI**

*Baxtiyor Amanbayev,  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat  
universiteti katta o'qituvchisi  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining teatr san'atida tutgan o'rni, ularning sahnaviy, dramatik va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, dramatik spektakllar, opera, balet va musiqali sahna asarlarini yaratish esa o'zbek teatr san'atida qulaylik yaratilganlik asoslari yoritilgan. Alisher Navoiy asarlari teatr san'ati uchun g'oyaviy-ma'naviy manba, dramatik va sahnaviy material, aktyorlik

va rejissura mahoratini shakllantiruvchi asos sifatida xizmat qilishiga e'tibor qaratilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается место произведений Алишера Навои в театральном искусстве, их сценическое, драматическое и образовательное значения, а также основы создания драматических спектаклей, опер, балетов и музыкальных сценических произведений в узбекском театральном искусстве. Обращается внимание на то, что произведения Алишера Навои служат идеологическим и духовным источником для театрального искусства, драматического и сценического материала, а также основой для формирования актерского и режиссерского мастерства.

**Annotation.** This article examines the place of Alisher Navoi's works in theatrical art, their scenic, dramatic, and educational significance, and the foundations for the creation of dramatic performances, opera, ballet, and musical stage works in Uzbek theatrical art. Attention is drawn to the fact that Alisher Navoi's works serve as an ideological and spiritual source for theatrical art, dramatic and scenic material, and the basis for shaping acting and directing skills.

**Kalit so'zlar:** adabiy meros, aktyorlik san'ati, teatr san'ati, ijrochilik mahorati, musiqa, konflikt, dramatik spektakl, opera, balet, nafosat, vafo, ma'naviy poklik, ruhiy holat, sahnaviy harakat va obraz.

**Ключевые слова:** литературное наследие, актерское мастерство, театр, исполнительское искусство, музыка, конфликт, драматическое представление, опера, балет, солнечность, верность, духовная чистота, душевное состояние, сценическое действие и образ.

**Key words:** literary heritage, acting, theatre, performing arts, music, conflict, dramatic performance, opera, ballet, sunshine, fidelity, spiritual purity, state of mind, stage action and image.

O'zbek milliy madaniyati va san'ati taraqqiyotida Alisher Navoiy ijodi alohida o'rin tutadi. Uning adabiy merosi nafaqat adabiyotshunoslik, balki teatr, musiqa,

xoreografiya va aktyorlik san'ati uchun ham muhim manba hisoblanadi. Navoiy asarlari inson ma'naviyati, axloqiy kamolot va estetik ideallarni yuksak badiiy darajada ifoda etgani bilan teatr san'ati rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Alisher Navoiy asarlari bevosita dramatik janrda yozilmagan bo'lsa-da, ularda teatr san'ati uchun xos bo'lgan barcha muhim unsurlar mavjud bo'lib kuchli konflikt, xarakterlar to'qnashuvi, ichki va tashqi dramatism, sahnaviy harakatga boy epizodlar bilan boyitilganligini ko'ramiz. Navoiy inson ruhiyatini chuqur tahlil qilgan ijodkor sifatida teatrning asosiy vazifalaridan bo'lgan inson qalbini ochish, uni ma'naviy yuksaltirish g'oyasiga xizmat qilgan.

Navoiyning "Xamsa"si teatr san'ati uchun eng boy manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa: "Farhod va Shirin" - fidoyilik, mehnat va muhabbat fojiasi, "Layli va Majnun" - pok muhabbat va ruhiy iztirob dramasi, "Sab'ai sayyor" - hayot, axloq va taqdir mavzularini qamrab olgan asar, "Saddi Iskandariy" - adolatli hukmdor g'oyasini ilgari surgan falsafiy dostonlardir. Ushbu asarlar dramatik spektakl, opera, balet va musiqali sahna asarlarini yaratish uchun qulayligi bilan birga ularda syujet rivoji, obrazlar o'rtasidagi ziddiyat va fojiviy yakun teatr tomoshabiniga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Navoiy qahramonlari murakkab ichki kechinmalarga ega bo'lib, aktyordan yuksak psixologik mahorat talab etadi. Masalan Majnun obrazi - ichki iztirob va ruhiy ozodlik ramzi, Farhod obrazi - mehnat, matonat va muhabbat timsoli, Shirin va Layli obrazlari - nafosat, vafo va ma'naviy poklik namunasi. Bu obrazlar aktyorga ichki holatni his etish, sahnaviy nutq va plastikadan foydalanish, psixologik tahlil orqali obraz yaratish imkonini beradi.

Bugungi kunda Navoiy asarlari asosida dramatik spektakllar, opera va balet asarlari, plastik va eksperimental sahna ishlari yaratilmoqda. Rejissyorlar Navoiy g'oyalarini zamonaviy sahna tilida talqin qilib, milliy va jahon teatr an'alarini uyg'unlashtirishga erishmoqdalar.

Alisher Navoiy ijodi o'zbek milliy madaniyati va teatr san'atining ma'naviy-estetik poydevorini tashkil etadi. Uning asarlaridagi yuksak insoniy g'oyalar,

falsafiy mushohadalar, muhabbat va adolat masalalari o‘zbek teatr rejissyorlari uchun doimo ilhom manbai bo‘lib kelgan. Shu bois Navoiy asarlari sahna talqinida turli davr rejissyorlarining ijodiy qarashlari, uslubiy yondashuvlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbek teatri tarixida Navoiy asarlariga murojaat qilgan rejissyorlar turli uslub va estetik qarashlarda ish olib borganlar. Ayrim rejissyorlar Navoiy asarlarini an’anaviy sahna qoidalari asosida, she’riy matnni saqlagan holda qo‘yishga intilgan. Bu yo‘nalishda obrazning nutqiy ifodasi va aktyor mahorati asosiy o‘rin tutgan. Zamonaviy rejissyorlar Navoiy g‘oyalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri syujet emas, balki ramz, harakat, sahnaviy plastika orqali ochishga harakat qilganlar. Bunda she’riy matn qisqartirilib, ma’no harakat va obraz orqali berilgan.

Musiq va xoreografiyaga tayanib sahnalashtirilgan asarlari, ayniqsa “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” mavzularidagi sahna asarlarida rejissyorlar musiq, raqs va plastik ifodani asosiy vosita sifatida qo‘llaganlar. Bu Navoiy asarlarining lirik tabiatiga mos keladi.

O‘zbek teatr san’ati taraqqiyotida Baxodir Yo‘ldoshev nomi alohida o‘rin tutadi. U milliy rejissura maktabini yangi bosqichga ko‘targan, sahna tilini ramziy, falsafiy va plastik ifoda bilan boyitgan ijodkor sifatida tanilgan. Baxodir Yo‘ldoshev ijodida Alisher Navoiy asarlariga murojaat tasodifiy emas, balki chuqur ma’naviy va estetik ehtiyoj natijasidir. Rejissyor Navoiy asarlariga murojaat etar ekan matndan ko‘ra ma’noga, voqeadan ko‘ra ruhiy holatga, so‘zdan ko‘ra harakat va sukunatga tayanadi. Bu yondashuv Navoiy poetikasi bilan mutanosibdir.

Baxodir Yo‘ldoshev Navoiy qahramonlarini oddiy adabiy personaj sifatida emas, balki umuminsoniy ramz sifatida talqin qiladi. Rejissyor Navoiy asarlariga murojaat qilish orqali milliy tafakkurni sahnaga olib chiqadi, zamonaviy tomoshabin bilan klassik adabiyot o‘rtasida ko‘prik yaratadi, teatrni faqat ko‘ngilochar emas, balki tafakkur san’ati sifatida namoyon qiladi. Baxodir Yo‘ldoshev talqinida Navoiy asarlari zamonaviy teatr tilida qayta tug‘iladi, milliy

rejissura maktabining yuksak namunasiga aylanadi hamda yosh rejissyorlar va aktyorlar uchun ijodiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

“Layli va Majnun” - bu Alisher Navoiyning mashhur dostoni asosida yaratilgan musiqali dramadir. Dastlabki libretto va musiqali shakllar turli bastakorlar, dramaturglar tomonidan bir necha marotaba qayta ishlanib, teatrlarimiz sahnalarida yuksak mahorat bilan namoyish etilgan.

Muqimiy nomidagi o‘zbek dalat musiqali drama teatrida O‘zbekiston xalq artisti Baxtiyor Ixtiyorov tomonidan sahnalashtirilgan “Layli va Majnun” musiqali dramasi o‘tgan asrning 80-yillaridagi eng tomoshabop sahna asarlaridan biri bo‘lgan. Ustozimiz spektaklga o‘zlari rahbarlik qilayotgan talabalarni asosiy rollarga taklif qiladi va Layli obrazini bugungi kunda Muqimiy nomidagi o‘zbek dalat akademik musiqali drama teatrida faoliyat olib orayotgan O‘zbekiston xalq artisti Mehri Bekchanovaga ishonib topshiradi, albatta bu spektakl muvaffaqiyatga erishadi va tomoshabinlar tomonidan juda yaxshi qabul qilinadi.

“Layli va Majnun” nafakat sahna asari, balki sharqning klassik muhabbat dostoni hamdir. Ushbu asar Xorazm viloyati musiqali drama teatrida 1991-yilda teatrning bosh rejissyori O‘zbekiston san’at arbobi Ibodulla Niyozmetov tomonidan sahnalashtirilgan. “Layli va Majnun” musiqali dramasi Xorazm teatri sahnasida beshinchi bor sahnalashtirilgan bo‘lib unga Navoiy obrazining kiritilganligi asarning yanada muvaffaqiyatli bo‘lishiga olib keldi. Navoiy obrazini O‘zbekiston xalq artisti San’at Devonov mahorat bilan ijro qilgan.

Olib qo‘lg‘a qalam qissalar bitmakni jazm etdim,

Bahra topsin deya ellar turkcha Hamsa nazm etdim.

Layli Majnun bir qissaki zamonida yagona,

Ikki qalbning o‘tlug‘ dardi larza solmish jahona

O‘zbek teatri rejissyorlarining Alisher Navoiy asarlariga murojati tasodifiy emas. Bu murojaat milliy teatr san’atining ildizlari, ma’naviy qadriyatlari va estetik kamoloti bilan bog‘liq. Har bir yangi sahna talqini Navoiy ijodining zamon bilan hamnafas ekanini, uning g‘oyalari hanuz dolzarbligi bilan ajralib turadi. Alisher

Navoiy asarlarida inson qalbi, ishq, vafo, adolat va komillik g'oyalari markaziy o'rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Fan nashriyoti, 2006.
3. Toshpo'lat Tursunov. Sahna va zamon. Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2007
4. Baxtiyor Amanbaev Teatr fidoyilar maskani “Ogahiy” nashriyoti Urganch-2023

## ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING XORAZM QO'SHIQCHILIK SAN'ATIDAGI O'RNI

*Amanbayeva Munavarxan Rustamovna*  
*O'zbekiston davlat xoreografiya*  
*akademiyasi Urganch filiali*  
*Xoreografiya fakulteti dekani*

“Vatanimizda musiqaning taraqqiyoti adabiyot rivoji, xususan she'riyat ravnaqi bilan bog'liq, she'riyat va musiqa bamisoli bir ota-onadan tug'ilgan egizaklardir”.

*Akademik Matyoqub Qo'shchanov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk mutafakkir shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy ijodining Xorazm vohasi musiqa madaniyati, xususan, maqom va suvora yo'nalishlariga ta'siri tadqiq etiladi. Navoiy g'azallarining kuyga solinishidagi o'ziga xos mahalliy xususiyatlar,

xorazmcha ijro uslublari va she'riy matn bilan musiqiy ohangning uyg'unligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Xorazm qo'shiqchilik san'ati, Xorazm maqomlari, Suvora, musiqiy talqin, Navoiy va Maqom, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, ijrochilik mahorati.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается влияние творчества Алишера Навои, крупного представителя узбекской классической литературы, на музыкальную культуру Хорезмского оазиса, в частности, направлений маком и сувора. Анализируются специфические местные особенности музыкального оформления газелей Навои, хорезмские исполнительские стили, а также гармония поэтического текста и музыкальной мелодии.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, хорезмийское певческое искусство, хорезмийские макомы, Сувора, музыкальная интерпретация, Навои и маком Ходжихон Болтаев, Комилджон Отаниезов, исполнительское мастерство.

**Abstract:** This article examines the influence of the work of Alisher Navoi, a major representative of Uzbek classical literature, on the musical culture of the Khorezm oasis, in particular the maqom and suvora directions. The specific local features of the setting of Navoi's ghazals to music, Khorezmian performance styles, and the harmony of poetic text and musical melody are analyzed.

**Keywords:** Alisher Navoi, Khorezm singing art, Khorezm maqoms, Suvora, musical interpretation, Navoi and Maqom, Hojikhon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, performing skills.

Xorazm azal-azaldan ilm ma'rifat, madaniyat va san'at o'chog'i hisoblanadi. Xorazm maqom qo'shiqchiligi maktabi qadimdan mavjudligini barcha san'at ahli yaxshi biladi. Xorazm vohasi o'zining boy musiqiy merosi, "Xorazm maqomlari" bilan mashhur. Ayniqsa, Alisher Navoiy g'azallarini kuyga solib, xalq qalbiga yetkazishda Xorazmlik san'atkorlarning o'rni beqiyos.

Xorazm ijrochiligida Navoiyning ijodiy merosi alohida o'rin tutadi. Xorazmda Navoiy ijodiga bo'lgan e'tibor juda qadimiy ildizlarga ega va buning bir necha

sabablari bor. Ya'ni Xorazm "Panjgoh", "Dugoh", "Segoh" kabi maqom yo'llarida asosan Navoiy g'azallaridan matn sifatida foydalaniladi. Xorazmlik go'yandalar g'azalni shunchaki kuylamay, uning ma'nosini tinglovchiga tushuntirib berish darajasida ijro qilishgan. Navoiyning "Sab'ai sayyor" va "Layli va Majnun" dostonlaridan olingan parchalar Xorazm suvorolari va maqomlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xorazm maqom san'atining rivojida buyuk san'atkorlardan Xojixon Boltayev, O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, Xorazm mumtoz va zamonaviy ijrochilik maktabining asoschisi Komiljon Otaniyozov, Ro'zmat Jumaniyazov, Sharif Sultonov, Ozod Ibragimov, o'rinboy Otajonov, Matnazar Xudoynazarov, Otajon Xudoyshukurov va Ortiq Otajonovlarning xizmatlari beqiyos. [1. 15-16 bet] [Hasan Karimov "Hofiz ijodkorlar baxti"]

Alisher Navoiy nafaqat mumtoz adabiyotimiz cho'qqisi, balki o'zbek mumtoz musiqasi, xususan ma'anaviyat merosi hisoblanadi. Navoiy g'azallari va Xorazm ohanglari o'rtasidagi bog'liqlik shunchaki matn va kuy hamohangligi emas, balki asrlar davomida sayqallangan falsafiy va estetik butunlikdir.

Xorazm qo'shiqchilik san'atining shakllanish jarayonida Navoiy she'riyati asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Xorazm qo'shiqchilik san'ati tarixiga nazar soladigan bo'lsak, Xiva xonligi davrida saroy adabiy muxiti va xalfa ansambllari Navoiy g'azallarini kuyga solish orqali maqomlarning "Shashmaqom"dan farqli o'laroq, o'ziga xos Xorazmcha uslubini yaratganlar. Navoiyning ishqiy-falsaviy g'azallari maqomlarning dardli va salobatli ohanglari bilan uyg'unlashib ketgan.

Xorazm xotin-qizlar musiqiy madaniyatida, Xalfachilikda ham Navoiy g'azallari alohida o'rin tutadi. Ular doston va maqom yo'llarini ijro etganda Navoiyning lirik qahramoni kechinmalarini o'ziga xos, ayollarga mos mayinlik bilan kuylaganlar. Bu esa Navoiy ijodining nafaqat saroy muhitida, balki keng xalq ommasi orasida ham musiqiy meros bo'lib qolishiga sabab bo'lgan.

Navoiy ijodining Xorazm qo'shiqchilik san'atidagi o'rniga to'xtalar ekanmiz, Xorazmning yurtsevar, san'atsevar farzandi, Xorazm mumtoz ashulachilik

san'atining chinakam sohibqironi, Hojixon Boltayev (1900–1975) haqida to'xtalib o'tish ayni muddaodir. U kishi nafaqat hofiz, balki Xorazm musiqa merosini ilmiy va amaliy jihatdan saqlab qolgan kamyob san'atkorlardan biri bo'lgan.

Hojixon Boltayev Xiva xonligi davrida voyaga yetgan va o'sha davrning eng buyuk ustozlari - Matpano ota Xudoyberganov va Qurbon bobo Ismoilovlardan ta'lim olgan.

U kishining ovozi juda baland, shirali va dramatik kuchga ega bo'lgan. Hojixon Boltayev Xorazm ijrochiligining eng murakkab yo'nalishi - «Shayx» uslubining mohir ijrochisi bo'lgan. Maqomdonlikda esa «Xorazm maqomlari»ni, ayniqsa, «Panjgoh» va «Dugoh» maqomlarini mukammal bilgan va ularning eng qiyin qismlarini bexato ijro etgan buyuk xofizdir. Hojixon Boltayev qo'shiq ijro etganda hatto asbob chalishni to'xtatib, faqat ovozning o'zi bilan butun boshli zalni sehrlab qo'ya olgan. U kishining “nolish” (ovozni titratib ijro etish) san'ati hozirgacha Xorazm ashulachilik maktabida eng yuqori mezon hisoblanadi.

Hojixon Boltayev Alisher Navoiy ijodiga o'zgacha yondoshgan ustazoda hofiz.

Hojixon Boltayev Navoiy g'azallarini shunchaki kuylamagan, balki ularni “tafsir”, ya'ni sharh qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

“Charxning men ko'rmagan javru jafosi qoldimu” misrasi bilan boshlanadigan Navoiyning ushbu g'azalini maqom yo'lida shunday ijro etganki, undagi insoniy dard va taqdir oldidagi ojizlik ohang orqali tinglovchining qalbini larzaga soladi. Suvora yo'nalishida Xorazmning mashhur “Savti suvora”larini Navoiy so'zlari bilan kuylab, ularni akademik darajaga olib chiqqan.

Hojixon Boltayevning eng katta xizmatlaridan biri- Xorazm maqomlarining notaga tushirilishida va kelajak avlodga sof holda yetib kelishida bosh-qosh bo'lganligidir. 1950-yillarda ustoz san'atkorlar bilan birgalikda maqomlarni yozib olishda bevosita ishtirok etgan.

Xorazm qo'shiqchilik san'atining maqomdon hofizi, Xorazm maqom yo'llarining yana bir bilimdoni Otajon Xo'jayev (1910–1972). Otajon Xo'jayev

Navoiy g‘azallarini ko‘proq klassik maqom yo‘nalishida, vazn va ohang mutanosibligini saqlagan holda kuylagan. U «Xorazm maqomlari» turkumidagi Navoiy so‘zi bilan aytiladigan ko‘plab “Tarona” va “Savt”larni mahorat bilan ijro etgan.

O‘zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, buyuq san’atkor Hojixon Boltayevni o‘ziga ustoz deb bilgan va ko‘p bor duosini olgan, Xorazm klassik va zamonaviy ijrochilik maktabining asoschisi, “Xorazm bulbuli” deb e‘zozlangan ustoz san’atkor Komiljon Otaniyozov Navoiyning “o‘ynar” g‘azaliga musiqa bastalab, mohirona ijro etgan. U kishining ovozidagi shira va qudrat Navoiy g‘azallarining falsafiy mazmunini ochib berishga xizmat qilgan.

Ustazoda hofiz Navoiyning “So‘rma”, “Ko‘rgali keldim”, “Ko‘zing na balo qaro bo‘libdur” kabi g‘azallarini juda yuksak mahorat bilan ijro etgan. Uning ijrosidagi qo‘shiqlar hanuzgacha “oltin fond”da saqlanadi.

Xorazm san‘atining “sultoni” Komiljon Otaniyozov ijrosidagi eng mashhur va falsafiy asarlardan biri - Alisher Navoiyning “So‘rma” g‘azali nafaqat Xorazmda, balki butun o‘zbek musiqa san‘atida Navoiy va hofiz hamnafasligining eng oliy namunasi hisoblanadi.

Komiljon Otaniyozov talqinidagi “So‘rma” g‘azali Navoiyning ishqiy-falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Komiljon Otaniyozov bu g‘azalni shunday mahorat bilan kuylaganki, har bir so‘z tinglovchining qalbiga kirib boradi.

Dard ila qolmish ko‘ngil, holin maning mahzundin so‘rma,

Beqaror o‘lmish ko‘ngil, sharhin maning majnundin so‘rma.

Qo‘shiqning o‘ziga xosligi shundaki, qo‘shiq an’anaviy Xorazm yo‘nalishida, vazmin va mahobatli ijro etilgan. Hofiz bu yerda oshiqning ichki iztirobini “dard” va “beqarorlik” orqali yuksak pardalarda ifodalab beradi. Komiljon Otaniyozovning o‘ziga xos “ijrosi” Navoiy she‘riyatidagi ohu-zorni tiriltirgandek tuyuladi.

Navoiy gʻalllarining maftunkorligi shundaki, ijodkor (bastakor yoki xonanda) uni oʻqiyotgan chogʻidayoq ilohiy musiqiy ohang sheʻr bilan yoʻgʻrilib qalbgʻa joylasha boshlaydi.

Oʻzbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpogʻiston xalq artisti Bobomurod Hamdamov (1940–2024) oʻziga xos ijro uslubiga ega boʻlgan buyuk ustoz sanʻatkor, xonanda. U Navoiy gʻazallarini ham klassik, ham xalqchil ohanglarda kuylagan. Uning ovozidagi dard va hazinlik Navoiyning ishqiy gʻazallariga juda mos tushgan. Uning mashhur qoʻshiqlari Navoiyning “Qoshing yosimu deyin” va boshqa koʻplab mashhur gʻazallarini xalq orasida ommalashtirgan.

Xorazm qoʻshiqchilik sanʻatida Alisher Navoiyning eng mashhur gʻazallaridan biri “oʻxshamas” gʻazalidir. Bu gʻazalning soʻzlari sodda, samimiy, ravon yozilganligi uchun ham koʻpgina sheʻr, gʻazalsevarlar yod olganligi hammaga maʼlum. Bu gʻazal bilan kuylangan “oʻxshamas” ashulasi sanʻatsevarlar qalbidan allaqachon chuqur oʻrin olib ulgurgan. Gʻazalga avvalom bor diltor kuy bastalagan oʻzbekiston va Turkmaniston xalq artisti Otajon Xudoyshukurovdir. Bu ashulani Otajon Xudoyshukurov maromiga yetkazib kuylaganki, bugungi kunda bu qoʻshiq Xorazm sanʻatining “Oltin” fondiga aylangan.

Koʻnglim ichra dardu gʻam avvalgilarga oʻxshamas,

Kim ul oyu hajri ham avvalgilarga oʻxshamas.

Ne sitamki qilsa rahmi oʻzga ermasdin uza,

Endi qilsa har sitam avvalgilarga oʻxshamas.

Ishq aro Farhod ilan Majunga oʻxshatmang mani.

Kim bu rasvoi dajam avvalgilarga oʻxshamas.

Ey, Navoiy, qilma Jamshidu Feridun vasfi kim,

Shohi gʻoziyga karam avvalgilarga oʻxshamas.

Alisher Navoiyning ushbu gʻazaliga Oʻzbekiston xalq shoiri Omon Matchon muhammas bogʻlagan. Bu qoʻshiq ham bugungi kunda nafaqat Xorazm sanʻatkorlari balki, butun Oʻzbekistonning boshqa hududlaridagi sanʻatkorlar

tomonidan sevib kuylanib kelinmoqda. Ustazoda san'atkorning bugungi kunda Xorazm maqom san'atini e'zozlab, borligicha saqlab, rivojlantirib, kelgusi avlodga bus-butunligicha yetkazish usun o'z hissasini qo'shayotgan shogirdlari, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artistlari aka-uka g'ofurjon va Gulomjon Eshchonovlar buyuk ustozlarning san'at yo'llarini, ijodiy meroslarini, maqom qo'shiqlarini ma'romiga yetkazib ijro qilib kelmoqdalar.

Xorazm elining suyuq farzandi, xushnafas xofizi O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti. Komiljon Otaniyozov maktabining munosib davomchisi O'zbekiston xalq artisti Ortiq Otajonov Navoiyning nafaqat lirik g'azallarini, balki ijtimoiy va falsafiy ruhdagi asarlarini ham jo'shqinlik bilan kuylagan. Uning ijrosidagi Navoiy g'azallari o'zining jozibasi va zamonaviy musiqiy ishlovlari bilan alhida ajralib turadi.

Xorazm qo'shiqchilik maktabining eng zabardast vakillaridan biri Ortiq Otajonov Alisher Navoiy ijodiga juda ehtiyotkorlik va yuksak did bilan yondashgan. Uning repertuarida Navoiy g'azallari nafaqat klassik yo'nalishda, balki o'ziga xos jo'shqin ohanglarda ham ijro etilgan.

Ortiq Otajonov tomonidan Navoiy g'azallari asosidagi "Ko'zing ne balo qora bo'libdur", "Munojot", "La'ling ne ajab", "Orazin yopqoch", "Topmadim", kabi muhammas va g'azallarni ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqib, baland va sho'x pardalarda ham, past va mushohadakor ohanglarda ham birdek mahorat bilan ijro etgan. Ayniqsa Navoiyning intizorlik va hijron mavzusidagi g'azali "Munojot" g'azali bilan aytilgan qo'shig'ida Ortiq Otajonov Xorazm suvoralariga xos bo'lgan nolalarni ishlatgan.

Uning ijrosida tor va doiraning o'rni katta bo'lib, Navoiy so'zlarining vazni musiqa bilan juda aniq birlashganligini ko'ramiz.

Xorazm qo'shiqchilik san'atining zamonaviy davrdagi eng yorqin vakillaridan yana biri dovudiy ovoz sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist va mohir sozanda Rahmatjon Qurbonov. U Komiljon Otaniyozov an'alarini davom ettirib,

voha san'atini yangi bosqichga olib chiqqan ijodkorlardan hisoblanadi. Uning o'ziga hos ijrochilik uslubi va maktabi bor.

Rahmatjon Qurbonov nafaqat xonanda, balki mohir sozanda (torchi) sifatida ham tanilgan.

Uning ovozi juda keng diapazonga ega bo'lib, Xorazmning baland pardali ashulalarini ham, murakkab maqom yo'llarini ham erkin kuylaydi.

Rahmatjon Qurbonov Xorazmning eng murakkab janrlaridan biri bo'lgan "Suvora"larni mahorat bilan ijro etgan.

Rahmatjon Qurbonov repertuarining asosini Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Maxtumquli kabi buyuk shoirlarning g'azallari tashkil etadi. U Navoiy g'azallarini ijro etganda, so'zlarning talaffuziga va mazmuniga alohida e'tibor qaratadi. Uning mashhur qo'shiqlari:

"Orazni yopqoch" (Navoiy g'azali), "Sabog'a yetkur", "Ko'zing ne balo qora bo'libdur" (Komiljon Otaniyozov uslubida), "Qaro ko'zum" (Navoiy g'azalining Xorazmcha talqinlari) qo'shiqlaridir.

Rahmatjon Qurbonovning ijodiy maktabi bugungi kunda ham yosh avlodga Xorazm ijrochilik sirlarini chuqur o'rganishlarida katta maktab bo'lib kelmoqda. Uning Navoiy g'azallariga bergan talqinlari ilmiy jihatdan "so'z va ohang uyg'unligi" mavzusida muhim manba bo'la oladi.

Bugungi kunda san'atimiz darg'alarini izidan borib, Xorazm milliy, mumtoz va maqom qo'shiqlarini ustozlar ijrolaridan o'rganib, o'zining ijro uslublarida foydalanib kelayotgan Xorazmlik yosh xonandalar ham Navoiy g'azallarini mazmun mohiyatini chuqur anglab, Navoiy ijodiga aloxida e'tibor bilan qarab, uning g'allari bilan aytiladigan yangi ijod namunalarini yaratmoqdalar. O'zbekiston xalq xofizi Farhod Davletov, O'zbekiston xalq artisti, Tojikiston xalq hofizi Og'abek Sobirov, O'zbekiston xalq xofizi Ochilbek Matchonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist To'lqin Jabborovlar buyuk san'atkorlarmizni ijod yo'llarini davom ettirib, Xorazm maqom san'atini rivojiga hissa qo'shib kelmoqdalarki,

demak Xorazm maqom qo‘shiqchiligi san‘ati asrlar osha o‘z mavqeini davom ettiraveradi.

Joriy yilning fevral oyida respublikada, xususan, Xorazm vohasida maqom san‘atiga bag‘ishlangan bir qator tadbirlar va konsertlar rejalashtirilgan.

Xorazmda maqom kechalari odatda nafaqat sahnalarda, balki tarixiy obidalar ichida ham o‘tkazilishi bilan ajralib turadi. Yaqin kunlarda Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan va fevral oyi Navoiy oyligi deb e‘lon qilinganligi uchun Xorazmning barcha madaniyat va san‘at maskanlarida “Navoiy va Maqom” mavzusidagi kechalar o‘tkazilmoqda

Urganch shahrida Ogahiy nomidagi viloyat musiqali drama teatrida viloyat maqom ansambli ishtirokida katta konsert dasturi, Xivada “Ichan qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasi hududidagi Ko‘hna Ark maydonida folklor-maqom jamoalarining chiqishlari, Xorazm viloyati Maqom markazining “Ochiq eshiklar” kuni, Urganch shahrida joylashgan Maqom markazida haftaning har juma kunlari yoshlar va maqom ixlosmandlari uchun mahorat darslari va kichik konsertlar tashkil etilmoqda.

“Maqom ovozi” ko‘rik-tanlovi, fevral oyining ikkinchi yarmida Xorazmdagi musiqa va san‘at maktablari o‘rtasida yosh maqomchilar tanlovi boshlanishi kutilmoqda. Ushbu tadbirlarda vohaning taniqli hofizlari va maqom yo‘nalishida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarning ishtiroki kutilmoqda. Bu tanlovda asosan Navoiy g‘azallari bilan aytiladigan “Tarona” va “Suvora”lar ijro etiladi.

Bunday tanlovlar, festivallar va ijodiy muloqotlar, madaniy tadbirlarning tashkil etilishi xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning qalbida o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san‘atining durdonasi bo‘lgan maqom san‘atiga, buyuk mutafakkir bobomiz Mir Alisher Navoi bobomizning ijodiga bo‘lgan mehr, qiziqish, ma‘naviy me‘rosimizga, o‘zbek adabiyotining bebaho durdonalariga bo‘lgan hurmat va sadoqatni shakllanishi va rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, Navoiy bobomizning ijodi, ko'pgina g'azallari nafaqat Xorazm qo'shiqchilik sa'atida balki, butun O'zbekistonda sevib o'qib o'rganilmoqda va kuylanib kelinmoqda.

Alisher Navoiyning g'azallaridagi so'zlarning jarangdorligi, izchilligi, qalbga yaqinligi uchun va g'azallarni o'qiganimizda kuyi, navosi o'zida tug'ilganligi, yaratilganligi jihatidan ham el qalbidan joy olib kelmoqda. So'zga, kuyga oshnolik, ohanglarga oshuftalik dunyosi shu emasmi o'zi?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hasan Karimov. Xofiz ijodkor baxti. Musiqa nashriyoti, 2019 y. (15-16 bet)
2. Navoiy g'azallari.
3. Hasan Karimov. Xofiz ijodkor baxti. (50-169 betlar)
4. Ijtimoiy tarmoqlardagi maqolalar va ma'lumotlar.

### **ALISHER NAVOIY – MADANIYAT VA SAN'ATNING CHINAKAM**

#### **HOMIYSI**

***Qadamboy Rahimov***

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiyning davlat arbobi, mutafakkir va buyuk shoir sifatidagi faoliyati bilan bir qatorda, uning madaniyat va san'at taraqqiyotidagi homiylik o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Navoiyning bunyodkorlik ishlari, ilm-fan ahliga ko'rsatgan e'tibori, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash faoliyati hamda Hirot muhitining madaniy yuksalishidagi roli tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Shuningdek, Navoiyning insonparvarlik qarashlari va ma'naviy merosining bugungi davr madaniy hayotidagi ahamiyati yoritiladi.

**Аннотация:** В данной статье наряду с деятельностью Алишера Навои как государственного деятеля, мыслителя и великого поэта, на научной основе анализируется его покровительственная роль в развитии культуры и искусства. На основе исторических источников раскрываются созидательная

деятельность Навои, его внимание к представителям науки, поддержка творческих личностей, а также его вклад в культурный подъём среды Герата. Кроме того, освещаются гуманистические взгляды Навои и значение его духовного наследия в культурной жизни современности.

**Abstract:** This article scientifically analyzes Alisher Navoi's patronage role in the development of culture and art, alongside his activities as a statesman, thinker, and great poet. Based on historical sources, the study reveals Navoi's constructive initiatives, his support for scholars, his encouragement of creative figures, and his contribution to the cultural flourishing of the Herat milieu. In addition, the article highlights Navoi's humanistic views and the significance of his spiritual legacy in contemporary cultural life.

**Kalit soʻzlar:** Alisher Navoiy, homiylik, madaniyat, sanʼat, maʼrifatparvarlik, bunyodkorlik, maʼnaviy meros.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, меценатство, культура, искусство, просвещение, творчество, духовное наследие.

**Keywords:** Alisher Navoi, patronage, culture, art, enlightenment, creativity, spiritual heritage.

XV asr Sharq uygʻonish davrining eng yirik siymolaridan biri boʻlgan Alisher Navoiy turkiy xalqlar maʼnaviyati, adabiyoti va madaniy tafakkuri tarixida beqiyos oʻrin egallaydi. U faqat soʻz mulkining sultoni emas, balki jamiyat taraqqiyotini ilm-fan, sanʼat va maʼrifat rivoji bilan bogʻlagan ulkan maʼrifatparvar arbob edi. Navoiyning homiylik faoliyati oʻz davri madaniy hayotining yuksalishiga kuchli taʼsir koʻrsatdi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan davrida davlat boshqaruvi bilan bir qatorda madaniy hayot masalalariga ham alohida eʼtibor qaratdi. Uning nazarida kuchli davlat – bu avvalo maʼrifatli jamiyat demakdir. Shu sababli u iqtisodiy imkoniyatlarini ilm-fan va bunyodkorlik yoʻlida safarbar etdi.

Navoiyning tashabbusi bilan qurilgan ko‘plab inshootlar shunchaki me‘moriy obidalar emas, balki madaniy-ma‘rifiy markazlar vazifasini bajargan. Bu jihat uning madaniyatni davlat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rganini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan yuzlab ijtimoiy va madaniy inshootlar qurdirgan. Ular orasida madrasalar, masjid va xonaqohlar, shifoxonalar, ko‘priklar, rabot va karvonsaroylar, suv inshootlari mavjud edi.

Bu obidalar aholining turmush sharoitini yaxshilash bilan birga, ilm ahlining faoliyat yuritishi uchun muhit yaratgan. Ayniqsa, Hirotida qurilgan madrasalar ilm-fan rivojining muhim o‘choqlariga aylangan. Navoiy bunyodkorligi tufayli Hirot o‘sha davrda Sharqning yirik madaniy markazlaridan biri bo‘lib shakllandi.

Alisher Navoiy iste‘dod egalari jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ekanini chuqur anglagan. Shu bois u shoirlar, tarixchilar, xattotlar, musavvirlar va olimlarni moddiy hamda ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan.

Uning homiyligida ko‘plab ijodkorlar kamol topdi. “Majolis un-nafois” asarida Navoiy o‘z davri adabiy muhitini tasvirlab, ijodkorlarga bo‘lgan e‘tiborini amalda ham namoyon etgan. Bu asar nafaqat tazkira, balki adabiy-madaniy muhit tarixining muhim manbasi hisoblanadi.

Navoiy kitobni ma‘naviyat xazinasini deb bilgan. U qo‘lyozmalarni ko‘chirish, saqlash va tarqatish ishlarini yo‘lga qo‘ygan. Saroy atrofida boy kutubxonalar tashkil etilgan bo‘lib, u yerda nafaqat diniy, balki falsafiy, tarixiy va adabiy asarlar ham jamlangan.

Kitobat va xattotlik san‘ati rivojiga ko‘rsatilgan homiylik natijasida o‘sha davr qo‘lyozmalari nafis bezak va yuqori badiiy saviya bilan ajralib turgan.

Navoiyning davrida me‘morchilik, miniatyura, musiqa va xattotlik san‘ati yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. U san‘atni inson ruhini poklovchi va tarbiyalovchi kuch deb bilgan. Saroy muhitida ijod qilgan san‘atkorlar uchun sharoit yaratgani tufayli Hirot o‘z davrining badiiy markaziga aylandi.

Ayniqsa, miniatyura maktabining rivojlanishi, nafis bezak san'ati va she'riyat bilan uyg'unlashgan badiiy tafakkur Navoiyning madaniy siyosati bilan chambarchas bog'liq edi.

Navoiyning homiylik faoliyati chuqur insonparvarlik g'oyalariga tayangan. U o'z asarlarida ilm, adolat, saxovat va mehr-oqibatni eng oliy qadriyat sifatida ulug'laydi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti ilm egalari va san'atkorlarga yaratilgan sharoit bilan belgilanadi.

Bu qarashlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, Navoiyning ma'naviy merosi zamonaviy madaniyat siyosati uchun ham muhim nazariy asos bo'la oladi.

Alisher Navoiy Sharq tarixida madaniyat va san'at homiysi sifatida alohida o'rin tutadi. Uning bunyodkorlik ishlari, ijodkor va olimlarga ko'rsatgan e'tibori, ilm va san'atni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari XV asr madaniy uyg'onishining asosiy omillaridan biri bo'ldi. Navoiyning faoliyati shuni ko'rsatadiki, haqiqiy ma'rifatparvarlik nafaqat so'zda, balki amaliy bunyodkorlik va homiylikda namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1961.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1989.
4. Бертельс, Е. Э. Навои и Джами. Москва: Наука, 1965.
5. Hayitmetov, A. Alisher Navoiy ijodiy merosi. Toshkent: Fan, 1970.
6. Qayumov, A. Navoiy dahosi. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
7. Komilov, N. Tasavvuf. Toshkent: Movarounnahr, 2009.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Alisher Navoiy" maqolasi. Toshkent, 2000.

---

**ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAN'ATNING  
ULUG'LANISHI**

*O'razmetova Kurbanbika Gulmatovna*  
*O'zDXA Urganch filiali ilmiy tadqiqot ishlari*  
*muhandisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida musiqa san'atining tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Shoirning "Xamsa" asari, xususan "Sab'ai sayyor" dostoni misolida musiqa inson ruhiyatini poklovchi, ma'naviy yuksaltiruvchi va ilohiy ishqqa eltuvchi vosita sifatida talqin etilishi yoritiladi. Bahrom Go'r va Dilorom obrazlari orqali hukmdor ma'rifatparvarligi hamda san'atga e'tibor masalalari ochib beriladi. Shuningdek, Navoiy asarlarida uchraydigan musiqiy cholg'ular, atamalar va musiqaning badiiy-estetik mohiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. "Mahbub ul-qulub" asarida esa san'at ahli, xususan mug'anniy va sozandalarga berilgan axloqiy baho ko'rib chiqiladi. Maqolada Navoiy ijodining musiqashunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, musiqa san'ati, Xamsa, Sab'ai sayyor, Dilorom obrazi, Bahrom Go'r, mug'anniy, cholg'u asboblari, ilohiy ishq, badiiy talqin.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль музыкального искусства в творчестве Аlisher Navoiy. На примере произведения «Хамса», в частности поэмы «Сабаи сайёр», раскрывается трактовка музыки как средства духовного очищения, нравственного возвышения и постижения божественной любви. Через образы Бахрама Гура и Дилором освещаются идеи просвещённого правления и уважения к искусству. Также проводится научный анализ музыкальных инструментов, терминов и художественно-эстетической сущности музыки в произведениях поэта. В произведении «Махбуб ул-кулуб» рассматривается нравственная оценка певцов и музыкантов. Подчёркивается значение творчества Навои с литературоведческой и музыковедческой точек зрения.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, музыкальное искусство, Хамса, Сабаи сайёр, образ Дилором, Бахрам Гур, певец, музыкальные инструменты, божественная любовь, художественная интерпретация.

**Annotation.** This article analyzes the role of music in the works of Alisher Navoiy. In particular, the interpretation of music as a means of spiritual purification, moral elevation, and divine love is examined through the examples of his work “Khamasa”, especially the epic “Sab’ai Sayyor”. Through the images of Bahram Gur and Dilorom, the ideas of enlightened rulership and respect for art are revealed. The article also provides a scholarly analysis of musical instruments, musical terminology, and the artistic-aesthetic essence of music found in Navoiy’s works. Furthermore, in “Mahbub ul-qulub”, the moral evaluation of singers and musicians is discussed. The study highlights the significance of Navoiy’s творчество from both literary and musicological perspectives.

**Keywords:** Alisher Navoiy, music art, Khamasa, Sab’ai Sayyor, Dilorom image, Bahram Gur, minstrel, musical instruments, divine love, artistic interpretation.

Turk xalqlari adabiyoti, madaniyati va fani tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk siymolardan biri Alisher Navoiydir. Bu xalqlar tarixida hech kim uningchalik “ko‘p va ho‘p” asar yozgan emas. O‘sha davrda fors tilida qaysi janr va uslubda asarlar yaratilgan bo‘lsa, u ham ularning barchasida yuksak badiiy, o‘lmas asarlar bitdi [1.26 b].

Navoiy asarlarida adabiyot, fan, tarix, falsafa bilan bir qatorda san’atga ham katta e’tibor qaratgan. Ayniqsa, Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida musiqa san’ati keng yoritilgan.

A.Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida musiqa inson ruhiyatini yuksaltiruvchi, adolat va ezgulikni targ‘ib qiluvchi eng oliy qadriyat sifatida ulug‘lanadi.

Navoiy Bahrom go‘r obrazi orqali hukmdorning ma’rifatparvarligi, san’at ahliga e’tibori va yetukchilik hikoyatlarida hayotiy haqiqatlarning badiiy ifodasidir.

Alisher Navoiyning Dilorom obrazi-go‘zallik, vafodorlik, san’atga sadoqat va yuksak insoniy fazilatlar timsolidir. (Bahrom go‘r – Eron hukmdori bo‘lib yovvoyi kiyik ko‘p ovlagani uchun shu nisbat, laqab berilgan) U Bahrom go‘rning suyuqli kanizagi va sozandasi bo‘lib, o‘z san’ati bilan shoxga hamroxlik qiladi. (Dilorom Ud musiqa asbobini mohirona chalgan).

Navoiy asarlarida chang, rubob, nay, tanbur kabi cholg‘u asboblari ko‘p uchraydi. Bu asboblardan orqali u muhabbat, sog‘inch, quvonch va izzat kabi his-tuyg‘ularni ifodalaydi.

Shoir o‘z asarlarida musiqani ilohiy ishqni anglash vositasi sifatida ko‘rsatadi. Uningcha, musiqa insonni haqqa yaqinlashtiradi, qalbni uyg‘otadi.

Hazrat Navoiyning o‘zi yoshligidan musiqani sevganligi uchun ham o‘z davrining nom qozongan darg‘alaridan biri Xo‘ja Yusuf Burhondan ilk musiqiy saboqlarni olgan. U haqida Navoiy shunday yozadi: ”Musiqiy ilmni ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdi – men. U ko‘proq o‘z she’rlariga musiqa bog‘lar erdi”.

Navoiy tarjimai holidan shular ma’lumki, u qayerga bormasin Hirotgami, Samarqandgami, Astrobodgami doimo yonida bastakorlardan Xo‘ja Abdullo Marvarid, Pahlavon Muhammad, musiqashunoslardan Abdurahmon va Muhammad Jomiylar, o‘nlab xonanda-yu sozandalar bo‘lishgan hamda musiqa ijodi va ijrochiligi ilmi borasida muloqotlar bo‘lib turgan.

Navoiyning “Xazoyin ul-Maoniy” va “Devoni foniy va boshqa asarlarida ishlatgan jami 26.000 dan ortiq so‘zlar orasida yuzlab maxsus musiqiy kasbiy atama, tushuncha, ibora va xususiy birikmalar uchraydi. Bularni quyidagi tarzda muayyan tasniflarga bo‘lish mumkin.

Cholg‘ular: daf, doyra, nog‘ora, do‘mbira, zang, zangula, mizmor (duo, ibodat qo‘shig‘i) nay, karnay, burg‘u (surnay), sibizg‘a, ud, rud, chang, qonun, rubob, dutor, tanbur, qo‘biz, g‘ijjak, arg‘anun. Musiqiy shakllar: doston, yor-yor, o‘lan, marsiya, peshrav, tuyuk, tarona, qo‘shiq va h.k.

Navoiy o‘z she‘rlarida navo, musiqa, qo‘shiq haqida quyidagi misralarni bitgan.

Ey, navbahori orazing subhig‘a jonparvar navo

Andin gulu bulbul topib-yuz barg birla ming navo

Navoiyning minglab g‘azallari orasida aynan ilmiy-badiiyligi bilan biz uchun nihoyatda noyob ya‘ni shoirning o‘ziga xos “Mug‘anniyнома”si esa ushbu g‘azaldir.

Ey, mug‘anniy, yor bazmida navosoz aylasang,

Jon fidong o‘lsun g‘amim shahridan og‘oz aylasang,

Uddek kuylamakligim sharx et lisoni hol ila,

Nag‘mada udung lisonin hajri pardozi aylasang,

o‘zga olamdin xabar deb, bizni turg‘uzding netong,

Bu risolat birla gar nahori e‘josi aylasang. [4]

Navoiyning yana bir asarida musiqa haqida shunday misralar bitilgan.

Chang olib torini tuzor edi

Lek jon rishtasini uzor edi.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (Ko‘ngillarning sevgani) asarida xonanda va sozandalarning sayyoqlari garchi g‘amni tarqatuvchi bo‘lsalar ham lekin haqiqatda pastkash va tilanchidirlar. Bunday ashulachi va cholg‘uvchilar zorlanib va yalinchoqlik bilan pul topadilar. Agar buyuruvchidan in‘om-ehson bo‘lsa, uning xizmatini bajaradilar. Suhbatda noz-ne‘mat to‘kin bo‘lsa, ular har qanday amr-farmonni bajarishga tayyordirlar. Agar bazmda maishat kam bo‘lsa, ular noz-istig‘no va injiqlik bilan qiliqlik ko‘rsatadilar va agar noz-ne‘mat degan narsa tamom yo‘q bo‘lsa, ularning ko‘ngli sendan uzildi hisob. Ular agarchi yil bo‘yi sening ehsoningdan bahramand bo‘lgan bo‘lgan ersalarda, yoningdan tanimay o‘tib ketaveradilar. Oz olsalar-yerga uradilar: ko‘p olsalar qadrlamaydilar. Ularning ko‘pchiligi axloqsiz, badfe‘l qolganlari ham o‘lguday qaysar va dag‘al so‘zli bo‘ladilar. Harakatlari haddan tashqari tuturuqsiz so‘zlaridek, gaplari esa bemahal

---

qilgan nozlaridek, ular vafo degan fazilatdan benasib qolganlar:shuning uchun vafodorlar ular oldida qadrsiz va xarob.

Vafosiz mug‘anniy-hayosiz muttaham. Agar yillar bo‘yi izzat-hurmat qilib, unga yedirib ichirgan bo‘lsangiz ham birgal uni quruq qo‘ysang-sendan kechadi, tanimaydi qo‘yadi. Bular erkak suvratidagi tannoqlar va bashang kiyim kiygan uy buzur axloqsizlardir. Ular qo‘shiq aytib va soz chalib, ba‘zilarni talovchi, yo‘l to‘sarlardir.

A.Navoiy o‘z asarlarida san‘atni sevishni va qadrlashni badiiy usulda ifodalab bergan. Navoiy ijodi yuzlab asrlar o‘tsa hamki, inson qalbini yaxshilikka, go‘zallikka, ezigulikka chorlab so‘z degan maftunkor dunyoni o‘ziga jalb qilib yashayveradi. Zero, egulikning umri mangulikka dahldordir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Хамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами, 5 том, Т...,1982 йил, 26 бет.
2. А.Навой. “Сабъаи сайёр” достони.
3. А.Навойнинг “Хазойин ул-маоний” асари.
4. А.Навойнинг “Девони фоний” асари.
5. А.Навойнинг “Махбуб ул – қулуб асари.
6. Ижтимоий тармоқдан. Тўхтасин Ғофурбеков мақоласи.

---

**ALISHER NAVOIY HIKMATLARIDA FARZAND TARBIYASI  
MASALASI**

*Zulfiya Yaqubova*

*O'zbekiston davlat xoreografiyasi  
akademiyasi*

*Urganch filial tarkibidagi Lazgi  
ijrochiligini yanada rivojlantirish bo'limi boshlig'i*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning farzand tarbiyasiga oid qarashlari tahlil qilingan. Navoiy ijodida odob-axloq, ilm-ma'rifat, mehnatsevarlik va so'z madaniyati masalalari xalq pedagogikasi bilan uyg'unlikda yoritilgani ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, shoir hikmatlarida so'z va fikr mas'uliyati, tinglash madaniyati hamda shaxs kamoloti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib berilgan. Maqolada Navoiy merosining bugungi tarbiya jarayonidagi ahamiyati yoritilib, uning umuminsoniy qadriyat sifatidagi o'rni ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, farzand tarbiyasi, odob-axloq, so'z madaniyati, xalq pedagogikasi, ma'naviyat.

**Аннотация.** В статье анализируются педагогические взгляды великого мыслителя и государственного деятеля Алишер Навои на воспитание подрастающего поколения. Особое внимание уделяется вопросам нравственности, образования, трудового воспитания и культуры слова в его творческом наследии. Раскрывается взаимосвязь между ответственностью слова, культурой слушания и формированием гармоничной личности. Подчеркивается актуальность идей Навои в современном воспитательном процессе и их значение как универсальной духовной ценности.

**Ключевые слова:** Навои, воспитание, нравственность, культура речи, духовные ценности, народная педагогика.

**Annotation.** This article examines the pedagogical views of the great thinker, poet, and statesman Alisher Navoi on the upbringing of children. Special attention is given to the issues of morality, education, diligence, and speech culture reflected in his works. The interrelationship between responsibility in speech, the culture of attentive listening, and personal development is analyzed. The study emphasizes the relevance of Navoi's ideas in contemporary educational practice and highlights their universal spiritual and moral significance.

**Keywords:** Navoi, upbringing, morality, speech culture, spiritual values, folk pedagogy.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Мир Алишер Навоийning ilmiy-adabiy merosi o'zbek xalqining ma'naviy taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etadi[1]. Uning asarlarida ilm, odob, so'z va ma'naviyat masalalari markaziy o'rin egallaydi.

Uning asarlari kirib bormagan xonadon, oila deyarli uchramaydi. Navoiy ijodida ilgari surilgan g'oyalar, ayniqsa, axloq-odob, inson kamoloti va farzand tarbiyasiga oid qarashlar xalq pedagogikasi bilan uyg'un holda shakllangan.

Navoiy asarlaridagi hikmatli fikrlar mazmun va mohiyat jihatdan xalq maqollariga yaqin bo'lib, ularda inson kamoloti, oila tarbiyasi va jamiyat oldidagi mas'uliyat masalalari alohida o'rin tutadi. U zot tarbiyani shaxs kamolotiga olib boradigan uzluksiz jarayon sifatida talqin qiladi. Navoiyga ko'ra, farzand tarbiyasi ota-onaning muqaddas burchi bo'lib, bu vazifa bolaning tug'ilishi bilan cheklanib qolmaydi, balki butun umr davom etadigan ma'naviy-ijtimoiy mas'uliyatdir.

Navoiy ta'limotida tarbiyaning asosiy ustunlaridan biri - so'z va fikr mas'uliyatidir.

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki so'z qudratini millat ma'naviyatiga xizmat qildirgan ulug' zotdir. Bejizga u "so'z mulking sultoni" deb atalmagan. Uning so'zi qalblarni uyg'otadi, ongni ravshan qiladi, insonni komillikka yetaklaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Navoiy merosini yuksak baholab, uni milliy ma’naviyatimizning mustahkam poydevori sifatida e’tirof etadi[2].

“Agar Navoiyga “avliyo” desak, avliyolarning avliyosidir, “mutafakkir” desak, mutafakkirlarning mutafakkiridir, “shoir” desak, shoirlarning sultonidir”.

Bu ta’rif Navoiy shaxsiyatining naqadar ulug‘ ekanini, uning merosi xalq tarbiyasi va ma’naviyati uchun abadiy ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Diniy va dunyoviy ta’limotda dunyoning yaralishi va tugashini, ya’ni ibtido va intihoni ham so‘z bilan bog‘lash mavjud. Parvardigori olamning “Bo‘l!” degan xitobi bilan o‘n sakkiz ming olam yaralgan. Uning kunfayakun bo‘lishi ham so‘z bilan deyiladi. Hazrat Navoiy so‘zning qudratini alohida ta’kidlab shunday yozadi: “So‘z kelib avvalu jahon so‘ngra, ne jahonki kavn ila makon so‘ngra”[3]. Ushbu misralarda so‘zning yaratuvchanlik va bunyodkorlik qudrati ifodalangan.

Demak, so‘z – ilohiy ne’mat. Uni muqaddas tutish, kalom ahlini e’zozlash azaldan mavjud. So‘zning sehrini unga mehr qo‘yganlar yaxshi anglashadi.

Xo‘sh, mutafakkir shoir Alisher Navoiyning xuddi shu masalaga munosabati qanday? Shu haqda mulohaza bildirmoqchimiz.

Navoiy farzand tarbiyasini avvalo odob va axloq bilan bog‘laydi. U insonning tashqi ko‘rinishi emas, balki ichki ma’naviy olami muhim ekanini ta’kidlaydi.

Mutafakkirning “Odob - insonni el orasida aziz qilur”[4] degan hikmati inson kamolotida axloqning tutgan o‘rnini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Ilmsiz kishi - mevasiz daraxt” [1. B-134] degan fikr orqali ilmning hayotiy zarurat ekanini uqtiradi.

Farzand tarbiyasida ilm-ma’rifat masalasi Navoiy ijodida alohida o‘rin tutadi. U ilmni insonni zulmatdan nurga olib chiquvchi qudrat sifatida ko‘radi:

“Ilmsiz kishi - mevasiz daraxt”, bu fikr orqali Navoiy ota-onalarni farzandlarini ilmga, o‘qishga, izlanishga undashga da’vat etadi. Chunki ilmli farzand nafaqat oilaga, balki butun jamiyatga foyda keltiradi.

Hazrat Navoiy soʻzning qudratini alohida taʼkidlab shunday yozadi: “Soʻz kelib avvali jahon soʻngra, ne jahonki kavni ila makon soʻngra”[3]. Ushbu misralarda soʻzning yaratuvchanlik va bunyodkorlik qudrati ifodalangan.

Navoiy hikmatlarida mehnat tarbiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. U tayyor neʼmatga oʻrgangan bola hayotda qiynalishini, mehnatsevar farzand esa muvaffaqiyatga erishishini taʼkidlaydi: Navoiy mehnatni ham yuksak qadrlab, “Mehnat qilgan - murodga etgay” deya taʼkidlaydi.

Bu hikmat bolani yoshligidan mehnatga oʻrgatish, masʼuliyat hissini shakllantirish lozimligini anglatadi.

U insonni soʻzlashda ham masʼuliyatli boʻlishga chaqiradi: “Soʻzni koʻngilda pishqormaguncha tilga kelturma har neki dilda borini tilga surma” hikmati inson tarbiyasida fikr, soʻz va masʼuliyat uygʻunligini ifodalaydi. Bu hikmatni faqat qizlar tarbiyasigagina daxldor deb qarash toʻgʻri emas, zero u mazmunan ham qizlarga, ham yigitlarga barobar taalluqlidir.

Men Navoiyning ushbu satrlarini oʻqir ekanman, shuni angladimki, oʻz “men”imdagi fikrim bilan ifodalamoqchiman. Bilasizmi, ushbu oʻgitlar oʻz tarbiyamda onamning oiladagi qiz bola tarbiyasidagi holat bilan uygʻunlashtirgim keldi. Hayotiy misol sifatida xalq tarbiyasida keng qoʻllaniladigan qiyoslarga murojaat qilishim mumkin.

Koʻz oldimizga keltiramiz. Xususan, qiz bola tarbiyasida ona tomonidan non tayyorlash uchun xamir qorishni oʻrgatish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda tozalikka rioya qilish, boshga roʻmol oʻrash, ishni mehr bilan bajarish, xamirni yaxshilab ishlovdan oʻtkazish talab etiladi. Chunki xamir qanchalik yaxshi qorilsa va etarlicha ishlov berilsa, mehr berib pishqorilsa shunchalik chiroyli, xushtaʼm va xushroʻy boʻlib tandirda pishadi. Bu esa sabr-toqat, masʼuliyat va puxtalikka oʻrgatuvchi tarbiyaviy maktab hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, yigit tarbiyasida imorat qurilish jarayoni orqali ham mazkur hikmatning mazmunini anglash mumkin. Agar loy yaxshilab pishqorilsa, loy qayta-qayta tepkalansa, ayamadan ish qilinsa, uying poydevori mustahkam

bo‘ladi. Poydevor mustahkam bo‘lgan joyda esa bino barqaror turadi, qulab tushmaydi. Bu o‘xshatish orqali yigitlarda har bir ishni oldin puxta o‘ylab, so‘ng amalga oshirish, mas’uliyat bilan harakat qilish fazilatlarini shakllantiriladi.

Demak, Navoiyning mazkur hikmati so‘zni ham, ishni ham avval qalbda “pishitish”, ya’ni aql va tajriba tarozusida o‘lchab, keyin tilga keltirish ya’ni avval o‘yla, keyin suyla degan maqol bilan integratsiya qilish zarurligini uqtiradi. Bu g‘oya esa jinsga emas, inson kamolotiga qaratilgan umuminsoniy tarbiyaviy qoidadir.

Shuningdek, Navoiy so‘z va muomala tarbiyasiga katta e’tibor beradi. U:

“So‘zni ko‘ngilda pishqormaguncha tilga kelturma”, deb, farzandga o‘ylab so‘zlash, bironing ko‘nglini og‘ritmaslik, so‘zning oqibatini anglab gapirish kerakligini uqtiradi. Chunki so‘z insonning ichki dunyosini ochib beradi, tarbiya darajasini ko‘rsatadi.

Ana shu g‘oya Navoiyning quyidagi hikmati bilan uzviy bog‘lanadi:

“Gavharu durni quloq ozori bil, So‘zni quloqning duru shahvori bil”[1].

Bu misralarda shoir inson uchun eng qimmatli ne‘mat zeb-ziynat emas, balki tinglab anglangan, qalbda saqlangan hikmatli so‘z ekanini ta’kidlaydi. Uningcha, quloq uchun eng noyob gavhar - tarbiyaga xizmat qiluvchi so‘zdir. Xalq pedagogikasida bu g‘oya, ayniqsa, ona tarbiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ona farzandiga muhim pand-nasihati berib:

“Qizim, bu so‘z qulog‘ingda oltin sirg‘a bo‘lsin”, deya ta’kidlaydi. Bu ibora aytilgan so‘zni shunchaki eshitib o‘tib ketmasdan, uni qalbda saqlash, hayot mezoniga aylantirish kerakligini anglatadi. Bolalikda eshitilgan ana shunday so‘zlar yillar o‘tsa-da, hayotda oltin sirg‘a kabi asralib qoladi.

Shu bois xalq orasida “tinglab bilish katta bir san’atdir”, degan naql bejiz aytilmagan. Har kim eshita oladi, ammo har kim ham tinglab anglay olmaydi. Navoiy hikmatlari esa farzandni so‘zni quloq bilan emas, qalb bilan tinglashga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy hikmatlarida farzand tarbiyasi odob-axloq, ilm-ma'rifat, mehnatsevarlik va so'z madaniyati orqali talqin etiladi. Bu g'oyalar bugungi kun tarbiyasi uchun ham o'ta dolzarbdir. Agar biz farzandlarimizga so'zning qadrini anglatib, tinglash madaniyatini singdirsak, komil inson tarbiyasiga mustahkam zamin yaratgan bo'lamiz.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning ilmiy-adabiy merosi o'zbek xalqining ma'naviy taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etadi[1].

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Navoiy shaxsiyati va merosini yuksak baholab, quyidagi fikrlarni bildirgan edi[2].

Hazrat Navoiy: "So'z kelib avvalu jahon so'ngra, Ne jahonki kavn ila makon so'ngra", deya ta'kidlaydi[3].

"Odob- insonni el orasida aziz qilur"[4].

"Ilmsiz kishi- mevasiz daraxt".

"Mehnat qilgan- murodga yetgay".

"So'zni ko'ngilda pishqormaguncha tilga kelturma...".

"Gavharu durni quloq ozori bil,

So'zni quloqning duru shahvori bil"[1].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мир Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. - 112-бет.

2. Мир Алишер Навоий. Хамса. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2011. - 245-бет.

3. Ислон Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - 47-бет.

4. o'zbek xalq maqollari. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013.

---

**MULTILINGUAL EXPRESSION AND CULTURAL SYNTHESIS IN  
THE LITERARY HERITAGE OF ALISHER NAVOIY**

*Ro‘zmetova Bekposhsha Kenjayevna*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi Urganch filiali, xalqaro  
hamkorlik bo‘limi boshlig‘i*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy adabiy merosida ko‘p tillilik va madaniy sintez hodisasi tahlil qilinadi. Tadqiqot Navoiy tomonidan turkiy (chig‘atoy), fors va arab tillarining ongli va tizimli qo‘llanilishini adabiy va madaniy strategiya sifatida talqin qiladi. Maqola tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni madaniy uyg‘unlik va intellektual almashinuv mexanizmi sifatida ko‘rsatadi. Natijalar globallashuv sharoitida milliy adabiy merosni saqlash va ko‘p tillilik masalalarini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, ko‘p tillilik, madaniy sintez, chig‘atoy tili, fors adabiyoti, madaniyatlararo muloqot.

**Аннотация.** В данной статье анализируется феномен многоязычия и культурного синтеза в литературном наследии Алишера Навоия. Исследование фокусируется на осознанном и систематическом использовании тюркского (чагатайского), персидского и арабского языков как целенаправленной литературной и культурной стратегии. Взаимодействие этих языков рассматривается как механизм культурной сплоченности и интеллектуального обмена. Результаты исследования способствуют современным дискуссиям о многоязычии и межкультурном диалоге.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, многоязычие, культурный синтез, чагатайский язык, персидская литература, межкультурное взаимодействие.

**Abstract.** This study explores the phenomenon of multilingual expression and cultural synthesis in the literary legacy of the eminent poet and intellectual Alisher

---

Navoiy (1441–1501). The research focuses on Navoiy’s deliberate and systematic use of Turkic (Chagatai), Persian, and Arabic, interpreting it as a purposeful literary and cultural strategy rather than a coincidental linguistic choice. Through comparative and analytical methods, the article demonstrates that interaction among these languages functioned as a mechanism for cultural cohesion and intellectual exchange. The findings contribute to contemporary discussions on multilingualism, intercultural dialogue, and the preservation of national literary traditions in an increasingly globalized world.

**Keywords:** Alisher Navoiy, multilingual literature, cultural synthesis, Chagatai Turkic, Persian literary tradition, intercultural interaction.

**Introduction.** Alisher Navoiy stands as one of the most influential figures of the Eastern Renaissance and is widely recognized as the founder of classical Turkic literature. His intellectual formation occurred within the complex multilingual and multicultural environment of fifteenth-century Transoxiana and Khorasan, regions marked by intensive interaction among Turkic, Persian, and Arabic linguistic traditions. Rather than passively reflecting this environment, Navoiy actively transformed multilingualism into a creative instrument for literary innovation and cultural integration<sup>1</sup>.

The present article aims to examine the artistic and ideological functions of multilingualism in Navoiy’s works and to explain how his linguistic choices contributed to intercultural harmony and intellectual unity.

During the fifteenth century, Central Asia and Khorasan experienced relative political stability accompanied by remarkable cultural development. Persian functioned as the dominant language of court culture and high literature, while Arabic maintained its authority in religious scholarship, theology, and philosophy. Turkic, although widely spoken among the population, was still in the process of gaining recognition as a prestigious literary medium<sup>2</sup>.

---

Growing up in this trilingual milieu, Navoiy achieved mastery of all three languages. This linguistic competence enabled him to engage with diverse cultural traditions and to integrate them into a coherent literary vision.

In Navoiy's oeuvre, multilingualism should be understood not merely as linguistic diversity, but as a consciously developed aesthetic and cultural strategy. The poet demonstrated a deep awareness of the expressive capacities, social functions, and symbolic meanings associated with each language, employing them in accordance with specific artistic goals. As a result, his works promote harmony and mutual enrichment rather than rivalry among languages.

A central objective of Navoiy's literary mission was to elevate Turkic (Chagatai) to the status of a fully developed literary language. At a time when Persian dominated elite literary circles, Turkic was largely confined to everyday speech. Navoiy challenged this imbalance by producing sophisticated literary works in Turkic, thereby revealing its aesthetic and intellectual potential<sup>3</sup>.

His Turkic "Khamsa" represents a milestone in Eastern literary history, demonstrating that Turkic was capable of expressing complex philosophical ideas, epic narratives, and refined poetic imagery on par with Persian. Likewise, the poetic collection "Khazayin al-Ma'ani" showcases the richness of Turkic vocabulary and its wide expressive range.

Particularly significant is "Muhokamat al-Lughatayn," a theoretical treatise in which Navoiy systematically compares Turkic and Persian. Through detailed analysis, he argues for the structural flexibility, semantic clarity, and creative productivity of Turkic. This work illustrates that Navoiy's multilingualism was assertive and intentional, aimed at redefining linguistic hierarchies.

Navoiy's relationship with Persian literature was characterized by deep respect and creative engagement. Having thoroughly studied Persian literary traditions, he regarded them as an advanced artistic school and a valuable source of inspiration rather than as a rival tradition.

---

By composing works in Persian, Navoiy demonstrated his ability to participate fully in this literary sphere. At the same time, he reinterpreted Persian genres, symbolic systems, and poetic conventions within a Turkic framework, thereby generating new artistic forms. This process exemplifies cultural transmission and adaptation, highlighting an effective model of intercultural literary exchange.

Through this sustained dialogue, Navoiy contributed to the emergence of Eastern literature as an interconnected aesthetic domain, positioning his own works as a bridge between Turkic and Persian cultures.

Arabic occupies a distinct position in Navoiy's writings as the primary language of religious, philosophical, and scholarly expression. The poet frequently incorporates Qur'anic references, prophetic traditions, Sufi terminology, and Islamic philosophical concepts, underscoring his close engagement with the broader Islamic intellectual heritage<sup>4</sup>.

The integration of Arabic elements adds profound spiritual depth to Navoiy's works, enriching them beyond their literary qualities. In this way, Arabic functions as a vital link connecting his poetry and prose to the religious and philosophical traditions of the Islamic world.

One of the defining characteristics of Navoiy's literary legacy is its ability to unify diverse cultural, ethical, and aesthetic traditions within a single artistic system. Multilingualism serves not only as a linguistic feature, but also as a means of synthesizing ideas and values across cultures.

Navoiy's works consistently combine Islamic moral principles—such as justice, integrity, patience, and spiritual discipline—with universal humanistic concerns. His vision of the “perfect human being” reflects a philosophical model that emphasizes ethical self-improvement and compassion.

This synthesis allows Navoiy's writings to transcend narrow religious or secular classifications, making them accessible and meaningful to audiences from diverse cultural and intellectual backgrounds.

---

In Navoiy's artistic practice, the simplicity and emotional directness characteristic of Turkic oral tradition merge with the symbolic sophistication and philosophical depth of Persian classical literature. The result is a distinctive literary style that embodies both traditions while remaining original.

Through this convergence, Navoiy affirms the maturity and autonomy of Turkic literary culture while maintaining a productive connection with Persian heritage. This approach reflects a model of cultural cooperation rather than opposition.

A key feature of Navoiy's creativity is its universal thematic scope. Concepts such as love, justice, loyalty, and human dignity are presented in ways that transcend specific historical or cultural contexts, resonating with readers across time and space.

This universality explains the enduring relevance of Navoiy's works and reinforces his historical role as a figure of cultural integration and intellectual dialogue.

**Conclusion.** The analysis confirms that multilingualism in Alisher Navoiy's works represents a deliberate and sophisticated cultural strategy rather than an incidental feature of his environment. By harmoniously integrating Turkic, Persian, and Arabic, Navoiy constructed a unique literary space that reflects the intellectual unity of Eastern civilization. His legacy continues to offer valuable insights for modern studies of multilingualism, intercultural communication, and literary history.

#### References:

1. Bertels, E. E., *Alisher Navoiy and His Literary Heritage*, Moscow, 1965.
2. Navoiy, A., *Khazayin al-Ma'ani*.
3. Navoiy, A., *Khamsa*.
4. Navoiy, A., *Muhokamat al-Lughatayn*.
5. Karimov, N. *Studies on Alisher Navoiy and Language*.

---

**ALISHER NAVOIY – SAN’AT VA MADANIYAT HOMIYSI  
SIFATIDA**

*Tursunov Akmal Raxmatullayevich*

*Navoiy davlat konchilik va  
texnologiyalar universiteti o‘zbek va  
chet tillar kafedrası f.f.f.d (PhD)  
dotsenti*

**Annotatsiya:** Navoiy ijodining shinavandalari uning ilk she’riy to‘plamini (devonlari) tayyorlashadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrlardayoq Navoiy mashhur shoir bo‘lib ulgurgan. Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o‘rta asrdagi Uyg‘onish davrining boshqa ulug‘ zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. Alisher Navoiy butun hayoti davomida o‘zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda ham ijod qilib, barakali meros yaratdi.

**Аннотации:** Поклонники творчества Навои готовят его первый сборник стихов (дивонов). Из этого ясно, что Навои уже в те дни стал известным поэтом. Великий гуманист Алишер Навои, как и другие великие деятели средневекового Возрождения, всей своей жизнью показывал, каким должен быть настоящий человек. На протяжении всей своей жизни Алишер Навои создавал произведения на персидском, а также узбекском языках, и оставил богатое наследие.

**Annotations:** Admirers of Navai’s work are preparing his first collection of poems (divons). This clearly shows that Navai had already become a renowned poet in those days. The great humanist Alisher Navai, like other great figures of the medieval Renaissance, spent his entire life demonstrating what a true human being should be. Throughout his life, Alisher Nava’i wrote works in both Persian and Uzbek, leaving behind a rich legacy.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek adabiyoti, turkiy xalqlari, mashhur, she’riy mahoratini, adolatsizlik, musavvirlar, merosi, forsiy, devoni, ilm, fan.

**Kirish.** Alisher Navoiy Sharq Renessansi davrining eng yirik namoyondalaridan biri bo‘lib, u nafaqat buyuk shoir va mutafakkir, balki san‘at va madaniyat rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan homiy sifatida ham tarixda alohida o‘rin tutadi. XV asrda Temuriylar davlatida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning yuksalishi jarayonida Navoiyning faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Uning ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlari, insonparvarlik g‘oyalari hamda ijodkor va olimlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy ishlari o‘z davri madaniy muhitining shakllanishida muhim omil bo‘lgan.

Alisher Navoiy san‘at va madaniyat homiysi sifatida maktab, madrasa, masjid, kutubxona va boshqa ma‘rifiy muassasalar barpo etishga, shuningdek, shoirlar, musavvirlar, xattotlar va olimlarni rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratgan. Uning homiylik faoliyati nafaqat moddiy ko‘mak bilan cheklanib qolmasdan, balki ijodiy muhitni rivojlantirish, milliy adabiyot va san‘atning nufuzini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar majmuini qamrab olgan. Shu bois Navoiy merosini san‘at va madaniyat homiyligi nuqtai nazaridan o‘rganish uning ko‘p qirrali shaxsiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Alisher Navoiy 1441-1501 - buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi bo‘lgan. Adibning to‘liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Navoiy tahallusi ostida chig‘atoy (eki o‘zbek tili) hamda forsiyda (fors tilidagi asarlarida) ijod qilgan. G‘arbda chig‘atoy adabiyoti hisoblanmish o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyondasidan biri hisoblanadi.

Navoiy yoshligidan Xurosonning (Transoksaniya) bo‘lajak hukmdori Husayn Boyqaro bilan 1469-1506-yilda do‘st bo‘lgan. 10-12 yoshidan she‘rlar yozishni boshlagan. Navoiyning zamondoshi bo‘lmish tarixchi Xondamir 1473-1534-yillar qoldirgan ma‘lumotlarga ko‘ra, mashhur o‘zbek shoiri Lutfiy qarigan chog‘larida bolakay Navoiy bilan ko‘rishadi va uning she‘riy iqtidorini yuqori baholaydi.

Hayoti davomida Navoiy musulmon Sharqining turli mamlakatlarida bo‘lib, o‘z davrining taniqli shaxslari bilan ko‘rishadi. 1464-1465- yillar Navoiy ijodining shinavandalari uning ilk she‘riy to‘plamini (devonlari) tayyorlashadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrlardayoq Navoiy mashhur shoir bo‘lib ulgurgan. 1469-

yilgacha Temuriylar o'rtasidagi o'zaro ichki nizolar tufayli Navoiy o'zining ona shahri Hirotdan uzoqda yashashga majbur bo'lgan.

1469-yil Temuriy Husayn Boyqaro Hirotni egallaydi va Xuroson hukmdori bo'ladi. Shu vaqtdan e'tiboran, Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi. U mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Shu yili Xuroson hukmdori Navoiyni davlat muhrdori etib tayinlaydi, 1472-yil vazir bo'ladi. Egallagan mansabi orqali u mamlakatning madaniy va ilmiy taraqqiyotida katta yordam ko'rsatadi. Katta mulk egasiga aylanadi.

Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug'zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan, Alisher Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallagantshlarda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi.

Bosh vazir Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqa boshladi.

Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha Madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlattirgan. Ular orasida Hirotdagi "Ixlosiya", "Nizomiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, "Shifoiya" tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan "Dorul-huffoz" binosi, Marvdagi "Xusraviya" madrasasi, Mashhaddagi "Dorul-huffoz" xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor.

Bu davrda Hirotda adabiy hayot jo‘sh o‘rgan. Alisher Navoiy atrofida Shayxim Suhayliy, Xoja Osafiy, Binoiy kabi o‘nlab shoirlar, Hasan Noiy, Xoja Abdullo Marvoriy, Qulmuhammad Udiy, Shohquli g‘ijjakiy kabi o‘nlab sozandalar, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Xoja Hofiz Muhammad, Sultonali Koiniy, Muhammad Xandon, Mavlono Hijroniy kabi mashhur kotiblar, Behzod kabi musavvirlar qizg‘in ijodiy mehnat bilan band edilar. Hirotda, umuman Xuroson mulkida ma‘naviy hayotning baquvvat ustunlaridan Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik - ustoz-shogirdlik ko‘p masalalarda hamfikrlilikka olib keldi. Alisher Navoiyning o‘zbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan “Hiloliya” qasidasi Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan bo‘lsa, forsiy tildagi birinchi yirik asari “Tuhfat ul-afkor” qasidasi Jomiyga bag‘ishlangan edi.

1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o‘zining o‘zbek tilida yozgan she‘rlaridan iborat ilk devoni – “Badoe’ ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”)ni tuzdi. Mazkur devonda 777 g‘azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit‘a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug‘z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tar-je‘band, 2 musaddas bo‘lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan-kam o‘zbek shoiriga nasib bo‘lgan. Alisher Navoiy “Badoe’ ul-bidoya” tuzilgandan keyingi davrda yozilgan o‘zbekcha she‘rlari asosida 1480-yillarning oxirida “Navodir un-nihoya” («Behad nodirliklar») devonini tuzdi. 1841-1882-yillarda Alisher Navoiy “Chixl hadis” (“Qirq hadis” yoki “Arbain”) asarini yozadi. Bunda Muhammad payg‘ambar(sav) ning qirq hadisi to‘rtlik bilan she‘riy ifodalab berilgan.

Alisher Navoiy mansub adabiy hayotda she‘riy janrlardan g‘azal, qasida, ayniqsa muammo yozishga qiziqish kuchli edi. Alisher Navoiyning insonparvarlik faoliyati, ilg‘or qarashlari, uning obro‘ e‘tibori xalq orasida tobora ortib borishi o‘z manfaatlarini ko‘zlagan saroy ayonlari orasida norozilik tug‘dirdi.

Alisher Navoiy 1491-1492-yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she‘rlaridan yangi, yig‘ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1499-yilda nihoyasiga

yetdi. Devonning umumiy nomi “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasini”) bo‘lib, 4 qismdan iborat bo‘lganligi uchun “Chor devon” deb ham atalgan.

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo‘lish mumkin:

1. Devonlari.
2. Dostonlari.
3. Forsiy tildagi she’riy merosi.
4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o‘zbek tilida yaratgan she’riy merosi asosan “Xazoyin ul-maoniy” devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga “g‘aroyib ussigar” (“Bolalik g‘aroyibotlari”), ikkinchi qismiga “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirotlari”), uchinchi qismiga “Badoe’ ul-vasat” (“o‘rta yosh badialari”) va nihoyat, to‘rtinchi qismiga “Favoyid ul-kibor” (“Keksalik foydalari”) degan nomlar berildi.

Alisher Navoiyning muhabbat va bu bilan bog‘liq tug‘yonlari, xususan g‘azallari uning yigitlik davrida yozilgan. Bunga uning “Ilk devoni”ga kiritilgan, xalq orasida “Qaro ko‘zum”, “Kelmadi” (“Munojot”) nomlari bilan mashhur bo‘lgan va kuylanadigan g‘azallari yaxshi misol bo‘la oladi.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida o‘zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda ham ijod qilib, barakali meros yaratdi. Alisher Navoiy shoir bo‘lish bilan birga o‘z davrining ulug‘ olimi, mutafakkiri ham edi. Navoiysiz bu davr fani va madaniyati taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Alisher Navoiy ilmiy tadqiqotlari va izlanishlarining katta qismi, tabiiyki, til va adabiyot masalalari bilan bog‘langan.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘shgan; ilm, fan, san’at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan.

Ko‘rib turganimizdek, Navoiy merosi mavzu va janrlari bo‘yicha turlicha. Uning asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o‘zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida uning asarlari taqlid va ilhom manbai bo‘lib hisoblanib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy nafaqat o'z davrining yuksak salohiyatga ega shoiri va mutafakkiri, balki ma'naviyat, san'at va madaniyatning haqiqiy homiysi sifatida ham tarixda beqiyos iz qoldirgan. Uning faoliyati nafaqat adabiy ijod bilan cheklanib qolmagan, balki jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni, ilm-fan va san'atni rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar bilan ham boyitilgan. Navoiy tomonidan barpo etilgan madrasalar, masjidlar, kutubxonalar va hunarmandchilik markazlari uning madaniy hayotni ravnaq toptirishdagi ulkan hissasini namoyon etadi.

Shu bilan birga, Navoiy ijodida inson kamoloti, ma'rifat va ezgulik g'oyalari bosh mavqeni egallagan bo'lib, bu uning badiiy merosini abadiy qadrli qiladi. Uning san'atni inson qalbini poklovchi, jamiyatni ma'rifatga yetaklovchi kuch sifatida talqin etishi - bugungi kunda ham o'ta dolzarbdir.

Alisher Navoiyning san'at va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyati uni ulkan ma'naviy yetakchi darajasiga ko'targan. Uning merosi nafaqat o'z davri, balki butun o'zbek xalqining madaniyat tarixi uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi zamonda ham ilhom va ma'naviyat manbai bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat-ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan, 1961.
3. Navoiy, A. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1987.
4. Mutalibov, A. Alisher Navoiy: Hayoti va ijodi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
5. Oripov, H. Navoiy ijodining badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Adabiyot, 2005.
6. Shukurov, S. Alisher Navoiy falsafasi va tasavvuf. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
7. Qosimov, B. Alisher Navoiy merosi va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2015.

---

**ALISHER NAVOIY NAZMIDA CHOLG‘U TARONALARINING  
BADIY-FALSAFIY TALQINI**

*Saddinov Alisher Atadjanovich*  
*O‘zbekiston davlat xoreografiya*  
*akademiyasi*  
*Urganch filiali katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy nazmida musiqiy cholg‘ular va cholg‘u taronalari obrazlarining badiiy-falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Navoiy ijodida musiqa inson ruhiyati, ilohiy ishq va tasavvufiy kamolotni ifodalovchi muhim ramz sifatida talqin etiladi. Shoirning g‘azal, ruboiy va dostonlarida uchraydigan nay, chang, rubob kabi cholg‘ular orqali ruhiy iztirob, qalb ohanglari va ma’naviy uyg‘onish g‘oyalari ochib beriladi. Maqola adabiy-tahliliy hamda tarixiy-madaniy metodlarga tayangan holda yozilgan bo‘lib, Navoiy ijodida musiqa san’atining estetik va falsafiy ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, nazm, cholg‘u taronalari, musiqa, tasavvuf, badiiy ramz, mumtoz adabiyot.

**Abstract.** This article analyzes the artistic and philosophical content of the images of musical instruments and instrumental songs in the poetry of the great thinker and poet Alisher Navoi. The study interprets music in Navoi's work as an important symbol expressing the human spirit, divine love and mystical perfection. Through instruments such as the flute, chang, and rubab found in the poet's ghazals, rubai and epics, the ideas of spiritual anguish, soul melodies and spiritual awakening are revealed. The article is written based on literary-analytical and historical-cultural methods and serves to illuminate the aesthetic and philosophical significance of the art of music in Navoi's work.

**Keywords:** Alisher Navoi, poetry, instrumental songs, music, mysticism, artistic symbol, classical literature.

**Abstract.** This thesis examines the artistic and philosophical interpretation of musical imagery and instrumental motifs in the poetry of the great thinker and poet

Alisher Navoi. The study focuses on the symbolic role of musical instruments such as the *nay*, *chang*, and *rubab*, which in Navoi's works serve as expressive means for conveying spiritual experience, inner harmony, and Sufi concepts. Through literary and historical-cultural analysis, the research demonstrates that references to instrumental melodies in Navoi's ghazals, rubaiyat, and epic works are not decorative elements, but significant artistic devices that deepen the emotional and semantic layers of the poetic text. The thesis highlights the close interconnection between poetic language and musical tradition in classical Eastern literature and emphasizes the role of music as a metaphor for divine love, spiritual purification, and moral perfection in Navoi's literary heritage.

**Keywords:** Alisher Navoi, poetry, musical imagery, musical instruments, Sufism, artistic symbolism, classical literature, Eastern musical tradition

Alisher Navoiy turkiy mumtoz adabiyot tarixida yuksak ma'naviy-falsafiy tafakkur egasi sifatida alohida o'rin tutadi. Uning ijodida inson ruhiyati, ilohiy ishq, axloqiy kamolot masalalari chuqur ramziy obrazlar orqali ifodalangan. Shu obrazlar tizimida musiqa va cholg'u taronalari muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi [1, b. 215].

Navoiy nazmida musiqa nafaqat estetik zavq manbai, balki qalb poklanishi, ruhiy uyg'onish va tasavvufiy haqiqatlarni anglash vositasi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, cholg'u obrazlari shoirning ichki kechinmalari va falsafiy qarashlarini ifodalashda alohida semantik yuklama kasb etadi [3, b. 84].

Mazkur tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiy nazmida uchraydigan cholg'u va musiqa obrazlarini tahlil qilish, ularning badiiy-falsafiy mohiyatini ochib berish hamda shoir ijodida musiqaning ma'naviy ahamiyatini yoritishdan iborat.

Alisher Navoiy asarlarida nay, chang, rubob, ud kabi cholg'ular inson qalbi va ruhiy holatining timsoli sifatida talqin qilinadi. Tasavvufiy adabiyot an'anasiga ko'ra, ayniqsa nay obrazi ruhning asl manbadan ajralib, ilohiy ishqqa intilish holatini ifodalaydi [6, b. 132]. Navoiy bu an'anani davom ettirib, nay sadolarini qalb iztirobi va ilohiy sog'inch ramziga aylantiradi.

Chang va rubob shoir nazmida qalbning ichki ohanglarini uygʻotuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Bu cholgʻular orqali shoir inson ruhiyatidagi nozik va soʻz bilan ifodalash mushkul boʻlgan kechinmalarni badiiy obraz darajasiga koʻtaradi [4, b. 57]. Navoiy nazmida cholgʻu taronalari koʻpincha oshiq qalbining iztirobi va ilohiy ishqqa yetishish yoʻlidagi ruhiy kechinmalar bilan bogʻliq holda beriladi.

Navoiy ijodida musiqa tasavvufiy kamolot yoʻlining muhim unsuri sifatida talqin etiladi. Musiqa inson qalbini poklaydi, uni ezgulikka chorlaydi va ilohiy haqiqatga yaqinlashtiradi. Shoir asarlarida musiqa va cholgʻu taronalari maʼnaviy tarbiya vositasi sifatida ham namoyon boʻladi [3, b. 146].

Bu holat Navoiy ijodida soʻz sanʼati va musiqa oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni yaqqol koʻrsatadi. Musiqa shoir uchun nafaqat sanʼat turi, balki ruhiy yetuklik va ilohiy haqiqatni anglash vositasi hisoblanadi [7, b. 29].

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy nazmida cholgʻu taronalari chuqur badiiy va falsafiy mazmunga ega boʻlib, shoirning maʼnaviy-estetik qarashlarini yoritishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Musiqa Navoiy ijodida inson qalbi, ilohiy ishq va tasavvufiy kamolot ramzi sifatida namoyon boʻladi.

Shoir cholgʻu obrazlari orqali ruhiy kechinmalarni yuksak badiiy darajada ifodalay olgan. Bu esa Navoiy ijodining nafaqat adabiy, balki musiqiy-estetik meros sifatidagi ahamiyatini ham oshiradi. Mazkur tadqiqot natijalari Alisher Navoiy ijodini chuqurroq anglash va uning musiqiy-falsafiy qarashlarini oʻrganishda muhim ilmiy manba boʻlib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Navoiy A. Xamsa. - Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2011.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: Fan, 2008.
3. Komilov N. Tasavvuf va mumtoz sheʼriyat. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2009.
4. Haqqulov I. Navoiy va musiqa olami. - Toshkent: Maʼnaviyat, 2014.
5. Karimov B. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: Fan, 2010.
6. Бертельс, Е. Э. Навои и Джами. Москва: Наука, 1965.
7. Fitrat. Adabiyot qoidalari. - Toshkent: Sharq, 1995.

---

## ALISHER NAVOIY IJODIDA RAQS SAN'ATINING BADIY QIYMATI

*Samandarova Shaxnoza Nuraddinovna*

*Mustaqil tadqiqotchi*

*O'zbekiston davlat xoreografiya*

*akademiyasi*

*Urganch filiali o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosida raqs san'atining badiiy-estetik qiymati XIV–XV asrlarda Hirot shahrida shakllangan yuksak madaniy muhit misolida tahlil qilinadi. Zayniddin Vosifiy, Mirxond, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mualliflarning yozma manbalari hamda tasviriy san'at namunalariga tayangan holda, saroy va ommaviy tomoshalarda raqs, musiqa va teatr san'atining o'zaro uyg'unligi ochib beriladi. Shuningdek, Sayyid Badr, Mirok Za'faron, Sulton Sarroj kabi mashhur raqqoslar ijodi, "Kari navo" va "Munojot" kabi raqslarning kelib chiqishi ilmiy asosda yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro, Hirot, raqs san'ati, Vosifiy, Sayyid Badr, "Kari navo".

**Аннотация.** В статье анализируется художественно-эстетическая ценность танцевального искусства в творческом наследии Алишера Навои на фоне культурной среды Герата XIV–XV веков. На основе письменных источников Зайниддина Васифи, Мирхонда, Захириддина Мухаммада Бабура, а также памятников изобразительного искусства анализируется взаимосвязь танца, музыки и театра в придворных и народных представлениях. Особое внимание уделяется творчеству выдающихся танцоров - Саййида Бадра, Мирака Зафрона, Султана Сарраджа, а также происхождению танцев "Кари наво" и "Муножот".

**Ключевые слова:** Алишер Навои, султан Хусайн Байкара, Герат, танцевальное искусство, Васифи, Саййид Бадр.

**Abstract.** This article analyzes the artistic and aesthetic value of dance in the creative heritage of Alisher Navoi using the example of a high cultural environment formed in the city of Herat in the 14th-15th centuries. Based on written sources and examples of fine arts by authors such as Zayniddin Vasifi, Mirkhand, Zahiriddin Muhammad Babur, the harmony of dance, music and theater in palace and public performances is revealed. Also, the work of famous dancers such as Sayyid Badr, Mirok Za'faron, Sultan Sarraj, the origin of dances such as “Kari navo” and “Munojot” is covered on a scientific basis.

**Keywords:** Alisher Navoi, Sultan Husayn Boykaro, Herat, dance art, Vasifi, Sayyid Badr, “Kari navo”.

XIV–XV asrlarda Hirot shahri Temuriylar davlati hududida nafaqat siyosiy markaz, balki Sharq Uygʻonish davrining yirik madaniy va badiiy oʻchogʻiga aylandi. Ayniqsa, Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi hamda Alisher Navoiy tashabbuslari bilan saroylar, qasrlar va koʻrkam bogʻlarda sanʼatkorlar jamlanib, oʻz hunarlarini namoyish etish anʼanaga aylandi. Bu jarayon musiqiy, teatr va xoreografik sanʼatlarning yuksak darajada rivojlanishiga zamin yaratdi.

Zayniddin Vosifiyning asarlarida qayd etilishicha, Navoiy va Husayn Boyqaro tomonidan tashkil etilgan bunday majlislarga yuzlab sanʼatkorlar, jumladan, Hirotning mashhur raqqoslari - Mirok Zaʼfron, Shomhammad Mirok, Sulton Siroj, Mirzo Nattuz, Xasan Zardoʻz, Sarvi kabir Joʻy, Shamshodi Soyakorvar, Yusuf Mozoriy, Chilgʻoziy, Maxi Simnayi, Boki Iroqiy kabilar taklif etilganini koʻrsatadi [1. B-41.]. Yozma manbalar va tasviriy sanʼat yodgorliklari Navoiy yashagan davrda Hirotida musiqa, teatr va xoreografiya sanʼatining keng miqyosda ravnaq topganidan dalolat beradi.

Bu davrda Hirotga turli hududlardan koʻplab sanʼat ustalari yigʻilib, betakror isteʼdod egalari yetishib chiqdi. Xalq sayllari va tomoshalari keng koʻlamda oʻtkazilib, ularda professional sozandalar, raqqoslar va aktyorlar bilan bir qatorda hunarmandlar, ziyolilar hamda savdo ahli faol ishtirok etgan.

Vosifiyning yozishicha, Hirotning Malik darvozasi yaqinida joylashgan, uzunligi bir chaqirimga yaqin bo‘lgan ko‘chada maxsus “tarabxona” - tomoshaxona mavjud bo‘lgan. Ushbu hududda masxarabozlar, sozandalar va raqqoslar doimiy chiqishlar qilgan. Har bir uy va imoratdan nog‘ora, nay, gijjak, ud va tanbur sadolari yangrab, bu makon butun Xuroson va Movarounnahrda mashhur bo‘lgan san‘at markaziga aylangan.

Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida Sulton Husayn Boyqaroning singlisi Badiul Jamol begimning Hirotga tashrifi munosabati bilan shaxarning eng katta istiroxat bog‘laridan “Bogi Zag‘on”da ikki oy davom etgan bayram va tomoshalar o‘tkazilgan. Unda masxarabozlar va raqqosalar tomonidan odamni hayratga soluvchi tomoshalar qiziqarli o‘yinlar namoyish etilgani haqida ma’lumot qoldirgan [2. B-35].

Vosifiy Navoiyning tashabbusi bilan Dilkusho bog‘ida o‘tkazilgan bazm-aro yig‘in haqida batafsil ma’lumot beradi. Unda hofizlar, xonandalar, badiha ustalari va mashhur raqqoslar - Mirok Za‘faron, Shoh Muhammad Mirok, Sulton Sarroj, Mirza Natduz, Hasan Zarduz va boshqalar ishtirok etgan.

Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Alisher Navoiy ayniqsa yigitlar raqsini yuksak baholagan. Shoirning:

*Yigitligimda edim muftalo yigitlarga, Ko‘rib ham o‘zni tilarmen fido  
yigitlarga,*

mazmunidagi bayti bunga dalildir. Zahiriddin Muhammad Bobur “Muxtasar” asarida Navoiyning bir luli raqqos yigitga bag‘ishlangan g‘azalini to‘liq keltiradi. Ushbu luli nafaqat raqqos, balki sirk san‘atining turli yo‘nalishlarida ham mohir ijrochi bo‘lgan.

Sayyid Badr va “Kari navo” raqsi haqida to‘liqroq ma’lumotga keltirib o‘tamiz. Navoiy davrida yashab ijod qilgan mashhur raqqoslardan biri Sayyid Badr bo‘lib, u Husayn Boyqaro amirlaridan sanalgan. Sayyid Badr nafaqat ijrochi, balki yuksak iste’dodli ijodkor sifatida ham tanilgan. “Kari navo” kuy va raqsining kelib

chiqishi Navoiyning nomi bilan bog‘lanib, ushbu raqs ulug‘ shoir sharafiga Sayyid Badr tomonidan yaratilgan bo‘lishi ehtimoli ilmiy jihatdan asoslanadi.

Navoiy davrida Xuroson va Movarounnahr hududida raqs san‘ati uch asosiy toifaga bo‘lingan: saroy va zodagonlar orasida ijro etilgan mumtoz raqslar; xalq marosimlari va qo‘shiqlari bilan bog‘liq o‘yin-raqslar; hamda tasavvuf tariqatlari doirasidagi zikr va samo raqslari. “Munojot” va “Kari navo” raqslari aynan shu davrda zikrdan ajralib, mustaqil tomoshaviy raqs shakliga aylangan.

Hiroat rassomlari tomonidan yaratilgan ko‘plab miniatyuralarda musiqa, teatr va raqs sahnalari tasvirlangan. Tehron muzeyida saqlanayotgan Husayn Boyqaro saroyidagi bazm tasvirlangan miniatyura bunga yorqin misoldir. Unda o‘n ikki nafar raqqosaning davra hosil qilib, nafis harakatlar bilan ijro etayotgan jamoaviy raqsi, ularning maxsus tikilgan liboslari va sozandalar bilan uyg‘unligi yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan.

Alisher Navoiy ijodida raqs san‘ati bevosita sahnaviy hodisa sifatida emas, balki badiiy tafakkurning ramziy qatlamlari orqali namoyon bo‘ladi. Shoirning poetik tizimida harakat, aylanish, ritm va ohang tushunchalari inson ruhiy holati, ishqiy kechinma va ilohiy jazbani ifodalovchi estetik kategoriyalarga aylangan. Raqs shu ma’noda Navoiyning badiiy olamida tashqi harakatdan ichki holatga o‘tuvchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Navoiyning tasavvufiy qarashlari bilan uyg‘un bo‘lgan raqs obrazlari, ayniqsa, samo va zikr bilan bog‘liq harakatlar orqali ilohiy muhabbat g‘oyasini yoritadi. Bu yerda harakatning uzluksizligi va aylanishning markazga intilishi ramziy mazmun kasb etib, komil inson g‘oyasiga xizmat qiladi. Shu bois raqs Navoiyning estetik qarashlarida nafaqat ko‘ngilochar unsur, balki ma’naviy kamolot vositasi sifatida talqin etiladi.

Navoiyning badiiy tilida uchraydigan harakatga doir metaforalar - qadam tashlash, aylanish, qo‘l va nigoh ishoralari - xoreografik poetika unsurlari sifatida qaralishi mumkin. Bu metaforalar raqs san‘atining plastika va ritm qonuniyatlari bilan uyg‘unlashib, so‘z va harakat o‘rtasidagi uzviy aloqani namoyon etadi. Natijada raqs poetik obrazga, poetik obraz esa sahnaviy harakatga yaqinlashadi.

Saroy va ommaviy tomoshalarda shakllangan raqs an'analari Navoiyning estetik didi va san'atga bo'lgan yuksak talabi bilan boyidi. Shoir tomonidan qadrlangan raqqoslar ijrosi harakatning nafisligi, ritmik aniqligi va obrazli ifodasi bilan ajralib turgan. Bu hol raqs san'atining professional darajaga ko'tarilganini ko'rsatadi. Alisher Navoiy badiiy tafakkurida go'zallik tushunchasi faqat tashqi shakl bilan chegaralanmaydi. Uning estetik idealida go'zallik - bu harakat, ohang va mazmun uyg'unligidir. Raqs san'ati aynan shu uchlikni o'zida mujassam etgani bois, Navoiy estetik qarashlari bilan mushtaraklik kasb etadi. Shoir uchun raqs inson ruhiy holatini ifodalovchi vosita bo'lib, u ishqiy ehtiros, hayrat, shavq va jazba kabi tuyg'ularni harakat orqali namoyon etadi.

Navoiyning lirik qahramoni ko'pincha harakatda tasvirlanadi: u charx uradi, o'zini unutadi, ishq yo'lida sarson bo'ladi. Bu tasvirlar raqs plastikasiga xos bo'lgan dinamik holatlarni eslatadi. Raqs san'ati musiqa bilan uzviy bog'liq holda mavjud bo'ladi. Navoiy davrida raqs, musiqa va she'riyat bir butun estetik tizim sifatida qaralgan. Vosifiy, Mirxond va boshqa mualliflar keltirgan ma'lumotlar bu davrda hofiz, sozanda va raqqoslarning birgalikdagi ijrosi yuqori baholanganini ko'rsatadi. Navoiy ana shu uyg'unlikni san'atning mukammallik mezoni sifatida ko'radi.

Navoiyning asarlarida kuy, ohang, nag'ma tushunchalari tez-tez uchraydi. Bu tushunchalar ko'pincha harakat bilan birga tilga olinib, raqs va musiqa o'rtasidagi tabiiy aloqani ifodalaydi. "Kari navo" va "Munojot" kabi raqslarning paydo bo'lishi ham aynan musiqiy-ohangdor asos bilan bog'liq bo'lib, bu hol Navoiyning estetik qarashlari bilan bevosita mushtarakdir.

Navoiyning davrida raqs san'ati saroy va xalq muhitida turli shakllarda namoyon bo'lgan. Saroy raqslari ko'proq ramziy, nazokatli va tartibli harakatlar bilan ajralib turgan bo'lsa, xalq raqslari erkinlik, jo'shqinlik va bevositalik bilan tavsiflangan. Biroq bu ikki qatlam bir-biridan uzilgan emas, balki o'zaro ta'sirda rivojlangan. Navoiy ijodida bu ikki qatlamning estetik sintezi kuzatiladi. Shoir xalqona jo'shqinlikni inkor etmaydi, aksincha, uni yuksak badiiy shaklga ko'taradi.

Shu bois Navoiyning estetik qarashlarida raqs san'ati ijtimoiy tabaqalardan qat'iy nazar, umuminsonga xos badiiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

Navoiyning poetik olamida raqs obrazlari ko'pincha ramziy ma'noga ega. Aylanish - koinot harakati, charx - taqdir, qadam tashlash - insonning hayot yo'li ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu ramzlar raqs san'atida ham asosiy ifoda vositalaridan sanaladi. Shu bois Navoiyning she'riy obrazlari xoreografik talqinga juda yaqin turadi. Bu raqslar orqali inson o'z "men"idan voz kechib, ilohiy haqiqatga yaqinlashadi. Navoiyning ishqiy lirikasida ham ana shu o'zini unutish, fano holati tez-tez tasvirlanadi.

Vosifiy va Bobur keltirgan ma'lumotlar Navoiyning raqs san'atiga befarq bo'lmaganini, aksincha, uni chuqur tushunganini ko'rsatadi. Shoir raqqoslarning nafaqat tashqi harakatiga, balki ichki mahoratiga, obraz yaratish qobiliyatiga ham e'tibor qaratgan. Navoiyning Sayyid Badr kabi raqs ustalarini qadrlagani, ularning ijodini kuzatib borgani haqida manbalarda qayd etilishi bejiz emas. Bu hol Navoiyni raqs san'atining homiysi va nazariy tushunuvchisi sifatida ham baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy ijodida raqs san'ati badiiy-estetik hodisa sifatida ko'p qatlamli mazmunga ega. U xalq an'analari, saroy madaniyati va tasavvufiy qarashlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllangan bo'lib, Navoiyning badiiy tafakkurida harakat va ma'no birligining yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur holat raqs san'atini o'rganishda Navoiyni nafaqat adabiy manba, balki estetik mezon sifatida ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Yozma manbalar va tasviriy san'at namunalari tahlili shuni ko'rsatadiki, XIV–XV asrlarda Hirot raqs san'ati Sharq madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida yuksak darajada rivojlangan. Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro homiyligi ostida shakllangan bu muhit raqs san'atini nafaqat tomosha, balki yuksak estetik va falsafiy hodisa darajasiga ko'targan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy ijodida raqs san'ati tasodifiy yoki ikkilamchi hodisa emas. U shoirning estetik qarashlari, tasavvufiy

falsafasi va badiiy ideal tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Raqs Navoiyning badiiy olamida harakat orqali ma’no yaratish, ruhiy holatni ifodalash va go‘zallikni idrok etish vositasiga aylanadi. Shu jihatdan, Navoiyni o‘zbek va umuman Sharq raqs san’ati tarixini o‘rganishda muhim nazariy manba sifatida baholash ilmiy jihatdan asoslidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Н.Н. Болдырев Зайнутдин Восифий. Сталинабад, 1957, стр.41.
2. Мирхонд. Равзатус-сафо. Бомбей, литография 639. Книга VII, стр. 35. XV ар тарихчиси. Навоий замонаши ва ихлосманди. Мирхонднинг “Равзатус-сафо” (Роҳат боғлари) асарининг асл қўлёзмаси Ўзбекистон Фанлар Академиясининг Шарқшунослик институтида сақланади. № 7309.
3. Авдеева Л. Ўзбек миллий ракси тарихидан. (Қадимий замонлардан 2000 йилга қадар Т. Муқаррама Турғунбоева номидаги «Ўзбекракс» Ўзбек анъанавий рақс санъати). миллий рақс бирлашмаси, 2001. -204 бет.
4. Кодиров М. Юсуфжон қизиқ ижоди. Т.: Ўзбекистон, 1969, 32 б.
5. Каримова Р., Собирова Ф. Нурсафардия. Ҳаракатлар тизимида ўзбек миллий рақслар ва жанговор ўйинлари. -Т.: Lider Gress, 2008. 330 б. с.
6. Кодиров М.Х. Темурийлар даври томоша санъати. Т.: Санъат, 2007.
7. Кодиров М. Томоша санъатлари ўтмишда ва бугун. - Т: Мумтоз сўз, 2013.49б.
8. Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи. Т.: Фан, 1968. 27-б.
9. Рахмонов М. Ўзбек театри (қадимги замонлардан XVIII асргача). Т: Фан, 1975, 46 б.

---

**ALISHER NAVOIY IJODIDA RAQSNING YASHIRIN TIMSOLLARI***Tillayev Azamat Miyliyevich**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi  
Urganch filiali "Xoreografiya" kafedrasida assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodida raqs san'atining bevosita sahna ijrosi sifatida emas, balki timsol va ramziy ma'noda qanday aks etganini o'rganadi. Doston va g'azallarda qahramonlarning harakati, bazm va majlis sahnalari orqali ruhiy kechinmalar, ichki holat va jamiyat madaniyati timsoli sifatida raqs ishlatilganligi tahlil qilinadi. Maqola Navoiy ijodida raqs timsoli orqali inson ruhiyati va Sharq madaniyati qadriyatlarini qanday ifodalashini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar.** Navoiy, raqs, timsol, bazm, majlis, Farhod va Shirin, Majolis un-nafois, ruhiy kechinma, Sharq madaniyati, g'azal.

**Аннотация.** В данной статье исследуется, каким образом в творчестве Alisher Navoiy искусство танца проявляется не как непосредственное сценическое действие, а как образ и символ. Анализируется, как в дастанах и газелях через движение героев, сцены базма и маджлиса танец используется для выражения духовных переживаний, внутреннего состояния личности и культурных ценностей общества. Особое внимание уделяется произведениям «Фархад и Ширин» и «Маджolis ун-наfois», где пластика и движение приобретают символическое звучание. Статья показывает, каким образом посредством образа танца Навои раскрывает мир человеческой души и ценности восточной культуры.

**Ключевые слова:** Навои, танец, символ, базм, маджлис, «Фархад и Ширин», «Маджolis ун-наfois», духовное переживание, восточная культура, газель.

**Abstract.** This article examines how, in the works of Alisher Navoiy, the art of dance appears not as a direct stage performance but as an image and symbolic expression. It analyzes how, in the epics and ghazals, through the movement of characters and the depiction of festive gatherings and literary assemblies, dance

functions as a metaphor for spiritual experience, inner emotional states, and the cultural values of society. Particular attention is given to “Farhad and Shirin” and “Majolis un-nafois”, where movement acquires symbolic depth. The article demonstrates how, through the image of dance, Navoi conveys the complexity of human psychology and the values of Eastern culture.

**Keywords:** Navoi, dance, symbol, bazm, majlis, “Farhad and Shirin”, “Majolis un-nafois”, spiritual experience, Eastern culture, ghazal.

Alisher Navoiy ijodi XV asr Markaziy Osiyo adabiyoti va madaniyatining eng yuksak namunalari sifatida e’tirof etiladi. Uning asarlarida inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar va jamiyat madaniyati masalalari she’riy va doston shaklida ifodalanadi. Shu bilan birga, Navoiy asarlarida raqs san’ati bevosita sahna ijrosi sifatida emas, balki timsol va ramziy vosita sifatida aks etadi.

Doston va g‘azallarda qahramonlarning harakati, qomat silkinishi va burilishlari ruhiy kechinmalarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Bazm va majlis sahnalari esa dostonlarda ko‘p uchrab, jamiyat madaniyatini ham ochib beradi. Masalan, “Farhod va Shirin” [1. 1991. 560 b.] dostonida qahramonlarning bazmdagi harakatlari va o‘zaro muloqotlari ularning ruhiy holatini ifodalaydi. Shu bilan birga, “Layli va Majnun”da [2. 1991. 560 b.] oshiqning tashvishi va muhabbat kechinmalari jismoniy harakatlar orqali tasvirlanadi.

g‘azallarda tananing harakati, jumladan aylanish, burilish va qomat silkinishi qahramonning ruhiy holatini bildiradi. Bu harakatlar sahna raqsi sifatida emas, balki timsoliy ifoda sifatida xizmat qiladi. Bazm va majlis sahnalari orqali jamiyatning madaniy qadriyatlari va axloqiy me’yorlari ham ochib beriladi. Shu jihatdan, “Majolis un-nafois” [3. 1978. 320 b.] va “Nasoyim ul-muhabbat” [4.1980. 245 b.] asarlarida raqqosalar va bazm sahnalari aniqroq tasvirlangan bo‘lib, ular Navoiy ijodida raqsni real madaniy faoliyat sifatida yoritadi.

Navoiy raqs timsolini inson ruhiyati bilan bog‘lab beradi. Dostonlarda sahna harakatini emas, harakat orqali ichki kechinmani ko‘rsatish ustun. Raqs timsoli orqali Navoiy Sharq madaniyati va jamiyat qadriyatlarini ifodalaydi. Shu bilan

birga, “Sab’ ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida raqs bevosita nom bilan tilga olinmagan, lekin bazm va qahramon harakati orqali timsoliy ifoda mavjud.

Bu jihat dostonlarni tadqiq qiluvchi adabiyotshunoslar va sahna san’ati tadqiqotchilari uchun qiziqarli qiladi. Navoiy raqsni timsol sifatida ishlatadi, lekin bu timsol ruhiy, axloqiy va madaniy kontekstda joylashadi. G’azallarda oshiq yoki qahramon holati jismoniy harakatlar bilan ifodalanadi, bu esa ularning ichki kechinmalarini tasvirlaydi. Bazm va majlis sahnalarida harakatlar jamiyat qadriyatlari va estetik me’yorlar bilan uyg’unlashadi.

Alisher Navoiy ijodida raqs nomlari bevosita tilga olinmagan bo’lsa-da, zamonaviy raqs san’ati olamida uning asarlariga murojaat qiladigan baletmeysterlar keng tarqalgan. Ularning ijodiy faoliyati Navoiy dostonlaridagi timsoliy qatlamlar, bazm va majlis sahnalari orqali ifodalangan ruhiy va madaniy kechinmalarni sahnada jonli aks ettirishga qaratilgan. Shu tarzda, Navoiy ijodi faqat adabiy meros sifatida emas, balki sahna san’ati orqali milliy madaniyatni boyitish, zamonaviy raqs repertuariga chuqur estetik va falsafiy mazmun qo’shish vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda.

Shu sohada yetakchi baletmeysterlardan biri O‘zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg’unboyeva bo’lib, uning sahnadagi ijodiy yondashuvi Navoiy asarlaridagi timsoliy qatlamlarni nafosat va estetik uyg’unlik bilan ifodalashga qaratilgan. U asarlaridagi bazm va majlis sahnalari, qahramonlarning ruhiy kechinmalari va madaniy kontekstni sahnada jonli aks ettirish orqali Navoiy ijodining zamonaviy talqinini yaratadi. Shu tariqa, baletmeysterlar ijodi Navoiy ijodining timsoliy qatlamlarini zamonaviy sahna san’atiga uzviy bog’lab, uning falsafiy va madaniy merosini yangi avlod tomoshabinlariga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

“Yetti go‘zal” raqsi o‘zbek mumtoz raqs san’atida muhim o‘rin tutadi va xususan, Mukarrama Turg’unboyeva tomonidan asos solingan “Bahor” ansambli repertuarida alohida namoyon bo‘ladi. Ushbu raqs Navoiy ijodidagi “Sab’ ayi sayyor” dostoniga va Nizomiy Ganjaviy asarlariga asoslanib yaratilgan bo‘lib, turli

o'lkalardan kelgan malikalarning go'zalligi, madaniyati va milliy xususiyatlarini sahnadagi harakatlar orqali ifodalaydi. Shu tarzda, raqs timsoli nafaqat estetik go'zallik, balki madaniy va tarixiy merosning sahnadagi aksidir.

Raqsnings asosiy g'oyasi yetti xil xalqning - hind, xitoy, arab, rum va boshqa mamlakatlar - madaniyatini va raqs an'analarini o'zbek raqs maktabi uslubida mujassamlashtirishdir. Har bir malika timsoli sahnadagi ritm va qo'l harakatlari orqali alohida ko'rinadi, bu esa raqsga rang-baranglik va ritmik uyg'unlik bag'ishlaydi. Mukarrama Turg'unboyeva raqsni klassik musiqiy asarlar bilan uyg'unlashtirib, uni nafosat va jozibadorlik jihatidan sahnalashtirgan.

Kiyinish uslubi ham raqs timsolining muhim qismi bo'lib, yetti xil libos har bir madaniyatning o'ziga xosligini ochib beradi. Ranglar, shakllar va bezaklar har bir xalqning estetikasini aks ettiradi, shu bilan birga, Navoiy dostonlaridagi timsoliy qatlamlarni sahnadagi vizual qatlam bilan uyg'unlashtiradi. "Yetti go'zal" raqsi bugungi kunda ham o'zbek raqs san'atining o'lmas durdonalari qatorida saqlanib, ansambl repertuarida yetakchi o'rin tutadi va Navoi ijodidagi bazm va majlis timsollarini zamonaviy sahnada jonli ifodalashga xizmat qiladi.

Shu tarzda, Navoiy dostonlaridagi raqs timsollari bilan "Yetti go'zal" raqsi orasidagi bog'liqlik, harakatlar va bazm sahnalarining timsoliy ma'nolari o'quvchi va tomoshabinga boy ilmiy va madaniy kontekstni taqdim etadi. Bu raqs orqali Navoi ijodining sahnadagi ruhiy va madaniy qatlamlarini zamonaviy ifodalash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Mamlakatimiz rahbari uchinchi Renessans g'oyasini ta'kidlar ekan, Alisher Navoiy "Emas oson bu maydon ichra turmoq" [5. 2022. - 416 b.] misrasini misol qilib keltiradi. Bu misra orqali dunyodagi hozirgi keskin globallashuv sharoitida uyg'unish zarurligi, mamlakatni yangi rivojlanish bosqichlariga olib chiqish lozimligi ifodalanadi. Navoiy ijodidagi ushbu misra har bir soha va qismning tubdan isloh qilinishi, shuningdek, ruhiy va madaniy yangilanish zarurligi haqida timsoliy ravishda ogohlantiradi. Shu tarzda, milliy adabiyot va madaniyat tarixidagi buyuk

meros bugungi kun talablariga mos tarzda talqin etiladi va har bir shaxs hamda jamiyatning intellektual va axloqiy uygʻonishida yoʻlboshchi rol oʻynaydi.

Ushbu konsepsiya raqs, bazm va majlis timsollari tahlili bilan bogʻliq boʻlgan maqolamiz kontekstida ham ahamiyatlidir. Navoiy asarlaridagi timsoliy qatlamlar orqali inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar va jamiyat madaniyati uygʻunligi aks etadi. Shu bilan birga, mamlakatimiz rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bogʻliq boʻlgan bu gʻoya, raqs va sahna sanʼati orqali ifodalangan madaniy merosning ahamiyatini yanada oshiradi. Raqs sahnalari, bazmlar va dostonlarda aks etgan timsoliy harakatlar, aynan shu uygʻonish va yangilanish jarayonini ramziy tarzda ifodalaydi, shuningdek, Navoiy ijodini zamonaviy kontekstga moslab talqin qilish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Navoiy A. Xamsa. Toshkent: Oʻzbekiston Davlat Nashriyoti, 1991. 560 b.
2. Navoiy A. Majolis un-nafois. Toshkent: Fan, 1978. 320 b.
3. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. Toshkent: Sharq, 1980. 245 b.
4. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti, 2022. - 416 b.

### **BUYUK MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIY IJODINING OʻZBEK VA JAHON XOREOGRAFIYASIDA AKS ETTIRILISHI**

*Botirov Shanazar Xusainovich*

*Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi  
Urganch filiali “Xoreografiya” kafedrasini v.b. dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodining Oʻzbekiston va jahon sahna xoreografiyasida qanday aks ettirilayotganini oʻrganadi. Adabiy-madaniy merosdan opera-balet, sahna kompozitsiyalari va video sahnalar orqali raqs va dramatik harakatlarga oʻtgan tahlil qilinadi. Navoiy asarlaridan ilhomlangan sahna spektakllari - “Xamsa” opera-baleti, “Layli va Majnun” hamda motivlar bilan

bog‘liq balet va musiqiy bayonotlar orqali milliy va xalqaro sahnalarda ijodiy translatsiya jarayoni yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, xoreografiya, opera-balet, sahna spektakli, O‘zbekiston, jahon sahnasi, Navoiy motivlari.

**Аннотация.** В данной статье исследуется, каким образом творчество Алишер Навои отражается в сценической хореографии Узбекистана и мирового театрального пространства. Анализируется процесс перехода литературно-культурного наследия в формы оперы-балета, сценических композиций и видеопостановок, где поэтический текст трансформируется в танцевальную и драматическую пластику. Рассматриваются сценические интерпретации, вдохновлённые произведениями Навои, в частности опера-балет «Хамса», «Лейли и Меджнун», а также балетные и музыкально-драматические постановки, основанные на его мотивах. Освещается процесс творческой трансляции национального наследия на отечественных и международных сценах.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, хореография, опера-балет, сценическая постановка, Узбекистан, мировая сцена, мотивы Навои.

**Abstract.** This article explores how the works of Alisher Navoiy are represented in the choreographic art of Uzbekistan and on the global stage. It analyzes the transformation of literary and cultural heritage into opera-ballet productions, stage compositions, and video performances, where poetic narratives are translated into dance and dramatic movement. Stage interpretations inspired by Navoi’s works-such as the opera-ballet “Khamisa,” “Layli and Majnun,” as well as ballet and musical-dramatic productions based on his motifs-are examined to reveal the process of creative transmission across national and international theatrical platforms.

**Keywords:** Alisher Navoi, choreography, opera-ballet, stage performance, Uzbekistan, world stage, Navoi motifs.

Alisher Navoiy nafaqat she'riyat mulkining sultoni, balki inson ruhiyatini chuqur anglay olgan, hissiyot va fikrlarning nozik qatlamlarini o'rganishga intilgan mutafakkir bo'lib, o'zining keng dunyoqarashi va ma'naviy chuqurligi bilan kelajakni ko'ra olgan, jamiyat va shaxsiy hayot masalalarini oldindan sezgan va ular ustida fikr yuritgan olim sifatida ham qadrlanadi.

Navoiyning ko'plab asarlari bugungi kungacha nafaqat teatr sahnalarida spektakl shaklida, balki kino lentalariga ham muhrlangan bo'lsa-da, uning hayoti va ijodiga doimiy ravishda qayta va qayta murojaat qilinadi. O'zbekiston balet teatriga Alisher Navoiy nomi berilishi esa xoreografiya sohasi mutaxassislarida ushbu buyuk mutafakkirning ijodini chuqurroq o'rganish, uning syujetlari va timsoliy qatlamlarini sahna tili orqali ifodalashga, shuningdek, milliy madaniyatning qadriyatlarini zamonaviy xoreografik amaliyot bilan uyg'unlashtirishga o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Shu bois, Navoiy merosini sahna va raqs tili orqali aks ettirish jarayoni nafaqat ijodiy, balki ilmiy tahliliy yondashuvni ham talab qiluvchi murakkab, lekin nihoyatda qiziqarli va boy tajriba hisoblanadi.

Alisher Navoiy (1441–1501) – Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri, shoir va faylasufi sifatida nafaqat adabiyotda, balki hozirgi zamon sahna san'atida ham uzluksiz ilhom manbai bo'lib keladi. Navoiy ijodining dramatik syujetlari, timsoliy qatlamlari va ma'naviy g'oyalari raqs, musiqa va dramatik sahna kompozitsiyalariga muvaffaqiyatli ko'chirilmoqda. Bu jarayon o'zbek professional san'ati bilan cheklanmay, xalqaro repertuarlarda ham iz qoldirmoqda. Opera, balet va sahna spektakllari orqali Navoiyning adabiy merosi xoreografik tilda ifodalanadi.

Alisher Navoiy asarlari sahna san'atiga o'tkazilishining eng yirik namunasidan biri 2017-yilda Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta Teatrida sahnalashtirilgan M.Bafoyevning "Xamsa" opera-baleti bo'ldi. Ushbu asar Navoiy beshta dostonining asosiy timsoliy qatlamlarini sahna tili, dramatik ijro va musiqiy kompozitsiya orqali jonlantiradi, tomoshabinga nafaqat syujet, balki chuqur ma'naviy tajriba taqdim etiladi. Har bir dostonning o'ziga xos motivlari sahnadagi

sahna kompozitsiyalari va harakatlar orqali ifodalanadi, bu esa asarning dramatik kuchini oshiradi [7].

Opera-balet dramaturgiyasi Navoiy asarlaridagi yetakchi g'oya va motivlarni sahnada qayta talqin etishga qaratilgan. Har bir harakat va sahna fragmenti Navoiy syujetidagi hissiy va axloqiy qatlamlarni tomoshabinga yetkazadi, shu bilan birga, musiqa va dramatik harakatlarning uyg'unligi tomoshabinning estetik idrokini kengaytiradi. Bu jarayon Navoiy ijodining zamonaviy sahna san'atidagi talqini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, "Xamsa" opera-baleti baletmeyster Zamir Nurymbetov tomonidan milliy xoreografiya va sahna an'analari bilan boyitilgan. Sahna dekoratsiyasi, kostyumlar va raqs harakatlari orqali Navoiy dostonlarining tarixiy va madaniy konteksti tomoshabinga yetkaziladi. Shu tarzda, asar nafaqat adabiy merosni sahnaga olib chiqadi, balki Navoiy g'oyalarini zamonaviy xoreografik va dramatik vositalar yordamida o'rganish imkonini beradi.

Jahon balet repertuarida Navoiy syujetlariga tutash bo'lgan sahna asari sifatida "Layli va Majnun" baleti e'tiborga loyiq. Masalan, Ozarbayjon bastakori Qara Qarayevning "Layli va Majnun" baleti butun dunyo sahnalarida qabul qilingan asarlardan biridir [8].

XX asr balet san'ati tarixiga nazar tashlasak, Alisher Navoiy ijodi ko'plab mahalliy va xorijiy baletmeysterlar uchun kuchli badiiy manba bo'lib xizmat qilganini ko'ramiz. Ayniqsa, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'aiy sayyor" kabi dostonlar syujeti asosida yaratilgan sahna asarlari o'z davrining estetik talablari bilan uyg'unlashib, turli milliy maktablarda qayta talqin etilgan. Bu jarayonda Navoiy asarlaridagi sevgi, fidoyilik, ma'naviy tanlov va insoniy iztirob motivlari sahna harakati, musiqiy dramaturgiya va obrazlar tizimi orqali yangi badiiy shakl kasb etgan. Natijada ayrim asarlar, jumladan, "Farhod va Shirin" dostoni asosida yaratilgan va butun jahon sahnalarini zabt etgan "Sevgi afsonasi" baleti Sharq adabiy merosining universal san'at tilida qayta ifodalanishiga yorqin misol bo'ldi.

Mazkur yoʻnalishda faol ijod qilgan baletmeysterlar qatorida Galya Izmailova, Kasyan Goleyzovskiy, Yuriy Grigorovich, Mukarram Turgʻunboyeva, Qodir Moʻminov kabi sanʼat arboblarning nomlarini alohida tilga olish lozim. Ularning har biri Navoiy syujetlariga oʻz estetik qarashi, sahna tafakkuri va ijro maktabi nuqtai nazaridan yondashgan. Masalan, Izmailova va Turgʻunboyeva ijodida Sharqona ifoda va milliy ruh ustuvor boʻlsa, Goleyzovskiy va Grigorovich talqinlarida falsafiy umumlashma va monumental sahna yechimlari yetakchi oʻrin egallaydi. Shu tariqa, Navoiy ijodi XX asr balet sanʼatida turli madaniy makonlar va ijodiy maktablarni bogʻlovchi umumiy badiiy platformaga aylanganini koʻrish mumkin.

1998-yilda Oʻzbekiston xalq artisti Qodir Moʻminov Alisher Navoiyning “Sabʼaiy sayyor” dostoni asosida milliy raqs spektaklini sahnalashtirib, mumtoz adabiy syujetni sahna sanʼati orqali talqin etish borasida muhim tajriba yaratdi. Ushbu spektaklda dostonning ramziy qatlamlari va maʼnaviy gʻoyalari sahnadagi harakatlar, obrazlar tizimi va musiqiy yechimlar orqali ochib berildi. Moʻminovning yondashuvi Navoiy matnini bevosita hikoya qilishdan koʻra, uning ichki falsafiy mazmunini tomoshabinga sezdirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Bu jihat asarni milliy sahna sanʼati rivojida muhim bosqich sifatida baholashga asos beradi.

Alisher Navoiy gʻazallari asrlar davomida oʻzbek klassik qoʻshiqchiligi va maqom sanʼatining ajralmas qismiga aylangan. Mumtoz sheʼriy matn va anʼanaviy kuy uygʻunligi ijrochidan nafaqat vokal mahorat, balki badiiy idrok va ichki holatni chuqur his etishni ham talab etadi. Shu bois Navoiy gʻazallari asosidagi kuylar sahnada harakatlar bilan uygʻunlashganda, tomoshabinga kuchli estetik taʼsir koʻrsatadi. Bu jarayonda adabiy matn musiqiy ifoda orqali yangicha mazmun kasb etib, sahna sanʼati bilan uzviy bogʻlanadi.

Aynan shu yoʻnalishda taniqli oʻzbek baletmeysterlari tomonidan yaratilgan raqslar alohida eʼtiborga loyiq. Mukarram Turgʻunboyeva Alisher Navoiy gʻazallari bilan ijro etiladigan “Bayot-4” va “Fido” asarlari asosida sahna talqinlarini yaratgan boʻlsa, Qunduz Mirkarimova “Munojot” kuyiga sahnalashtirilgan raqs orqali ichki iltijo va ruhiy holatlarni nozik ifodalashga erishgan. Qodir Moʻminovning

“Gulzorim” qo‘shig‘iga ishlangan sahna asari esa mumtoz matn va milliy ifodaning uyg‘un namunasiga aylandi. Bu kabi ijodiy izlanishlar Navoiy merosining sahna san‘atida yashovchanligini va zamonaviy talqinlarga ochiqqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy ijodi milliy va xalqaro xoreografiya san‘atida o‘ziga xos tayanch nuqta sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asarlaridagi g‘oyaviy chuqurlik, obrazlar rang-barangligi va falsafiy mushohada sahna san‘ati uchun bitmas-tuganmas manba bo‘lib kelmoqda. Milliy xoreografiyada Navoiy merosi avvalo o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va badiiy tafakkurni boyitish vazifasini bajarsa, xalqaro miqyosda u Sharq uyg‘onish tafakkurining yuksak namunasi sifatida qabul qilinadi. Shu bois Navoiy syujetlari asosida yaratilgan balet va sahna kompozitsiyalari turli madaniyat vakillari uchun tushunarli bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarni ifodalay oladi.

Navoiy ijodining xoreografiya san‘ati bilan tutashuvi faqat syujet yoki obraz darajasida emas, balki tafakkur va ma‘naviy mezonlar darajasida ham namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida ilgari surilgan komil inson g‘oyasi, adolat, muhabbat va fidoyilik kabi tushunchalar sahnada harakatlar orqali ifoda etilganda, tomoshabin bilan bevosita muloqotga kirishadi. Bu holat xoreografiyani oddiy tomosha vositasidan ma‘naviy ta‘sir kuchiga ega san‘at turiga aylantiradi. Shu ma‘noda Navoiy merosi xoreografiya uchun nafaqat badiiy material, balki estetik va axloqiy yo‘naltiruvchi vazifasini ham bajaradi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan uchinchi Renessans g‘oyasi ham aynan ana shunday boy merosga tayanishni talab etadi. Navoiy ijodi bu jarayonda o‘tmish bilan kelajakni bog‘lovchi intellektual ko‘prik vazifasini o‘taydi. Xoreografiya san‘ati esa ushbu merosni zamonaviy badiiy shakllar orqali qayta talqin qilib, uni yangi avlod tafakkuriga yaqinlashtiradi. Natijada mumtoz adabiyot va sahna san‘ati uyg‘unligi uchinchi Renessansning madaniy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki har bir uyg‘onish avvalo san‘at va tafakkur yuksalishidan boshlanadi.

“O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasida belgilangan ma‘naviy va madaniy rivojlanish ustuvor yo‘nalishlari ham Navoiy ijodi va xoreografiya san‘ati

o‘rtasidagi uzviy aloqani yanada dolzarb qiladi. Milliy san‘atni xalqaro miqyosda targ‘ib etish, madaniy merosni zamonaviy talqinda namoyon etish va ijodiy kadrlar salohiyatini oshirish kabi vazifalar bu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy asarlariga murojaat qilgan xoreografik ishlanmalar ana shu strategik maqsadlarni amalga oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu tariqa, buyuk mutafakkir merosi milliy va jahon xoreografiyasi chorrahasida turib, mamlakatning kelajak taraqqiyotiga ma‘naviy asos bo‘lib qolaveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. - 416 b.
2. Navoiy A. Xamsa. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Nashriyoti, 1991. 560 b.
3. Navoiy A. Majolis un-nafois. Toshkent: Fan, 1978. 320 b.
4. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. Toshkent: Sharq, 1980. 245 b.
5. Bafoyev M. Xamsa opera-baleti. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta Teatr, 2017.
6. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta Teatri repertuari tarixi. Milliycha. URL: (<https://www.milliycha.uz/ru/navoiy-teatri>).
7. F. Abdullayev. O‘zbekiston bastakorlari musiqasida milliy an‘analar. Oriental Art and Culture. Journal. Aprel – 2023.
8. Qara Qarayev. Leyli va Majnun. Balet. Wikipedia. URL: [[https://ru.wikipedia.org/wiki/Лейли\\_и\\_Меджнун\\_\(балет\\_Караева\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Лейли_и_Меджнун_(балет_Караева))].

#### **ALISHER NAVOIY IJODI VA RAQS SAN‘ATI**

*Paxrudinova Karomat Pazildinova*  
*O‘zbekiston davlat xoreografiya*  
*akademiyasi*  
*“San‘at nazariyasi va tarixi” kafedrasi*  
*tayanch doktoranti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida raqs san‘atining o‘rni va uning badiiy-ma‘naviy talqini ilmiy tahlil qilinadi. Raqs inson his-tuyg‘ularini ifoda etuvchi estetik va ma‘naviy vosita sifatida ko‘rib chiqilib, Navoiy asarlaridagi raqsga oid tasvirlar, bazm madaniyati, xalq raqslari hamda saroy san‘ati bilan

bog‘liq jihatlar yoritiladi. Xususan, “Xamsa” dostonlari (“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor”)dagi raqs sahnalari orqali ishq, nafosat va ruhiy kamolot g‘oyalarining ifodalanishi tahlil etiladi. Shuningdek, Navoiy asarlarida zikr etilgan “Urgushtak” kabi xalq raqsLARining ijtimoiy va madaniy ahamiyati ochib beriladi. Maqolada Navoiy ijodida raqs san‘ati shunchaki ko‘ngilochar harakat emas, balki tasavvufiy ma‘nolarga ega bo‘lgan ruhiy poklanish va ilohiy muhabbat ramzi sifatida talqin etilgani asoslanadi. Tadqiqot natijalari Navoiy merosini raqs san‘ati bilan bog‘liq holda o‘rganish milliy madaniyat tarixini chuqur anglashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, raqs san‘ati, milliy raqsLAR, Temuriylar davri madaniyati, “Xamsa”, Urgushtak, bazm madaniyati, tasavvuf, ilohiy muhabbat, balet va sahna san‘ati.

**Аннотация.** В статье проводится научный анализ роли танцевального искусства в творчестве Алишера Навои и его художественно-духовной интерпретации. Танец рассматривается как эстетическое и духовное средство выражения человеческих чувств. Анализируются танцевальные сцены, культура придворных и народных празднеств, а также место народных танцев в произведениях поэта. Особое внимание уделяется эпосам «Хамса» («Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Семь планет»), в которых танец выступает символом любви, красоты и духовного совершенства. Рассматривается значение народного танца «Ургуштak» как важного элемента культурной и социальной жизни эпохи Темуридов. Обосновывается, что в творчестве Алишера Навои танец осмысливается не только как форма развлечения, но и как символ духовного очищения и божественной любви, связанный с суфийской традицией.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, танцевальное искусство, народный танец, культура эпохи Темуридов, “Хамса”, Ургуштak, суфизм, духовность, балетное искусство.

**Abstract.** This article provides a scholarly analysis of the role of dance art in the works of Alisher Navoi and its artistic and spiritual interpretation. Dance is examined as an aesthetic and spiritual means of expressing human emotions. The study analyzes dance scenes, the culture of court and folk festivities, and the significance of folk dances in Navoi's literary heritage. Special attention is given to the epics of the Khamsa ("Farhad and Shirin", "Layli and Majnun", "Sab'a-i Sayyar"), where dance functions as a symbol of love, beauty, and spiritual perfection. The paper also explores the cultural and social importance of the folk dance "Urgushtak" during the Timurid period. It is argued that in Navoi's works, dance is understood not merely as entertainment, but as a symbol of spiritual purification and divine love, closely connected with Sufi philosophy.

**Keywords:** Alisher Navoi, dance art, folk dance, Timurid cultural heritage, Khamsa, Urgushtak, Sufism, spirituality, ballet art.

Inson dunyoga kelibdiki harakat qilishga intiladi. O'z his tuyg'ularini, ruhiy holatini turli hatti- xarakatlar va ishoralar bilan ifoda etishga urinadi. Insonning turli kechinmalarini yorqin va ajoyib kuch bilan ifodalovchi imo-ishora va harakatlar raqs san'ati deb ataladi. Raqs – chuqur hayajon, kuchli kechinmalarni ifodalaydigan vosita sifatida vujudga kelgan.

Inson o'z quvonchi haqida gapirishi, uni imo-ishorada, hayajonli ifoda va tabassumda ask ettirishiga imkon beruvchi eng kuchli vosita – raqsdir. Raqs maftunkor hayajonning tabiiy bo'lishi bilan birga tomoshabinlarga qattiq ta'sir qilib: ular ongida javob hissini uyg'otadi. Lev Tolstoy raqsni eng "zavqbahsh" san'at deb atagan edi. Haqiqatdan ham, boshqa hech bir san'at raqs kabi "zavqlantirolmaydi", ijodkorga qarab beihiyor raqs tushish hohishi uyg'otuvchi raqsdir.

O'zbek milliy raqslari asrlar osha o'z jozibasi va an'analarga sodiqligi bilan o'ziga hosligi bilan ahamiyatlidir. Milliy raqslarimizda turli janrlar, lirik, maqom, voqeaviy, dramatik turlari mavjud. Ko'pgina klassik janrlardagi raqslarimiz buyuk adabiyotshunoslar, shoir va yozuvchilarning asarlaridagi obrazlardan olinadi va sahnaga olib chiqiladi. Bu nafaqat raqs balki balet spektakllarida ham yuqori

baholanadi. Ana shunday buyuk allomalarimizdan biri Alisher Navoiy ijodi haqida suhbatlashsak. Raqs ham tomosha san'atlari orasida o'ziga xos mavqe va xususiyatlarga ega bo'lib, ko'pincha tomoshabinlarda shirin va nafis kayfiyatlar uyg'otgan, ularni shijoat va mardlikka da'vat etgan, ruxini poklagan. Alisher Navoiy davridagi raqslar turli-tuman bo'lgan. Taqlid va niqoblar bilan ijro etiladigan kulgili o'yinlar, to'y marosimlari bilan bog'liq hamda Navro'z, Mehrjon va boshqa bayramlarda ijro etiladigan o'yinlar, guruh-guruh bo'lib o'ynaladigan jangovar raqslar bo'lib, tomoshabinlarni goh kuldirgan, goh ko'nglini ko'targan, goh g'ayratiga g'ayrat qo'shgan.

Umuman olganda, Alisher Navoiy davridagi raqslar ham o'ziga xos an'anaviy teatr tusini olgan. Har qaysi o'yin va raqsning o'ziga xos dramaturgiyasi, sahnasi, ijrochisi va tomoshabini bo'lganligi, tana harakatlari va butun borligi, ruhiyati bilan inson va jamiyat hayotidan olingan mavzularni yoritganligi, ikki va umumiy bo'lib ijro etiladigan uyinlarda insoniy munosabatlarning, ma'naviy qadriyat va dunyoqarashlarning aks ettirilganligi shundan dalolat beradi. Hazrat Alisher Navoiy shaxsan o'zi raqsga tushganmi, yo'qmi, bu bizga korong'u. Lekin uning raqs san'atiga, raqqos va raqqosalarga munosabati ijobiy bo'lib, Husayn Boyqaro saroyidagi buyuk raqqos Sayyid Badr, Tayfur, Hirotda aholi orasida yaxshi tanilgan Tohir akka, Maksudali va Moxchuchuk kabi raqs ustalarining o'yinlarini maroqlanib tomosha qilgan, deb o'ylaymiz. Eng muhimi shuki, shoir g'azallari maqom ohanglarida kuylanar ekan, raqs ustalarini ilhomlantirib, yangi-yangi harakatlar, raftorlar, jilvalar kashf etishga undagan [1. B-126].

Mana necha asrlardan buyon o'zbek raqs san'ati Alisher Navoiy g'azallari bilan vobasta yashab keladi. XX asrda esa Navoiyning "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" dostonlari asosida milliy baletlar yaratildi. Bundan keyin ham Navoiy ijodi baletmeysterlar, raqs jamoalari uchun ilhom va ijro manbai bo'lib qolishi shubhasiz. Uning "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor", "Xamsa" asarlaridagi obrazlar va voqelar bo'yicha ko'plab balet va milliy raqs san'at asrlari yaratilgan va hozirga qadar tomoshabinlar tomonidan sevib tomosha qilinadi.

XV asrda Markaziy Osiyoda raqs san'ati an'alariga bo'lgan e'tiborni A.Navoiyning bir qancha asarlaridan bilib olishimiz mumkun.

Alisher Navoiy "Mezonul avzon" asarida aruzga kirmaydigan, turk ulusi orasidagina rasm bo'lgan "tuyug'", "qo'shuq", "chinga", "muhabbatnoma", "mustahzod", "turkiy" kabi ko'plab aytiladigan vaznlar haqida so'z yuritadiki, ularning barchasi bazmlarda, to'ylarda o'ynoqi xalq kuylari va usullari bilan o'ynab turib ijro etilgan. Husayn Boyqaro o'zining ko'pgina she'rlarini qo'shiq vaznida yozgan bo'lib, ular xos majlislarda "benazir yigitlar" tomonidan ijro etilgan ekan. Bu to'g'rida ham Navoiy guvohlik beradi: "Musiqiy va atvor ilmida muloyim ta'blik benazir yigitlar g'arib nadomat va alxon bilan ajib tasarruflar qilib, sultoni Sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig' va xush oyandalig'i vasfga sig'mas va ta'sir va raboyandalig'i sifatka rost kelmas, balki ul hazratning ixtiroidur..". Bu yerda gap bir to'p san'atkor xonanda, sozanda va raqqos yigitlarning Husayn Boyqaro qo'shiqlari bilan kuylanuvchi va o'ynaluvchi dasturi haqida borayotir. Shoh saroyidagi naqqoraxonada boshqa ijodiy jamoalar ham bo'lgan, albatta. Navoiy guvohligining qimmatli tomoni shundaki, Husayn Boyqaro majlislarida doimo uning o'zbek tilida yozgan qo'shiqlarini kuylovchi va shunga mos harakatlar yasab raqsga tushuvchi "benazir yigitlar"dan iborat maxsus guruh faoliyat ko'rsatganligini tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy shayxlarning afsonasi, makru riyosidan mug'dayri va mug'bachalar bazmini ustun qo'ygan. Bir g'azalida shunday bayt bor:

Kelurmen xonakohdin dayr sori, bazm tuz, ey mug',

Mug'ona tut surud ey mutribu, ey mug'bacha, may suz.

Shoirning bir g'azalidagi quyidagi bayt e'tiborimni tortdi:

Xush ulki, bazmda aylar teparda urgushtak.

Shoh anda tanbura cholib, Navoiy desa qo'shuq.

Bunda Navoiy Xusayn Boyqaro tanbur chalsa va men qushiq aytsam, bizning ohangimizda raqqos "Urgushtak" raqsini ijro etsa, deb orzu qiladi. Xusayn Boyqaroning tanbur chalgani, nog'ora usullarida tengsiz bo'lgani ma'lum. Kim

bilsin, balkim Navoiy uning kuyi va usullariga mos qo‘shiq aytgan, shohu vazir kuyiga Sayyid Badr yoki boshqa bir raqqos o‘ynagandir.

Chindanda “Urgushtak” raqsi o‘sha davrda (turk) o‘zbek qavmlari orasida keng rasm bo‘lgan. “Mahbubul-qulub” da Navoiy odil shoh haqidagi fikrlarini ifoda qilib turib: “Andin kechalar atrok zuafosi ishi Urgushtak va atfol varzishi oqso‘ngak, - deb yozadi. Ya'ni podshoh Xusayn Boyqaro odilligi tufayli o‘zbek xotin-qizlarining (atrok zuafosi) ishi kechalari “Urgushtak” raqsida o‘ynash va bolalarining ishi “Oqso‘ngak” o‘yinini bajarishidir degani. Bundan chiqadiki, “Urgushtak” faqat saroylarda emas, xalq orasida ham ijro etiladigan o‘zbekcha raqs ekan. Aftidan, bu raqsning yakka, juft bo‘lib yoki bir to‘da bo‘lib kunduzgi xos majlislarda va kechasi maydonlarda o‘ynaladigan shakllari bo‘lgan. Ammo “Urgushtak” ko‘pincha kechalari gulxan atrofida yer tepib, aylanib o‘ynalgan ko‘rinadi [2].

Navoiy uchun raqs - shunchaki ko‘ngilochar harakat emas, balki go‘zallik, muhabbat va ruhiy kamolot ramzi bo‘lgan.

Navoiy yashagan Temuriylar davrida raqs san'ati yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, Kamoliddin Behzod miniatyuralarida ham raqs tushayotgan ayollar va erkaklar tasviri uchraydi. Navoiy ushbu madaniy muhitning asosiy targ‘ibotchisi bo‘lgan. Alisher Navoiy ijodida va uning nomi bilan bog‘liq zamonaviy san'atda raqs o‘ziga xos o‘rin tutadi:

Navoiy o‘z asarlarida, xususan, “Xamsa” va boshqa dostonlarida raqs san'atini nafosat va go‘zallik ramzi sifatida tasvirlagan:

Alisher Navoiy dostonlarida raqs sahnalari:

1. “Farhod va Shirin” dostoni bo‘yicha olingan raqs sahnalarida, Farxodning jasurligi, sevgilisi uchun bo‘lgan ruhiy kechinmalari va jismoniy kuch-qudrati namoyon bo‘ladi. Shuningdek, shohona bazmlar, ayniqsa Shirin ishtirok etgan sahnalarda raqqosalar, sozandalar, nay va rubob sadolari orqali “nafosatli muhit” yaratiladi. Bu yerda raqs - ishq va go‘zallikning jismoniy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

2. “Sab’ai sayyor” raqs sahnalari eng yorqin aks etgan doston bo‘lib, bunda yetti sayyoraning timsoli go‘zal va jozibali, betakror sahnalar ila namoyon bo‘ladi. Har bir qasrda o‘ziga xos bazm, musiqa va raqs bor. Raqs har bir sayyoraning ruhiy holati va ramziy ma'nosi bilan bog‘langan. Ayrim sahnalarda raqs tasavvufiy ma'noga ega: jism harakati - ruh harakatiga aylanadi. Shu sababli san'atshunos va adabiyotshunoslar “Sab’ai sayyor”ni eng “raqsbop” doston deb hisoblaydi.

3. “Layli va Majnun” da ijtimoiy raqs muhiti tasvirlanadi. Bu dostonda jamiyat quvonchi - Majnun ichki iztirobi qarshiligida bo‘ladi. Unda oshiq Majnunning yori visoliga erisholmay unga bo‘lgan ruhiy talpinishi va qalb iztiroblari yorqin namoyon bo‘ladi. “Layli va Majnun” baleti ko‘plab jahon sahnalarida sahnalishtirilgan va ijro etilgan.

Irfoniy talqinda Navoiy tasavvuf ta'sirida: raqsni samo‘ (ruhiy harakat) bilan bog‘laydi aylanish, mavjlanish - ilohiy ishqqa intiluv ramzi. Ya’ni Navoiyda “raqs - tan harakati emas”, “ruh parvozi” degan aqidani ilgari suradi. Shoir raqsni nafaqat ko‘ngilochar mashg‘ulot, balki ruhiy poklanish va ilohiy ishq ifodasi sifatida ham talqin qilgan. Navoiy asarlaridagi sahnalar bilan bevos Navoiy asarlaridagi sahnalar bilan bevosita uyg‘un, Navoiy bu muhitning “badiiy solnomachisi” bo‘lgan.

Bugungi kunda Navoiy merosi va raqs san'ati bir necha yo‘nalishda bog‘lanadi.: O‘zbekiston Davlat akademik katta teatri Alisher Navoiy nomi bilan ataladi va bu yerda milliy hamda jahon balet san'ati durdonalari sahnalashtiriladi. Shoir g‘azallari asosida aytiladigan ashulalar (masalan, “Fido” raqsi) milliy raqs san'atining ajralmas qismiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida raqs san'ati go‘zallik va ishq ifodasidan tashqari, ruhiy kamolot va ilohiy muhabbat ramzi sifatida muhim o‘rin tutadi. Shoir asarlaridagi raqs sahnalari Temuriylar davri madaniy muhitining yorqin ifodasi bo‘lib, tasavvufiy g‘oyalar bilan chambarchas bog‘langan. Navoiy nomi bilan bog‘liq zamonaviy teatr va balet san'ati esa ushbu badiiy merosning bugungi sahnadagi uzviy davomini namoyon etadi. Demak, Navoiy ijodini raqs

san'ati bilan bog'liq holda o'rganish milliy madaniyat tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Qodirov "Temur va temuriylar davrida tomosha san'atlari" 1997.
2. Qodirov Muxsin Xalil o'g'li. "Temuriylar davri tomosha san'atlari"/ SAN'AT jurnali nashriyoti/ Toshkent/ 2007/
3. Alisher Navoiy. "Xamsa". - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.- Toshkent, 2004.

### "YETTI IQLIMGA MASHHUR"

*Ne'matilla Otajonov*

*Impuls tibbiyot instituti professori,*

[domlanematilla@gmail.com](mailto:domlanematilla@gmail.com)

*Abdullayeva Barnoxon Umidullo qizi*

*Impuls tibbiyot institute o'qituvchisi,*

[abdullayevabarno789@gmail.com](mailto:abdullayevabarno789@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning jahon miqyosidagi adabiy-ma'naviy nufuzi, uning asarlarining g'arb va Sharq mamlakatlarida o'rganilishi hamda tarjima qilinishi tarixiy-manbaviy asosda tahlil etiladi. Tadqiqotda XVI asrdan boshlab Yevropa sharqshunosligida Navoiyning ijodi qanday qabul qilingani, italyan, fransuz, ingliz, nemis va boshqa tillarga amalga oshirilgan tarjimalar, nashrlar va ilmiy izlanishlar yoritiladi. Shuningdek, ayrim g'arb olimlari tomonidan ilgari surilgan Navoiy ijodini "taqlidchilik" bilan bog'lovchi noto'g'ri qarashlar tahlil qilinib, ularning ilmiy asossizligi ko'rsatib beriladi. Rus va sovet sharqshunosligida, xususan, Ye.E. Bertels tadqiqotlarida Navoiy ijodining o'ziga xosligi, badiiy-falsafiy salohiyati va originalligi asosli ravishda isbotlangani ochib beriladi. Maqolada Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili va mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi beqiyos o'rni,

uning merosi bugungi kunda ham yetti iqlimda e'tirof etilib kelayotgan umumbashariy qadriyat ekanligi ilmiy xulosalar orqali asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, jahon adabiyoti, sharqshunoslik, tarjima va talqin, "Xamsa", "Muhokamat ul-lug'atayn", o'zbek adabiy tili, adabiy meros, g'arbiy Yevropa tadqiqotlari, javobiya an'anasi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется глобальное литературное и духовное значение великого мыслителя, поэта и государственного деятеля Алишера Навои, с акцентом на историческое восприятие, изучение и перевод его произведений как в странах Востока, так и в странах Запада. Исследование рассматривает, как литературное наследие Навои воспринималось в европейских востоковедческих исследованиях начиная с XVI века, освещая переводы, публикации и научные исследования на итальянском, французском, английском, немецком и других языках. Особое внимание уделяется критической оценке необоснованных утверждений некоторых западных ученых, характеризующих творчество Навои как простое подражание, и в статье демонстрируется научная несостоятельность таких взглядов. Исследование также подчеркивает решающую роль российской и советской востоковедческой науки - особенно работ Э. Э. Бертельса - в предоставлении всестороннего и основанного на фактах анализа оригинальности, художественной философии и интеллектуального потенциала Навои. В заключение статьи отмечается, что Алишер Навои сыграл незаменимую роль в развитии узбекского литературного языка и классической литературы, и что его непреходящее наследие продолжает признаваться универсальной культурной ценностью, ценимой во всех «семи климатических зонах» мира.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, мировая литература, востоковедение, перевод и интерпретация, Хамса, Мухокамат аль-Лугатайн, узбекский литературный язык, литературное наследие, западноевропейская наука, традиция джавобии.

**Abstract:** This article analyzes the global literary and spiritual significance of the great thinker, poet, and statesman Alisher Navoi, focusing on the historical reception, study, and translation of his works in both Eastern and Western countries. The research examines how Navoi's literary heritage was perceived in European Oriental studies from the sixteenth century onward, highlighting translations, publications, and scholarly investigations in Italian, French, English, German, and other languages. Particular attention is paid to the critical assessment of certain Western scholars' unfounded claims that characterized Navoi's creativity as mere imitation, and the article demonstrates the scientific invalidity of such views. The study also emphasizes the decisive role of Russian and Soviet Oriental scholarship—especially the works of E. E. Bertels—in providing a comprehensive and evidence-based analysis of Navoi's originality, artistic philosophy, and intellectual potential. The article concludes that Alisher Navoi played an irreplaceable role in the development of the Uzbek literary language and classical literature, and that his enduring legacy continues to be recognized as a universal cultural value appreciated across the “seven climes” of the world.

**Keywords:** Alisher Navoi, world literature, Oriental studies, translation and interpretation, Khamsa, Muhokamat al-Lughatayn, Uzbek literary language, literary heritage, Western European scholarship, javobiya tradition.

Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Balzak kabi ulkan soʻz san'atkorlari singari gennal shoir, olim, mutafakkir va tarixchi Alisher Navoiyning nomi ham besh qit'aga barobar taniqlidir. Uning barakali ijodi namunalari XVI asrdayoq g'arbiy Yevropa xalqlari xayotiga ham kirib bordi.

1557-yili Venetsiyada italiyan tilida tabrizlik arman yozuvchisi Xristofor Tabriziyning “Sarandil shohining uch o'g'li va ularning ajoyib sarguzashtlari” nomli asari chop qilindi. Kitob italiyan, fransuz, nemis, golland tillariga o'girilgan. XVIII asrgacha turli tillarda o'n besh marta nashr qilingan. Sharqshunos olimlarning ko'rsatishlaricha [1;254], mazkur asarniki mustaqil syujetdan tashkil topgan bo'lib, uning birinchi qismi Amir Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht”

(Sakkiz jannat), ikkinchi qismi Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonlari asosida yozilgan. Fransuz sharqshunosi Katrmer o‘zining 1841-yilda Parijda chop etilgan “Sharq turkiy adabiyoti xrestomatiyasi” nomli kitobida Alisher Navoiyning Yevropa sharqshunosligida kam o‘rganilgan “Muhokamatul lug‘atayn” va “Tarixi muluki ajam” asarlarining matnini keltirib o‘tgan.

1861-yilda fransuz sharqshunosi M.Belinning [9;1965] “Aziatik” (“Osiyo”) jurnalida “Mir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida” nomli kattagina hajmdagi maqolasi e‘lon qilingan. M.Belin Navoiyning falsafiy qarashlari bilan ham qiziqqan. “Sharq donishmandlari” sarlavhali maqolasida “Mahbubul qulub” misolida Navoiy dunyoqarashiga oid masalalarga ancha mukammal to‘xtaladi.

Ingliz sharqshunosi Charlz Rie [8;1888] 1888-yili Londonda Britaniya muzeyida saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar katalogini nashr etdi. Bu katalogning katta qismi Navoiy asarlarini tavsif etishga bag‘ishlangan. Muallif Navoiyning ijodiga to‘g‘ri, obyektiv baho berib yozadi: “Mir Alisher turkiy tilni adabiy til darajasiga ko‘tarishda eng ko‘p xizmat qilgan, barcha tomonidan uning madaniyatli, eng fikri o‘tkir ekanligi tan olingan. U, albatta, chig‘atoy (o‘zbek) shoirlarining eng mahsuldoridir”. Mazkur katalogda Navoiyning asarlarini o‘z ichiga oluvchi 17 ta qo‘lyozmaning nomlari keltirilgan. Bular orasida XVI asr boshlarida ko‘chirilgan “Xamsa”, “Majolisun nafois”, “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Mahbubul qulub”i kabi qo‘lyozmalar ayniqsa qimmatlidir.

XX asr o‘rtalariga kelib Vengriya, GDR. Chexoslovakiya, Ruminiya, Polsha va Yevropadagi boshqa mamlakatlarda Navoiy asarlarining tarjimalari bosilib chiqdi va bu ish davom ettirilmoqda. Masalan, Germaniya Demokratik respublikasida nashr etilgan “Sovet Ittifoqi xalqlari adabiyoti” (“Literaturen der folker Sovet Yunion”, Leypsig, 1967, may) to‘plamining o‘zbek adabiyotiga bag‘ishlangan qismida doktor G.Dudek Navoiyning hayoti va ijodiga oid katta maqola bergan.

Karachi universitetining professori, doktor Muhammad Sobir o‘zbek tili va o‘zbek klassik adabiyoti bo‘yicha Pokistonda eng e‘tiborli mutaxassis sifatida

“Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abrori masnaviyasi haqida tadqiqotlar” deb nomlangan ish bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan [2;19-20]. Alisher Navoiyning o‘zbek adabiy tili va adabiyoti taraqqiyotida g‘oyat muhim rol o‘ynagan “Muhokamatul lug‘atayn” asarini italiyalik sharqshunos olim Robert Devereuks ba’zi bir sharhlar bilan to‘ldirib boyitgan, qayta tahrir qilingan inglizcha tarjimasi 1966-yilda Leyden nashriyotida chop qilingan. R.Devereuks mazkur tarjimani “Musulmon dunyosi” jurnalining noshiri doktor X.Elmer Dauglas 1964-yilda ingliz tilida nashr qilgan tarjimasi bilan qiyoslab chiqib, fors va arab tillarining mutaxassislari Konstantin Dayglav, Ned Koxenlar yordamida qo‘shimcha izohlar bilan nashr qildirgan. Venger tarjimoni, shoira Elizabet Brodskayaning quyidagi so‘zlari e’tiborga loyiqdir: “Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini ona tilimga tarjima qilishni umr bo‘yi orzu qilib yurardim. Venger tiliga avval buni rus tilidan tarjima qildim, ammo bu ish meni qanoatlantirmadi. So‘ng turk tilini biladigan olimni qidirib topdim, u menga so‘zma-so‘z tarjima qilib berdi. Shu tariqa asl nusxa asosida ishlashga muvaffaq bo‘ldim. Basharti men o‘lmas doston go‘zalligining, buyuk o‘zbek shoiri ijodi latofatining loaqal bir zarrasini ona tilimda ifodalay olgan bo‘lsam, o‘zimni baxtiyor deb hisoblayman”.

Amerika yozuvchisi Xarold Lemb [4;112] Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yozgan “Bobur yo‘lbars” nomli kitobida Alisher Navoiy haqida alohida to‘xtalib, uning mashhur shoir ekanini, o‘z ona tilini e‘zozlaganini yuqori baholaydi.

Lekin shuni ta’kidlash lozimki, g‘arbiy Yevropa sharqshunoslari Alisher Navoiyning siyosiy faoliyatiga, madaniyat sohasidagi ishlari va o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi rolga yuqori baho berganlari holda, uning ijodiyoti bilan chuqur shug‘ullanmasdan, ba’zan ulug‘ shoirga tuhmat qildilar, uni taqlidchiga chiqarib qo‘ydilar. “Navoiy – tarjimon”, “Navoiy Xisrav Dehlaviy, Nizomiy va Jomiylarning tarjimonidir”, “Navoiy taqlidchi” degan g‘ayri ilmiy da’volarni olg‘a surdilar. Natijada bu aqida hatto tarjimalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Chunonchi, “Boburnoma” tarjimonlari Leyden va Erskinlar [5;38] “javob” va “nazira”

terminlari ma'nosini buzib, uni taqlid deb talqin etdilar va Boburning Navoiy haqidagi fikrini xato tarjima qildilar. Bobur Alisher Navoiyni ulug'lab, uning to'g'risida bunday deydi: "Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida, yana biri "Mantiqut tayr" vaznida "Lisonut tayr" otliq (233). Inglizcha tarjimaga ko'ra, go'yo Navoiyning "Xamsa"si Nizomiy "Xamsa"sining taqlidida, "Lisonut tayr" esa, "Mantiqut tayr" taqlidida yozilgan. Bundan "Navoiy taqlidchi" degan noto'g'ri xulosa kelib chiqqan. Bunday xato qarashlarga sovet olimlari qattiq zarba berdilar. Rus sharqshunoslari, ayniqsa Y.E.Bertels Alisher Navoiy ijodini asosli va keng tahlil qilib, ulug' shoirning o'ziga xosligi, salohiyati va originalligini isbotlab berdi. Shu tariqa, Sharq adabiyotida mavjud bo'lgan an'analar, jumladan, "javobiya" aytish an'anasi ilmiy asosda o'rganildi va Navoiy merosiga nisbatan mavjud bo'lgan noto'g'ri qarashlarga barham berildi.

Xullas, Navoiyning barhayot asarlari asrlar osha dunyo xalqlari qalblarini tobora ko'proq band etmoqda, uning tarjimalari orqali Osiyo xalqlari va yana boshqa qit'alar - yetti iqlimda yashayotgan el-u elat uning hayotbaxsh asarlaridan bahra olmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'. Karimov. Xalq, tarix, adabiyot. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti, Toshkent, 1977, 254-bet.
2. "O'zbek tilshunosligi masalalari". Ilmiy asarlar, 443-chiqishi. Toshkent, 1973 yil, 19-20-betlar.
3. G'.Salomov., N.Otajanov. Jahongashta "Boburnoma". Toshkent, 1996 yil, 112-bet.
4. Xorijda Boburshunoslik (Tadqiqot, talqin va maqolalar) Toshkent shaxar, "Mumtoz so'z" 2008 yil, 3-bet.
5. A.S.Beverij. "Boburnoma" – ingliz tilida. Turkiy asl nushadan inglizchaga tarjima. London, 1921, 38- bet.
6. Z.M.Bobur ensiklopediyasi. Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2017, 150-bet.

7. M.Xolbekov. Ulug‘ adibimiz fransuz sharqshunosligi sahifalarida. Bobur abadiyati. Toshkent “Bayoz”, 2018, 109-bet.

8. Rieu Charles. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. London, 1888.

9. Бертельс, Е. Э. Навои и Джами. Москва: Наука, 1965.

## ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARI TAHLILI

*Saparboyeva Nafisa Asror qizi*

*Qoraqalpoq davlat universiteti Adabiyotshunoslik  
(o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

[saparboyevanafisa0123@gmail.com](mailto:saparboyevanafisa0123@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-Muhabbat” asari tasavvufiy-adabiy manba sifatida tahlil qilinadi. Asarning yaratilish manbalari, tazkira janridagi o‘rni hamda unda yoritilgan shayx va avliyolar hayoti ilmiy jihatdan yoritib beriladi. Tadqiqotda ilohiy muhabbat, ruhiy poklanish, “xos” va “avom” tushunchalarining tasavvufiy talqini ochib berilgan. Shuningdek, asarning turkiy adabiyot va ma’naviy-axloqiy tafakkur rivojidadagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** “Nasoyim ul-muhabbat”, tasavvuf, tazkira, ilohiy muhabbat, shayxlar, avliyolar, turkiy adabiyot, ma’naviy kamolot, xos va avom, tasavvuf falsafasi.

**Аннотация:** В статье произведение “Насойим ул-Мухаббат” Алишер Навои рассматривается как суфийско-литературный источник. Анализируются истоки создания произведения, его место в жанре тазкиры, а также научно освещаются жизни шейхов и авлия, представленных в сочинении. В исследовании раскрывается суфийская интерпретация божественной любви, духовного очищения, а также понятий «хос» (избранные) и «авом» (простые люди). Кроме того, обосновывается значение произведения в развитии тюркской литературы и духовно-нравственной мысли.

**Ключевые слова:** Nasoyim ul-Muhabbat, суфизм, тазкира, божественная любовь, шейхи, авлия, тюркская литература, духовное совершенствование, хос и авом, суфийская философия.

**Abstract:** This article analyzes “Nasoyim ul-Muhabbat” by Alisher Navoiy as a Sufi literary source. The study examines the origins of the work, its place within the tazkirah genre, and provides a scholarly overview of the lives of the shaykhs and saints described in it. The research explores the Sufi interpretation of divine love, spiritual purification, and the concepts of the “elite” (khāṣṣ) and the “common people” (‘avām). Furthermore, the article substantiates the significance of the work in the development of Turkic literature and moral-spiritual thought.

**Keywords:** Nasoyim ul-Muhabbat, Sufism, tazkirah, divine love, shaykhs, saints, Turkic literature, spiritual perfection, elite and common people, Sufi philosophy.

Alisher Navoiy - “Nasoyim ul-Muhabbat” asari 770 ta shayx (ulardan 35 tasi avliyo ayollar) hayoti, hikmatlari va faoliyatiga bag‘ishlangan to‘plam hisoblanadi [1]. Asarning to‘liq nomi “Nasoyim ul-Muhabbat min Shamoyim ul-Futuvvat” bo‘lib, u tasavvufiy hikmatlar manbai sifatida yaratilgan. Asar dastlab Abdurahmon Jomiy (Abdurrahman Jami) ning “Nafohat ul-Uns” nomli asari asosida boshlangan, lekin Navoiy uni boyitib, yanada ko‘proq shayxlar to‘g‘risida ma’lumot qo‘shgan. “Nasoyim ul-Muhabbat” - Navoiy tasavvufiy merosini so‘zlab beruvchi eng keng qamrovli asarlaridan biridir. Unda abadiy muhabbat, Allohga bo‘lgan sadoqat, shayxlar hayoti, ularning hikmatlari va mazmunli so‘zlari bayon qilinadi. Ko‘plab olimlar bu asarni tasavvufiy atamalar, ruhiy qarashlar va musulmon olamidagi buyuk shaxslar hayoti bilan bog‘liq deb ta’riflaydi. Asar tillar taraqqiyotida, arab va fors elementlarini turk tiliga uyg‘unlashtirishda ham muhim namuna bo‘lgan.

Alisher Navoiy o‘zbek va umuman turkiy adabiyot tarixida beqiyos o‘rin tutgan buyuk mutafakkirdir. Uning “Nasoyim ul-muhabbat” asari turkiy tilida yaratilgan ilk mukammal tazkira sifatida Sharq adabiyoti taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar nafaqat tasavvuf namoyandalari - shayxlar va

avliyolar hayotiga oid ma'lumotlarni jamlagani, balki muhabbatning insoniy hamda ilohiy mohiyatini falsafiy jihatdan chuqur talqin etgani bilan ham qimmatlidir.

O'zbek adabiyoti tarixida tazkirachilik an'analari muhim o'rin tutadi. "Tazkira" so'zi arabcha "zikr" - eslash, yod etish ma'nolarini anglatib, muayyan davr adabiy muhitini, ijodkorlar hayoti va merosini o'rganishda beqiyos manba vazifasini bajaradi. Sharq tazkirachiligining ilk yirik namunalaridan biri sifatida Abu Mansur Saolibiy qalamiga mansub "Yatimat ud-dahr fi mahosini ahl al-asr" asari tilga olinadi. Ushbu manba arab, ajam hamda Movarounnahr va Xuroson adabiy muhitiga oid qimmatli ma'lumotlarni jamlagani bilan ahamiyatlidir.

Asar XV asrning ikkinchi yarmida, Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat va tasavvufiy tafakkur yuksalgan bir davrda yaratilgan. Navoiy bu kitobni yozishda o'zining tasavvufiy qarashlari va ustozlari ta'siridan ilhomlangan. Asarning bosh g'oyasi insonni haqiqiy muhabbat - ya'ni ilohiy ishq sari yetaklashdan iborat. Muallif o'quvchini zohiriy muhabbatdan botiniy, ma'naviy kamolot sari chorlaydi va muhabbatni insonni Haqqa yaqinlashtiruvchi eng qudratli ruhiy kuch sifatida talqin qiladi.

"Nasoyim ul-muhabbat" tazkira janrining turkiy adabiyotdagi dastlabki yirik namunasi hisoblanadi. Sharq adabiyotida tazkira asosan shoir va allomalarning hayoti, ijodi hamda ma'naviy merosini yoritishga xizmat qilgan adabiy turdir. Navoiy esa bu janrni yangi bosqichga olib chiqib, unda tasavvuf namoyandalarining hayoti orqali muhabbat falsafasini ochib beradi. Asarda ko'plab mashhur shayxlar, jumladan Bayazid Bistomiy va Mansur al-Halloj kabi mutasavviflar haqida ma'lumotlar beriladi. Ularning hayoti va ruhiy tajribasi muhabbatning ilohiy mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Xususan, Hallojning "Anal-haq" degan mashhur kalomi orqali insonning Haq bilan ruhiy yaqinligi va ishqning cheksizligi talqin etiladi [2. B-125-126].

Asar she'riy va nasriy qismlarning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Navoiy turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini keng namoyon etib, murakkab tasavvufiy tushunchalarni sodda va ravon uslubda ifodalaydi. Bu esa o'quvchiga chuqur

falsafiy g'oyalarni osonroq anglash imkonini beradi. Asarning tili jozibador, mazmuni esa teran bo'lib, unda tasavvufiy tafakkurning asosiy tamoyillari, jumladan, fanolik, ruhiy poklanish va ilohiy muhabbatga erishish g'oyalari yoritiladi.

“Nasoyim ul-muhabbat” turkiy adabiyot rivojida muhim burilish yasagan asarlardan biridir. U orqali tasavvufiy mavzudagi tazkira janri turkiy muhitda mustahkam o'rin egalladi va keyingi avlod adiblariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Asar o'rta asrlar tasavvufiy dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari hamda muhabbat falsafasini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Islom dinining asl mohiyatini anglash, uning inson hayotidagi o'rni va ma'naviy qudratini to'laqonli tushunish uchun bu din bag'ridan yetishib chiqqan buyuk mutafakkir shayxlar hamda aziz-avliyolar merosini chuqur o'rganish muhimdir. Ularning poklik, ixlos, komillik va ma'naviy yetuklik sari yetaklovchi qarashlari nafaqat o'z davri, balki bugungi kun jamiyati uchun ham bebaho manba hisoblanadi. Ajdodlar ruhiga hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularning ilmiy-ma'rifiy merosini tadqiq etish milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asari alohida o'rin tutadi. Mazkur asar muqaddima hamda 770 nafar shayx va avliyolar (ularning 35 nafari ayollar) hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, tasavvuf tarixini keng qamrovda yoritadi. Asar Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot il-quds” nomli tazkirasiga tayangan holda yaratilgan bo'lsa-da, Navoiy unga erkin va ijodiy yondashgan. U Jomiy keltirgan 618 nafar shayx haqidagi ma'lumotlarni boyitib, ayrimlarini qisqartirib, shayxlar sonini 770 nafarga yetkazadi. Shu tariqa asar mustaqil ilmiy-adabiy qiymat kasb etadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da ayrim shayxlar hayoti bayonida Amir Temur shaxsiga oid qiziqarli lavhalar ham keltiriladi. Jumladan, Sohibqironning Xuroson yurishi arafasida Andxudda shayx Bobo Sungu huzuriga borgani va u yerda sodir bo'lgan ramziy voqea tasvirlanadi. Shayxning ishorasini Temur zukkolik bilan

anglab, uni Xuroson zabt etilishiga bashorat sifatida qabul qilgani ta'kidlanadi. Bu lavha orqali Temurning nafaqat sarkardalik salohiyati, balki botiniy ma'nolarni anglay oladigan farosat egasi ekani ham ochib beriladi.

Shuningdek, asarda Sohibqironning Bobo Xokiy va Xoja Boyazid kabi shayxlar bilan uchrashuvlari ham zikr etiladi. Bu uchrashuvlarda hukmdor va avliyo o'rtasidagi ma'naviy aloqadorlik, ixlos va e'tiqodning kuchi yorqin ifodalanadi. Masalan, Xoja Boyazid bilan bo'lgan muloqotda Temurning ichki niyati shayx tomonidan oldindan anglanib, ramziy tarzda javob berilishi tasvirlanadi. Natijada Temur shayxga murid tushib, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Bu voqealar orqali Navoiy hukmdorlarning shayx va ulamolar suhbatiga ehtiyoj sezgani, ularning maslahat va duolariga tayanib ish tutganini ko'rsatadi.

Asarda shayxlarning nafaqat ruhiy-ma'naviy hayotda, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ham muhim o'rin tutgani fasohat va balog'at bilan yoritiladi. Temuriy hukmdorlar, jumladan Husayn Boyqaro va Bobur kabi shohlar ulamo va mashoyixlar bilan yaqin aloqada bo'lib, bu hol ularning xalq orasidagi obro'-e'tiborini mustahkamlagan.

Mazkur asar milliy-diniy qadriyatlarimizni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Unda Imom A'zam Abu Hanifa, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Hakim Termiziy hamda Bahouddin Naqshband kabi yirik aqida va tasavvuf namoyandalari haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Movarounnahr va Xuroson valiyolari merosini o'rganish ularning tasavvufiy-axloqiy qarashlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Zero, valiyalar hayoti va so'fiyona adabiyot g'oyalarini bilmasdan turib, islomning ma'naviy-ma'rifiy mohiyatini to'la anglash mushkul.

Shu jihatdan, "Nasoyim ul-muhabbat" nafaqat tarixiy-adabiy yodgorlik, balki yosh avlodni sog'lom e'tiqod, komil axloq va milliy g'oya ruhida tarbiyalashda muhim manbadir. Tasavvufning asl insonparvarlik va poklikka da'vat etuvchi mazmunini to'g'ri talqin qilish, yoshlarni turli zararli oqimlar ta'siridan asrash hamda ularni ma'naviy barkamollikka yo'naltirishda ushbu asarning ahamiyati beqiyosdir [3].

“Nasoyim ul-muhabbat”ni yaratishda Navoiy oddiy tarjimon sifatida emas, balki mustaqil tadqiqotchi va ijodkor sifatida maydonga chiqadi. U Jomiy asariga kirmagan ko‘plab mutasavviflar tarjimai holini ham qo‘shib, ayniqsa turk va hind mashoyixlari haqidagi ma’lumotlarni kengaytiradi. Navoiy tomonidan qo‘shimcha ravishda zikr etilgan 200 dan ortiq shayxlarning muhim qismi turkiy mashoyixlar ekani alohida ta’kidlanadi. Bu hol asarning milliy ruhini kuchaytirib, turkiy tasavvuf tarixini tiklashda muhim manbaga aylantiradi.

Shoir yashagan davrda tasavvuf ijtimoiy-ma’rifiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, axloqiy va ruhiy tarbiya mezonlarini belgilab bergan ta’limot edi. Shu bois Navoiy ijodini tasavvufdan ayro holda talqin qilish mumkin emas. Asarda Turkiston tasavvuf maktabining yirik namoyandasi, “Yassaviya” tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviy alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Navoiy tazkiraning muqaddimasidayoq uning nomini sharaf bilan zikr etadi hamda boshqa shayxlar hayotini bayon qilar ekan, ko‘p bor Yassaviyga murojaat qiladi.

Masalan, Yusuf Hamadoniy haqida so‘z yuritilganda, uning mashhur xalifalari qatorida Ahmad Yassaviy nomi tilga olinadi va u tariqatni keyingi avlodga yetkazgan piri komil sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, ayrim shayxlar, jumladan Qusam Shayx yoki Shayx Raziuddin Ali Lolo tarjimai holida ham ularning Yassaviy xonadoni bilan bog‘liqligi qayd etiladi. Bu lavhalar orqali Yassaviyning tasavvuf silsilasidagi o‘rni, ustoz-shogirdlik an’analari va ma’naviy ta’sir doirasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Navoiy Ahmad Yassaviyning hayoti, maqomi va karomatlarini mantiqiy izchillikda tasvirlab, uni “shayx ul-mashoyix” darajasida ulug‘laydi. Uning muridlari va muxlislari nihoyatda ko‘p bo‘lgani, shohu gado barobar ehtirom ko‘rsatgani ta’kidlanadi. Yassaviy tariqatining keng omma orasida yoyilishida uning sodda va xalqchil she’riy uslubda ijod qilgani muhim omil bo‘lgani qayd etiladi. Shu jihatdan, u tasavvuf g‘oyalarini xalq qalbiga yaqinlashtira olgan murshid sifatida baholanadi.

Tazkirada Yassaviyning ustozlari va shogirdlari haqida ham muhim ma'lumotlar beriladi. Ustozlari sifatida Yusuf Hamadoniy va Abdulkhaliq Gijduvani tilga olinadi, ayrim shayxlar esa uning suhbatdoshlari yoki muridlari sifatida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, Yassaviyning qabri Turkistonning Yassi shahrida joylashgani, bu maskan xalq uchun muqaddas ziyoratgoh ekani ham qayd etiladi. Ushbu ma'lumotlar tarixiy-biografik jihatdan nihoyatda qimmatlidir [4. B-967-969].

“Nasoyim ul-muhabbat” asarining “Bu toifaning a'mol-u af'ol va muomilot-u riyozati” bobida tasavvuf ahlining ma'naviy kamolot yo'lidagi amaliy va axloqiy mezonlari atroflicha sharhlanadi. Unda tavba, halol luqma, shariatga qat'iy rioya qilish hamda tariqat odoblariga sodiqlik masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, hilm, bosiqlik, rizo, sabr, sidq va og'ir riyozat kabi fazilatlar tasavvuf yo'lining asosiy talablari sifatida talqin etiladi. Tazkiranavis bu sifatlar oddiy xalq – avom uchun emas, balki ma'naviy yetuklik sari intilgan xoslar uchun xos ekanini alohida ta'kidlaydi. Avom – keng omma, oddiy kishilarni anglatsa, xos tushunchasi ruhiy kamolotga erishgan, alohida maqom sohibi bo'lgan zotlarni bildiradi [5. B-146-148].

Tasavvufshunos olimlar ta'kidlaganidek, xoslar yo'li mashaqqatli va sinovlarga boydir. Ular og'ir-vazmin fe'l-atvorli, ruhoniylar suhbatga moyil, faqirlikni ixtiyoriy qabul qilgan, nafs istaklaridan voz kechib, ilohiy axloqni kasb etgan insonlardir. “Nasoyim ul-muhabbat”da bunday zotlarning hayot tarzi va kasb-kori ham alohida qayd etiladi. Masalan, ayrim mashoyixlarning pichoqchilik, temirchilik yoki nonvoylik bilan shug'ullangani zikr qilinadi. Bu orqali Alisher Navoiy xos kishilar ham jamiyatdan uzilmagan, mehnat bilan kun kechirganini ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoga bog'lanmagan bo'lsalar-da, zohidona tarkidunyochilikka berilmagan; aksincha, ilm, ibodat va komil axloq bilan ajralib turganlar.

Asarda avom va xosning hayrat holati ham qiziqarli talqin qilinadi. Zunnun Misriy haqidagi hikoyatda hayratning ikki turi – omma hayrati va xos hayrati haqida fikr yuritiladi. Xos hayrati Haqni topish va ma'rifatga yetishish bilan bog'liq bo'lsa,

omma hayrati ko‘proq gumrohlik va tushunmaslikdan kelib chiqadi. Zunnunning uch safar davomida olib kelgan uch xil ilmi haqidagi rivoyat ham shu ma‘noni ochadi: birinchi ilm – tavba bo‘lib, uni hamma qabul qilgan; ikkinchisi – tavakkul va muhabbat ilmi bo‘lib, faqat xoslar anglagan; uchinchisi esa haqiqat ilmi bo‘lib, uni na xos, na avom qabul qila olgan. Natijada u yolg‘iz va quvg‘in holida qolgan. Bu voqea Haq yo‘liga kirgan solik yuksak maqomga yetgach, uni faqat Haqning o‘zi angalay olishini anglatadi.

Ilohiy ishq mohiyati Fuzayl ibn Iyaz va Maruf Karkhi bilan bog‘liq hikoyatlarda yanada chuqurroq yoritiladi. Fuzayl ibn Iyoz muhabbatni riyosiz va tamasiz bo‘lishi kerakligini, chin muhabbat Allohga itoat bilan namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydi. Ma‘ruf Karxiy esa muhabbat inson tomonidan o‘rgatiladigan narsa emas, balki Haqning in‘omi ekanini qayd etadi. Bu fikrlar tasavvufda muhabbatning ilohiy manbadan kelishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Yahyo ibn Muoz Roziy muhabbatning lutf bilan ortmasligi, jafu bilan kamaymasligini aytib, riyozatsiz kamolotga erishib bo‘lmasligini uqtiradi. Unga ko‘ra, Haqni tanish uchun inson dunyoviy ne‘matlardan voz kechib, faqirlikni, ochlikni, tavozeni ixtiyor qilishi lozim. Abu Turab Nakhshabi va boshqa mutasavviflar ham el bilan muomalada ehtiyotkorlikni, nafsni jilovlashni asosiy shart sifatida ko‘rsatadilar. Inson nafs ustidan g‘alaba qozonmas ekan, haqiqiy muzaffariyatga erisha olmaydi.

Tazkirada xalqning aziz-avliyolarga bo‘lgan hurmati ham aks etadi. Ularning hayoti, so‘zi va amali ibrat namunasi sifatida keltiriladi. Xoslar ta‘limotining markazida nafsni poklash, gunohdan tiyilish va qalbni ilohiy ishqqa tayyorlash g‘oyasi turadi. Bu jihatdan Navoiy Abdullah Ansari hikmatlaridan mohirona foydalanib, nafs tarbiyasining mohiyatini ochib beradi. Ansoriy ta‘kidlaganidek, inson nafsini band etmasa, nafs uni band etadi.

Umuman, mazkur bob va undagi hikoyatlar orqali ilohiy muhabbat, ruhiy poklanish va ma‘naviy kamolot masalalari chuqur badiiy-falsafiy talqin qilinadi. Xoslar yo‘li og‘ir sinovlarga bardosh bera oladigan, matonatli va sobitqadam

zotlargagina nasib etadi. Tazkiradagi rivoyatlar esa “avom” va “xos” tushunchalarini yanada ravshanlashtirib, tasavvufiy tafakkurning nozik qirralarini ochib beradi. Bu hikoyatlarni chuqur o‘rganish orqali nafaqat Sharq adabiyotining boy an‘analari, balki Navoiyning ma‘naviy olami va dunyoqarashiga xos muhim jihatlarni ham teranroq anglash mumkin.

Alisher Navoiy nafaqat buyuk so‘z san‘atkori, balki o‘rta asrlar ijtimoiy-falsafiy tafakkuriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan yetuk alloma sifatida ham namoyon bo‘ladi. U falsafa, din va tariqatlar haqida alohida ilmiy risolalar yozmagan bo‘lsa-da, o‘zining badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarida ushbu masalalarga chuqur munosabat bildirgan. Bu munosabat ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: birinchisi - ochiq mulohaza va aniq xulosalar shaklida, ikkinchisi esa badiiy matn zamiriga singdirilgan ramziy ishoralar orqali. Ayniqsa, qazo va qadar, hurufiylik, malomatiya, futuvvat (javonmardlik) kabi murakkab va nozik masalalar ko‘pincha obrazlar va badiiy timsollar vositasida ifodalangan [6].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси
2. X.o‘ktamboyeva “Nasoyim ul-muhabbat” - turkiy adabiyotdagi ilk tazkira va tasavvufiy muhabbat falsafasi, Academic Research in Modern Science International Scientific-Online Conference, 4(11), 125-126, 2025.
3. Z.Qudratov “Nasoyimul-muhabbat” da buyuklar siymosi.
4. D.I.Saydullayeva “Nasoyim ul-muhabbat”da Ahmad Yassaviy zikri, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(4), 967-969, April, 2023.
5. Sh.Rahmonova “Nasoyim ul-muhabbat”da xos va avom talqini, “Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari” mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari, 146-148-betlar, 2024.

6. A.Otaxanov “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida tasavvufga oid atama va iboralarning qo‘llanilishi. Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o‘rni, 15-son www.academics.uz 20.04.2022.

## FONIYNING “SITTAI ZARURIYA” ASARI TAHLILI

*Saparbayeva Aziza Asror qizi*  
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi*  
*Urganch davlat universiteti*  
*magistranti*  
[azizasaparbaeva1305@gmail.com](mailto:azizasaparbaeva1305@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning fors tilida Foniyl taxallusi ostida bitgan “Sittai Zaruriya”, ya’ni “Olti zaruriy qasida” nomli asari tarixiy-falsafiy, axloqiy-ma’naviy jihatlardan tahlil qilingan. Asardagi berilgan hikmatli so‘zlarning bugungi zamonda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi qayd qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, qasida, “Muqaddas ruh”, “Hayot bulog‘i”, “Fikrlar tuhfası”, “Qalblar ozuqasi”, “Najot tuhfası”, “Jannat shabadasi”.

**Аннотация:** В данной статье анализируется произведение Алишера Навои «Ситтай Зарурия», то есть «Шесть необходимых од», написанное на персидском языке под псевдонимом Фоний, с историко-философской и морально-духовной точек зрения. Отмечается, что мудрые слова, приведенные в произведении, не утратили своей актуальности и по сей день.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, ода, «Святой Дух», «Источник жизни», «Дар мыслей», «Пища сердец», «Дар спасения», «Дыхание рая».

**Abstract:** This article analyzes Alisher Navoi’s work “Sittai Zaruriya”, that is, “Six Necessary Ode”, written in Persian under the pseudonym Foniyl, from historical-philosophical, moral-spiritual aspects. It is noted that the wise words given in the work have not lost their significance even today.

**Keywords:** Alisher Navoi, ode, “Holy Spirit”, “Fountain of Life”, “Gift of Thoughts”, “Food of Hearts”, “Gift of Salvation”, “Breath of Paradise”.

Alisher Navoiy forsiy qasidalarining falsafiy va tasavvufiy jihatlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Mahliyo Ibroimova va Rustam Shokirov tomonidan olib borilgan tadqiqotda Navoiyning “Sittai Zaruriya” qasidalarini tarkibidagi tasavvufiy, falsafiy hamda ilmiy g‘oyalar kompleks tarzda tahlil qilingan [2. B-843. 2025]. Tadqiqotchilar ushbu qasidalarni nafaqat poetik jihatdan, balki islom falsafasi va tasavvufiy tafakkur bilan bog‘liq holda o‘rganib, ularning ruhiy kamolot va ilohiy haqiqatni anglashga qaratilgan konseptual tizimga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, mazkur qasidalar Navoiyning teologik, ilmiy va badiiy qarashlari sintezini aks ettiruvchi muhim adabiy manba hisoblanadi. Shuningdek, ular “Sittai Zaruriya” qasidalarini matnshunoslik va intertekstual tahlil asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatib, ushbu asarlarning tasavvufiy va falsafiy kontekstdagi tadqiqi hali to‘liq yakunlanmaganini qayd etadilar.

Alisher Navoiyning “Sittai Zaruriya” qasidalarining adabiy manbalari va g‘oyaviy ildizlari ham alohida tadqiq etilgan. Xususan, Nazora Bekova, Lola Jalilova va Zarina Saylieva tomonidan olib borilgan tadqiqotda ushbu qasidalar Sharq adabiyotidagi diniy-falsafiy va kosmologik qarashlar bilan uzviy bog‘liqligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi [3. B-45-47.2014]. Tadqiqotchilar “Sittai zaruriya”ning g‘oyaviy manbalari sifatida Sharq mumtoz adabiyotidagi bir qator asarlar, jumladan, tasavvufiy va falsafiy risolalar ta’sirini ko‘rsatib beradilar. Ularning fikricha, mazkur qasidalar inson, koinot va ilohiylik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi yaxlit badiiy-falsafiy tizimni tashkil etadi. Shu bilan birga, tadqiqotda qasidalar mazmunida tasavvufiy qarashlar, kosmologik timsollar hamda Sharq tabobatida uchraydigan “olti zarur unsur” konsepsiyasi bilan bog‘liq g‘oyalar aks etgani ta’kidlanadi.

Alisher Navoiy qasidalarining matnshunoslik jihatlari ham ayrim tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Nazzora Bekova va Dildora Muxtorova tomonidan olib borilgan tadqiqotda Navoiyning “Ayn ul-hayot” qasidasi turli nashrlari o‘rtasidagi matniy tafovutlar qiyosiy tahlil qilingan [4. B-737.2023].

Tadqiqotchilar qasidaning turli davrlarda nashr etilgan matnlarini solishtirib, ayrim baytlarda uchraydigan leksik va grafemik o'zgarishlarning mazmun hamda badiiylikka ta'sirini aniqlashga harakat qiladilar. Tadqiqotda qasidaning Parij qo'lyozmasi asosida tayyorlangan nashrlar, shuningdek, keyingi davr ilmiy nashrlari o'zaro qiyoslanib, ayrim so'z va harf almashuvlari matn ma'nosini qisman o'zgartirishi mumkinligi ko'rsatib berilgan. Mualliflar shuningdek, "Ayn ul-hayot" qasidasi tasavvufiy mazmun, kosmologik timsollar hamda na't an'analari bilan bog'liq murakkab badiiy tizimga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Shu jihatdan mazkur tadqiqot Navoiy qasidalarining matnshunoslik asosida o'rganilishida muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Sittai Zaruriya – milodiy 1496-yil (hijriy 902-yil) da Sulton Husayn Boyqaro amri bilan Alisher Navoiyning forsiy qasidalarini jamlashidan hosil bo'lgan asardir. Ushbu qasida 6 qasida, 724 baytdan iborat hisoblanadi. "Sittai Zaruriya" so'zi "Olti zaruriy qasida" ma'nosini beradi. Ushbu qasidaning 6 qismida ham Alisher Navoiy qaysi yozuvchilarga tatabbu (o'xshatish) qilganligini ko'rsatib o'tgan. Islom dini O'rta Osiyo xalqlari orasida keng yoyilgandan so'ng, muarrixlar, adiblar, yozuvchiyu shoirlarning barchasi o'z kitobining ilk qismlarida, muqaddimalarida qo'llab kelgan uslub Foniyning ushbu qasidasida ham ko'zga tashlanadi. Alloma 1-qasidani "Ruh ul-quds"- "Muqaddas ruh" deb nomlab, unda yuqorida ta'kidlanganidek, Allohga hamd va uning yaratilishiga bag'ishlanadi. Ushbu qism 132 baytdan iborat bo'lib, unda Qur'onning bir nechta sura va oyatlariga murojaat qilinadi (Azhob). Jumladan, Odam (a.s) ning yaratilishi, insonning tana a'zolarining yaratilishi, yurakga podshohlik, aqlga vazirlik maqomi berilganligi, "Bo'l!" jumlasining qudrati, payg'ambar Muhammad (s.a.v) bilan Isro kechasida sodir bo'lgan voqealıklar tasvirlanadi. Shuningdek, foniy dunyoda kechadigan tabiat jarayonlari fasllar almashinuvi, gullarning bir nechta turlari, nomi bilan (rayhon, binafsha, suman, sunbul, nargis, nastarin, oq gul, chaman, ra'no, gultojixo'roz, Xitoy lolasi), 9 ta falak (sayyora - Oy, Atorud-Merkuriy, Zuhra-Cho'lpon, Quyosh, Mirrix, Mushtariy-Yupiter, Zuhul-Qayvon) va 12 ta yulduz turkum (burjlar – xamal,

savr, javzo, qisqichbaqa, sher, tarozi, aqrab, kamonxona, qovg‘a, xut) larini sanab o‘tgan [1. B-16-18. 2008].

Ikkinchi qismi “Ayn ul-hayot” – “Hayot bulog‘i” deb nomlanadi. Ushbu qism 106-baytdan iborat bo‘lib, unda ham Qur‘onning Toho, Nasr, Fath suralariga murojaat qilingan bo‘lib, orzu-havasning quli bo‘lmaslik, taqlidchilik uchun o‘zini e‘tiqodli qilib ko‘rsatishga urinmaslik, zohiriy bilim egalari esa raqiblarini mulzam qilish uchungina ilm olishga tirishmasligi, savdo ahli rastada toshu tarozidan urmasligi, qozilar esa pora evaziga haqiqatni berkitib, nohaq fatvo bermasliklari, saroy mirzolari esa qalamini manfaat yo‘lida tebratmasligi, hamiyatsiz pastkashlar shum nafsi yo‘lida orzusi ushalishi uchun o‘zini har eshikka urmasligi uqtiriladi. Shuningdek, Me‘roj kechasi, Muso, Yahyo payg‘ambarlar o‘rnak sifatida tasvirlab o‘tiladi. Tarixiy shaxslardan biri bo‘lgan Najmiddin Kubroning tasvirlanishini ham ta’kidlash joiz. Foniyl ushbu qasidaning “Hayot bulog‘i” deb atalishining sababi esa xalq uni shabadasidan o‘lgan jismga toza jon kirgandek jonlanishini nazarda tutadi [1. B-27-29. 2008].

Uchinchi qism “Tuhfat ul-afkor” – “Fikrlar tuhfasi” deb nomlangan bo‘lib, 99 baytdan iborat. Ushbu qasidada o‘limni eslamaydigan, molu davlatga xirs qo‘ygan podshohning hukmronligi qisqa bo‘lishi, “...o‘rmon sheriga nisbatan zanjirband sherning savlati ko‘rimsizdir” [1. B-34. 2008] jumlasida ifoda qilib beriladi. Shuningdek, qozi tamagir bo‘lmasligi, shayx safsata qilmasligi, xiylagarning gapiga ishonmaslik, ta‘magir voiz-non tilovchi gado kabiligi, riyokorning qilmishlari oxiri oshkor bo‘lishi, faqih fiqhni makr-xiyla quroli qilib olmasligi, johil elning jaholatga yuz tutishi, donishmandning o‘rinsiz lofi u Aflotunning toji bo‘lsa ham boshga balo olib kelishi haqida, luqmaxo‘r bo‘g‘ziga zarar qilishi, pastkash odam zarga ko‘ngil bergani o‘ziga kafan to‘qigan pilla qurti kabiligi, tariqat yo‘lovchisining tayyorgarligi na semiz va na oriq bo‘lmasligi kerakligi, oqil va fosiq kishi haqida, xasis, xiylagar odamlar haqida, er va xotin tavsifi haqidagi baytlar keltiriladi.

Shuningdek, ushbu qismda Foniyl so‘z o‘yini uslubini qo‘llagan. Jumladan, aqrab-qurb (chayon-yaqinlik), ozar-Ozar (zar-Ibrohim (a.s) ning otasi Ozar), dovar-

davr (dovrug‘-kasargardonlik), qaysar-sarsar (podshoh-bo‘ron), qasir-qaysar (qisqa-qaysar), kof-foqa (Kof tog‘i va kambag‘allik). Ushbu qismda keltirilgan yana bir baytga nazar tashlasak:

*Ishq tuban kishini ham ko‘zga olijanob qilib ko‘rsatadi,*

*Parvonaga shamning qomati Kashmir sarvi kabidir. [1. B-39. 2008]*

Yuqoridagi baytdan ham ko‘rinib turganidek, ushbu qism o‘git, nasihat ruhida yozilgan bo‘lib, undan o‘qiguvchi saboq chiqarishi, qayta jonlanishi, uyg‘onishi murod qilinganligi Navoiy tomonidan izohlangan.

To‘rtinchi qism “Qut ul-qulub” – “Qalblar ozuqasi” deb nomlangan bo‘lib, 120 baytdan iborat. Unda muallif Qur‘onning Anbiyo surasiga murojaat qiladi va baytlarda paradoksal yondashuvga guvoh bo‘lamiz. Qasidaning ushbu qismida Odam (a.s) va Momo havoning qissasi bayon etiladi. Qarama qarshilikni esa ushbu baytlarda kuzatish mumkin:

*B: O‘rmon - sher kushandasi emas, sichqon o‘ligi ko‘chada qolmaydi, jabru jafodan zaifgina chumoliga qancha ranju mashaqqatlar yetadi.*

*P: Chumolidan g‘azabli sherlarga ranj yetishining nima foydasi bor, chunki o‘zi oyoq ostidadir.*

*B: ... shunday bahaybat, katta filning xartumiga pashsha kirib, unga ne ko‘rgiliklarni ko‘rsatadi.*

*P: Pashshadan o‘rmondagi filga ham ozor yetsa-da, bir tezak tutatilsa, barchasi qochib ketadi.*

*B-P: Oyga panja urmoqchi bo‘lgan arslonning ham terisini shilib, oyoq ostiga tashlaydilar.*

*B-P: Dengiz to‘lqinli cho‘qqilarni ketkazuvchi bo‘lsa ham yuzida qayg‘udan ajinlari bor.*

*B-P: Nahang (kit) dengiz suvining qahramoni bo‘lsa ham, oqibat ko‘plab suv qurtlariga yem bo‘ladi.*

*B-P: Agarchi “barcha narsa suvdan yaralgan” bo‘lsa ham, suvga cho‘kkan o‘ladi, tirik qolishi mahol.*

---

*B-P: Tuproqni sukunat va orom manbai deb bilma, quyun turganda u shamolga aylanadi* [1. B-45-47. 2008].

Shuningdek, islomiy ta'limot negizini tashkil qiluvchi 5 ta arkon sanab o'tilib, ularga riyokorona va manfaat ilinjidadagina qilish emas, balki haqqoniy e'tiqod qilish, amal qilish targ'ib qilingan. Baytlarning bir nechtasida Zakariyo payg'ambar qissasi ham keltirilgan. Bu qasidani ushbu qismini "Qalblar ozuqasi" deb atalishining boisi ham yuqoridagi baytlardan ibrat olib, qalbni poklash va ezgulik yo'lida jiddu jahd qilish nazarda tutilgan.

Beshinchi qism "Minhoj un-najot" – "Najot yo'li" deb nomlanib, 138 baytdan iborat. Ushbu qasidada Foniyy Baqara, Sod, A'rof suralariga murojaat qiladi. Shuningdek, Odam, Ibrohim, Muso, Yusuf, Iso, Muhammad (s.a.v) payg'ambarlar va bir nechta tarixiy shaxslar nomlari sanab o'tilgan. Muallif qasidaning ushbu qismini xalqni gumrohlikdan ezgulikka olib chiqishiga umid bog'lab, "Najot yo'li" deya nomlagan.

Oltinchi qism "Nasim ul-xuld" – "Jannat shabadasi" deb nomlangan bo'lib, 129 baytdan iborat. Ushbu qismda Dovud, Imron, Iso payg'ambarlar qissalari bayon etilgan. Shuningdek, solih kishining fazilatlarini va amallari qanday bo'lishi kerakligi haqida muallifning fikrlari bayon etilgan. Tarixiy shaxslardan Husayn Boyqaro tilga olinib, odil shoh doim xalq manfaati uchun harakatda bo'lishi ta'kidlangan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy "Sittai Zaruriya" qasidalar to'plami orqali nafaqat forsiy qasidachilik an'analarini davom ettiradi, balki ularga chuqur ma'naviy-falsafiy mazmun yuklaydi. "Ruh ul-quds", "Ayn ul-hayot", "Tuhfat ul-afkor", "Qut ul-qulub", "Minhoj un-najot" va "Nasim ul-xuld" kabi nomlarining o'ziyoq bu qasidalar inson ruhiyati, axloqiy poklanish, najot va baqo g'oyalari izchil yoritishga qaratilganini ko'rsatadi.

Asarda Qur'on sura va oyatlariga, payg'ambarlar va tarixiy shaxslarga, falakiyot va tabiat manzaralariga murojaat qilish orqali yaratilish, insonning ichki dunyosi, jamiyatdagi adolat va nohaqlik, riyo va ixlos, ilm va johillik, podshoh va raiyat munosabatlari singari masalalar badiiy talqinda ochib beriladi. Navoiy

tatabbu an'anasi doirasida bo'la turib, ma'rifatparvarlik, axloqiy-ibrat va didaktik ruhni birinchi planga chiqaradi, o'quvchini o'zini anglash, qalbini poklash, ezgulikka intilishga da'vat etadi.

“Sittai Zaruriya” o'z davrining diniy-axloqiy va falsafiy qarashlarini mujassamlashtirgan holda, bugungi tadqiqotlar uchun ham Navoiy tafakkuri, forsiy poetik meros va tasavvufiy-estetik qarashlarni chuqur o'rganishda muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий Ситгаи Зарурия (Олти зарурий қасида), Сайфиддин Сайфуллоҳ таржимаси, Тошкент., Фан. 2008.

2. M.Ibroimova., R.Shokirov Alisher Navoiyning “Sittai Zaruriya” qasidalaridagi falsafiy va tasavvufiy jihatlar. XII. Uluslararası Türk Dünyası Sempozyumu 21-23 Mayıs 2025 / Niğde.

3. Бекова, Н. Ж. On a separate literary sources of the poetry collection «Sittai Zaruriya» by Alisher Navoi / Н. Ж. Бекова, Л. Ж. Жалилова, З. Р. Сайлиева. — Текст : непосредственный // Современная филология : материалы III Междунар. науч. конф. (г. Уфа, июнь 2014 г.). — Т. 0. — Уфа : Лето, 2014. — С. 45-47. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/108/5799>.

4. N.Bekova., D.Muxtorova “Ayn ul-hayot” qasidasi, nashrlardagi tafovutlar. Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 2 | Issue 5 | May, 2023

---

**ALISHER NAVOIY – MADANIYAT VA SAN’AT HOMIYSI SIFATIDA**

*Mumtozbeqim Mirzaliyeva*

*Yunus Rajabiy nomidagi*

*O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti*

*magistranti*

*Ilmiy rahbar: Ilyos Arabov*

*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist,*

*professor*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning XV asr Xuroson madaniy muhitida tutgan o‘rni, uning san’at turlariga munosabati va ilm-fan ahliga ko‘rsatgan homiyliqi “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” hamda “Navoiyshunoslik” darsligi ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. Navoiyning musavvirlik, musiqa, xattotlik va me’morchilik rivojiga qo‘shgan hissasi san’atshunoslik nuqtayi nazaridan yoritilgan. Shuningdek, uning homiylik faoliyatining bugungi Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, homiylik, Temuriylar renessansi, san’atshunoslik, musavvirlik, xattotlik, musiqa, me’morchilik, Uchinchi Renessans.

**Аннотация:** В данной статье на основе данных «Энциклопедии Алишера Навои» и учебника «Навоиведение» анализируется роль великого мыслителя Алишера Навои в культурной среде Хорасана XV века, его отношение к различным видам искусства и покровительство людям науки. С искусствоведческой точки зрения освещается вклад Навои в развитие живописи, музыки, каллиграфии и архитектуры. Также раскрывается значение его меценатской деятельности в создании фундамента сегодняшнего Третьего Ренессанса.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, меценатство, Тимуридский Ренессанс, искусствоведение, живопись, каллиграфия, музыка, архитектура, Третий Ренессанс.

**Abstract:** Based on the data of the “Alisher Navoi Encyclopedia” and the textbook “Navoi Studies”, this article analyzes the role of the great thinker Alisher Navoi in the cultural environment of 15th-century Khorasan, his attitude towards

various types of art, and his patronage of people of science. Navoi's contribution to the development of painting, music, calligraphy, and architecture is highlighted from an art historical perspective. The significance of his patronage activities in creating the foundation of today's Third Renaissance is also revealed.

**Keywords:** Alisher Navoi, patronage, Timurid Renaissance, art history, painting, calligraphy, music, architecture, Third Renaissance.

Sharq Uyg'onish davrining, xususan, Temuriylar Renessansining eng yorqin siyмосi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir va davlat arbobi, balki san'at va madaniyatning chinakam homiysi sifatida jahon tarixidan mustahkam o'rin egallagan. XV asrning ikkinchi yarmi Hirotda yuz bergan madaniy yuksalishni Navoiyning shaxsiy tashabbusi va homiyligisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shoir o'zining butun hayoti va faoliyatini insoniyatning ma'naviy kamolotiga, ilm-fan va san'atning taraqqiyotiga bag'ishlagan.

Alisher Navoiy san'atni inson ruhini tarbiyalovchi, uni yuksaltiruvchi va jamiyatni ezgulikka chorlovchi qudratli kuch deb hisoblagan. Uning san'atga munosabati tizimli va nazariy asoslangan bo'lib, bu uning "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub" va "Xamsa" asarlarida yaqqol ko'rinadi. Navoiy uchun san'at shunchaki ko'ngilochar vosita emas, balki "Haqiqat"ni anglash yo'lidagi muhim bosqich edi. Shoir musiqani inson qalbini poklovchi ilohiy sado deb bilgan. U o'zining "Majolis un-nafois" asarida o'nlab musiqashunoslar, xonanda va sozandalarga to'xtalar ekan, ularning mahoratini nafaqat ijrochi, balki professional san'atshunos sifatida baholaydi [3. B-112]. Navoiyning o'zi ham bastakorlik qobiliyatiga ega bo'lib, bir qancha kuylar yaratgani tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Shuningdek, Navoiy me'morchilik san'atiga ham alohida e'tibor qaratgan. Uning nazarida binolar faqat funksional ahamiyatga ega bo'lmay, balki estetik go'zallik va muvozanat timsoli bo'lishi lozim edi. Shoirning qurilish ishlarida shaxsan ishtirok etishi, binolarning tarhi va bezaklariga ko'rsatma berishi uning san'atshunoslik sohasidagi yuksak dididan dalolat beradi [1. B-45].

Alisher Navoiyning homiylik faoliyati ko'lami nihoyatda keng bo'lib, u san'atning barcha turlarini - she'riyatdan tortib musavvirlikkacha, xattotlikdan

tortib me'morchilikni qamrab olgan. Uning "Ixlosiya" va "Nizomiya" kabi madrasalari o'sha davrning o'ziga xos akademiyalari vazifasini o'tagan.

Musavvirlik san'ati va Kamoliddin Behzod. Navoiyning san'at homiysi sifatidagi eng buyuk xizmatlaridan biri - Sharq tasviriy san'atining daho san'atkori Kamoliddin Behzodni kashf etgani va tarbiyalaganidir. Ensiklopedik ma'lumotlarga ko'ra, Navoiy Behzodning iste'dodini erta payqab, unga o'z kutubxonasidan joy bergan va eng yaxshi ustozlarni biriktirgan [1. B-218]. Navoiyning homiyligida Hirot miniatyura maktabi shakllandi, bu maktab nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Islom dunyosi san'atiga ta'sir ko'rsatdi. Behzodning asarlaridagi realizm unsurlari va ranglar jilosi aynan Navoiyning estetik qarashlari ta'sirida yuzaga kelgan [5. B-88].

Navoiy kitobni ma'naviyat xazinasini deb bilgan va uni bezashni alohida san'at darajasiga ko'targan. Uning atrofida Sultonali Mashhadiy kabi "qiblatul-kuttob" (xattotlar qiblasi) unvoniga sazovor bo'lgan xushnavislar ijod qilgan. Navoiy xattotlarga nafaqat moddiy yordam bergan, balki qo'lyozmalarning badiiy bezagi, sarlavhalarining naqshlanishi va muqovalanishiga ham homiylik qilgan [2. B-305]. Navoiy o'z boyligini ilm ahlini qo'llab-quvvatlashga sarflagan. Tarixchi Mirxondning "Ravzat us-safo" asari Navoiyning moddiy va ma'naviy ko'magi ostida yozilgan. Shoir olimlar uchun maxsus sharoitlar yaratib bergan, ularni davlat ishlari va soliq yukidan ozod qilgan [4. B-12]. Bu esa olimlarga faqat ilmiy izlanish bilan shug'ullanish imkonini bergan. "Navoiyshunoslik" darsligida ta'kidlanganidek, Navoiyning bu faoliyati o'sha davrda intellektual salohiyatning mislsiz darajada yuksalishiga sabab bo'lgan [5. B-94].

Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, Alisher Navoiyning homiylik va ma'rifatparvarlik modeli davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Navoiyning "insonga e'tibor va sifatli ta'lim" tamoyili Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

Navoiyning homiylik an'analari bugun quyidagi jihatlarda namoyon bo'lmoqda:

Iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash: Davlat tomonidan yosh ijodkorlar va olimlar uchun yaratilayotgan grantlar, Prezident stipendiyalari va turli ijodiy

uyushmalarning faoliyati Navoiy boshlab bergan homiylik an'alarining zamonaviy davomidir.

Ma'naviy-ma'rifiy markazlar: Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Navoiy ijod maktablari va muzeylarning tashkil etilishi shoir merosini o'rganish va keng targ'ib qilishga xizmat qilmoqda [1. B-8].

San'at va fanning uyg'unligi: Navoiy davridagi kabi bugun ham ilm-fan va san'atni uyg'un holda rivojlantirish orqali jamiyatning intellektual qiyofasi shakllantirilmoqda.

Alisher Navoiy insoniyat tarixidagi noyob fenomen. Uning homiylik faoliyati shunchaki boyligni sarflash emas, balki kelajak sivilizatsiyasi uchun ma'naviy poydevor qo'yish edi. Navoiy yaratgan "San'at va ilm akademiyasi" XV asrda jahon madaniyatining markaziga aylandi. Ensiklopedik va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiyning san'atga bo'lgan munosabati komil inson g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. U san'atkorlarni tarbiyalash orqali jamiyatning ma'naviy immunitetini mustahkamladi. Bugungi Uchinchi Renessans davrida Navoiy merosi biz uchun nafaqat faxr manbai, balki taraqqiyotning aniq strategik yo'nalishidir. Navoiy kabi san'at va ilm-fanni qadrlash, uni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash buyuk kelajakning kafolatidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. 1-jild (A-H). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019/2024.
2. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2024.
3. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2024.
4. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. 4-jild (T-CH). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2024.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019.
6. Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 2001.

---

**SHARQ MUTAFAKKIRLARIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI:  
ALISHER NAVOIY VA NOSIRIDDIN TUSIY QARASHLARI**

*Urazova Guli Uringaliyevna*  
*Urganch davlat pedagogika instituti*  
*magistranti*  
[urazovaguli02@gmail.com](mailto:urazovaguli02@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sharq falsafa tarixida muhim o‘rin egallagan, komil inson konsepsiyasining ikki yirik namoyandalari bo‘lmish Nosiriddin Tusiy va Alisher Navoiyning pedagogik, axloqiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shu jumladan, Tusiyning “Axloqi Nosiriy” asari hamda Navoiyning “Mahbub ul-qulub” va boshqa asarlarida komil inson haqida g‘oyalar yoritilib berilgan. Ushbu maqolada sharq falsafasida komil inson tushunchasining shakllanishi va taraqqiyotini Tusiy hamda Navoiy ijodiy boy merosida taqqoslash orqali umumiy va o‘ziga xos jihatlarni aniqlanadi. Shuningdek, Tusiy hamda Navoiyning asarlaridagi g‘oyalarning o‘xshashliklari va farqlari aniqlanib tahlil qilinadi. Maqolada Tusiy komil insonni aqliy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan mukammal shaxs sifatida talqin qilgani, Navoiy esa bu konsepsiyani tasavvufiy va she‘riy-estetik yo‘nalishda boyitgani ko‘rsatildi.

**Kalit so‘zlar:** Nosiriddin Tusiy, Alisher Navoiy, komil inson, “Axloqi Nosiriy”, “Mahbub ul-qulub”, sharq mutafakkirlari, g‘oya, konsepsiya.

**Аннотация.** В статье представлен сравнительно-теоретический анализ педагогических и этико-философских воззрений Насир ад-Дина Туси и Алишера Навои — выдающихся представителей концепции совершенного человека в традиции восточной философии. Особое внимание уделяется интерпретации идеала человека в труде Туси “Ахлаки Насири”, а также в произведении Навои “Махбуб ул-кулуб” и других его сочинениях. Исследуется генезис и эволюция понятия совершенного человека в восточной философской мысли на основе сопоставительного анализа богатого интеллектуального наследия Туси и Навои, выявляются как общие, так и

специфические особенности их подходов. Кроме того, проводится системный анализ сходств и различий их этико-философских позиций. Делается вывод о том, что Туси рассматривал совершенного человека как интеллектуально, нравственно и социально гармоничную личность, тогда как Навои развил данную концепцию в суфийско-поэтическом и эстетическом измерении.

**Ключевые слова:** Насир ад-Дин Туси, Алишер Навои, совершенный человек, “Ахлаки Насири”, “Махбуб ул-кулуб”, восточная философия, этическая мысль, концепция.

**Abstract.** This article provides a comparative scholarly analysis of the pedagogical and ethical doctrines of Nasir al-Din Tusi and Alisher Navoi, two prominent representatives of the concept of the perfect human being in the tradition of Eastern philosophy. Particular attention is devoted to the interpretation of the ideal human in Tusi’s *Akhlaq-i Nasiri* and Navoi’s *Mahbub ul-qulub*, as well as in his other writings. The study examines the genesis and evolution of the concept of the perfect human in Eastern philosophical thought through a comparative assessment of the intellectual legacy of Tusi and Navoi, identifying both convergent and distinctive dimensions of their views. Furthermore, the article offers a systematic analysis of the similarities and divergences in their ethical and philosophical positions. The findings indicate that Tusi conceptualized the perfect human as an intellectually, morally, and socially integrated personality, whereas Navoi expanded this framework within a Sufi-oriented poetic and aesthetic paradigm.

**Keywords:** Nasir al-Din Tusi, Alisher Navoi, perfect human, *Akhlaq-i Nasiri*, *Mahbub ul-qulub*, Eastern philosophy, ethical thought, concept.

Sharq falsafasi tarixida “komil inson” konsepsiyasi inson kamoloti, ma’naviy yetuklik va barkamollikni ifoda etuvchi markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Ushbu asosiy g‘oya asrlar davomida Sharq mutafakkir-u olimlari tarafidan turli falsafiy, diniy va axloqiy qarashlar bilan boyitilib, inson shaxsini mukammallashtirishga, yosh avlodni komil inson sifatida tarbiy slashga qaratilgan

nazariy va amaliy ta'limot sifatida shakllangan. Shu jumladan, buyuk qomusiy olimlar Alisher Navoiy hamda Nosiriddin Tusiyning ijodiy merosida komil inson konsepsiyasi alohida o'rin tutadi. Ularning asarlarida insonning aqliy, axloqiy va ruhiy yetukligi, ilm-ma'rifatga intilishi, rostgo'ylik, adolat, halollik va ezgulik kabi ijobiy fazilatlarni egallashi komillikning asosiy mezonlari sifatida talqin etiladi. Shuningdek, Navoiy asarlarida komil inson obrazini adabiy qahramonlar orqali yoritib, uni jamiyat uchun ibrat namunasi sifatida ko'rsatadi. Tusiy esa o'zining axloqiy-falsafiy qarashlarida inson tarbiyasi, o'zini anglash va ijtimoiy mas'uliyat masalalarini ilmiy-nazariy asosda tahlil qiladi.

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida odob haqida quyidagicha yozadi: "Adab kichik yoshlig' ulug'lar duosig'a sazovor etar va ul duo barokati bila umridin barxurdor. Kichiklar mehrin ulug'lar ko'nglig'a solur va ul muhabbat ko'ngulda muabbad qolur. Ushog'larni ko'zg'a ulug' qilur atvoridin xalq ulug'liq bilur" [1. 1998. B-491]. Ushbu jumlada odob orqali kichiklar kattalarning hurmatiga sazovor bo'lishi hamda ezgu duoga erishishi haqida aytib o'tilgan. Darhaqiqat, ulug'lar duosi insonning hayotiga baraka olib keladi, shu bilan birga insonning kamol topsishidagi ma'naviy kuchlardan biri bo'lib ham sanaladi. Odob orqali kattalarning ko'nglida abadiy qolib, insonlarning o'rtasidagi mehr-muhabbatni saqalanib qolishiga xizmat qiluvchi manba sifatida bayon qilgan. Navoiyning fikricha, inosning boyligi uning chiroyli kiyim, hashamatli uyida yoki uning mol-mulkida emas balki, uning chiroyli odobida, go'zal, ijobiy fazilatlarida ekanligini ta'kidlaydi.

Sharq falsafasi va tasavvuf an'analari shakllangan "komil inson" konsepsiyasi Navoiyning badiiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Ana shu komil inson g'oyasi Navoiy ijodida, xususan, "Hayrat ul-abror" dostonida yaqqol namoyon bo'ladi. Fikrimiz isboti sifatida, Navoiy o'zidan oldingi ustozlari asarlarini sevib mutoala qilgan va 1483-yilda Jomiyning Madrasai Qudsdagi hujrasidagi suhbatlarning birida Jomiy Navoiyga yangi asarini beradi. Bu forsiy tilda yozilgan asar Navoiyda juda katta taassurot qoldiradi. Navoiy bu tafakkur

durdonalarini o‘z ona turkiy (eski o‘zbek) tilida yozishga va xalqini bahramand etishga bel bog‘laydi va ustozlari Jomiydan duo oladi. O‘sha yiliyoq Navoiy o‘z asarini “Hayrat ul-abror” deb ataydi. Bu asarni navoiyshunos olim, akademik Aziz Qayumov o‘zbek tilidagi ezgulik va insoniy barkamollik saboqlari to‘plami [2. 2006. B-392] deb ataydi.

Tusiy o‘zining “Axloqi Nosiriy” asarida komillik bu faqat bilimli bo‘lish emasligini ta’kidlab, insonda uch asosiy kuch muvozanatda bo‘lishi kerak deb biladi. Bular:

1. Aql – to‘g‘ri fikrlash, qarorlar qabul qilish va o‘z-o‘zini idrok qilish;
2. G‘azab/quvvat – jasorat va irodaviy kuch;
3. Shahvat/nafs – istak va ehtiyojlarni boshqarish.

Ushbu kuchlarni muvozanatda qo‘llay bilgan insongina komillikka erisha ooladi. Komil inson tarbiyasida oila, maktab, jamiyatdagi shaxslarning o‘rni katta hisoblanadi.

“Axloqi Nosiriy” asarida insonda ilm hamda amal kabi fazilatlar bo‘lsa, donishmand, komil inson hisoblanadi va insoniyat oldida mavqei baland bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Demak, ilm o‘rganish insonning borliq haqida anglashiga, yaxshini yomondan ajratishiga yordam beradi. Lekin ilm o‘rganilib amalsiz qolsa, u faqat nazariy boylik bo‘lib qoladi. Shu sababli, amal esa ilmni kundalik hayotda qo‘llashdir. Inson o‘rgangan ilmni xulqida, muomalasida, mehnatida namoyon qilsa, uning ilmi haqiqiy qiymat kasb etadi. Tusiy nazarida komillik — bu bilimni axloqiy poklik va foydali ishlar bilan uyg‘unlashtirishdir.

Komillikning ham o‘z darajalari bor hamda noqislikka nisbatan juda ko‘p. Bular goh sog‘lomlik va xushbaxtlik, goh osoyish va rohatlik, goh davlat va hurmat, gohida esa shon-sharaf va shuhrat shaklida namoyon bo‘ladi [3,4. 2022. B-320].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Sharq mutafakkirlarining komil inson haqidagi g‘oyalari insonni faqat bilimli emas, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga tayanadi. Sharq mutafakkirlari bo‘lmish, Alisher Navoiy va Nosiriddin Tusiyning asarlaridagi ta’limotida komillik – aql, axloq va

ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligida namoyon bo'ladigan holatdir. Navoiy komil insonni mehr-oqibatli, adolatparvar va jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'ya oladigan shaxs sifatida talqin etsa, Tusiy bu tushunchani ilm, o'zini nazorat qilish va axloqiy poklanish orqali erishiladigan daraja deb izohlaydi. Har ikki mutafakkir pedagogik qarashlarida inson kamoloti uzluksiz tarbiya va o'z ustida ishlash jarayoni ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shu sababli ham, ushbu mutafakkirlarning merosi bugungi kunda shaxs tarbiyasida muhim metodologik asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, komil inson konsepsiyasi yosh avlodni ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol, jamiyatga foydasi tegadigan va mas'uliyatli etib tarbiyalashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.Navoiy: Mukammal asarlar to'plami, 14-jild, 1998. 491.
2. A. Qayumov. "Ezgulik va kamolot saboqlari". Hayrat ul-abror/Alisher Navoiy: To'plab nashrga tayyorlovchi: Aziz Qayumov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006. – 392 b.
3. Axloqi Nosiriy: risola / Xo'ja Nosiriddin Tusiy – Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, - 2022, 320-bet.
4. [https://www.researchgate.net/publication/362761000\\_Xo'ja\\_Nosiriddin\\_Tusiy\\_AXLOQI\\_NOSIRIY](https://www.researchgate.net/publication/362761000_Xo'ja_Nosiriddin_Tusiy_AXLOQI_NOSIRIY)

---

**“XAMSA” ASARLARIDA SAN’AT VA GO‘ZALLIK FALSAFASI**

*Diyorbek Amanov Murodilla o‘g‘li*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi “San’at nazariyasi va tarixi”  
mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Alisher Navoiyning “Xamsa” asarlarida san’at va go‘zallik falsafasi inson ma’naviy yetukligi, ilohiy va dunyoviy go‘zallik uyg‘unligi hamda yuksak axloqiy jihatdan barqarordir. Go‘zallik faqat tosh ko‘rinish emas, qalb pokligi va ezgulik timsoli sifatida ulug‘lanadi, badiiy san’at esa inson ruhiyatini tarbiyalash va estetik zavq bag‘ishlash sifatida talqin qilish masalari haqida ayrim mulohazalar.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Xamsa, tasviriy san’at, musiqa, raqs, “Hayrat ul-Abror”, san’at, obraz.

**Annotation.** The philosophy of art and beauty in Alisher Navoi’s works “Khamasa” is stable in terms of human spiritual maturity, harmony of divine and worldly beauty, and high morality. Beauty is not only a stone appearance, it is glorified as a symbol of purity of heart and goodness, and some comments about the interpretation of artistic art as educating the human spirit and giving aesthetic pleasure.

**Key words:** Alisher Navoi, Khamasa, visual art, music, dance, "Hayrat ul-Abror", art, image.

**Аннотация.** Алишер Навои с его богатым литературным наследием и персидско-турецкими газелями считается бесценным источником вдохновения не только для своего времени, но и для сегодняшнего дня. Его неисчерпаемые произведения – бесценное сокровище макомного искусства.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Хамса, изобразительное искусство, музыка, танец, «Хайрат уль-Аброр», искусство, образ.

“Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonlarida Alisher Navoiy asarlarini o‘zimiz uchun bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat va ilhom manbai deb bilamiz”

*Shavkat Mirziyoyev*  
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Alisher Navoiyning “Xamsa” asari nafaqat badiiy durdona, balki Sharq uyg‘onish davri san’at falsafasi va estetik tafakkurining oliy cho‘qqisidir. Navoiy talqinida san’at - insonning ma’naviy kamolot darajasini ko‘rsatuvchi mezon. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod obrazi faqatgina jismoniy kuch egasi emas, balki toshga ishlov beruvchi mohir haykaltarosh va me’mor sifatida ham gavdalandirilgan. Uning san’ati - qalb pokligi va ishqining moddiylashgan ko‘rinishidir. “Xamsa”da san’atning maqsadi - ilohiy go‘zallikni insoniy idrok darajasiga tushirish va ruhni tarbiyalashdan iborat. “Sab’ai sayyor” dostonidagi Dilorom obrazi orqali Navoiy musiqaning inson ruhiyatiga, hatto hayvonot olamiga (ohularga) ta’sirini falsafiy tahlil qiladi. San’at haqiqatni (Haqni) anglash vositasi sifatida talqin etiladi. Har bir tasvir va badiiy san’at vositasi ortida chuqur falsafiy-tasavvufiy ma’nolar yotadi.

Navoiy san’atkorning jamiyat oldidagi burchini yuksak qo‘yadi. “Hayrat ul-abror” dostonida shoirlik va so‘z san’atiga alohida to‘xtalib, “so‘z gavhari”ni qadrlashni, yolg‘on va maddohlikdan yiroq bo‘lishni uqtiradi. Uning fikricha, haqiqiy san’at adolatga va xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak. “Xamsa”da san’at - bu faqat iste’dod emas, balki mashaqqatli mehnat va ilm hosilasidir. Navoiy antik davr faylasuflari (Arastu, Suqrot, Aflotun) va buyuk olimlarning ilm-fan hamda san’atdagi jasoratini misol qilib keltiradi.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida musiqa shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki koinot sadosi, ruhning davosi va ilohiy haqiqatga eltuvchi “navo” sifatida talqin etiladi. Dostonning markaziy qahramonlaridan biri - Dilorom (ba’zi manbalarda Oraz) mohir sozandadir. Diloromning musiqa asbobi (chang yoki ud) sadosi nafaqat insonlarni, balki yovvoyi hayvonlarni (kiyiklarni) ham rom etadi, ularni harakatsiz holga keltiradi. Bahrom Go‘rning tushkunlik va hayrat holatlarida musiqa uning qalbiga taskin beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi [1. 2013. B-56].

Navoiy dostonlarida turli musiqiy cholg'ularning o'ziga xos ramziy ma'nolari bor: Nay, insonning "asl vatan" (ilohiy olam) dan ayro tushganidan chekkan oh-u faryodining ramzi. Chang, egilgan qomati bilan oshiqning azobini va uning iltijoli holatini ifodalaydi. Tanbur va ud, bu asboblarning sadosi ko'pincha koinotdagi sayyoralarning harakati (samoviy musiqa) bilan qiyoslanadi. "Navo" Falsafasi Navoiy uchun "navo" (kuy, ovoz) tushunchasi juda keng. "Xamsa"da she'riyat va musiqa ajralmasdir. Shoir she'rning musiqiyligini uning mazmuni kabi yuqori baholagan. Musiqa - bu ruhning o'z yaratuvchisini eslashi va unga intilishidir.

Dostonlarda "maqom", "pardaz", "nag'ma", "surud" kabi ko'plab terminlar qo'llanilgan. Bu Navoiyning o'sha davr musiqa nazariyasini mukammal bilganidan dalolat beradi. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida tasviriy san'at shunchaki bezak emas, balki asar g'oyasini, qahramonlar ruhiyatini va ilohiy go'zallikni ifodalovchi asosiy falsafiy vositadir.

Ushbu dostonda tasviriy san'at va ranglar ramziyligi oliy darajada uyg'unlashgan. Bahrom Go'r yetti kun davomida yetti xil rangli (oq, qora, ko'k, sariq, qizil va b.) qasrlarda mehmon bo'ladi. Har bir rang muayyan sayyora, kun va ruhiy holatni ifodalaydi. Qo'lyozmalarga ishlangan suratlarda XV asr Hirot me'morchiligi va kiyim-kechaklari an'anaviy kompozitsiya asosida tasvirlangan. Dostonda Farhod obrazi orqali tasviriy san'atning amaliy va estetik kuchi ko'rsatiladi. Farhod Xitoyda naqqoshlik sirlarini o'rganadi. Uning toshlarga chizgan suratlari va haykallari tirikdek jonli tasvirlangan bo'lib, bu san'atning "mo'jizakor" qudratiga ishoradir. Farhodning Shirin suratini ko'rib oshiq bo'lishi - tasviriy san'atning inson qalbini o'zgartira olish qobiliyatini anglatadi. Navoiy davrida "Xamsa" qo'lyozmalarini bezash uchun Kamoliddin Behzod kabi buyuk musavvirlar jalb etilgan. 1495-yili Hirotida Nizomiyning "Xamsa"si qayta ko'chirilgan bo'lib, bunga Kamoliddin Behzod tomonidan bir qancha miniatyura rasmlar ishlangan. Hozirgi paytda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu qo'lyozma va undagi mo'jaz tasvirlar san'atimiz tarixida va insonning estetik tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Mazkur turkumdagi "Iskandar va yetti donishmand" nomli mashhur asari o'ziga xos bir badiiy-estetik muhit kasb etgan. Asarda donolik, zukkolik inson tafakkuriga xos falsafiy qarashlar timsollari bilan

birga, me'morchilikdagi amaliy bezak san'ati, sharqona muhitga xos go'zal va nafis turmush manzarasi jozibali tasvirlangan. Miniaturada tabiat quchog'ida sharq allomalarining an'anaviy davra suhbatlari aks ettirilgan. Bu suratdagi har bir obrazda kamtarona takalluf, zukkolik kabi nozik estetik xususiyatlar yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, suhbatdoshlarning bir-biriga o'ta hurmat bilan muloqotda ekanliklari tomoshabinda o'zgacha hayrat uyg'otishi tabiiy. Hirot Dostonlardagi voqealar (ov sahnalari, ishqiy uchrashuvlar, janglar) nafis chiziqlar va yorqin ranglar bilan "kitob ichidagi san'at" darajasiga ko'tarilgan. Rassomlar Navoiy matnidagi majoziy ma'nolarni ranglar va shakllar orqali vizuallashtirgan. Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida musavvir va xattotlarni "so'z qadrini biluvchi" ijodkorlar sifatida ulug'laydi. Uning talqinida chinakam san'at asari insonni g'aflatdan uyg'otishi va haqiqatni (Haqni) ko'rsatishi lozim [3. 1979. B-110].

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tili va adabiyotiga asos solgan buyuk so'z san'atkori, Sharq ijtimoiy - falsafiy, ma'naviy-axloqiy tafakkur taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan zabardast mutafakkir, Husayn Boyqaro saltanatining barqarorligi va gullab-yashnashini ta'minlagan yirik davlat arbobi, ilm-u fan, adabiyot va san'atning ulkan homiysi bo'lgan mashhur ma'rifatparvar zot sifatida o'zbek tili, tarixi, adabiyoti, madaniyati va san'ati rivojida alohida o'rin tutadi. Bu favqulodda iste'dod sohibining ibratli hayoti, serqirra faoliyati, davlat arbobi va ma'naviyat homiysi, adolatli amaldor va saxovatli inson siymosida amalga oshirgan xayrli va ezgu ishlari, boy va rang-barang adabiy-ilmiy me'rosi, ijodining asosiy yo'nalishlari, janriy tarkibi va mavzu doirasi, o'lmas g'oya va qarashlari, asarlarining badiiy barkamolligi sirlari va shoirlik mahoratining kelajak avlodga me'ros bo'lib qolishi uchun barcha tadbirlar olinishi darkor bo'lgan zotdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ergash Ochilov 2013-yil "O'zbekiston" "Alisher Navoiy"
2. Zuhra Mamadaliyeva 2024-yil "Azmir nashr print" "Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi ramziy va majoziy obrazlar sistemasi" (Monografiya)
3. A.Qayumov 1979-yil "Adabiyot va san'at". "Farhod va Shirin sirlari: ezgulik va sevgini ulug'lovchi motivlar".

---

**ALISHER NAVOIY SIYMOSINING ZAMONLAR OSHA TALQINI:  
FITRATDAN AYNIYGACHA BO‘LGAN ADABIY VA ILMIY  
TAFAKKUR YO‘LI**

*Asqarova Mushtariy*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs*

*talabasi*

*Ilmiy rahbar. Gulchehra Iskandirova*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy siymosining o‘zbek adabiyotshunosligida yoritilishi Abdurauf Fitrat, Oybek, Vohid Abdullayev, Ibrohim Haqqul va Sadriddin Ayniy asarlari misolida tahlil qilinadi. Mualliflar talqinida Navoiy obrazi turli metodologik yondashuvlar – milliy uyg‘onish, badiiy tasvir, ilmiy tizimlashtirish, falsafiy-tasavvufiy tahlil hamda xalqchil tarixiy qarashlar asosida ochib beriladi. Maqolada Navoiy shaxsining adabiy, ma’naviy va umuminsoniy ahamiyati qiyosiy yondashuv orqali yoritilib, navoiyshunoslikdagi uzviylik va davomiylik masalalariga e’tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, navoiyshunoslik, Abdurauf Fitrat, Oybek, Vohid Abdullayev, Ibrohim Haqqul, Sadriddin Ayniy, adabiy talqin, milliy uyg‘onish, badiiy obraz.

**Аннотация.** В статье анализируется образ Алишера Навои в узбекском литературоведении на примере трудов Абдурауфа Фитрата, Ойбека, Вахида Абдуллаева, Иброхима Хаккула и Садриддина Айни. Образ Навои раскрывается с различных методологических позиций: национального возрождения, художественного осмысления, научной систематизации, философско-суфийского анализа и народно-исторического подхода. Особое внимание уделяется преемственности и целостности навоиведения, а также духовному и общечеловеческому значению наследия великого поэта и мыслителя.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, навоиведение, Абдурауф Фитрат, Ойбек, Вахид Абдуллаев, Иброхим Хаккул, Садриддин Айни, литературная интерпретация, национальное возрождение, художественный образ.

**Abstract.** This article examines the image of Alisher Navoi in Uzbek literary studies through the works of Abdurauf Fitrat, Oybek, Vohid Abdullayev, Ibrahim Haqqul, and Sadriddin Ayni. The study reveals various methodological approaches to Navoi's legacy, including national awakening, artistic representation, scholarly systematization, philosophical and Sufi interpretation, and folk-historical perspectives. Through a comparative analysis, the article highlights the continuity and integrity of Navoi studies and emphasizes the literary, spiritual, and universal significance of Navoi as a great poet and thinker.

**Key words:** Alisher Navoi, Navoi studies, Abdurauf Fitrat, Oybek, Vohid Abdullayev, Ibrahim Haqqul, Sadriddin Ayni, literary interpretation, national awakening, artistic image.

Alisher Navoiy – turkiy adabiyot tarixida beqiyos o‘rin egallagan ulug‘ mutafakkir, shoir va davlat arbobi. Uning boy adabiy merosi nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham ko‘plab shoir, yozuvchi va olimlarni ilhomlantirib kelmoqda. Ayniqsa, Navoiy ijodini tadqiq etish, sharhlash va targ‘ib qilish maqsadida yozilgan kitoblar adabiyotshunoslik tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodi haqida kitob yozgan mashhur shoir va yozuvchilar, ularning asarlari hamda qiziqarli faktlar yoritiladi. Abdurauf Fitrat va Navoiyga yangicha qarash. XX asr boshlarida jadid adabiyotining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat Alisher Navoiyni faqat mumtoz shoir emas, balki millat uyg‘otuvchisi sifatida talqin qildi. Fitratning “Alisher Navoiy” nomli tadqiqot asari Navoiy shaxsiyatini ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilgan ilk ishlardan biri hisoblanadi. Fitrat Navoiy asarlarini o‘rganar ekan, uni “turk dunyosining ma’naviy ustuni” deb atagan. U Navoiy til masalasidagi qarashlarini o‘z davridagi milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan bog‘lab tahlil qilgan. Abdurauf Fitratning “Alisher Navoiy” asari – buyuk mutafakkirga qo‘yilgan quruq haykal

emas, balki tirik tafakkur, uygʻonish va milliy oʻzlikning yorqin timsolidir. Fitrat Navoiyni faqat mumtoz shoir sifatida emas, balki xalq taqdirini yuragidan oʻtkazgan millatparvar, til fidoyisi va maʼnaviy rahnamo sifatida talqin etadi. Fitrat nazarida Alisher Navoiy – turkiy tilning shaʼnini osmon qadar koʻtargan jasorat egasi. U forsiy til hukmron boʻlgan davrda ona tilida yuksak badiiy asarlar yaratib, turkiy soʻzning ham ilohiy qudratga ega ekanini isbotlagan buyuk siymodir. Fitrat Navoiyning bu jasoratini millatning oʻziga boʻlgan ishonchini uygʻotgan tarixiy burilish sifatida baholaydi. Asarda Navoiy ijodi insonparvarlik, adolat va komil inson gʻoyasi bilan uygʻun holda yoritiladi. Fitrat Navoiyni zamonasidan ilgarilab ketgan mutafakkir deb biladi: u insonni millati, dini yoki mansabiga qarab emas, qalbi va aqli bilan oʻlchagan [1]. Aynan shu jihat Fitrat uchun Navoiyni abadiy va zamonaviy qiladi. Navoiy – faqat sheʼr yozgan shoir emas, balki jamiyat dardini his etgan davlat arbobi, yetim-yesirga panoʻh boʻlgan saxovatpesha, ilm va sanʼat homiysidir [2]. U Navoiyning hayoti va faoliyatini tahlil qilar ekan, uni xalq xizmatiga bagʻishlangan butun bir maktab sifatida koʻrsatadi. Abdurauf Fitrat Alisher Navoiy siymosini ilmiy-maʼrifiy va milliy uygʻonish nuqtai nazaridan yoritgan boʻlsa, Oybek bu buyuk shaxsni badiiy tafakkur va roman janri orqali tiriltirdi. Fitrat Navoiyni tarix va millat oldidagi masʼuliyat timsoli sifatida koʻrsatgan boʻlsa, Oybek uni insoniy kechinmalari, ichki iztiroblari va ruhiy olami bilan birga tasvirlaydi.

Oybek – Navoiy obrazini tiriltirgan yozuvchi. Mashhur yozuvchi va shoir Oybek Alisher Navoiy shaxsiyatini badiiy va ilmiy jihatdan mukammal yoritgan ijodkorlardan biridir. Uning “Navoiy” romani nafaqat tarixiy-badiiy asar, balki chuqur adabiy tadqiqot mahsulidir. Oybek roman ustida ishlash jarayonida Navoiy asarlarini bir necha bor toʻliq qayta oʻqigan va tarixiy manbalarni solishtirgan. Roman orqali Navoiy oddiy shoir emas, balki murakkab taqdirli inson, doʻstlik va sadoqat timsoli sifatida ochib beriladi. Oybekning “Navoiy” romani – bu shunchaki tarixiy voqealar bayoni emas, balki buyuk shoir qalbining badiiy talqinidir. Agar Fitrat Navoiyni uygʻotuvchi fikr va gʻoya egasi sifatida koʻrsatsa, Oybek uni

o‘quvchiga yaqin, tirik, iztirob chekkan va sevgan inson sifatida gavdalantiradi. Shu jihatdan Oybek romani Fitrat boshlagan ma’naviy yo‘lning badiiy davomi hisoblanadi. Romanda Navoiy – davlat ishlarida adolat izlagan arbob, ijodda esa inson qalbining eng nozik torlarini chertgan shoir sifatida tasvirlanadi. Oybek Navoiyning til, xalq va adolat uchun olib borgan kurashini badiiy sahnalar, dialoglar va obrazlar orqali jonlantiradi. Bu esa Fitrat ta’kidlagan Navoiyning millatparvarlik ruhini yanada chuqurroq va ta’sirchanroq ochib beradi. Fitrat Navoiyni tarixiy haqiqat asosida baholagan bo‘lsa, Oybek bu haqiqatni badiiy haqiqat darajasiga ko‘tardi. Roman sahifalarida Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki zamon bilan kurashgan, yolg‘izlikni his etgan, mas’uliyat yukini ko‘tarib yashagan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu insoniylik Oybek romanining asosiy qudratini belgilaydi. Akademik Vohid Abdullayev Navoiy ijodini ilmiy jihatdan tizimli o‘rgangan yirik adabiyotshunoslardan biridir.

Uning “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” asari oliy o‘quv yurtlari uchun asosiy qo‘llanmalardan biri bo‘lib kelmoqda. Abdullayev Navoiy g‘azallaridagi ramz va timsollarni tasavvuf falsafasi bilan bog‘lab tahlil qilgan. U Navoiy ijodini Sharq va g‘arb adabiy an‘analari tutashgan nuqta sifatida baholagan. Vohid Abdullayev Navoiy shaxsiga adabiyotshunos olim nigohi bilan yondashadi. Agar Fitrat Navoiyning tarixiy-ma’naviy ahamiyatini ochgan, Oybek esa uning ruhiy olamini badiiy tasvirlagan bo‘lsa, Abdullayev bu ikki yondashuvni ilmiy asosda birlashtirib, Navoiy hayoti va ijodini mukammal tahlil qiladi. Asarda shoirning tarjimai holi, siyosiy faoliyati, adabiy merosi va dunyoqarashi izchil ravishda yoritiladi. “Alisher Navoiy: hayoti va ijodi” asarida Navoiy faqat shoir sifatida emas, balki o‘z davrining yirik mutafakkiri, davlat arbobi va madaniyat homiysi sifatida namoyon bo‘ladi. Vohid Abdullayev Navoiyning “Xamsa”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarini ilmiy tahlil qilib, ularning g‘oyaviy-badiiy qiymatini aniq dalillar asosida ochib beradi.

Olim Navoiyning ijodida insonparvarlik, adolat, komil inson g‘oyasi va til masalasi markaziy o‘rinda turishini ta’kidlaydi. Bu jihatlar Fitrat ilgari surgan milliy

ong va Oybek yaratgan badiiy obraz bilan mushtarak holda, Abdullayev tadqiqotida ilmiy xulosa darajasiga yetkaziladi. Shu tariqa Navoiy siymosi tarixiy, badiiy va ilmiy qirralari bilan bir butun holda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy adabiyotshunos Ibrohim Haqqul Navoiy ijodini falsafiy va ruhiy qatlamlar orqali tahlil qilgan. Uning “Navoiyga qaytish”, “Tasavvuf va she’riyat” kabi kitoblarida Navoiy asarlarining ichki ma’nolari ochib beriladi. Haqqul Navoiy g‘azallarini “ruh tarbiyasi maktabi” [7] deb ataydi. U Navoiy ijodini bugungi inson ma’naviy muammolari bilan bog‘lab talqin qilishi bilan ajralib turadi. Ibrohim Haqqul asarlarining asosiy xususiyati – Navoiyni faqat tarixiy yoki adabiy shaxs sifatida emas, balki tafakkur maktabi sifatida o‘rganishidir. Olim Navoiy matnlariga tashqi izoh bilan cheklanmaydi, balki ularning ichki qatlamlariga – ramz, ishora, botiniy ma’no va tasavvufiy talqinlarga murojaat qiladi. Shu bois uning tadqiqotlari oddiy sharh emas, fikrlashga undovchi falsafiy mushohadadir. Ibrohim Haqqul asarlarida Alisher Navoiy ijodi tasavvufiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Olim Navoiy g‘azallaridagi ishq, hijron, fano va baqo tushunchalarini ramziy va falsafiy ma’noda izohlaydi.

Navoiy ishq – dunyoviy emas, balki haqiqat sari yetaklovchi ilohiy ishqdir [8]. Bu yondashuv Navoiy she’riyatining chuqur qatlamlarini ochishga xizmat qiladi. Ibrohim Haqqul tadqiqotlarida komil inson g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi. Olim Navoiyni insonni ichki poklanishga, ruhiy kamolotga chorlovchi mutafakkir sifatida talqin etadi. Uning asarlarida Navoiy she’riyati – inson qalbini tarbiyalovchi, uni nafsdan yuksaltiruvchi ma’naviy maktab sifatida baholanadi. Bu jihat Fitrat ilgari surgan ma’naviy uyg‘onish g‘oyalarining zamonaviy falsafiy davomidir. Ibrohim Haqqul asarlarida so‘zning mohiyati alohida e’tiborga olinadi. Olim Navoiyni so‘zni oddiy ifoda vositasi emas, balki haqiqatni anglash va anglatish quroli sifatida ko‘radi. Uning talqinicha, Navoiy so‘zi tashqi chiroy bilangina emas, balki ichki ma’no qudrati bilan buyukdir. Shu bois Haqqul tadqiqotlarida har bir bayt, ramz va timsol chuqur ma’nolar bilan izohlanadi.

Ibrohim Haqqul navoiyshunoslikni yangi bosqichga olib chiqqan olim sifatida baholanadi. U an'anaviy tavsif va faktlarga asoslangan yondashuvdan chiqib, Navoiy ijodini falsafiy, tasavvufiy va ma'naviy tafakkur nuqtai nazaridan talqin qildi. Shu bois uning asarlari nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng fikrlovchi o'quvchilar uchun ham muhim manba hisoblanadi. Tojik adabiyotining yirik namoyandasi Sadridin Ayniy ham Navoiy ijodiga katta e'tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida Navoiy Markaziy Osiyo xalqlari uchun umumiy madaniy meros sifatida ko'rsatiladi. Ayniy Navoiy asarlarini fors-tojik adabiyoti bilan teng darajada baholagan va uni ikki madaniyatni bog'lovchi ko'pri deb bilgan. Sadridin Ayniy o'z asarlarida Navoiy siymosini Markaziy Osiyo ma'naviy uyg'onishining umumiy ramzi sifatida talqin qiladi. Uning adabiy va publitsistik asarlarida Navoiy – faqat o'zbek adabiyotining emas, balki butun turkiy va fors-tojik adabiy muhitining mushtarak dahosi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv Navoiyni hududiy yoki milliy chegaralardan yuksak qo'yadi. Ayniyning adabiy-estetik qarashlarida Navoiy xalqning tili, dardi va orzusini ifodalagan buyuk so'z ustasidir.

U Navoiyni xalqchilik mezoni bilan baholaydi: shoir ijodi saroy adabiyoti bilan cheklanib qolmay, oddiy inson qalbiga yo'l topgan. Ayniy uchun Navoiy asarlarining qudrati – aynan mana shu xalqona ruhidadir. Sadridin Ayniy tarixiy haqiqatga alohida e'tibor qaratadi. U Navoiy hayoti va faoliyatini o'rganishda afsona va mubolag'alardan qochib, manbaga tayangan, real tarixiy shaxs sifatida talqin qiladi. Shu bois Ayniy qarashlari Navoiyshunoslikda muhim muvozanat – badiiy tasvir va tarixiy haqiqat uyg'unligini ta'minlaydi. Eng muhimi, Sadridin Ayniy ijodida Navoiy merosi ma'naviy davomiylik ramzi sifatida qaraladi. Navoiy – o'tmishda qolgan siymo emas, balki zamonlar osha xalqni ilm, adolat va komillikka chorlovchi buyuk ustozdir [9]. Bu jihat Ayniy Navoiy merosining saqlovchisi va targ'ibotchisi darajasiga ko'taradi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy siymosi Fitratda – uyg'onish, Oybekda – badiiy hayot, Abdullayevda – ilmiy tizim, Ibrohim Haqqulda – falsafiy teranlik, Sadridin Ayniyda esa – xalq xotirasi va tarixiy haqiqat timsoliga aylanadi. Bu besh yo'nalish

birlashib, Navoiyni anglashda mukammal va uzviy manzarani yaratadi. Alisher Navoiy ijodi haqida yozilgan kitoblar va tadqiqotlar uning siymosi va merosining qanchalik serqirra ekanini ko'rsatadi. Har bir shoir va yozuvchi Navoiyni o'z davri, dunyoqarashi va maqsadlariga mos holda talqin qilgan. Bu esa Navoiy ijodining abadiyligi va universalligini yana bir bor isbotlaydi. Bugungi kunda ham Navoiy merosi yangi avlod tadqiqotchilari uchun bitmas-tuganmas ilmiy va ma'naviy manba bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fitrat, Abdurauf. Alisher Navoiy. - Toshkent: Fan, 1991.
2. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. - Toshkent: Fan, 2000.
3. Oybek. Navoiy. Roman. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
4. Oybek. Adabiyot va hayot masalalari. - Toshkent: Fan, 1975.
5. Abdullayev, Vohid. Alisher Navoiy: hayoti va ijodi. - Toshkent: O'qituvchi, 1968.
6. Abdullayev, Vohid. Navoiy ijodining badiiy xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1973.
7. Haqqul, Ibrohim. Navoiyga qaytish. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
8. Haqqul, Ibrohim. Tasavvuf va badiiy tafakkur. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
9. Ayniy, Sadridin. Esdaliklar. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
10. Ayniy, Sadridin. Tanlangan asarlar. 8 jildlik. - Toshkent: Fan, 1978.

---

**ALISHER NAVOIY FAOLIYAT YURITGAN DAVRDA SAN'AT, ADBIYOT  
VA MADANIYATNING O'ZARO UYG'UN RIVOJI**

*Sarvinoz Erkaboyeva*

*O'zbekiston davlat xoreografiya*

*akademiyasi*

*“San’atshunoslik” ta’lim yo’nalishi 3-kurs*

*talabasi*

*Ilmiy rahbar: Gulchexra Iskandirova*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so‘z mulkinging sultoni davlat arbobi Alisher Navoiyning asarlarida san’at, adabiyot va musiqaning o‘rni qanchalik buyuk ahamiyat kasb etishini ko‘rishimiz mumkin. Navoiyning har bir asari bugungi kunda mumtoz adabiyotimizning oltin me’rosi sifatida qadrlanyotganini tahsinga loyiq.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy, Xamsa, shoir, o‘zbek, me’rosi, adabiyot, davlat, Samarqand, ilm, fan.

**Аннотация.** В данной статье мы видим, насколько велика роль искусства, литературы и музыки в творчестве султана словесной собственности, государственного деятеля Алишера Навои. Заслуживает похвалы тот факт, что каждое произведение Навои сегодня ценится как золотое наследие нашей классической литературы.

**Ключевые слова:** Навои, Хамса, поэт, узбекский, наследие, литература, государство, Самарканд, наука, наука.

**Abstract.** In this article, we examine the significant role of art, literature, and music in the work of the Sultan of Verbal Property and statesman Alisher Navoi. It is commendable that each of Navoi's works is today valued as a golden legacy of our classical literature.

**Keywords:** Navoi, Khamsa, poet, Uzbek, heritage, literature, state, Samarkand, science, scholarship.

Alisher Navoiy shoir yozuvchi davlat arbobi hokim vazir muhrdor adib ijodkor maslahatchi olim 1441-yil 9-fevralda Hirotda tavallud topgan. U Hirotda tug‘ilib,

shu yerda umrining asosiy qismini o‘tkazgan. Navoiyning otasi g‘iyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin bo‘lgan. She‘r zavqi va iste‘dodi erta uyg‘ongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste‘dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e‘tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta‘lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Navoiy 1469-yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga “muqarrabi hazrati sultoni” (“Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi”) degan unvonni beradi. Unga ko‘ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi. Mir Alisher 7-8 yoshlaridan boshlab g‘azallar yoza boshlagan.

Turkiy tilni qayta tiriltirgani Navoiyning ma‘naviyatimiz uchun ulkan jasorati bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur “Turkiy til bila to she‘r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”, - deb yozsa, Husayn Boyqaro “Mir Alisher turk tilining o‘lik jasadig‘a Masih nafasi ila jon ato etdi” deb ta‘kidlagan. Alisher Navoiy o‘n besh-o‘n olti yoshlarida ham turkiy, ham forsiyda ijod qiladigan “ikki tilli” shoir sifatida tanilgan. Alisher Navoiy o‘smirlik yillarida o‘zi sevgan shoirlarning 50 ming baytdan ortiq she‘rlarini yod bilgan. Shoirning forsiy she‘rlar to‘plami “Devoni Foni” deb nomlangan. Navoiyning sevgilisi sifatida tasvirlanadigan “Guli” ismi faqat xalq og‘zaki ijodida, Navoiy haqidagi rivoyat va afsonalarda uchraydi xolos. Guli nomi Navoiyning hayoti haqida ma‘lumot beruvchi yozma manbalarning hech birida uchramaydi [9].

U bolaligidan ilmga chanqoq bo‘ladi va bir marta o‘qigani sira yodidan chiqmaydi. Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatid qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug‘ shoir o‘rtasidagi ustoz va shogirdlik munosabatlari yanada mustahkamlanib, ijodiy hamkorlikka aylanadi. Samarqand Navoiyning hayoti va ijodida muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher 1464-yil Samarqandga keladi va bu yerda madrasada tahsil olib, ilm-fan, adabiyot va san'at bilan tanishadi. 1469-yili Navoiy do'sti Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan 90 baytdan iborat "Hiloliya" qasidasini yozadi ("hilol" – yangi chiqqan oy). Navoiy o'z jamg'armasi hisobidan Hirotga va butun Xuroson mamlakatida 300 dan ortiq inshootlar qurdirgan. Alisher Navoiy 16 ta adabiy janrda ijod qilgan. Navoiy turkiy tilidagi ilk "Xamsani" 2 yil davomida yozadi. Dunyoning 64 tilga tarjima qilingan bu asar 51 ming misradan ortiq. Shoirning lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq "Xazoyinul-maoniy" nomli to'rt devon (1491-1498)ga jamlangan [2;159].

O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447-yil 12- martda mamlakat podshohi Shohrux vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Urush-janjallar ko'p kishilarni Xurosondan turli tomonga ko'chib ketishga majbur etdi. Alisher Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishdi (1449). Taf shahrida Alisher mashhur "Zafarnoma" tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bolada yorqin taassurot qoldiradi. G'iyosiddin Bahodir oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur g'iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Alisher Navoiy Hirotga qolib o'qishni davom ettirdi. Alisher Navoiy she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi.

Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid - Kobuliy, Muhammad Ali - g'aribiy yetuk shoir edilar. Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy, uning: Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahza yosh, Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh matla'li g'azalini tinglab: "Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim..." degan [2;93].

Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy (Foniy taxallusi bilan) tillarida yozgan.

1463 - yilda esa u uzil-kesil Hirotga qaytdi. Biroq bu yerda ahvol o'zgargan, shahar xarobaga aylangan edi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o'z tartibini o'rnatgan, muhim vazifalarga u bilan Movarounnahrda kelgan kishilar tayinlangan, Alisher Navoiyga yaqin kishilar quvg'in qilingan, Husayn Boyqaro bilan birga ketgan tog'alari - Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok bo'lgan, yashash uchun biron joy topish muammo edi. Alisher Navoiyning o'sha kunlardagi ahvoli uning keyinchalik ustozlari Sayyid Hasan Ardasherga Samarqanddan yozgan maktubidagi she'riy satrlarda nihoyatda ta'sirli va haqqoniy ifodalab berilgan.

Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hirotidan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Alisher Navoiy Samarqandda 1465-yildan 1469-yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi. Samarqandning ko'zga ko'ringan shoirlari - Shayxim Suhayliy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo'y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim va boshqalar bilan hamsuhbat bo'ldi va do'stlashdi. Samarqand shahri hokimi Ahmad Hojibek asli hirotlik bo'lib, Vafoiy taxallusi bilan she'rlar yozardi, u Alisher Navoiyga alohida hurmat va e'tibor bilan qaradi [2;39].

Uning yordamida Alisher Navoiy davlat ishlari bilan ham shug'ullana boshladi. U davlat ishlarini boshqarishda dastlabki tajribani shu yerda orttirdi va bu unga keyinchalik asqotdi. Alisher Navoiy hamisha ko'proq ijodiy va ilmiy ishlar bilan shug'ullanish, bu boradagi rejalarini amalga oshirish xayoli bilan yashardi. Hayot esa uning rejalariga o'z tuzatishlarini kiritar edi. 1488-yil Sayyid Hasan Ardasher, 1492-yil Jomiy, 1493-yil olim va shoir Pahlavon Muhammad birin-ketin hayotdan ko'z yumdilar. Navoiy o'zi uchun qadrdon bo'lgan bu insonlar xotirasini abadiylashtirish, ularga o'z hurmatini izhor etish uchun "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Xamsat ul-mutahayyirin" ("Besh hayrat"), "Holoti Pahlavon Muhammad" nomli risolalarini yozdi. Astrobodda yoza boshlagan "Tarixi muluki Ajam" ("Ajam podshohlari tarixi") asarini tug'alladi (1489). 1490-yil u o'ziga

zamondosh shoirlar haqida Jomiyning “Bahoriston”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarlari shaklida “Majolis un-nafois” (“Nafislar majmuasi”) tazkirasini tuzishga kirishib, 1492-yilda tugalladi [1;62].

Shu vaqtning o‘zida Alisher Navoiy o‘zbek tilida she’riyat nazariyasi, aniqrog‘i, aruz vazni qoidalari haqida “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar o‘lchovi”) ilmiy qo‘llanmasini yaratdi. 1494-yilda turkiy tildagi maktublarini to‘plab “Munshaot” (“Maktublar”) majmuasini tuzdi. 1495-yil Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarini “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbat shabadalari”) nomi bilan tarjima qilib, uni qayta ishlab, turkiy mashoyixlar haqidagi yangi ma’lumotlar bilan boyitdi.

Shu boisdan “Nasoyim ul-muhabbat” ga Alisher Navoiyning mustaqil asari sifatida qarash mumkin. Alisher Navoiy 1491-1492-yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she’rlaridan yangi, yig‘ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498-1499-yilda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiy nomi “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasasi”) bo‘lib, 4 qismdan iborat bo‘lganligi uchun “Chor devon” deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she’rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiy ning barcha davrlaridagi kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan. Hammamizga ma’lumki buyuk bobomiz so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy 1501-yilda Hirotda vafot etadi.

Uni dafn qilish chog‘ida maydalab yomg‘ir yog‘gan. Buni tarixchi Xondamir shunday ta’riflaydi “Tabi’at ham bugun unga motam tutdi”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vohidov R. “Majolis un- Nafois” ning tarjimalari. Toshkent: “Fan”, 1984.
2. Rustamov A. Alisher Navoiy va san’at masalalari. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Haqqulov I. Navoiyshunoslik masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
4. Yo‘ldoshev B. Mumtoz musiqa va adabiy meros uyg‘unligi. – Toshkent: San’at, 2019.
5. Abdullajon A. Navoiy badiiyatini nemischa tarjimalarda qayta yaratish va tabdil etish. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 1998.

6. AYNIIY S. Alisher Navoiy asarlari 8-jildlik. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.

7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami 20- jildlik. Toshkent: "Fan", 1987-2003.

8. Vohidov E. O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa...(Xurshid Davron kutubxonasi sayti)

## ALISHER NAVOIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA QALB GO'ZALLIGI TALQINI

*Sabina Zakirova*

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 3-kurs*

*talabasi*

*Ilmiy rahbar: Gulchehra Iskandirova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi qalb go'zalligi masalasi tahlil qilinadi. Muallif asar qahramonlari Majnun va Layli timsollarida insonning ruhiy kamoloti, nafsni jilovlash va ilohiy ishqqa erishish bosqichlarini oddiy va tushunarli tilda bayon etadi. Maqolada insonning tashqi qiyofasi (surat) va uning ichki olami (ma'no) o'rtasidagi farqlar, shoirning insoniy qadr-qimmatni qalb pokligi bilan o'lchashi hayotiy misollar orqali asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Xamsa, Layli va Majnun, qalb, poklik, sadoqat, tasavvuf, ruh, ishq, komillik.

**Аннотация:** В данной статье анализируется вопрос о красоте души в поэме великого мыслителя Алишера Навои «Лейли и Меджнун». В образах героев произведения, «Меджнуна и Лейли». автор описывает этапы духовного совершенствования человека, контроля над желаниями и достижения божественной любви простым и понятным языком. В статье на жизненных примерах обоснованы различия между внешним видом человека (картиной) и его внутренним миром (смыслом), измерение поэтом человеческого достоинства чистотой души.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Хамса, Лейли и Меджнун, сердце, чистота, верность, суфизм, дух, любовь, совершенство.

**Annotation:** This article analyzes the issue of the beauty of the soul in the poem of the great thinker Alisher Navoi "Layli and Majnun". In the characters of "Majnun and Layli", the author depicts the stages of human spiritual perfection, control of desires, and achievement of divine love in a meaningful and understandable language. The article substantiates the differences between a person's outer appearance (landscape) and inner world (meaning), life examples of the poet's measurement of human value with purity of heart.

**Keywords:** Alisher Navoi, Khamsa, Layli and Majnun, heart, purity, loyalty, Sufism, spirit, love, perfection.

Insoniyat yaratilibdiki, muhabbat mavzusi adabiyotning markazida bo'lib kelmoqda. Biroq Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonini shunchaki ikki yoshning uchrashuvi va ayrilig'i haqidagi hikoya deb bo'lmaydi. Hazrat Navoiy bu asar orqali inson ruhining qanchalik yuksak cho'qqilarga chiqa olishini, qalb go'zalligi deb atalmish ilohiy ne'matni ko'rsatib bergan. Shoir nazarida inson shunchaki go'sht va suyakdan iborat maxluq emas, balki yaratuvchining nuri va sirlari yashiringan muqaddas bir xazinadir.

Dostonni diqqat bilan o'qisangiz, qalb go'zalligi tushunchasi ikki qahramon misolida ikki xil, lekin bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishda namoyon bo'lishini ko'rasiz. Majnunda bu dunyoviy orzu-havaslardan batamom kechib, ruh erkinligiga intilish bo'lsa, Laylida eng og'ir sharoitlarda ham qalb pokligini saqlab qolish va ahdiga sadoqatdir. Navoiy bizga shuni uqtiradiki, agar insonning qalbi go'zal bo'lsa, u har qanday qiyinchilikni yenga oladi va abadiy yashash baxtiga musharraf bo'ladi.

Navoiy falsafasida "ko'ngil" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shoir inson ko'nglini oynaga o'xshatadi. Agar bu oyna kibr, nafs, boylikka hirs qo'yish kabi dunyoviy g'uborlar bilan qoplansa, inson haqiqiy go'zallikni ko'ra olmaydi. Majnun (Qays) obrazi aynan shu "ko'ngil oynasi"ni barcha g'uborlardan tozalash

yo'lini bosib o'tgan inson timsolidir. U Layli siymosida shunchaki go'zal qizni emas, balki o'sha go'zallik ortidagi Ilohiy nurni ma'noni ko'radi. Majnunning sargardonligi, cho'llarda yashashi aqldan ozganlik emas, balki qalbning hurlikka chiqishidir [1-2/43].

U vaqt o'tishi bilan jismoniy dunyo kishanlaridan shunchalik uzoqlashadiki, hatto Laylining o'zini ham ruhan his qila boshlaydi. Uning "Menda Layli bor, men Layliman" degan iqrori bu ikki qalbning bir butun bo'lib ketganidan nishonadir. Bu yerda biz qalb go'zalligining jismoniy masofalar va moddiyat ustidan g'alaba qozonishini ko'ramiz. Navoiy bu bilan inson o'z qalbiga chuqurroq nazar tashlasa, butun olamni o'z ichida topishi mumkinligini aytmoqda. Dostondagi badiiy tasvirlar ham qalb go'zalligini yoritishga xizmat qiladi. Navoiy Majnunni cho'lda, ust-boshi xarob, kiyimlari yirtilgan holatda tasvirlaydi. Tashqi tomondan qaraganda, u achinarli ko'rinishda. Lekin shoir uni dunyodagi eng go'zal qalb egasi sifatida chizadi. Uning ichki dunyosi shunchalik nurafshonki, bu nur hatto atrofidagi hayvonlarga ham ta'sir qiladi. Vahshiy sherlar va nozik kiyiklarning Majnun atrofida jam bo'lishi bu uning qalbidagi cheksiz mehr va shafqatning mevasidir. Hayvonlar undan qo'rqmaydi, chunki ular Majnunning ko'nglidagi ilohiy poklikni his qiladilar.

Shuningdek, Layli ismining ma'nosi "tun" bo'lsa-da, Navoiy uni doim nur va quyosh bilan bog'laydi. Bu orqali shoir insonning ismi yoki tashqi holati qanday bo'lishidan qat'i nazar, uning ichki dunyosi yorug' bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Laylining qalbi shunday olovki, u har qanday zulmatni yoritib yubora oladi. Uning sadoqati va ifodasi doston davomida eng go'zal so'zlar bilan ta'riflanadi. Bu qalb go'zalligining badiiy tildagi eng yuksak cho'qqisidir. Agar Majnun o'z tuyg'ularini hayqiriq va tarkidunyochilik bilan namoyon etgan bo'lsa, Layli buni sabr va og'ir-vazminlik bilan isbotladi. Layli o'sha davr jamiyatining qattiq qoliplari ichida yashadi. Uni majburlab boshqaga uzatdilar, uydan chiqishiga ruxsat bermadilar, uning erkinligini chekladilar. Lekin hech kim uning qalbini asir

qila olmadi. Layli o‘zining jismoniy asirligida ham ruhiy erkinligini saqlab qoldi.[3-39]

U hatto o‘lim to‘shagida ham o‘z sevgisiga, o‘z ahdiga sodiq qoladi. Laylining iffati va pokligi bu uning qalbining eng qimmatli ziynatidir. Navoiy Layli orqali ayol qalbi naqadar matonatli va sadoqatli bo‘lishi mumkinligini dunyoga ko‘rsatdi. Uning ichki go‘zalligi shundaki, u o‘z shaxsiy manfaatidan kechib, sevgilisining baxtini va ruhining birligini ustun qo‘yadi. Bu darajadagi sadoqat esa faqat qalbi go‘zal insonlargagina xosdir.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni asrlar davomida odamlarni hayratga solib kelmoqda. Buning boisi asarda insonning haqiqiy qadri uning surati (tashqi ko‘rinishi) bilan emas, balki uning siyrati (qalbi) bilan o‘lchanishidir. Shoir isbotlaydiki, inson qanchalik moddiy dunyodan, nafsdan va kibrdan uzoqlashsa, uning qalbi shunchalik go‘zallashadi.[4-55]

Bugungi globallashuv va moddiy rivojlangan asrda Navoiyning ushbu g‘oyalari har qachongidan ham dolzarb. Bizga tashqi yiltiroqlikka aldanmaslikni, odamlarni ularning qalbi va niyati bilan tanishni o‘rgatadi. Majnun va Layli bu shunchaki qahramonlar emas, balki qalb pokligi, sadoqat va insoniylikning abadiy timsollaridir. Ularning hikoyasi har bir o‘quvchini o‘z ichki dunyosiga nazar tashlashga, o‘zini anglashga va ma’naviy kamolot sari intilishga chorlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 9-jild: Layli va Majnun. – T: 1992.
2. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: 1985.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – T: 2009.
4. Alibek Hayitmetov. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. – T: 1963.
5. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – T: 1994.

---

**ALISHER NAVOIY – BUGUNGI KUN MAQOM SAN’ATINING ILHOM****MANBAYI**

*Begzod Turmamatov*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi “San’atshunoslik ta’lim*

*yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Gulchehra Iskandirova*

**Annotatsiya.** Alisher Navoiy, o‘zining boy adabiy me’rosi va fors-turkiy tildagi g‘zallari bilan nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kunni ham maqom san’ati uchun bebaho ilhom manbayi hisoblanadi. Uning bitmas-tugalmas asarlari maqom san’atiga bebaho hazinadir.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, maqom, g‘azal, musiqa, maqom ansamblari, o‘zbek xalq ijodi, homiy, me’ros.

**Аннотация.** Алишер Навои с его богатым литературным наследием и персидско-турецкими газелями считается бесценным источником вдохновения не только для своего времени, но и для сегодняшнего дня. Его неисчерпаемые произведения – бесценное сокровище макомного искусства.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, маком, газель, музыка, ансамбли макомов, узбекское народное искусство, спонсор, наследие.

**Abstract.** Alisher Navoi, with his rich literary heritage and Persian-Turkish ghazals, is considered an invaluable source of inspiration not only for his time, but also for today. His inexhaustible works are a priceless treasure of maqom art.

**Key words:** Alisher Navoi, maqom, ghazal, music, maqom ensembles, Uzbek folk art, sponsor, heritage.

Alisher Navoiy xalqimizning ong va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu-sharafini duyoga tarranum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir...

Agar bu zotni avliyo desak, u – avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak – mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak – shoirlarning sultonidir degan edi davlat arboblardan biri.

Yuksak san'at namunalari hech qachon faqat uni yaratgan xalqqagina tegishli bo'lib qolmaydi, ulardan butun dunyodagi ilm-u adab ahli bahramand bo'ladilar. Homer, Hofiz, Umar Xayyom, Dante, Shekspir, Balzak, Tolstoy, Bayron kabi daho so'z san'atkorlari butun insoniyatning adibiga aylanganlari bejiz emas. Zero, dunyoviy miqyosda fikrlagan, bani bashar muammolarini ko'tarib chiqqan, azaliy va abadiy mavzularni mahorat va hassoslik bilan qalamga olgan shoir-u yozuvchilar o'z-o'zidan butun insoniyatga daxldordirlar, ular yaratgan durdona asarlar esa jahon adabiyotining yorqin sahifalarini tashkil etadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizning go'zal namunalari ham asrlar davomida turli tillarga tarjima qilinib, ulardan boshqa xalqlar ham bahramand bo'lib kelganlar. G'arb olamida Sharqqa qiziqishning kuchayishi, Yevropa adabiyotida sharqona motivlarning tug'ilishi va rivojlanishida fors va hind adabiyoti bilan bir qatorda, o'zbek adabiyotining ham hissasi yo'q emas. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalarimizning qomusiy mazmundagi asarlari tarkibida kelgan adabiy parchalarni hisobga olsak, o'zbek adabiyoti namunalari XII-XIII asrlardayoq turli tillarga tarjima qilinganligiga guvoh bo'lamiz.

Alisher Navoiy asarlari o'z davridayoq keng tarqalib, ijodi chuqur e'tirof etilib, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Mirxond, Husayn Boyqaro, Davlatshoh Samarqandiy, Shohiy Sabzavoriy, Xondamir, Zayniddin Vosifiy kabi ustozlari, do'stlari va shogirdlarining yuksak bahosiga sazovor bo'lgan. Lekin har qancha qiziq tuyulmasin, shoir ijodining ilk va chinakam tadqiqotchisi - uning o'zi! Chunki u o'z qalamining qudratini ham, ijodining asosiy xususiyatlarini ham, tarqalish miqyosini ham, Sharq so'z san'atida tutgan va tutajak o'rni va mavqeyini ham, durdona bitiklarining shuhrati va umrboqiylik darajasini ham juda yaxshi bilgan va bu boradagi fikr-u mulohazalari, hukm-u xulosalari, faxr-u iftixor tuyg'ularini o'z asarlarida lirik chekinish tarzida kelgan faxriya baytlarida mahorat bilan darj etgan.

O'zbek xalqini, tilini, madaniyati va adabiyotini o'ziga xos va mos darajada ko'rish Alisher Navoiyning buyuk orzusi edi. O'zining shoir, olim, davlat arbobi, murabbiy sifatidagi butun kuchi va faoliyatini shu buyuk maqsad yo'lga tikkan edi.

Uning orzu-armonlari oradan 500 yil o'tib ro'yobga chiqdi. Alisher Navoiy va O'zbekiston mustaqilligi o'rtasida qandaydir ko'zga ko'rinmas sirli rishtalar, o'zaro bog'liqlik borgan o'xshab ko'rinadi. Zero, ulug' zotlar bu dunyodan o'tib ketganlarida ham ularning ruhi, qoldirgan ishlari hamisha xalqi bilan birga bo'ladi. Mustaqillik va Navoiy egizak tushunchalarga aylanib ketgan. Zero, mamlakatimizda «Navoiy yili» deb e'lon qilingan 1991-yilda biz mustaqillikka erishdik. O'z navbatida, mustaqillik Navoiyga ikkinchi hayot baxsh etdi [2. B-73].

Maqom - bu falsafiy va irfoniy san'at. Navoiy asarlaridagi tassavufiy g'oyalar, ishq va kamolot tushunchalari maqom musiqasining ichki mazmunini boyitgan va unga yuqori estetik ruh baxsh etgan. Navoiy o'z davrining musiqashunosi sifatida ham tanilgan. U musiqachilarga homiylik qilgan va o'z asarlarida (masalan, "Majolis un-nafois") o'sha davr sozandalari va maqom ijrochilari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan.

Haqiqatan ham, Alisher Navoiy merosi bugungi kun maqom san'atining poydevori va asosiy manbasi oladi. O'zbek maqomlari ashula yo'llarining katta qismi aynan Navoiy g'azallari bilan ijro etiladi. Uning she'riyati maqom ohanglariga nihoyatda mos tushadi. Navoiy o'z hayotida san'at ahlining eng katta homiysi bo'lgan, bugungi kunda esa uning ma'naviy merosi maqom san'atini rivojlantirishda ilhom manbasi bo'lib xizmat qilmoqda. Shoirning aruz vaznidagi she'rlari maqom ritmlari (usullari) bilan tabiiy ravishda uyg'unlashgan, bu esa ijrolarning jozibadorligini ta'minlaydi.

Alisher Navoiy asarlari maqom san'atining ma'naviy va badiiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Uning ijodi maqomga bir necha yo'nalishda kuchli ta'sir ko'rsatgan. O'zbek maqomlarining ashula yo'llari (Shashmaqom, Xorazm maqomlari) katta qismi Navoiyning g'azallari bilan ijro etiladi. Uning g'azallaridagi aruz vazni va musiqiy ohangdorlik maqom kuylariga tabiiy ravishda mos tushadi. Musiqiy dramaturgiyada Navoiyning "Xamsa" dostonlari ("Farhod va Shirin", "Layli va Majnun") asosida yaratilgan musiqiy dramalarda maqom parchalaridan keng

foydalaniladi. Masalan, Farhod va Shirinning his-tuygʻulari Dugoh-Huseyniy, Miskin, Bayot va Segoh kabi maqom yoʻllari orqali ifodalangan [3. B-117].

“Topmadim”, “Munojot”, “Qaro koʻzum”, “Gulyor”, “Bayot-II”, “Guluzorim”, “Qoʻshchinor”, “Koʻchabogʻi II”, “Nargiz”, “Hanuz”, “Chorgoh III” kabi koʻplab mashhur maqom asarlari bevosita Navoiy soʻzlari bilan aytiladi. “Nasrullovi” kabi instrumental kompazitsiyalar vocal qismlari ham Navoiy qalamiga mansub “Parizodaki, mushkin zulfi jonim mustamand etmish” kabi gʻazallar bilan ijro etiladi. “Munojot” ashulasi ham shoirning “Kecha kelgumdur debon...” misrasi bilan boshlanuvchi gʻzali bilan mashxurdir. Ushbu gʻazallar asosan Oʻzbekistonning yetakchi maqom ansambllari va taniqli xonandalar ijro etishadi. Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli va professional xonandalari tomonidan muntazam ravishda Navoiyning gʻazallaridan ijro etishadi hamda Oʻzbekiston qahramoni, Oʻzbekiston respublikasi xalq artisti, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist, Tojikiston xalq hofizi Munojot Yoʻlchiyevaning repertuarlarida va Alisher Navoiyning gʻazallari oʻrin egallagan.

Alisher Navoiy gʻazallarining bugungi maqom sanʼatidagi oʻrni nafaqat saqlanib qolgan, balki u ushbu milliy merosning hayotiyiligini taʼminlovchi asosiy ustunlardan biri boʻlib qolmoqda. Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli kabi yetakchi guruhlar va Munojot Yoʻlchiyeva singari xalq artistlari oʻz repertuarlarining asosiy qismini Navoiy gʻazallariga bagʻishlashi anʼananing bugungi kungacha yetib kelishini taʼminlangan. Oʻzbekistonda Maqom sanʼati markazlari tashkil etilishi, “Maqom” telekanali faoliyati va Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti kabi muassasalarning mavjudligi Navoiy ijodiga boʻlgan ilmiy va amaliy eʼtiborni kuchaytirdi. Navoiy gʻazallari maqom sanʼati uchun shunchaki matn emas, balki uning oʻziga xosligi, milliy ruhi va badiiy qudratini belgilovchi ilhom manbai boʻlib qolaveradi. Ushbu buyuk shoir meʼrosiga boʻlgan ehtiyotkorona munosabat va uni avlodlarga yetkazish borasidagi saʼy-harakatlar uning bugungi maqom sanʼatidagi oʻrnini mustahkam ushlab turibdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ergash Ochilov 2013-yil “O‘zbekiston” “Alisher Navoiy”
2. Zuhra Mamadaliyeva 2024-yil “Azmir nashr print” “Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ramziy va majoziy obrazlar sistemasi” (Monografiya)
3. A.Qayumov 1979-yil “Adabiyot va san’at”. “Farhod va Shirin sirlari: ezgulik va sevgini ulug‘lovchi motivlar”.

**ALISHER NAVOIY EZGULIK VA XAYR-SAXOVAT DAHOSI**

*Feruz Abdurasulova*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya*

*akademiyasi*

*“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs*

*talabasi*

**Ilmiy rahbar: Gulchehra Iskandirova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, uning ijodining mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirishdagi roli ham ko‘rib chiqiladi. Butun dunyoda mehr bilan sevib o‘rganiladigan, chuqur ehtirom bilan yod olinadigan boy adabiy merosi haqida.

**Kalit so‘zlar:** tarix, madaniyat, she’riyat, tarjima, badiiy, asar, mazmuni, sharqiy mamlakat, ijod, san’atkor.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности изучения творчества Алишера Навои. Также будет рассмотрена роль его творчества в развитии дружбы и сотрудничества между странами и народами. О его богатом литературном наследии, которое с любовью изучается и с глубоким уважением вспоминается во всем мире.

**Ключевые слова:** история, культура, поэзия, перевод, художественный, произведение, содержание, восточная страна, творчество, художник.

**Annotation:** This article examines the specifics of studying Alisher Navoiy’s work. The role of his creative work in the development of friendship and

cooperation between countries and peoples will also be considered. About his rich literary heritage, which is studied with love and remembered with deep respect throughout the world.

**Key words:** history, culture, poetry, translation, artistic, work, content, eastern country, creativity, artist.

Alisher Navoiy – o‘zbek adabiyoti va umuman turkiy adabiyotning eng buyuk namoyandalaridan biri. Alisher Navoiy XI asrda, Temuriylar davlati, ayniqsa Hirot madaniy markaz bo‘lgan paytda ijod qilgan. Bu davr Sharq uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi hisoblanadi. Istiqlol yillarida mumtoz adabiy merosimiz, xususan Alisher Navoiy ijodiga munosabat tubdan yangilandi. Endilikda ulug‘ shoir adabiy merosini chuqurroq tadqiq etish, u ilgari surgan g‘oyalarning falsafiy asoslarini teranroq anglash, asarlarida ifodasini topgan komil inson muammosini mohiyatini tushunishga alohida e‘tibor berilmoqda. Alisher Navoiy xalqimiz ma‘naviy dunyosining shakillanishiga katta ta‘sir ko‘rsatib kelgan buyuk siymolardan biridir.

Bugungi kunda yoshlar qalbida milliy g‘urur, o‘zlikni anglash, go‘zallik va nafosatga shaydolik tuyg‘ularini kamol toptirishda Navoiy asarlari muhim manba bo‘la oladi. Zero, ulug‘ san‘atkor asarlari mohiyatida singdirilgan insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, haqiqat, imon-e‘tiqod yetugligi, shukronalik, sabr-qanoat, kelajakka umidvorlik singari g‘oyalar barcha davrlarda ham insoniyat ma‘navi kamoloti uchun muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodiy merosini yuksak ma‘naviy qadriyat sifatida alohida e‘tirof etadilar. Navoiyning xalqimiz ma‘naviy taraqqiyotidagi xizmatlarini munosib baholab, shunday deydilar: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha‘nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron bir inson yo‘qki, u Navoiyning bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa. Agar bu

ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” [2-39].

Darhaqiqat, inson qalbining quvonchu qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdankam topiladi va bu yetuk mutafakkir bizning bobokalonimiz ekanligidan faxirlanishimiz zarur. Zero, ona tiliga muhabbat, milliy g‘urur singari tuyg‘ular ham bizning ongu shuurimizga dastavval Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi.

Navoiy turkiy (chig‘atoy) tilni yuksak adabiy til darajasiga ko‘tardi. Fors tilida hukmron bo‘lgan adabiy muhitda u turkiy tilda ham chuqur falsafiy va badiiy asarlar yaratish mumkinligini isbotladi. Adabiyot faqat badiiy emas, axloqiy va ma‘rifiy vosita sifatida qaraladi. Adabiyot jamiyatni tarbiyalovchi kuchga aylandi. Navoiy davrida adabiyot boshqa san‘at turlari bilan chambarchas bog‘liq edi [3/4-52].

Kamoliddin Behzod kabi musavvirlar Navoiy asarlariga miniatyuralar yaratgan. Dostonlardagi voqealar rasm orqali jonlantirilgan. Bu adabiyot va tasviriy san‘atning uyg‘un rivojini ko‘rsatadi. She‘riyat musiqa bilan qo‘shilib, ashula va maqomlar orqali ijro etilgan. G‘azallar qo‘shiq shaklida xalq orasida keng tarqalgan.

Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi va homiy bo‘lgan. Madrasalar, masjidlar, kutubxonalar, xonaqohlar qurilishiga boshchilik qilgan. Ilm-fan va san‘at vakillarini qo‘llab-quvvatlagan. Shoirlar, rassomlar, musiqachilar va olimlar bir muhitda ijod qilgan. Navoiy Husayn Bayqaro saroyi atrofida shakllangan madaniy hayotning markaziy shaxsi bo‘lgan. Ijodkorlar o‘zaro ilhom olib, bir-birining ishini boyitgan. Navoiy asarlarida adolat, muhabbat, saxovat, ilmga hurmat targ‘ib etiladi. Bu g‘oya san‘atning barcha turlarida aks etgan. Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi sifatida ilm-fan, san‘at va adabiyotning asosiy homiysi bo‘lgan. Uning atrofida tarixchilar, musiqachilar, rassomlar va xattotlar jamlanib, bir-birini boyituvchi yagona intellektual muhitni yaratganlar.

Navoiy musiqa ilmining ham bilimdoni bo‘lib, o‘zi ham musiqabastalagan hamda “Xamsa” va “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida musiqa nazariyasi va turli cholg‘u asboblari (nay, ud, qonun) haqida qimmatli ma‘lumotlar qoldirgan. Uning

gʻazallari oʻsha davridayoq honandalar tomonidan kuyga solinib, adabiyot va musiqa sanʻatini uzviy bogʻliqligini taʼminlagan.

Navoiy asarlari, ayniqsa “Xamsa” dostonlari miniatyura sanʻatining rivojlanishiga ulkan turtgi berdi. Kamoliddin Behzod kabi musavvirlar shoirning dostonlaridagi voqealarni tasviriy sanʻat tiliga koʻchirib, “Hirotda miniatyura maktabi” ning shakllanishiga va adabiy obrazlarning vizual gavdalanishiga xizmat qildilar [2-89].

Navoiy davrida kitob nafaqat bilim manbai, balki sanʻat asari sifatida koʻrilgan. Shoirning asarlari eng mohir xattotlik va sanʻatning uygʻunligini koʻrsatuvchi yuksak namunadir.

Navoiy ijodida insonparvarlik, adolat, ilm-maʼrifat va muhabbat asosiy oʻrin egallaydi. Bu gʻoyalar bugungi kunda yoshlarga, hayotda toʻgʻri yoʻl tanlash, insoniylikni saqlab qolish uchun muhim mezon boʻlib xizmat qiladi. Navoiy oʻzbek tilining asoschisi sifatida yoshlarda ona tiliga boʻlgan hurmat va faxr tuygʻusini kuchaytiradi. Uning asarlarini oʻqish yoshlarning soʻz boyligini oshiradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi. U nafaqat shoir, balki xalq va jamiyat taqdiri haqida qaygʻurgan dono mutafakkir edi. Navoiyning merosi bugungi kunda yoshlarni komil inson boʻlib yetishishi, milliy ildizlarini anglash va hozirgi zamonaviy dunyoda oʻz oʻrnini topishda yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abdullayev Vohid. Alisher Navoiy: hayoti va ijodi. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1968.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Xamsaning 525 yilligiga bagʻishlanadi, T: Yangi asr avlodi 2010- 348 b
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami 20- jildlik. Toshkent: “Fan”, 1987-2003.
4. Komilov, N. Tasavvuf. - Toshkent: “Movarounnahr” 2009.
5. Abduqodirov A. Alisher Navoiy. Xoʻjand, 2001.

---

**SAN'AT OLAMIDA NAVOIY HAYOTI VA IJODI**

*Mirsaidova Zinnura*

*O'zDXA "San'atshunoslik" bo'limi 1-bosqich  
talabasi*

*Ilmiy rahbar: Alimdjanova Nodira*

*Abdugaparovna*

*O'zDXA "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrası  
dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining ulug' namoyondasi, shoir, mutaffakir Mir Alisher Navoiyning hayoti, ijodiy faoliyati hamda o'lmas merosi haqida so'z boradi. Shoirning ijodidan joy olgan dostonlar, g'azallar va devonlar tilga olinadi. Maqolada mutaffakirning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga ham o'rin beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shoir, g'azal, tarix, jamiyat, madaniyat, adabiyot, san'at, ijod, she'riyat.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются жизнь, творчество и бессмертное наследие Мира Алишера Навои, великой фигуры узбекской литературы, поэта и мыслителя. Идет речь о его дастанах, газелях и деванах. В статье также уделено внимание роли поэта в государственных делах.

**Ключевые слова:** Поэт, газель, история, общество, культура, литература, искусство, творчество, поэзия.

**Annotation:** This article examines the life, work, and enduring legacy of Mir Alisher Navoi, a great figure in Uzbek literature, poet, and thinker. It focuses on his dastans, ghazals, and devans.

**Key words:** poet, ghazal, history, society, culture, literature, art, creativity, poetry.

Alisher Navoiy - nafaqat o'zbek adabiyotining, balki butun turkiy xalqlar ma'naviyati va san'at olamining eng ulug' siymolaridan biridir. U shoir, mutafakkir, davlat arbobi, tilshunos va san'at homiysi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan.

Navoiy ijodi - bu faqat she'riyat emas, balki inson ruhiyati, jamiyat, axloq, go'zallik va ilohiy haqiqatni anglash yo'lidagi ulkan ma'naviy maktabdir.


Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. To'liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Otasi - G'iyosiddin Muhammad, Temuriylar saroyida yuqori lavozimlarda xizmat qilgan ma'rifatli inson bo'lgan. Shu sababli Navoiy yoshligidanoq ilm-fan va adabiyot muhitida ulg'aygan.



Alisher Navoiy Hirot, Samarqand va Mashhadda tahsil olgan va arab, fors hamda turkiy tillarni mukammal egalladi. Bu esa uning ijodida keng taffakkur doirasini yuzaga keltirdi. Yoshligidan she'riyatga qiziqqan va iste'dodi bilan ajralib turgan Navoiy, hayoti davomida nafaqat shoir, balki davlat arbobi sifatida ham san'at va madaniyat taraqqiyotini qo'llab-quvatladi.

Navoiy buyuk davlat arbobi Husayn Boyqaro bilan yaqin do'st bo'lgan. Uning hukmronligi davrida Navoiy yuqori lavozimlarda ishlagan, ammo mansabni maqsad emas, xalq va ilm ahliga xizmat vositasi deb bildi. Shoirning hayoti shuni ko'rsatadiki, haqiqiy san'atkor jamiyatdan chetda turmaydi, u jamiyatni yuksaltirish mas'uliyatini ham o'z zimmsiga oladi. Navjiy masjid, madrasa, shifoxona, ko'prik va yo'llar qurdirib, el-yurtga katta xizmat qilgan [1].

Alisher Navoiy san'at olamida, avvalo, so'z san'atining buyuk ustasi sifatida tanilgan. U turkiy tilni adabiy til darajasiga ko'tardi va uni fors tili bilan teng qo'ya oldi. Navoiy ijodi nafaqat adabiyot, balki musiqa, miniatyura va me'morchilik kabi san'at turlari bilan ham uzviy aloqada bo'lgan. Shoirning asarlari musiqiy majlislarda kuylangan, qo'lyozmalari esa nafis miniatyuralar bilan bezatilgan.



Navoiy san'atni inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi kuch sifatida ko'rdi va o'z asarlari orqali bu g'oyani amalda namoyon etdi. Navoiy merosi bugungi kunda ham san'at va adabiyot rivoji uchun bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, turkiy xalqlar ma'naviyati va madaniyatining buyuk namoyandasidir. Uning ijodiy merosi nafaqat adabiy, balki falsafiy, axloqiy va ilmiy jihatdan ham nihoyatda boy va terandir. Navoiy butun umrini ilm-ma'rifat, adolat va inson kamolotiga bag'ishlagan mutafakkir sifatida tarixda muhrlanib qolgan.

Navoiy ijodining asosiy qismini she'riy asarlar tashkil etadi. Uning eng yirik she'riy majmuasi - "Xazoyin ul-maoniy" bo'lib, u to'rt devondan iborat. Bu devonlarda shoirning bolalikdan to umrining so'nggi yillarigacha bo'lgan ijodiy yo'li aks etgan. G'azallarida ishq, vafodorlik, hayot falsafasi, insoniy fazilatlar va ilohiy muhabbat yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan [3]

Alisher Navoiy ijodining cho'qqisi - uning mashhur "Xamsa" asaridir, u san'at olamida yuksak badiiy tafakkurning namunasi hisoblanadi. Ushbu asar turkiy tilda yaratilgan ilk "Xamsa" bo'lib, besh dostonni o'z ichiga oladi: "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy". Bu asarlarda adolatli jamiyat, chin muhabbat, komil inson, ilm va axloq masalalari keng yoritilgan. Navoiy bu dostonlari orqali turkiy adabiyotning imkoniyatlari cheksiz ekanini amalda isbotlagan.

Shoir nasriy asarlari bilan ham adabiyot tarixida muhim o'rin egallaydi. "Mahbub ul-qulub" asari axloqiy pand-nasihathida yozilib, unda jamiyatdagi turli tabaqa vakillarining fazilat va nuqsonlari tahlil qilinadi. "Nasoyim ul-muhabbat"

asari esa tasavvuf namoyandalari hayotiga bag'ishlangan bo'lib, ma'naviy poklanish g'oyalarini targ'ib etadi.

Navoiy ilmiy-adabiy asarlari bilan ham katta hissa qo'shgan. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida u turkiy va fors tillarini qiyoslab, turkiy tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini ilmiy asosda isbotlaydi. Bu asar o'zbek adabiy tilining rivojida beqiyos ahamiyatga ega. Bu g'oya milliy o'zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. "Mezon ul-avzon" esa aruz vazniga bag'ishlangan muhim nazariy risola hisoblanadi [5].

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodiy merosi - bu bebaho ma'naviy xazina. Uning asarlari asrlar osha insonni ezgulikka, ilmga, adolat va komillikka chorlab kelmoqda. Navoiy nafaqat o'z davrining, balki barcha zamonlarning buyuk shoiri va mutafakkiri sifatida xalq qalbida yashab kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduqodirov A., Navoiy va tasavvuf, Xo'jand, 1994.
2. Ibrohim Haqqul, Navoiyga qaytish, Toshkent, 2007.
3. Qayumov A., Alisher Navoiy, Toshkent, 1991.
4. Qodirov M., Navoiy va sahna san'ati, Toshkent, 2000.
5. Hayitmetov A., Navoiyxonlik suhbatlari, Toshkent, 1993.
6. Hasanov B. (tuzuvchi), Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at, Toshkent, 1993.

### **O'ZBEK MILLIY MADANIYATI – BETAKRORLIK VA BOYLIK**

#### **MANBAI**

*Xoliqova Oydin*

*Xoreografiya jamolari rahbari ta'lim yo'nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: Sh.Sh.Jalilova*

*S.f.f.d., O'zDXA v.b. dotsenti*

**Anotatsiya:** O'zbek milliy madaniyati – bu xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlarini, an'analari, me'morchiligi, san'ati, tili va hayot tarzini o'zida mujassam etgan beqiyos boylikdir. O'zbek madaniyati asrlar davomida shakllanib,

xalqimizning ichki dunyosini, ruhiyatini va o'ziga xosligini aks ettirgan. Ushbu madaniyatning o'ziga xosligi va betakrorligi xalqimizning turli davrlarida yaratilgan ma'naviy va moddiy yodgorliklar, o'zbek tilining boyligi, urf-odatlar va qadriyatlar orqali namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Urf-odatlar, ma'naviyat, madaniyat, davr, san'at, raqs, musiqa, me'morchilik.

**Аннотация:** Узбекистанская национальная культура – это уникальное богатство, которое отражает историческое развитие нашего народа, его обычаи, традиции, архитектуру, искусство, язык и образ жизни. Узбекистанская культура формировалась на протяжении веков и отражала внутренний мир, духовность и индивидуальность нашего народа. Уникальность и неповторимость этой культуры проявляются через духовные и материальные памятники, богатство узбекского языка, обычаи и ценности, созданные народом в различные исторические эпохи.

**Ключевые слова:** Обычаи, духовность, культура, эпоха, искусство, танец, музыка, архитектура.

**Abstract:** Uzbek national culture is a unique treasure that embodies the historical development, customs, traditions, architecture, art, language, and way of life of our people. Uzbek culture has been shaped over the centuries and reflects the inner world, spirituality, and individuality of our nation. The uniqueness and originality of this culture are manifested through the spiritual and material monuments, the richness of the Uzbek language, as well as the customs and values created by the people throughout different historical periods

**Keywords:** Customs, spirituality, culture, epoch, art, dance, music, architecture.

Madaniyat, xalqning kundalik hayotida muhim rol o'ynagan va hozirgi kunda ham milliylikni saqlashda katta ahamiyatga ega. O'zbek xalqining qadriyatlari, an'analari va turmush tarzi yosh avlodlarga o'zlikni anglashda yordam beradi, ularni tarixiy ildizlar bilan bog'laydi va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda

muhim vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbek milliy madaniyati nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo xalqlari uchun ham qadrlil va o‘rganishga arziydigan bebaho boylikdir.

O‘zbek milliy madaniyati, qadimiy sivilizatsiyalar bilan uzviy bog‘liq. O‘zbekistonda joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlar qadimdan ilm-fan, madaniyat va savdoning markazlari bo‘lgan. Markaziy Osiyo hududi, tarixda ko‘plab madaniy va diniy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirgan. Dastlabki davrlarda, O‘zbekiston hududi Mesopotamiya, Eron va Hindiston kabi rivojlangan sivilizatsiyalar bilan madaniy aloqada bo‘lgan. Bu davrlarda O‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligini shakllantirishda yirik tarixiy shaxslar va davlatlar, masalan, Amir Temur davri, Alisher Navoiy va boshqa adiblarning faoliyati katta rol o‘ynagan. Bundan tashqari, O‘zbekistonning joylashuvi buyuk Ipak yo‘li orqali Xitoydan Yaqin Sharqqa, Hindistondan Yevropaga bo‘lgan savdo va madaniy aloqalar nuqtai nazaridan ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan [2. 2019. B-23-40]. Ipak yo‘lining markaziy nuqtalaridan biri bo‘lgan Samarqandda ajablanarli tarzda sharq va g‘arb madaniyatlarining o‘zaro almashinuvi yuzaga kelgan.

O‘zbek san’ati va me’morchiligi – milliy madaniyatning ajralmas qismi. O‘zbek xalqining arxitekturasi va san’ati, ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarning tarixiy obidalari orqali o‘zining buyuk merosini namoyon qiladi. Samarqanddagi Registon maydoni, Buxorodagi Ark qal’asi, Xivadagi Ichan-Qala me’morchiligi o‘zining betakrorligi bilan tanilgan. Bu obidalar nafaqat me’morchilik, balki san’at va madaniyatning uyg‘unligini ham ko‘rsatadi. O‘zbek san’atida naqshinkorlik, rang-baranglik va detallarga alohida e’tibor berilgan [2. 2019. B-23-40]. O‘zbek xalqi o‘zining dastlabki davrlaridan boshlab amaliy san’at bilan shug‘ullangan – gilam to‘qish, ipak va jun matolarni bo‘yash, savat va chiroyli taqinchoqlar yasashda noyob uslublar yaratgan. Bu san’at mahsulotlari nafaqat mamlakat ichidagi, balki butun dunyoda mashhur bo‘lgan.

O‘zbek milliy madaniyatining ajralmas qismi – bu urf-odatlar va an’analaridir. Ular xalqning tarixiy tajribasi, din, madaniyat va tabiat bilan bog‘lanib, butun

xalqning ma'naviy dunyosini tashkil etadi. O'zbek xalqining to'y va marosimlaridagi urf-odatlar, masalan: kelin-kuyovning tanishtirilishi, mehmon kutish, dasturxonni ochish kabi an'analar bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Bayramlar, masalan: - Navro'z, Qurbon hayiti, to'y marosimlari, beshik to'y, diniy va milliy bayramlar ham O'zbek madaniyatining ajralmas qismiga aylanib, ular orqali milliy ruhiyat va ma'naviyatni saqlashga xizmat qiladi. O'zbek xalqining mehmondo'stligi, do'stlikka sadoqat, oilaviy qadriyatlar kabi urf-odatlar nafaqat o'tmish, balki bugungi kunda ham yosh avlodga o'rgatilmoqda.

O'zbek madaniyati, uning qadriyatlari va boy merosi nafaqat o'z yurti, balki butun dunyo miqyosida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos san'at, musiqa, adabiyot va me'morchilik an'analari bilan tanilgan. O'zbekistonning tarixiy obidalar va madaniy yodgorliklari, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlari jahon miqyosida e'tirof etilgan. Samarqanddagi Registon maydoni, Shah-i-Zinda, Ulug'bek rasadxonasi kabi obidalar, Buxorodagi Ark qal'asi va Xivadagi Ichan-Qala kabi arxitektura yodgorliklari nafaqat o'zbek, balki jahon me'morchiligida muhim o'rin tutadi. Bu obidalar UNESCO tomonidan Butunjahon madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ular dunyo xalqlari uchun qimmatli madaniy va ilmiy manbalardir.

O'zbekistonning madaniy merosi nafaqat tarixiy obidalar bilan bog'liq, balki uning musiqasi, adabiyoti, san'ati va me'morchiligi ham jahon madaniyatida alohida o'rin tutadi. O'zbek xalqining xalq musiqa asarlari, shashmaqom musiqiy an'anasi, mashhur mualliflar - Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk adiblarning asarlari nafaqat o'zbek, balki butun jahon adabiyotining ajralmas qismiga aylangan. O'zbek milliy madaniyatining xalqaro maydondagi o'rne, albatta, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan madaniy diplomatiya orqali mustahkamlanadi. O'zbekistonning yirik xalqaro madaniy tadbirlarda ishtiroki, san'at va adabiyot sohasidagi aloqalar jahon miqyosida O'zbekistonni tanitish uchun muhim vositaga aylangan. O'zbekistonda har yili o'tkaziladigan Samarqand xalqaro musiqa festivali, Buxoro xalqaro teatro festivali va boshqa madaniy tadbirlar

nafaqat milliy madaniyatni yuksaltirish, balki dunyo xalqlari bilan madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistondagi Xalqaro Badiiy Adabiyot Festivali va o‘zbek san’ati ko‘rgazmalari xalqaro maydonlarda o‘zbek madaniyatining e’tirof etilishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek milliy madaniyati, tarixiy ildizlaridan to bugungi kunga qadar o‘zining betakrorligi va boyligi bilan dunyo madaniy merosiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlar, ularda joylashgan me’moriy yodgorliklar, nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyatning qadriyatlarini aks ettiradi. Registon maydoni, Shah-i-Zinda va Ulug‘bek rasadxonasi kabi yodgorliklar jahon miqyosida o‘zining ulug‘vorligi va ilmiy ahamiyati bilan ajralib turadi, ular o‘zbek madaniyatining qadimiyligini va ilm-fan tarixidagi o‘rnini namoyish etadi.

O‘zbek adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk adiblarning asarlari nafaqat o‘zbek xalqining ruhiyatini aks ettiradi, balki ular jahon adabiyotiga ham yuksak hissa qo‘shgan. Shashmaqom kabi musiqa janrlari va o‘zbek xalqining amaliy san’ati xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lib, o‘zining rang-barangligi va o‘ziga xosligi bilan dunyo san’atida o‘z o‘rnini topgan. O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasi ham. O‘zbek milliy madaniyatining jahon miqyosida tanilishiga xizmat qiladi. Samarqand xalqaro musiqa festivali, Buxoro xalqaro teatro festivali kabi tadbirlar nafaqat O‘zbekiston, balki dunyo xalqlari o‘rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashga, milliy madaniyatni targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonning madaniyat sohasidagi global rolini mustahkamlashga yordam beradi. Zamonaviy o‘zbek san’ati va dizayni xalqning milliy madaniy an’analarini yangi shakllarda ifodalashga intilmoqda. O‘zbekistonning zamonaviy rassomlari, xususan, tasviriy san’at va grafika sohasida xalqning qadimiy motivlarini zamonaviy estetikaga moslashtirib yaratmoqda. Zamonaviy o‘zbek teatr san’ati ham o‘zgarishlarga yuz tutgan. Toshkentdagi teatr sahnalarida zamonaviy dramatik asarlar va spektakllar ko‘rilmoqda, ular milliy ma’naviyatni va madaniy qadriyatlarni yangicha shaklda taqdim etishga qaratilgan.

Bu tendensiya yoshlarning estetik va ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga yordam bermoqda. Zamonaviy o'zbek adabiyoti o'zining an'anaviy mavzulariga sodiq qolgan holda, yangi, zamonaviy tendensiyalarni o'zida mujassamlashtirmoqda. O'zbek yozuvchilari jahon adabiyotidagi eng so'nggi uslublar va texnikalarni o'z asarlarida qo'llashadi. Bugungi kunda, yosh avlodning adabiyotga qiziqishi ortib bormoqda, ayniqsa, yozuvchi va shoirlar o'z asarlarida o'tmish va bugunni uyg'unlashtirib, milliy o'zlikni saqlagan holda global fikrlarni ko'tarishga harakat qilmoqdalar. Zamonaviy O'zbekistonda milliy urf-odatlar va qadriyatlar yangi shaklda rivojlanmoqda. O'zbek xalqining an'analari, xususan, qayta tiklanayotgan beshik to'y, navruz kabi bayramlar zamonaviy jamiyatda yangi ma'no kasb etmoqda. Bular, ayniqsa, yosh avlod uchun qadriyatlar va milliy merosni saqlash, o'rganish va ularga bo'lgan hurmatni oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning milliy kiyimlari va amaliy san'ati ham zamonaviy modaga moslashib, dunyo bo'ylab tanilmoqda. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan khalatlar, to'nlar, bosh kiyimlar va boshqa an'anaviy kiyimlar, shuningdek, amaliy san'atning zamonaviy dizaynlari global bozorga chiqa boshladi. Zamonaviy o'zbek madaniyati globalizatsiya jarayoniga kirib borayotgan holda, boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalarni kuchaytirishga intilmoqda. O'zbekistonning xalqaro madaniy tadbirlarda ishtiroki, masalan, Samarqanddagi Xalqaro musiqa festivali, Buxoro teatr festivali kabi yirik tadbirlar, nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda milliy madaniyatni tanitishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalar yordamida o'zbek madaniyatining tarixi va bugungi kuni global miqyosda yanada kengroq targ'ib qilinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirzayev R. O'zbek milliy madaniyatining tarixiy rivojlanishi. Toshkent: Akadennashr nashriyoti 2018.
2. Sul'tonov I. Markaziy Osiyoda madaniyat va sivilizatsiyalar: tarixiy yodgorliklar va madaniy meros. Samarqand: Sharq nashriyoti 2019.

3. Mamatov S. O‘zbek adabiyoti va uning jahon madaniyatidagi o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyoti 2020.
4. Abdullayev A. Zamonaviy o‘zbek san’ati: Yangi tendensiyalar va rivojlanish. Buxoro: Buxoro Universiteti nashriyoti 2021.
5. Karimov I. O‘zbekiston: Mustaqillik va madaniyat taraqqiyoti. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasining Davlat nashriyoti 1992.
6. Navoiy A. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: 2005.

### ALISHER NAVOIY IJODIDA INSONPARVARLIK MASALALARI

*M.A. Giyasova*

*Angren universiteti “Pedagogika va  
psixologiya”  
kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning asarlari o‘sha davr pedagogikasining ilmiy-nazariy poydevorini mustahkamlashdagi roli, Navoiyning asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari, shaxsni kamolotga yetkazishda insonparvarlik yondashuvining mohiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Insonparvarlik, adolat, ta’lim-tarbiya, sharq, iymon, ta’lim tizimi, o‘rta asrlar, ta’lim tamoyili.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль произведений Алишера Навои в укреплении научно-теоретических основ педагогики того периода, сущность гуманистического подхода к развитию личности в произведениях Навои, а также вопросы образования и воспитания.

**Ключевые слова:** Гуманизм, справедливость, образование, Восток, вера, система образования, Средневековье, принципы образования.

**Abstract.** This article examines the role of Alisher Navoi’s works in strengthening the scientific and theoretical foundations of pedagogy during that period, the essence of the humanistic approach to personal development in Navoi’s works, and issues of education and upbringing.

**Key words:** Humanism, justice, education, East, faith, education system, Middle Ages, principles of education.

“Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta‘lim va maktab ta‘limi, oliy ta‘lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz” [1],– deya yurtboshimiz YUNISEF bilan tashkil qilingan xalqaro konferensiyadagi nutqida ta‘limning har bir bosqichi uzluksizligi va muhimligini yana bir bora ta‘kidlab o‘tdi.

Yurtimizdagi ta‘lim tizimidagi islohotlar hozirgi kunda yilda-yilga tez sur‘atlar bilan takomillashib, shiddat bilan olib borilmoqda. Ta‘lim tizimi orqali butun dunyoda yetakchilik qilayotgan davlatlarning tajribalari xorijiy tajribalar misolida olib borilmoqda. Albatta bu o‘z navbatida ilg‘or-xorijiy tajribalar orqali ta‘limda rivojlanish bo‘ladi, biroq masalaning ikkinchi tarafi, biz o‘z ajdodlarimizning ta‘lim-tarbiyaga oid ilmiy-pedagogik meroslarini o‘rganib, tahlil qilib, amaliyotda joriy qilmas ekanmiz, milliy tarbiya vositalarimizning asl mag‘zini yo‘qotishimiz hech gap emas. Shunday bo‘y ilmiy-pedagogik merosni bizga hazrat Alisher Navoiy qoldirganlar. Navoiy “Xamsa” dostonida har qaysi davrga xos ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy va tarbiyaviy masalalar o‘z aksini topgan. Alisher Navoiy qalamiga mansub besh doston, shoirning ta‘kidiga qaraganda, jami 30 oy - 2 yarim yil ichida yaratilgan bo‘lsa-da, bu asarlarning har birini ko‘p yillik ijodiy mehnatning natijasi deb qarash kerak. Xususan, “Xamsa” ning birinchi dostoni “Hayrat-ul abror” da davlat rahbarlari va uning amaldorlarini, riyokor shaxslarni ochko‘z boylarni, poraxo‘r mansabdorlarni ayamay tanqid qildi. Jamiyatdagi adolatni insonparvarlikni mehnatsevarlikni, sahovatni, muhabbatni, iymon nurini, halollik, rostgo‘ylikni, ma‘riifatvarvarlikni, shu kabi yuksak insoniy fazilatlarni ulug‘lovchi misralari orqali yanda yuqori ko‘tardi.

---

“Qanoat erur ganji bepoyon,  
Har kim anga yetti - erur shohon”

Navoiyning ushbu misrasida, insonparvarlik nafsni tiyishdan, qanoatdan boshlanishi ta’kidlanadi. Navoiy insonning boshqalarga zulm qilmasligi uchun avvalo o‘z hoxish-istaklarini jilovlashi zarurligini ko‘rsatadi. Shoir qanoatni haqiqiy boylik sifatida talqin qilib, nafsga, mol dunoyo orttirishorqasidan ergashish insonni axloqiy tanazzulga olib borishini ta’kidlaydi. Qanoatli inson boshqalarning haququqiga, sha’niga tajovuz qilmaydi, jamiyatda muvozanat va tinchlikni ta’minlaydi. Shu jihatdan doston nafaqat bir kishininggina axloqiy komilligini, balki ijtimoiy jamiyatning barqarorligini ham ma’naviy yetuklik bilan bog‘laydi. Bu esa ayni davrdagi, iste’molchilik kayfiyatining yuqoriligi, barcha muammolarga materializm nuqtai nazaridan yondashadigan avlod vakillariga qaratilgan iboradek tuyuladi.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida “Navkarki, vali ne’matidin rioayat ko‘rgay va bek va mamudidin tarbiyat va inoyat ko‘rgay. Erlik va insoniyat uldurkim, muqobalasida qulluq va xizmatkorlik, balki yakjihatlik va jonsiporlik qilg‘ay” [3] insonparvarlikni “Insoniyat” jumlasini orqali ta’riflamoqda. Ya’ni tabiatida o‘zgalarga hamdardlik va qo‘llab-quvvatlash bor bo‘lgan shaxslar jamiyatning gavhari, insonlar orasidagi shaxslar aro munosabatlarga, shaxs kamolitining ijobiy bir vositasi sifatida qaralmoqda. Navoiyning asarlaridagi o‘rta asrlar jamiyatining insonparvarlik mazmun-mohiyati, hozirgi globallashuv davridagi butun dunyo ta’limi, xususan O‘zbekiston ta’lim tizimining asosiy tamoyili, insonparvarlikning mazmun mohiyatini ochib bera oladi deya bemalol aytishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning asarlaridagi insonparvarlik masalalari mohiyati, oradan shuncha vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan hozirgi ta’lim tizimining ham asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan insonparvarlik yondashuvining mazmuniga to‘la mos keladi. Ta’lim tizimida biz nafaqat Navoiyning hayot va ijod yo‘lini o‘rganishimiz balki uning asarlaridan faol

tarzda foydalanishimiz, mazmun mohiyatini chuqur anglab hayotga tadbiiq qilishimiz orqali yuksak natijalarga erisha olamiz. Zero, Navoiy asarlari orqali insonni jamiyat va borliq markaziga qo'yadi hamda ma'naviy yetuklikni barcha taraqqiyotning asosiy mezoni sifatida ilgari suradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M. Mirziyoyev nutqi. 2022-yil 15-noyabrdagi YUNICEF xalqaro konferensiyadagi nutqi.
2. Alisher Navoiy "Xamsa" asarining "Hayrat ul-Abror" dostoni nasriy bayoni. Toshkent g'ofur g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti-1989-yil.
3. Alisher Navoiy "Mahub ul-qulub". 36-fasl. [www. Ziyo.uz.com](http://www.Ziyo.uz.com) kutubxonasi.

## **ALISHER NAVOIY NASRIY USLUBINING BIR XUSUSIYATI ("FARHOD VA SHIRIN", "LAYLI VA MAJNUN", "SAB'AYI SAYYOR" DOSTONLARINING MISOLIDA)**

*Mahliyo Abduhamidova*

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Gulchehra Iskandirova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy "Xamsa" turkumiga kiruvchi dostonlarda san'at va go'zallik falsafasi ilmiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Xamsa asarlarida go'zallik nafaqat tashqi husn va estetik zavq manbai sifatida, balki insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy yetukligi, sadoqat va ilohiy haqiqatga intilishi bilan bog'liq holda yoritiladi. Maqolada "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" dostonlari misolida san'atning tarbiyaviy, falsafiy va ma'naviy ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga, ishq, aql va tasavvufiy qarashlar orqali Navoiy estetikasi va go'zallik talqini sharhlanadi. Tadqiqotda navoiyshunos olimlarning fikrlari asos qilib olingan bo'lib, bugungi kunda ham yosh avlodni san'at va go'zallikni anglash ruhida tarbiyalash ahamiyati ta'kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Xamsa, Alisher Navoiy, san’at, go‘zallik, estetik tafakkur, ishq, axloqiy poklik, ma’naviy kamolot, tasavvuf, komil inson.

**Аннотация:** В данной статье научно-эстетически анализируется философия искусства и красоты в дастанах Алишера Навои, входящих в цикл «Хамса». В произведениях Хамсы красота освещается не только как источник внешней красоты и эстетического наслаждения, но и в связи с духовным совершенством человека, нравственной зрелостью, преданностью и стремлением к божественной истине. В статье на примере дастанов «Хайрат ул-аброр», «Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Сабъаи сайёр» и «Садди Искандарий» показано воспитательное, философское и духовное значение искусства. В то же время эстетика и интерпретация красоты Навои интерпретируются через любовь, разум и мистические взгляды. В основу исследования положены мнения ученых-навоиведов, подчеркивается важность воспитания молодого поколения в духе понимания искусства и красоты.

**Ключевые слова:** Хамса, Алишер Навои, искусство, красота, эстетическое мышление, любовь, нравственная чистота, духовное совершенство, суфизм, совершенный человек.

**Annotation:** This article analyzes the philosophy of art and beauty in Alisher Navoi's epic poems within the "Khamasa" cycle from a scientific and aesthetic perspective. In the works of Khamasa, beauty is illuminated not only as a source of external beauty and aesthetic pleasure, but also in connection with human spiritual perfection, moral maturity, devotion, and striving for divine truth. The article shows the educational, philosophical, and spiritual significance of art through the examples of the dastans "Hayrat ul-abror", "Farhad and Shirin", "Layli and Majnun", "Sab'ai sayyor" and "Saddi Iskandariy". At the same time, Navoiy's aesthetics and interpretation of beauty are interpreted through love, intellect, and mystical views. The research is based on the opinions of Navoi scholars, emphasizing the

importance of educating the younger generation in the spirit of understanding art and beauty.

**Keywords:** Khamsa, Alisher Navoi, art, beauty, aesthetic thinking, love, moral purity, spiritual perfection, Sufism, perfect person.

Alisher Navoiy Sharq mumtoz adabiyotining eng buyuk namoyandalaridan biri bo‘lib, uning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlari san’at va go‘zallik masalalarini chuqur falsafiy va estetik nuqtai nazardan ochib beradi. Bu asarlar nafaqat badiiy yuksakligi, balki insonning ruhiy va ma’naviy kamoloti, axloqiy yetukligi va ilm-fan bilan uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda san’at va go‘zallik falsafasini ilmiy asosda tahlil qilish, yosh avlodni estetik tafakkur va ma’naviy barkamollikka yo‘naltirish, madaniy merosimizni qadrlashda muhim ahamiyatga ega. “Xamsa” asarlarida san’at va go‘zallik tushunchasi, ularning inson ruhiyati va jamiyat bilan bog‘liqligi o‘rganiladi, shuningdek, zamonaviy ta’lim va tarbiyadagi amaliy ahamiyati yoritiladi.

Sharq mumtoz adabiyotida estetik tafakkur tasavvufiy, axloqiy va badiiy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq. Navoiy o‘z “Xamsa” asarlarida bu an’anani davom ettirgan holda, san’atni inson ruhini poklovchi va jamiyatni yuksaltiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Hayitmetov (1968) ta’kidlaganidek, Navoiy estetikasi insonning ichki go‘zalligini tashqi husndan ustun qo‘yadi. Shu bilan birga, Navoiy badiiy ifodaning kuchini inson ruhiyatini o‘zgartirish va tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rsatadi. “Xamsa” asarlarida estetik g‘oya bilan bir qatorda axloqiy va ma’naviy qadriyatlar ham markaziy o‘rinni egallaydi [1-43].

Hayrat ul-abrorda go‘zallik va axloq “Hayrat ul-abror” dostoni axloqiy-falsafiy g‘oyalarga boy bo‘lib, unda go‘zallik insonning adolatli, halol va ezgu amallari bilan belgilanadi. Navoiy jamiyatdagi illatlarni tanqid qiladi va ma’naviy poklikni eng oliy go‘zallik sifatida ifodalaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, axloqiy go‘zallik individual va ijtimoiy muhitda barqarorlik va uyg‘unlikni ta’minlaydi (Rustamov, 1979). Doston shuningdek, san’atning tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi: badiiy obrazlar nafaqat zavq berish, balki insonni tarbiyalashga xizmat

qiladi. Bu asar orqali Navoiy inson ruhiyatini, axloqiy pokligini va estetik didini uyg'unlashtiradi.

“Farhod va Shirin” asarida san’at va go‘zallik mehnat, sadoqat va fidoyilik bilan uyg'un holda ifodalanadi. Farhod obrazi orqali Navoiy komil inson timsolini yaratadi. Uning mehnatsevarligi, muhabbat yo‘lida chekkan zahmatlari estetik go‘zallik va insoniy fazilatlarning uyg'unligini namoyon qiladi. Rustamov (1979) fikricha, Farhod obrazi Navoiy badiiy mahoratining eng yuksak namunasi hisoblanadi. Shu doston orqali Navoiy o‘quvchiga ish, fidoyilik va sadoqat orqali go‘zallikka erishish mumkinligini ko‘rsatadi, san’at va mehnatning inson ruhiyatidagi o‘rni ochib beriladi.

“Layli va Majnun” dostonida ishq falsafasi markaziy o‘rinni egallaydi. Majnun ishq orqali moddiy dunyo chegaralaridan chiqib, ilohiy muhabbat darajasiga yetadi. Shu orqali Navoiy go‘zallikni insonni Haqqa yaqinlashtiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Komilov (1996) ta’kidlaganidek, Majnun obrazi tasavvufiy ishqning badiiy ifodasidir va estetik tafakkurda yuqori ahamiyatga ega. Doston go‘zallikni nafaqat vizual shakl, balki inson ruhiyati va ishqiy sadoqat bilan bog‘liqligini namoyon qiladi.

“Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida aql, ilm va san’at uyg'unligi asosiy g‘oya sifatida ilgari suriladi. Iskandar obrazi orqali Navoiy donishmandlikni go‘zallikning eng oliy shakli sifatida ko‘rsatadi. Bu asarlar yosh avlodni nafaqat ilm-fan, balki estetik va axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydi (Komilov, 1996). Shu dostonlar orqali Navoiy san’at va ilmning inson ruhiyati va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ta’kidlaydi [1-183].

Bugungi kunda “Xamsa” asarlaridagi san’at va go‘zallik falsafasi nafaqat adabiy tahlil, balki ta’lim va tarbiyadagi metod sifatida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, maktab va oliy ta’limda dostonlarni o‘rganish orqali yoshlar axloqiy va ma’naviy kamolotni qadrlash, estetik tafakkurini rivojlantirish va insoniy fazilatlarni o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ishq, aql va ilm kabi konseptlar orqali estetik va axloqiy tarbiya uyg'unlashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy “Xamsa” asarlarida san’at va go‘zallik falsafasi chuqur va ko‘p qirrali tarzda yoritilgan. Go‘zallik nafaqat tashqi husn yoki badiiy zavq manbai sifatida, balki insonning axloqiy pokligi, ma’naviy kamoloti, sadoqat, ilm va ishq orqali shakllanadi. Har bir doston o‘ziga xos estetik va falsafiy g‘oyani ilgari suradi: “Hayrat ul-abror” axloqiy poklik va adolat orqali go‘zallikni namoyon qilsa, “Farhod va Shirin” sadoqat va mehnat orqali inson ruhiyatidagi go‘zallikni yoritadi. “Layli va Majnun” ishq orqali ilohiy go‘zallikni talqin qiladi, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” esa aql va ilmning go‘zallikdagi o‘rni va jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini ko‘rsatadi [2/2-84].

Shu asosda, Navoiy san’atning faqat badiiy qiymatini emas, balki tarbiyaviy, ma’naviy va estetik ahamiyatini ham ochib beradi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, “Xamsa” asarlarini o‘rganish yosh avlodni estetik tafakkur, axloqiy fazilatlar va ma’naviy barkamollikka yo‘naltirishda samarali vosita hisoblanadi. Bugungi kunda bu asarlar ta’lim, madaniyat va san’atshunoslik sohalarida keng qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, Navoiy falsafiy qarashlari zamonaviy insonning axloqiy va estetik qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy Xamsa. Xamsaning 525 yilligiga bag‘ishlanadi, T: Yangi asr avlodi 2010- 348b
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami 20- jildlik. Toshkent: “Fan”, 1987-2003.
3. Komilov, N. Tasavvuf. -Toshkent: “Movarounnahr” 2009.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 9-jild: Layli va Majnun. – T: 1992.

---

**ALISHER NAVOIY – SHARQ RENESSANSINING BUYUK SIYMOSI**

*Axmadova Iroda Baxtiyorovna*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya*

*akademiyasi “San’atshunoslik” yo‘nalishi*

*1-bosqich talabasi*

**Ilmiy rahbar: Hulkar Hamroyeva**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy merosining san’at, madaniyat va ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi. So‘z mulkining sultoni ijodidagi adabiyot, musiqa, san’at va falsafaning uyg‘unligi hamda komil inson g‘oyasining ifodalanishi yoritiladi. Shuningdek, Navoiy qarashlarining bugungi Uchinchi Renessans g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi. Qolaversa, maqolada Navoiy merosini san’atshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishning dolzarbligi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Uchinchi Renessans, san’at, madaniyat, ma’naviyat.

**Аннотация:** В статье анализируется роль литературного и философского наследия великого поэта и мыслителя Алишера Навои в развитии искусства, культуры и духовности. Раскрывается гармония литературы, музыки и искусства в творчестве Навои, а также его идеи о совершенном человеке. Особое внимание уделяется взаимосвязи наследия Алишера Навои с идеями Третьего Ренессанса и их значению в современном культурном развитии. Рассматривается актуальность изучения наследия Навои с точки зрения искусствоведения.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Третий Ренессанс, искусство, культура, духовность.

**Annotation:** This article analyzes the role of the great poet and thinker Alisher Navoi’s heritage in the development of art, culture, and spirituality. It highlights the harmony of literature, music, and art in Navoi’s works, as well as his ideas of the perfect human being. Special attention is given to the connection between Navoi’s legacy and the ideas of the Third Renaissance, emphasizing their relevance to

contemporary cultural progress. The importance of studying Navoi's heritage from an art studies perspective is substantiated.

**Key words:** Alisher Navoi, Third Renaissance, art, culture, spirituality.

Alisher Navoiy... Bu ismni eshitganda ko'z oldimizda nafaqat ulug' shoir, balki butun bir ma'naviy ummon gavdalanadi. Diyorimizda Navoiy asarlaridan bahra olmagan, uning sehrli misralaridan zavqlanmagan qalb bo'lmasa kerak. Ammo bir qarashda bizga tanish tuyulgan bu meros hali o'zining ko'plab sir-asrorlarini bag'rida saqlab kelmoqda.

Qayd etish kerakki, Sharq Uyg'onish davrining yuksak namoyandalaridan biri sifatida Hazrat Navoiy bobomiz o'zining serqirra ijodi orqali turkiy xalqlarning ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib, turkiy tilning shakllanishi va rivojida muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, uning "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" kabi nodir asarlari nafaqat badiiy-estetik, balki falsafiy, axloqiy va san'atshunoslik jihatdan ham chuqur ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Taniqli navoiyshunos olim, professor I.Haqqulov to'g'ri ta'kidlaganidek," "Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta'limotdan ko'zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas'ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko'zlagan mutafakkir san'atkorning yondashuv va maqsadi edi"[5;109].

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi – Uchinchi Renessans g'oyasi asosida ma'naviyat, ilm-fan, san'at va madaniyatni yuksaltirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Ushbu jarayonlarda Alisher Navoiy merosini chuqur o'rganish, uni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish va yosh avlod ongiga singdirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680 Qarori sharqshunoslik sohasida yangi davrni boshlab berdi, deyish mumkin. Bu hujjat shunchaki rasmiy qog'oz emas, balki Navoiy asarlarini zamonaviy ilm-fan – korpus lingvistikasi tarozisiga solib o'rganish uchun berilgan yuksak imkoniyat bo'ldi. Bu degani, endi

biz Navoiyni faqat his etib emas, balki aniq raqamlar va texnologiyalar yordamida tahlil qila boshladik.

Shubhasiz, Navoiy asarlarida ilgari surilgan komil inson g'oyasi, adolat, ezgulik, go'zallik va ma'naviy kamolot masalalari bugungi Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlovchi g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Bilamizki, Navoiy ijodi Sharq ma'naviy tafakkurining yuksak cho'qqisi bo'lib, unda adabiyot, san'at, axloq va falsafa yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi. Hazratning asarlari inson qalbi, uning ichki dunyosi, ruhiy kamoloti va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini chuqur falsafiy asosda talqin etishi bilan ajralib turadi. Shoir ijodida go'zallik tushunchasi nafaqat estetik hodisa, balki insonni komillikka yetaklovchi ma'naviy kuch sifatida gavdalanadi.

Navoiyshunoslar fikricha, Navoiy nazarida san'at insonni ezgulikka chorlaydigan, qalbni poklaydigan va tafakkurni yuksaltiradigan muhim tarbiyaviy vositadir. Xususan, "Mahbub ul-qulub" asarida axloqiy-me'yoriy qarashlar bilan bir qatorda, ijod ahlining jamiyat oldidagi mas'uliyati masalasi ham ilgari suriladi. Bu esa Navoiy merosining pedagogik va san'atshunoslik jihatdan ham nihoyatda muhimligini ko'rsatadi [4;17].

Tarixdan ma'lumki, Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot, musiqa va tasviriy san'atning rivoj topishi Navoiy dunyoqarashining kengayishiga katta ta'sir ko'rsatgan. U san'atning turli sohalarini bir-biridan ajratmagan holda, ularning o'zaro uyg'un rivojini qo'llab-quvvatlagan. Navoiy faoliyati natijasida Hirot madaniy markazga aylangan, ijodkorlar va san'at ahliga keng imkoniyatlar yaratilgan. Umuman olganda, Navoiy merosining bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab kelayotgani uning asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalar bilan izohlanadi.

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodida san'at tushunchasi keng va ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, u adabiyot bilan bir qatorda musiqa, ashula, maqom va sahna san'ati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shoir she'riyati o'zining musiqiyliги, ohangdorligi va ritmik tuzilishi bilan ajralib turadi. Bu jihatlar

Navoiy g'azallarining asrlar davomida mumtoz musiqa ijrochilari tomonidan qo'llanilishiga zamin yaratgan.

Navoiy g'azallarida vazn, qofiya va badiiy tasvir vositalarining mukammal uyg'unligi musiqiy ifodaning tabiiy ravishda yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Aruz vaznining nozik imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan shoir so'z va ohang o'rtasida ichki mutanosiblikni ta'minlagan. U musiqa va kuylarni inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi, qalbni poklovchi san'at turi sifatida baholaydi. Ayrim doston va lirik asarlarida musiqiy obrazlar, kuy va navolar badiiy ramz darajasiga ko'tarilib, ma'naviy kamolot yo'lining timsoli sifatida talqin etiladi. Bu holat Navoiy ijodida san'atning estetik va falsafiy ahamiyatini yanada boyitadi [1;74].

Navoiy merosining sahna san'ati bilan bog'liqligi ham alohida ahamiyatga ega. Uning asarlari asosida yaratilgan musiqiy-dramatik kompozitsiyalar, sahna asarlari va raqs talqinlari badiiy merosning zamonaviy san'at bilan uzviy bog'lanishiga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda, Alisher Navoiy ijodini san'atshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish nafaqat tarixiy merosni anglash, balki bugungi san'at ta'limi va ijodiy jarayonlar uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hazratning asarlarida ilmga e'tibor, tafakkur erkinligi, ma'naviy kamolot va adolatli jamiyat qurish g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. Bu qarashlar bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash jarayonida muhim hisoblanadi. Uchinchi Renessansning asosiy maqsadi ham aynan intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir.

Shuningdek, Alisher Navoiy til masalasiga alohida e'tibor qaratib, turkiy tilning ilmiy va badiiy imkoniyatlarini amalda isbotlab bergan. Bu holat bugungi globallashuv sharoitida milliy til va madaniyatni asrash, uni zamonaviy ilm-fan va san'at tili darajasiga ko'tarish masalasida muhim ibrat bo'lib xizmat qiladi. Zero, Uchinchi Renessans jarayonida ona tilining nufuzini oshirish masalasi Navoiy merosi bilan mushtarak holda talqin etilishi bejiz emas.

Navoiy faoliyatida ilm, san'at va davlat boshqaruvi o'rtasidagi uyg'unlik ham yaqqol ko'zga tashlanadi. U nafaqat ijodkor, balki amaliy faoliyat orqali ham madaniyat va ilm rivojiga xizmat qilgan davlat arbobi sifatida tarixda qolgan. Bu jihat bugungi kunda ilm-fan va madaniyatni qo'llab-quvvatlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirish g'oyasi bilan hamohangdir.

Tahliliy xulosalarga ko'ra, Alisher Navoiy merosi o'zining chuqur falsafiy mazmuni, yuksak badiiy-estetik qiymati hamda san'at va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan bugungi Uchinchi Renessans jarayonlarida muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Uning ijodida ilgari surilgan komil inson g'oyasi, ilmga intilish, go'zallik va ezgulikni ulug'lash tamoyillari zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, shoir g'azallarining mumtoz musiqa, maqom va sahna san'ati bilan chambarchas bog'lanib kelayotgani Navoiy merosining zamonlar osha yashovchanligini yaqqol namoyon etmoqda. Qolaversa, uning til, ta'lim-tarbiya va madaniyat borasidagi qarashlari bugungi kunda milliy o'zlikni mustahkamlash, yosh avlodni ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda muhim hisoblanadi. Demak, Alisher Navoiy merosini zamonaviy ilmiy va san'atshunoslik yondashuvlar asosida tadqiq etish, uni ta'lim va madaniyat sohalarida faol qo'llash Uchinchi Renessans sari intilayotgan Yangi O'zbekiston uchun muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
3. Vohidov E. O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa. (Xurshid Davron kutubxonasi sayti)
4. Rustamov A. Alisher Navoiy va san'at masalalari. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Haqqulov I. Navoiyshunoslik masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2014.

6. Yoʻldoshev B. Mumtoz musiqa va adabiy meros uygʻunligi. – Toshkent: Sanʼat, 2019.

7. Brown E.G. A Literary History of Persia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

8. Subtelny M. Timurid Iran: Culture and Intellectual Life. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007.

9. Denis Deli. Twenty-One Ghazals Alisher Navoiy

## NAVOIY GʻAZALLARINING SAHNA TALQINI: RAQS ORQALI BADIY IFODA

*Farangiz Xamraboyeva*

*Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi  
“Sanʼatshunoslik” taʼlim yoʻnalishi 1-bosqich  
talabasi*

*Ilmiy rahbar: Nodira Alimdjanova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy gʻazallarining badiiy-estetik mohiyati hamda ularni sahna sanʼati, xususan raqs vositasida talqin qilish masalalari keng yoritiladi. Mumtoz sheʼriyatdagi obrazlar tizimi, ramziy ifodalar va ruhiy kechinmalar plastika, mimika hamda sahna harakati orqali ochib berish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Navoiy merosining zamonaviy sahna sanʼati taraqqiyotidagi oʻrni va maʼnaviy-estetik ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit soʻzlar:** Alisher Navoiy, gʻazal, sahna talqini, raqs sanʼati, plastika, badiiy obraz, estetika, Uchinchi Renessans.

**Аннотация:** В данной статье широко освещается художественно-эстетическая сущность газелей Алишера Навои и вопросы их интерпретации посредством сценического искусства, в частности, танца. Система образов в классической поэзии, символические выражения и возможности раскрытия духовных переживаний через пластику, мимику и сценическое движение анализируются. Также обосновывается роль и духовно-эстетическое значение наследия Навои в развитии современного сценического искусства.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, газель, сценическая интерпретация, искусство танца, пластика, художественный образ, эстетика, Третий Ренессанс.

**Annotation:** This article extensively covers the artistic and aesthetic essence of Alisher Navoiy's ghazals and their interpretation through theatrical art, particularly dance. The system of images in classical poetry, symbolic expressions, and possibilities for revealing spiritual experiences through plasticity, facial expressions, and stage movement are analyzed. The role and spiritual-aesthetic significance of Navoiy's legacy in the development of contemporary stage art are also substantiated.

**Keywords:** Alisher Navoi, ghazal, stage interpretation, dance art, plasticity, artistic image, aesthetics, Third Renaissance.

Bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida har bir xalq o'zining milliy o'zligini, tarixiy xotirasini va boy ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda zamonaviy talqinda rivojlantirish zarurati bilan yuzma-yuz turibdi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasi ham ilm-fan, madaniyat va san'atni tarixiy ildizlar bilan uzviy bog'lagan holda yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi. Bu jarayonda mumtoz adabiyot namoyandalarining merosi milliy tafakkur va estetik qarashlarning muhim manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy ijodi ana shunday beqiyos ma'naviy xazinadir. U o'z asarlarida inson ruhiyati, ishq falsafasi, go'zallik va komillik haqidagi qarashlarni yuksak badiiy darajada ifoda etgan. Ayniqsa, Navoiy g'azallari chuqur lirizm, ramziy obrazlar tizimi va nafis tuyg'ular tasviri bilan ajralib turadi. Shoir tasvirlagan hissiy kechinmalar o'quvchi qalbiga bevosita ta'sir etadi, chunki ular umuminsoniy tuyg'ular - muhabbat, hijron, umid, sadoqat va sabr kabi ruhiy holatlarni o'zida mujassam etadi.

Zamonaviy sahna san'ati, xususan raqs san'ati, insonning ichki dunyosini so'zsiz ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgan badiiy vositadir. Raqs plastikasida har

bir harakat, har bir chiziq va har bir pauza ma'no tashiydi. Shu bois mumtoz she'riyat, ayniqsa Navoiy g'azallari, sahna talqini uchun nihoyatda qulay va serqirra manba hisoblanadi. She'riy matndagi obrazlar tizimi raqs harakatlari orqali vizual shaklga kiradi, ichki kechinmalar esa plastik ifoda vositasida tomoshabinga yetkaziladi [1-29].

Adabiy asarni sahna san'atiga ko'chirish oddiy moslashtirish emas, balki murakkab ijodiy talqin jarayonidir. Bu jarayonda matndagi ma'no qatlamlari, ruhiy kayfiyat va falsafiy mazmun sahna harakati, musiqa va plastik yechimlar orqali qayta yaratiladi. Navoiy g'azallarini raqs vositasida talqin qilish esa nafaqat estetik tajriba, balki ma'naviy merosni zamonaviy san'at tilida anglash va targ'ib etishning samarali yo'li sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy g'azallarida ishq markaziy mavzu bo'lib, u ko'pincha ilohiy va ruhiy kamolot sari yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shoir ijodida ishq insonni poklaydi, sabrga chorlaydi va ma'naviy yuksalishga undaydi. Shu bois g'azallarda hijron va visol bir-birini to'ldiruvchi falsafiy tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiy she'riyatida keng qo'llaniladigan ramziy obrazlar - gul, bulbul, yor, tong, sham, nur - barchasi chuqur ma'no qatlamlariga ega. Masalan, gul go'zallik va ilohiy jamol timsoli bo'lsa, bulbul oshiq qalbining iztirobini ifodalaydi. Hijron kechasi insonning ruhiy iztiroblarini bildirsa, tong esa umid va najot ramzidir. Ushbu obrazlar harakat va plastika orqali sahnada jonli timsollarga aylanishi mumkin [3-39]

She'riy matnни sahnaga olib chiqish - bu talqin jarayonidir. Raqs san'atida so'z o'rnini harakat egallaydi. G'azaldagi ruhiy kechinma raqqosaning gavda plastikasida, qo'l chizgilarida, bosh va nigoh harakatida namoyon bo'ladi.

Masalan, hijronni ifodalashda sekin temp, past markazli harakatlar, egilgan plastika qo'llaniladi. Visol esa keng fazoviy harakatlar, yengil aylanishlar orqali aks ettiriladi. Shu tariqa sahna asari she'ning mazmunini ko'chirib bermaydi, balki uni yangi badiiy shaklda qayta yaratadi.

Raqs plastikasida har bir harakat ma'no yuklaydi. Qo'l harakatlari iltijo, sog'inch yoki quvonchni bildirishi mumkin. Gavdaning egilishi iztirob yoki kamtarlikni ifodalasa, tik va keng harakatlar ruhiy yuksalishni anglatadi.

Navoiy g'azallaridagi lirizm keskin dramatik harakatlardan ko'ra yumshoq va oqimli plastika orqali ochiladi. Bu esa ichki ruhiy kechinmalarni chuqurroq yetkazishga xizmat qiladi.

Musiqqa sahna talqinining hissiy asosini yaratadi. Mumtoz maqom yo'llari yoki lirik kuylar Navoiy g'azallaridagi ruhiy holatlarni kuchaytiradi. Musiqqa va harakat uyg'unligi natijasida tomoshabin asarni nafaqat ko'radi, balki his etadi.

Navoiy g'azallari asosida yaratilgan sahna asarlari milliy san'atning ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi. Bunday talqinlar yosh avlodni mumtoz merosga yaqinlashtiradi va san'atning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Bu jarayon Uchinchi Renessans g'oyalariga hamohang ravishda milliy san'atning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.[4-19]

Alisher Navoiy g'azallari chuqur ma'no va nafis tuyg'ular manbai bo'lib, ularni raqs san'ati orqali sahnada talqin qilish mumtoz adabiyot va zamonaviy sahna san'ati o'rtasida mustahkam ijodiy ko'priklar yaratadi. Raqs bu jarayonda she'r ruhini jonlantiruvchi badiiy vositaga aylanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
3. Komilov, N. Tasavvuf.-Toshkent: "Movarounnahr" 2009.
4. Alisher Navoiy,. Xamsa. Xamsaning 525 yilligiga bag'ishlanadi,T: Yangi asr avlodi 2010- 348 b.

---

**ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ILM, AQL VA TAFAKKUR  
MASALALARINING YORITILISHI VA ULARNING ZAMONAVIY  
UCHINCHI RENESSANS KONSEPSIYASI BILAN UYG‘UNLIGI**

*Muhammadaliyeva Muhlisa Murod qizi*  
*Angren Universiteti Iqtisodiyot va huquq fakulteti*  
*“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” yo‘nalishi 2-  
bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy ijodida ilm-fan va tafakkur uyg‘onishi g‘oyalarining falsafiy-ijtimoiy mohiyati tahlil etilgan. Navoiyning badiiy, ilmiy va ijtimoiy qarashlarida ilm, aql va tafakkurning inson kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yoritib berilgan. Xususan, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Mezon ul-avzon” kabi asarlar misolida mutafakkirning ilmga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlari ochib berilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy merosidagi ilm-fan va tafakkur g‘oyalarining bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritilgan. Maqola natijalari Navoiyning ilmiy-ma’naviy merosi zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda ilmiy tafakkurni shakllantirishda muhim nazariy manba ekanini ko‘rsatadi.

**Аннотация:** В данной статье представлен философско-социальный анализ идей возрождения науки и мысли в творчестве Алишера Навои. Научные, научно-социальные взгляды Навои показывают роль науки, разума и мысли в совершенствовании человека и развитии общества. Взгляды мыслителя на науку в свободном обществе раскрываются на примере таких работ, как «Хамса», «Махбуб уль-кулуб», «Лисон ут-тайр», «Маджолис ун-нафуа», «Мухокамат уль-лугатайн» и «Мезон уль-авзон». Научно освещена неразрывная связь идей науки и мысли в наследии Алишера Навои с идеей Третьего Возрождения, которая впервые продвигается сегодня в Новом Узбекистане. Источник статьи: Научно-духовное наследие Навои

рассматривается как важный источник повышения современного уровня образования молодежи и развития ее интеллектуального потенциала.

**Abstract:** This article provides a philosophical and social analysis of the ideas of the revival of science and thought in the work of Alisher Navoi. Navoi's scientific, scientific and social views highlight the role of science, reason and thought in human perfection and the development of society. On the example of such works as "Khamasa", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn" and "Mezon ul-avzon", the thinker's views on science in a free society are revealed. , The inextricable connection of the ideas of science and thought in the legacy of Alisher Navoi with the idea of the Third Renaissance, which is being promoted early in New Uzbekistan today, is scientifically highlighted. Article source Navoi's scientific and spiritual heritage is seen as an important source of improving the level of modern education and enhancing the intellectual potential of young people.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, ilm-fan, tafakkur uyg'onishi, Sharq Renessansi, Uchinchi Renessans, ma'naviyat, turkiy til, ilmiy tafakkur.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, наука, интеллектуальное пробуждение, Восточное Возрождение, Третье Возрождение, духовность, тюркский язык, научная мысль.

**Keywords:** Alisher Navoi, science, intellectual awakening, Eastern Renaissance, Third Renaissance, spirituality, Turkic language, scientific thought.

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sifatida ilm-fan, intellektual salohiyat va tafakkur madaniyatini yuksaltirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonda ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g'oyasi ham aynan ilm-fan, ma'naviyat va zamonaviy tafakkur uyg'unligiga asoslanadi. Mazkur jarayonda milliy tarixiy merosni chuqur o'rganish, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-falsafiy qarashlarni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg'un holda tahlil etish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Sharq uygʻonish davrining yirik namoyandasi boʻlgan Alisher Navoiy ijodi ana shunday bebaho maʼnaviy-ilmiy meros sirasiga kiradi. U oʻz asarlarida ilm-fan, aql-zakovat, tafakkur erkinligi va maʼnaviy kamolot masalalarini chuqur falsafiy asosda yoritib, ilmni jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etadi. Navoiy nafaqat adabiyot, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga ham salmoqli hissa qoʻshgan mutafakkir sifatida eʼtirof etiladi.

Alisher Navoiy asarlarida ilmi inson obrazi, bilim orqali haqiqatga yetishish gʻoyasi hamda tafakkur uygʻonishi masalalari markaziy oʻrin tutadi. Jumladan, “Xamsa” dostonlari, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” kabi asarlarda ilm va aql insonni maʼnaviy yetuklik sari yetaklovchi asosiy vosita sifatida talqin qilinadi. Bu qarashlar Sharq Renessansi davridagi ilmiy va falsafiy tafakkurning yuksak darajasini aks ettiradi hamda Navoiy ijodini umumjahon sivilizatsiyasi rivoji nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Bugungi kunda Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash jarayonida Alisher Navoiy merosidagi ilm-fan va tafakkur uygʻonishi gʻoyalarini oʻrganish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, mutafakkirning ilmga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlari zamonaviy taʼlim tizimini rivojlantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ilmiy tafakkurni shakllantirishda muhim nazariy manba boʻlib xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy maqolada Alisher Navoiy ijodida ilm-fan va tafakkur uygʻonishi gʻoyalarining falsafiy-ijtimoiy mohiyati tahlil qilinadi hamda ularning bugungi Uchinchi Renessans gʻoyasi bilan uzviy bogʻliqligi ilmiy asosda yoritib beriladi. Shuningdek, Navoiy merosining zamonaviy ilmiy tafakkur va intellektual taraqqiyot jarayonidagi oʻrni aniqlashga harakat qilinadi.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning oʻgli Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotda tugʻildi. Zamondoshlari uning haqida koʻpincha “Nizomiddin Mir Alisher” deb yozadilar. Nizomiddin - din-diyonat nizomi degani boʻlib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, “mir” amir demakdir. Uning otasi Gʻiyosiddin Muhammad (uni Gʻiyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar

saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh (ko'kaldosh) bo'lgan.

Buyuk shoir o'z asarlarida bu qutlug' dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu shaxs to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni esa uning zamondoshlari o'z kitoblarida tilga oladilar.

Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sgan. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishqiqi tushgan. Olim-u fozillar davrasida bo'lgan. Uch-to'rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anorning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soladi. Bir yildan so'ng uni maktabga beradilar. U bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qiydi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqaladi.

1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Hirot notinch bo'lib qoladi. Alisherning oilasi Iroqqa yo'l oladi. Yo'lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, "Zafarnoma" ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Alisher xonadoni 1451-yilda Hirotga qaytadi. Tarixchi Xondamir bu bilan bog'liq shunday bir hikoyani keltiradi:

Karvon Yazd cho'li bilan Hirotga borarkan, tungi yurishlardan birida ot-ulov ustida hammani uyqu bosadi. Alisher mingan ot, ittifoqo, yo'ldan chiqib, bo'lajak shoir egardan tushib qoladi, uyqu zo'rlik qilib, uyg'onmaydi. Horigan ot ham egasi yonidan ketmay, to'xtab qoladi. Alisher tong otib, quyosh qiziganda uyg'onadi. Qarasa, poyonsiz sahro, atrofida hech kim yo'q. Yolg'iz otigina yovshan ildizlarini chimtib turibdi. O'n yoshli bola o'zini qo'lga oladi. Otini minib, zehn bilan yo'lni topib ilgari yuradi. Kun qizib, chanqoqlik boshlanadi. Shu payt uzoqdan bir narsa qorayib ko'rinadi. U suv to'la mesh ekan, Allohga shukronalar aytib, Alisher yo'lini davom ettiradi. Uning ota-onasi manzilga yetgach, o'g'illarining yo'qligini biladilar va mulozimni shoshilinch orqaga qaytaradilar. Mulozim ko'p yurmay, Alisherga duch keladi. Alisherni, go'yo u qayta tug'ilganday, quvonch bilan kutib oladilar.

1452-yilda Abulqosim Bobur Xuroson taxtiga o‘tiradi, notinchliklar bosiladi. G‘iyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher esa o‘qishini davom ettiradi. Maktab yosh Alisherni she‘riyat, adabiyot olamiga olib kirgan. Bo‘lajak shoir Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarini, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush mantig‘i”) asarini so‘ngsiz ishtiyoq bilan o‘qiydi. Ayniqsa, qushlar tilidan keltirilgan hikoyatlar va ularning chuqur mazmuni Alisherning o‘y-xayolini tamom egallab oldi:

Bir kuni qushlar jam bo‘libdi. Har xil: to‘ti, qumri, tovuş, bulbul va hokazo. O‘rtaga hudhud (sassiqqopishak) chiqibdi. Boshidagi tojini selkillatib, o‘zini ta‘rif-u tavsif etibdi. So‘ng u hammani olam podshosi Semurg‘ni izlashga undabdi. Qushlar uni surishtira boshlabdilar. “Zotini, naslini, sifatini ayt, bizga nishon ber!” - deyishibdi ular. Hudhud hikoya boshlabdi: Semurg‘ bir kecha dunyoni aylanib, uchib yurar edi. Nogoh yo‘li Chin shahri ustidan tushdi. Bir silkingan edi, mamlakat nurga g‘arq bo‘ldi. Patidan biri tushib qolgan ekan. Ogoh bo‘lganlar bundan aql-u shuurini yo‘qotdilar. Chin mulki esa hashamat (ulug‘vorlikka) chulg‘andi.

Qushlar zavq-u shavq bilan yo‘lga tushadilar. Biroq bu zavq-shavq uzoq davom etmaydi. Qushlar e‘tiroz bildirib, uzr aytib, o‘zlarini chetga ola boshlaydi. Hudhud har biriga javob aytadi. Semurg‘ga yetishish baxti oldida bu dunyoning tashvishlari hechligini isbot etuvchi biror hikoya keltiradi. Hudhudning gaplari, hikoyalari qushlarga yangi bir kuch bag‘ishlaydi. Ular hudhudni boshliq qilib, yo‘lga tushadilar. Hudhud bu yo‘lning ishq yo‘li ekanligi, unga kirgan odam Shayx San‘on singari o‘zligidan kechishi lozimligini aytadi. Yana bir-biridan jozibali hikoyalar: Nihoyat, qushlar yetti vodiyni bosib o‘tadilar va o‘zlarining Semurg‘ ekanligini anglab yetadilar.

“Mantiq ut-tayr” hayoli Alisherga bir umr hamroh bo‘ldi. Umrining so‘ngida esa “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) nomi bilan kitob yozdi. Bo‘lajak shoir yana Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy asarlarini ham sevib o‘qigan. 1453-yilda Alisherning otasi G‘iyosiddin Muhammad vafot etadi. Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kiradi. Avval Sabzavorda, so‘ng Mashhadda yashaydi. Ikki maktabdosh do‘st -

Husayn va Alisher yana birga bo‘ladilar. Bir munosabat bilan u 50 ming bayt, 100 ming misra she‘r yod olganini aytadi. She‘r shunchaki nutq o‘stirish emas, ma‘rifat, taffakur mashqi ham edi. Navoiy 15 yoshlarida o‘z she‘rlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortgan. Xondamirning yozishicha, she‘rlari bilan endigina tanilib kela boshlagan Alisher o‘z davrining dongdor shoiri Mavlono Lutfiy xizmatiga boradi. Mavlono undan she‘r o‘qishni iltimos qiladi. Alisher o‘zining:

Orazin yopg‘och, ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh.

matla‘i bilan boshlanadigan g‘azalini o‘qiydi. She‘rdan hayratga tushgan keksa shoir bunday deydi: “Valloh, agar muyassar bo‘lsa edi, o‘zumning forsiy va turkiy tillarda aytgan o‘n-o‘n ikki ming baytimni shu g‘azalga almashtirardim va buni o‘zimning katta yutug‘im deb hisoblar edim”. Bu turkiy (o‘zbek) she‘riyatiga juda katta iste‘dod kirib kelayotganidan nishona edi.

Alisher Navoiy 1469–1472-yillarda muhrdor, 1472–1476-yillarda vazir bo‘lib ishlaydi. 1487–1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro uni o‘ziga g‘oyat yaqin tutar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va buni nihoyatda qadrlar edi. To‘g‘ri, Bayqaro va Navoiy o‘rtasiga uchinchi kishi aralashgan, sovuqchilik tushgan paytlar ham bo‘ldi, lekin o‘z davrining ikki atoqli arbobi hamkorligi juda ko‘p sinovlardan muvaffaqiyat bilan o‘tib, avlodlarga o‘rnak bo‘ldi. Husayn Bayqaro saltanatining daslabki yillarida juda notinch kechdi. Xondamirning yozishicha, u taxtga chiqqan yilning o‘zida Abusaid Mirzoning o‘g‘li Yodgor Muhammad taxt da‘vosi bilan qo‘zg‘aldi. Husayn Bayqaro unga qarshi qo‘shin tortadi va g‘alaba qozonadi.

1470-yilning bahorida Yodgor Mirzo Astrobodda yana bosh ko‘taradi. Husayn Bayqaro Navoiyni yoniga olib, qo‘shin bilan yana yo‘lga tushadi. Xuddi shu payt Hirotda qo‘zg‘olon bo‘lganligi xabari keladi. Husayn Bayqaro Navoiyni unga katta vakolatlar berib poytaxtga qaytaradi. Navoiy shaharda adolatni tiklab, xalqni

tinchlantiradi. Shunday to‘qnashuvlarning birida Yodgor Mirzoning qo‘li baland kelib, poytaxtdagi ayrim kishilar unga qo‘shiladilar. Mojarolarni tinchlantirish maqsadida uylangani Abusaidning qizi Robiya Sultonbegim eriga hiyonat qilib, u safariga ketganida poytaxtda inisi Yodgor Mirzo nomiga xutba o‘qitadi. Yurt bir muddat Yodgor Mirzo qo‘liga o‘tadi. Bu hol Husayn Bayqaroga qattiq ta’sir etadi va u tushkunlikka tushadi. Navoiy shunday paytda uning yonida turadi, tassali beradi. O‘sha 1470-yilning o‘zida payt poylab, Navoiyning maslahati bilan Murg‘ob daryosi bo‘ylaridan juda qisqa muddatda Hirotga yetib keladi va Bog‘i Zog‘onda maishatdan charchab uxlab yotgan Yodgor Mirzoni qo‘lga oladi. Shundan keyingina Xurosonda ma’lum muddat tinchlik, osoyishtalik qaror topadi. Alisher ijod kishisi edi. U tabiatan buyruqvozlikdan va hukmfarmonlikdan yiroq, tafakkur hamda taxayyulga moyil, g‘oyat nozikta’b bir kishi edi. Mansablavozimlar har qancha yuksak bo‘lmasin uning uchun zil-zambil yuk bo‘lib, Husayn Boyqaroga bo‘lgan ixlos va muhabbatigina uni iste’fo berishdan saqlab turar edi. Shunga qaramasdan, u sadoqat bilan xizmat qildi. Donishmadnligi, tadbirkorligi bilan ko‘plab g‘alayonu qon to‘kishlarning oldini oldi, urushlarni yarashishga aylantirdi.

Uning bu fazilati, ayniqsa, 1472–1476-yillardagi vazirlik faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ldi. Husayn Bayqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ish ko‘rdi. Uni, qarshiligiga qaramasdan, yuqori martabalarga tayinladi, 1472-yilda esa “amir” (vazir)likka qo‘ydi. Buyuk shoir “amiri Kabir” (ulug‘ amir), “amirul muqarrab” (podshoga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo‘ldi. Uning vazirlik yillari Hirotida obodonlik avj olgan, madaniyat gullab, yashnagan davr bo‘ldi. Ulug‘ amir o‘zi bosh bo‘lib, suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozallatirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta’mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Ko‘plab madrasalar, xonahoqlar soldirdi.

“Majolisun-nafois” (1490–1491; 1497–1498) tazkisasi turk tilidagi yozilgan dastlabki tazkira bo‘lib, unda shoir sakkiz majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma’lumot bergan. Birinchi va ikkinchi majlisda tazkira tartib berilganda hayot

bo‘lmagan shoirlar, uchinchi majlisda shoirning zamondoshlari, to‘rtinchi majlisda beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Movaraunnahr, Kichik Osiyo va Eron, yettinchi va sakkizinchi majlislarda temuriylar sulolasiga mansub ijodkor shoh va shahzodalar haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Asar Fahriy Hirotiy (1521–1522), Muhammad Qazviniy (1522–1523), Shoh Ali Abdulali (1598) tomonidan uch marta fors tiliga tarjima qilingan.

Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn” asarini o‘z zamonidagi turkiy lahjalar, ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususitlari bilan qiyoslashga bag‘ishladi. Jonli xalq tilida qo‘llangan ko‘plab so‘zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo‘llanilishiga sababchi bo‘ldi. O‘zigacha ishlatilgan so‘zlarni yangi ma’no qatlamlarini ochdi. o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning tili grammatikasini Mahmud Koshg‘ariydan so‘ng ilmiy asosga soldi. o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo‘ldi. Fors va turk tillarida yaratilgan eng yirik va e’tiborli asarlarga murojaat qildi, shoir va olimlarni til istiqloli uchun kurashga chorladi.

Aruz nazariyasiga bag‘ishlangan “Mezonul-avzon” (1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkiy tilda aniq va ravon tushuntirdi. Turk yozma va og‘zaki she’riyati namunalarning vazn xususiyatlarini o‘rgandi. Turkiy aruz tabiatini yoritish bilan birga turk she’riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi. Bahrlar va doiralar haqidagi tasavvurni kengaytirdi. To‘qqizta yangi vazn va she’riy shaklni aniqladi. Turklik tarixida ilk bor milliy vazn haqidagi qarashlarni ilgari surdi.

Navoiyning ilmiy-filologik merosini muntazam tadqiq qilish XX asrning 20-yillaridan yo‘lga qo‘yildi. Bu yo‘nalishda Fitrat, Oybek, A.Sa’diy, O.Sharafiddinov, A.Hayitmetov, I.Sulton, H.Qudratullaev kabi adabiyotshunos va A.K.Borovkov, O.Usmonov, A.Rustamov kabi tilshunos olimlarning ishlari e’tiborli.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiy merosi Sharq uyg‘onish davri ilm-fani, tafakkuri va ma’naviy taraqqiyotining

yuksak cho‘qqisini ifodalaydi. U nafaqat buyuk shoir va adib, balki ilm-fan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa va davlat boshqaruvi sohalarida chuqur iz qoldirgan qomusiy mutafakkir sifatida tarixda munosib o‘rin egallaydi. Navoiy asarlarida ilm, aql va tafakkur inson kamolotining asosiy mezoni sifatida talqin qilinib, ilmi va ma‘rifatli jamiyat barpo etish g‘oyasi ilgari suriladi.

Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati uning ilmga, ma‘naviyatga va tafakkurga bo‘lgan yuksak e‘tiborini yaqqol namoyon etadi. Yoshligidan ilm-ma‘rifat muhitida kamol topgani, mumtoz Sharq adabiyoti va falsafasini chuqur o‘rgani, shuningdek, davlat arbobi sifatidagi faoliyati davomida adolat, obodonchilik va ilm ahliga homiylik qilgani uning qarashlari amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon” kabi asarlari ilmiy tafakkur rivojida muhim manba bo‘lib, o‘zbek va umuman turkiy xalqlar ilmiy-adabiy tafakkurining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.

Ayniqsa, Navoiy tomonidan turkiy tilning ilmiy, badiiy va estetik imkoniyatlarini ilmiy asosda isbotlab berilishi milliy tafakkur va madaniy o‘zlikni anglash jarayonida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning ilmiy-filologik merosi bugungi kunda ham zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun mustahkam nazariy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida va Yangi O‘zbekistonda ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi doirasida Alisher Navoiy merosini ilm-fan va tafakkur uyg‘onishi nuqtayi nazaridan o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, mutafakkir ilgari surgan ilmga asoslangan jamiyat, ma‘naviy yetuk shaxs va tafakkur erkinligi haqidagi qarashlar bugungi ta‘lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy merosi Sharq Renessansi va bugungi Uchinchi Renessans o‘rtasidagi mustahkam ma‘naviy-ilmiy ko‘prik bo‘lib, uning ilm-fan va tafakkur haqidagi g‘oyalari hozirgi va kelajak taraqqiyot uchun ham o‘z

ahamiyatini yo‘qotmaydi. Navoiy merosini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib qolaveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Navoiy, A. Xamsa. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011.
2. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: Fan, 2010.
3. Navoiy, A. Lison ut-tayr. - Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2008.
4. Navoiy, A. Majolis un-nafois. - Toshkent: Fan, 2001.
5. Navoiy, A. Muhokamat ul-lug‘atayn. - Toshkent: Fan, 1997.
6. Navoiy, A. Mezon ul-avzon. - Toshkent: Fan, 2003.
7. Fitrat, A. Alisher Navoiy. - Toshkent: O‘zbekiston, 1991.
8. Oybek. Navoiy. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005.
9. Hayitmetov, A. Alisher Navoiy va adabiy tafakkur masalalari. - Toshkent: Fan, 1968.
10. Sharafiddinov, O. Navoiyga qaytish. - Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
11. Qudratullaev, H. Navoiy ijodining falsafiy asoslari. - Toshkent: Fan, 1977.
12. Sulton, I. Alisher Navoiy asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1985.
13. Borovkov, A.K. Alisher Navoiy va turkiy adabiy til masalalari. - Moskva, 1956.
14. Rustamov, A. Navoiy tilining leksik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1983.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

---

**ALISHER NAVOIY ASARI BALET TALQINIDA***Madina Muxamedova*[onaw82@mail.ru](mailto:onaw82@mail.ru)*O'zbekiston davlat xoreografiya**akademiyasi**mustaqil tadqiqotchisi (PhD)*

**Annotatsiya.** Alisher Navoiy bir qator shoh asarlar yaratdi. Uning “Xamsa” asari o‘zining badiiy qiymati, voqea va syujetlarning o‘ziga xosligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, persanajlarning xilma-xilligi va eng asosiysi, ishq-muhabbat mavzusini to‘la-to‘kis, ortiqcha mubolag‘a va qochirimlardan holi qilib yaratilganligi bilan kitibxonni o‘ziga jalb qiladi. Ushbu maqoladi hazrati Navoiyning beshta dostonni o‘z ichiga qamrab olgan asarlar ichida “Layli va Majnun” dostoniga yaratilgan baletga e‘tibor qaratildi va ushbu balet ijrochilari haqida to‘laqonli ma‘lumot berildi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, ijodkor, asar, doston, “Xamsa”, “Layli va Majnun”, balet, xoreograf, san’at, baletmeyster

**Аннотация.** Алишер Навои создал ряд шедевров. Его произведение «Хамса» привлекает читателя своей художественной ценностью, оригинальностью событий и сюжетов, воспитательной значимостью, разнообразием персонажей и, самое главное, полнотой темы любви, свободной от излишних преувеличений и упущений. В данной статье рассматривается балет, созданный по эпической поэме «Лейли и Маджнун», из числа произведений Хазрата Навои, включающего пять эпических поэм, и приводится полная информация об исполнителях этого балета.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, создатель, произведение, эпос, «Хамса», «Лейли и Маджнун», балет, хореограф, искусство, балетмейстер

**Abstract.** Alisher Navoi created a number of masterpieces. His work “Khamasa” attracts readers with its artistic value, the originality of its events and plots, its educational value, the diversity of its characters, and, most importantly, the fullness of its theme of love, free from unnecessary exaggerations and omissions.

This article examines the ballet based on the epic poem “Leyli and Majnun”, one of Hazrat Navoi’s five epic poems, and provides full information about the performers.

**Keywords:** Alisher Navoi, creator, work, epic, “Khamsa”, “Leyli and Majnun”, ballet, choreographer, art, choreographer

“Layli va Majnun” dostoni Xamsaning uchinchi dostoni bo‘lib, g‘oyaviy mavzusi ishq haqidadir. Arab diyoridagi Qaysning tug‘ilishidan boshlanadi – bu asar.

Ishq mashaqqati go‘yo kunduzi yurib sahroni yalangbosh-yalangoyoq kezmoq kabi, kechasi yurib o‘rmonni quolsiz kezmoq kabi mushkul ish, albatta.

Shunga monand, ishqning manzili ham rohat-farog‘at, unga olib borar yo‘l esa, Xamsa har kim ham yarata olmaydigan beshta ijodiy ustundir. Bu ustunni bunyod etgan siymolar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hazratlari edi, xolos. Navoiy bu ijod tizginini qo‘lida tutgan holda, Xamsanavis ustozlari ortidan ko‘r-ko‘rona ergashmadi, aksincha, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ishq mavzusini, beg‘araz-samimiy muhabbatga yo‘g‘rilgan tuyg‘ularni, qahramonlikni tarannum etuvchi shaxslarning nomini qog‘ozga tushurib, go‘yo o‘z Xamsasiga jon baxsh etdi.

“Layli va Majnun” - Alisher Navoiy “Xamsa”sining uchinchi dostoni (1484). U 3623 baytdan iborat bo‘lib, shu mavzudagi dostonlarga xos aruz vaznining “hazaji musaddasi axrabi mak,buzi mahzuf” baxrida yozilgan. Navoiy ushbu dostonni turkiy tilda yaratgan birinchi muallifdir. Alisher Navoiy Layli va Majnun sarguzashtlarining an’anaviy syujet chizig‘ini saqlab qolgan holda voqealarga yangicha ruh va mazmun baxsh etdi hamda dostonga yangi timsollar kiritdi. Alisher Navoiy Layli va Majnun afsonasidan libos sifatida foydalanib, doston mazmuniga o‘z falsafiy qarashlarini sing-dirib yuborishni maqsad qilganini ta’kidlaydi. Doston Sharq mumtoz adabiyotining an’analariga muvofiq ikkita: zohiriy (ochiq) va botiniy (yashirin) ma’nolarga ega. Zohiriy ma’no oddiy o‘quvchiga ham tushunarli bo‘lib, unda ikki yosh muhabbati o‘z ifodasini topgan. Botiniy ma’no esa ramziy-majoziy tasvirlarga o‘ralgan bo‘lib, unda muallifning falsafiy qarashlari aks etgan. Navoiy

dostonning ilk bobidayoq o'quvchiga o'z ramzlarining kalitini taqdim etadi. Ya'ni u Laylining manzar (ilohiy husn aks etgan) ligini, Majnun esa Iloh ishqida aqldan ajraganini ta'kidlaydi. Bundan Alisher Navoiy "Layli va Majnun"ning botiniy mazmunida majoziy ishq sinoatlari aks etganligi anglashiladi. Alisher Navoiy "Layli va Majnun"ni nafaqat mazmunan, balki badiiy jihatdan ham ushbu mavzudagi dostonlarning sarasiga aylantirdi. Navoiyning "Layli va Majnun"idan so'ng xalqimizda ushbu dostonning ko'plab folklor variantlari ham vujudga keldi. Xalqning dostonga bo'lgan qiziqishi natijasi o'laroq, XIX-asrda Umar Boqiy tomonidan "Layli va Majnun"ning nasriy muxtasar bayoni yaratildi. "Layli va Majnun" dostoni asosida sahna asarlari va videofilm ham bor [1. 1970].

Layli va Majnun – Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan folklor hamda yozma shakldagi adabiy yodgorlik. Dostonning ilk kurtaklari VII-asrning 2-yarmida paydo bo'lgan. Ayrim manbalarning ma'lumotiga ko'ra, doston qahramonlari tarixiy shaxslardir. Ularda Majnun Bani Omir qabilasidan chiqqan, asl ismi Qays ibn Mulavvah yoki Qays ibn Muod bo'lgan yigit, deya ta'kidlanadi. Qays Layli ismli o'z qabiladoshini sevgan hamda o'z sevgisi va hijron alamlari haqida mungli she'rlar bitgan.

XV asr Hirot ishlaridagi alohida qahramonlarni kompozitsiyalarga kiritish usuli, "Kulliyot"ga kiritilgan, mahorat darajasi turlicha bo'lgan musavvirlar tomonidan chizilgan boshqa miniatyuralarga ham xosdir.

Biroq Keldimhammad aks etgan, Hirotga xos badiiy did qadriyatlarini va nufuzi shiboniylar sulolasidan bo'lgan o'lka hokimining madaniy muhitiga to'g'ridan to'g'ri meros bo'lib ko'chganining ramzi bo'lgan miniatyura Hirot namunalari benazir bilgan va portretli miniatyura usullarini bekami ko'st egallagan usta musavvir tomonidan yaratilgan. Yana bir portretni "Badiuzzamon huzurida bazm" deb nomlangan miniatyurada ko'rish mumkin.

Bu miniatyura "Layli va Majnun" dostonining kirish qismidagi shahzodaga atab bitilgan misralarga taalluqlidir. Yigitchaning sallasini Husayn Boyqaroning sallasiga judayam o'xshaydi. N.V.Dyakonova bu ishga bag'oyat latif ta'rif bergan:

“Miniatyura birinchi toifali usta tomonidan mayin va bir qadar dilkash usulda yaratilgan, o‘rta osiyoliklar badiiy san‘atiga xos bo‘lgan tashqi bo‘rttirma bezaklarga berilib ketilmagan”.

Mavzu doirasida batafsil “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” turkumidagi “XV–XVII asrlar Movarounnahr kitobat san‘ati” kitob-albomida (XVII jild) tanishishingiz mumkin [2.2000].

**Layli va Majnun baleti tarixi.** Balet Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridan “Layli va Majnun” dostoni asosida sahnalashtirilgan. Bir aktli baletdir. Azarbayjon kompozitori Kara Abdulfaz o‘g‘li Karayev balet uchun musiqa bastaladi. Baletmester, xoreograf, Azarbayjon san‘at arbobi (1979) Nailya Nazirova tomonidan balet to‘laqonli yoritildi.

1969-yil 25-may kuni Azarbayjondagi M.F.Axundova nomli opera va balet teatrida baletning ilk bor taqdimoti bo‘lib o‘tgan.

Baletning asosiy qahramonlari sifatida V.N.Pletnyov Majnun va T.N.Mamedova Layli obrazlarini mukammal yoritdilar.

Layli va Qays (Majnun) yoshligidan bir biriga ko‘ngil qo‘ygan edilar. Bunga esa Laylining otasi qarshi edi va ularni ajratib yubordi. Bunga bardosh berolmagan Qays ishqdan yor sog‘inchidan telba bo‘lib qoladi va Majnun nomini oladi. Laylini esa boshqa inson Abusalomga turmushga uzatishadi. Abusalom Layli va Majnunning sevgisidan habordor bo‘lsada unga yetishishni niyat qilgan salbiy ta‘hir bo‘lgan Laylining to‘yidan keyin saxroga o‘z yurtidan bosh olib ketadi va unga sahroda ham Laylining sog‘inchi tinch qo‘ymaydi ko‘ziga Layli sarob bo‘lib ko‘rinaveradi. Bir kun sahroda Majnunning Navfal ismli arabiy ko‘rib qoladi va uni so‘roq qilganda oddiy bir shoir ekanligini ko‘radi. Uni she‘rlarini o‘qib ta‘sir lanadi va Majnunga yordam bermoqchi bo‘ladi va Abu Salom bilan jang qiladi. Majnun qanchalar jangni to‘xtatishga harakat qilmasin jang shiddatli davom etib Abu Salom jangda halok bo‘ladi.



Bazi ma'nbalarda Abu Salom tutqanoqdan o'lgan deyilsa baletlarda Majnunning do'sti Arabiy tomonidan o'ldiriladi.

Layli Majnun ko'rishishadi. Hamma qiyinchiliklar ortda qolsada Layli Majnunning sevimli yorining qo'llarida vafot etadi. Dostonda esa Majnun shunchalar telba bo'lib qolganidan hatto Laylini ham tanimay qoladi shunda Layli qalbi ozor chekib vafot etadi. Bunga dosh berolmagan Majnun ham Laylining qabri ustida jon beradi uning songi so'zlari esa sevgilisining ismi edi Layli.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov T., Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni, T., 1970.
2. Sanjar Nazarov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000 y.
3. Q.Sagatov. M.Muxamedova. O'zbekiston madaniyati va san'ati fidoyilari.

T.: 2019-y.

2. M.Muxamedova. Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi. T.: 2021-y.

3. O‘.Shokirov. F.Ashrafiy. I.Shokirova. O‘zbekiston madaniyati namoyondalari. T.: 2001-y.
4. R. Karimova. O‘zbek raqslari. T.: 2003-y.
5. F.Karomatov. Sa‘nat va musiqiy meros. Maqom haqid maqola T: 2018-y.
6. L.Avdeyeva. O‘zbek raqs tarixidan. Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbek raqs” birlashmasi T.: 2001-y.
7. R.Karimova. O‘zbek raqslari. Toshkent. 2003-y.
8. S.Nazarov. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-y.

## ALISHER NAVOIYNING IJODIY FAOLIYATI

*Karimova Gulhayo Qahramon qizi*  
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi*  
*Urganch davlat universiteti*  
*4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ijodiy faoliyati tarixiy-adabiy jarayonlar kontekstida keng va chuqur tahlil qilinadi. Maqolada Navoiy ijodining shakllanish bosqichlari, lirik, epik va nasriy merosining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, shuningdek, turkiy adabiyot rivojida o‘rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, ma‘naviy kamolot, adolat va til masalalari zamonaviy ilmiy yondashuv asosida talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Xamsa, Muhokamat ul-lug‘atayn, uyg‘onish, meros.

**Аннотация:** В данной научной статье подробно анализируется творческая деятельность великого поэта и мыслителя Алишера Навои в контексте историко-литературного процесса. Рассматриваются этапы формирования его творчества, особенности лирического, эпического и прозаического наследия, а также его вклад в развитие тюркской литературы.

**Annotation:** This scientific article provides an in-depth analysis of the creative activity of the great poet and thinker Alisher Navoi within the framework of

historical and literary development. The stages of formation of his works, the ideological and artistic features of his lyrical, epic, and prose heritage, and his role in the development of Turkic literature are comprehensively examined.

Alisher Navoiy (1441–1501) Sharq uygʻonish davrining yirik namoyandalaridan biri boʻlib, oʻzbek mumtoz adabiyotining asoschisi sifatida eʼtirof etiladi. U oʻzining serqirra ijodiy faoliyati bilan nafaqat adabiy jarayonga, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ham beqiyos hissa qoʻshgan. Navoiy ijodi bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri boʻlib qolmoqda.

Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati uning yashagan davri – XV asr Movarounnahr va Xuroson hududlaridagi siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Ushbu davrda ilm-fan, sanʼat va adabiyot jadal rivojlangan boʻlib, Navoiy ana shu madaniy muhitning yetuk mahsuli sifatida shakllandi. Shoirning asarlarida davr ruhini, inson va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni chuqur falsafiy mushohada qilish imkonini beruvchi badiiy tafakkur namoyon boʻladi.

Navoiy yoshligidanoq ilm olishga intilib, arab va fors tillarini mukammal egalladi, Sharq mumtoz adabiyoti anʼanalarini chuqur oʻrgandi. Abdurahmon Jomiy bilan boʻlgan ustoz-shogirdlik munosabatlari shoir dunyoqarashining shakllanishida muhim omil boʻldi. Bu jarayon Navoiyning keyingi ijodiy faoliyatida ham sezilarli iz qoldirdi.

Navoiy lirik merosi uning adabiy faoliyatining asosiy qismini tashkil etadi. “Xazoyin ul-maoniy” devonlar majmuasida jamlangan gʻazal, ruboiy va qitʼalar shoirning badiiy mahoratini yaqqol namoyon etadi. Ushbu asarlarda ishqiy kechinmalar bilan bir qatorda, insoniy fazilatlar, axloqiy-ruhiy masalalar ham yuksak darajada ifodalangan.

Alisher Navoiyning epik ijodi, xususan, “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlari turkiy adabiyot tarixida muhim bosqich hisoblanadi. “Hayrat ul-abror”,

“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlari orqali shoir jamiyat, adolat va komil inson masalalarini keng yoritadi.

Navoiy nasriy va ilmiy-nazariy asarlari ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida shoir turkiy tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini ilmiy dalillar asosida isbotlaydi. Bu asar tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodiy faoliyati o‘zbek va umuman turkiy adabiyot taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari bugungi kunda ham ilmiy, ma’naviy va tarbiyaviy jihatdan o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Navoiy merosi yosh avlodni ma’naviy yetuklik, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Toshkent: Fan.
2. Bertels E.E. Navoiy va uning zamondoshlari. Toshkent.
3. Hayitmetov A. Navoiy lirikasining badiiy xususiyatlari. Toshkent.
4. Valixo‘jayev B. Alisher Navoiy ijodi. Toshkent.

### **NAVOIY ASARLARIDA INSONPARVARLIK VA KOMIL INSON G‘OYASI**

*Yusupova Laylo Umidbek qizi*  
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi*  
*Urganch davlat universiteti*  
*magistranti*

<https://orsid.org/0009-0004-6702-5402>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik va komil inson g‘oyasining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Shoir ijodida insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy poklanish, adolat va ishq orqali yetuklikka erishish masalalari asosiy konseptual yo‘nalish sifatida yoritiladi. “Xamsa” dostonlari, g‘azaliyot hamda nasriy meros misolida komillik mezonlari ochib beriladi.

**Kalit soʻzlar:** insonparvarlik, komil inson, tasavvuf, ishq, adolat, maʼrifat, axloq, Navoiy, mumtoz adabiyot.

**Аннотация:** В данной статье анализируется художественно-философская интерпретация идеи гуманизма и совершенной личности в творчестве Алишера Навои. Основные концептуальные направления в творчестве поэта – вопросы духовного совершенства личности, нравственного очищения, достижения зрелости через справедливость и любовь. Критерии совершенства раскрываются на примере эпической поэмы «Хамса», газелей и прозаического наследия.

**Ключевые слова:** гуманизм, совершенная личность, мистицизм, любовь, справедливость, просвещение, нравственность, Навои, классическая литература.

**Abstract:** This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the idea of humanism and the perfect person in the works of Alisher Navoi. The main conceptual directions in the poet's work are the issues of spiritual perfection of a person, moral purification, achieving maturity through justice and love. The criteria of perfection are revealed on the example of the epic poem "Khamasa", ghazals and prose heritage.

**Keywords:** humanism, perfect person, mysticism, love, justice, enlightenment, morality, Navoi, classical literature.

Alisher Navoiy ijodi oʻzbek mumtoz adabiyotida insonparvarlik va komil inson gʻoyasini yuksak badiiy-falsafiy darajada ifodalagan nodir hodisalardan biridir. XV asr Temuriylar davri maʼnaviy-madaniy muhitida shakllangan bu qarashlar shoirning lirik, epik hamda nasriy merosida uzviy tizim sifatida namoyon boʻladi. Navoiy insonni olam markazi, ilohiy maʼrifatni anglash salohiyatiga ega boʻlgan ongli va masʼul mavjudot sifatida talqin etadi. Shu bois uning asarlarida inson qadr-qimmat, adolat, saxovat, ilmga intilish, nafsni tiyish va ishq orqali kamolotga erishish masalalari yetakchi oʻrinni egallaydi.

Navoiy talqinidagi insonparvarlik g'oyasi islomiy aqida, tasavvuf falsafasi hamda Sharq mumtoz adabiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Shoir insonni "ashraful maxluqot" sifatida ulug'lar ekan, uni ruhiy poklanish va jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilishga da'vat etadi. Komil inson konsepsiyasi esa shaxsiy ma'naviy yetuklik bilan ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligida talqin qilinadi. Xususan, "Xamsa" dostonlarida ideal qahramonlar timsolida, g'azaliyotda esa ishq va ma'rifat vositasida komillik mezonlari badiiy ifodasini topadi.

Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik g'oyasi abstrakt axloqiy shior emas, balki mukammal badiiy-falsafiy tizim sifatida shakllangan konsepsiyadir. Shoir talqinida inson ilohiy nur tajallisi, ong va iroda sohibi bo'lgan mavjudotdir. Shu bois Navoiy insonni ulug'lash orqali uning ma'naviy mas'uliyatini ham yuksaltiradi. Insonparvarlik shoir tafakkurida uch asosiy qatlamda namoyon bo'ladi: ruhiy-axloqiy kamolot, ijtimoiy adolat va ilohiy ishq orqali poklanish.

Avvalo, ruhiy-axloqiy kamolot masalasi Navoiy ijodining markaziy o'qini tashkil etadi. Komil inson, shoir talqinida, nafs balosidan xalos bo'lgan, sabr, qanoat, tavoze', saxovat kabi fazilatlarni o'zida mujassam etgan shaxsdir. Bu jihat ayniqsa "Hayrat ul-abror" dostonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarda insonning axloqiy sifatleri hikmat va pand-nasihath ruhida tahlil qilinadi. Navoiy komillikni faqat zohidona hayot tarzida emas, balki faol ijtimoiy pozitsiya bilan bog'laydi. Demak, komil inson jamiyatdan chekinuvchi emas, balki jamiyat ravnaqi uchun mas'uliyat his qiluvchi shaxsdir.

Ikkinchi muhim jihat ijtimoiy adolat masalasidir. Navoiy nazarida insonparvarlikning eng oliy ko'rinishi adolatdir. "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi orqali adolatli hukmdor timsoli yaratiladi. Bu yerda komillik shaxsiy fazilat bilangina emas, balki boshqaruv madaniyati bilan ham belgilanadi. Adolat zolimlikka qarshi turish, xalq manfaatini himoya qilish, ilm va ma'rifatni qo'llab-quvvatlash demakdir. Shoir adolatni jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida talqin etadi. Shu tariqa insonparvarlik individual emas, ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Navoiy lirikasida esa komil inson g‘oyasi ishq konsepsiyasi orqali ochiladi. G‘azallarda ishq insonni poklovchi, uni nafs va xudbinlikdan xalos etuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Ishq orqali inson o‘z “men”ini yengadi, ruhiy kamolot sari intiladi. Tasavvufiy talqinda bu jarayon “fano” va “baqo” maqomlari bilan izohlanadi. Shoir uchun haqiqiy ishq ilohiy haqiqatni anglash vositasi. Demak, komillikning eng oliy bosqichi ma’rifat bilan uyg‘unlashgan ishqdir. Bu jarayonda inson o‘z mohiyatini anglaydi va borliq bilan uyg‘unlikka erishadi.

“Farhod va Shirin” dostonida Farhod obrazi fidoyilik va mehnatsevarlik timsoli sifatida gavdalanadi. Farhodning tog‘ni teshib suv chiqarishi ramziy ma’noda insonning o‘z nafsini yengib, jamiyatga manfaat keltirishini anglatadi. Bu yerda komillik passiv ruhiy holat emas, balki faol harakat bilan bog‘liq. Shuningdek, “Layli va Majnun” dostonida Majnun obrazi orqali ishq yo‘lida o‘zligini qurbon qilgan orif inson qiyofasi chiziladi. Majnun jamiyat mezonlariga sig‘maydi, ammo uning ruhiy pokligi va sadoqati komillikning yuksak darajasini ifodalaydi.

Navoiy nasriy merosida ham insonparvarlik masalasi chuqur yoritilgan. “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyatdagi turli toifa vakillarining axloqiy qiyofasi tahlil qilinadi. Shoir halollik, diyonat, kamtarlik va ilmga hurmatni insonning asosiy fazilatlari sifatida ko‘rsatadi. U mansab va boylikni komillik mezoni sifatida qabul qilmaydi; aksincha, ma’naviy poklikni ustuvor deb biladi. Bu jihat Navoiyning insonparvarlik qarashlari amaliy-axloqiy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Tasavvufiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, Navoiy insonni ilohiy haqiqatni aks ettiruvchi mavjudot sifatida talqin etadi. Vahdat ul-vujud g‘oyasiga ko‘ra, borliq yagona haqiqatning tajallisidir, inson esa uning ongli ifodasidir. Shu bois komil inson o‘z mohiyatini anglagan, ruhiy poklanish orqali haqiqatga yetgan shaxsdir. Bunday talqin Sharq antropologiyasining mukammal namunasi bo‘lib, unda insonning ontologik va axloqiy maqomi bir butunlikda ko‘riladi.

Navoiy ijodida insonparvarlik milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Shoir turkiy tilda ijod qilish orqali xalqning ma’naviy o‘zligini

mustahkamladi, inson qadrini ulug‘lash orqali esa adabiyotning ma’rifiy vazifasini amalga oshirdi. Uning qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki komil inson modeli zamonaviy jamiyat uchun ham muhim axloqiy mezon bo‘lib qolmoqda.

Navoiy asarlarida insonparvarlik va komil inson g‘oyasi o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ruhiy poklanish, ishq va ma’rifat, adolat va ijtimoiy mas’uliyat bularning barchasi komillikning tarkibiy qismlaridir. Shoir talqinidagi inson ideal darajada ma’naviy yetuk, axloqan pok va jamiyat oldida mas’ul shaxs sifatida gavdalanadi. Bu esa Navoiy merosining falsafiy chuqurligi va badiiy mukammalligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik va komil inson g‘oyasi yaxlit badiiy-falsafiy tizim sifatida shakllangan bo‘lib, u shoir ijodining g‘oyaviy asosini tashkil etadi. Navoiy talqinida inson ilohiy ne’mat, ong va ma’rifat sohibi, o‘z kamolotiga intiluvchi mas’ul mavjudotdir. Shu bois komillik tushunchasi shaxsiy axloqiy poklik bilan cheklanmay, ijtimoiy adolat, xalqparvarlik va ma’rifatparvarlik tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Navoiy dostonlari, g‘azaliyoti va nasriy asarlarida komil inson obrazi turli qahramonlar timsolida badiiy ifodasini topadi. Ishaq orqali ruhiy poklanish, nafsni yengish, ilm va hikmatga intilish komillikning muhim mezonlari sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, adolat va saxovat kabi fazilatlar komil insonning ajralmas sifatlari sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa Navoiy qarashlarining nafaqat tasavvufiy, balki ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 768-b.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 224-b.
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987. – 512-b.
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – 304 b.

5. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006. – 400 b.
6. Qayumov A. Alisher Navoiy (ijodi va mahorati). – Toshkent: Fan, 1991. – 256-b.
7. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961. – 320-b.
8. Abdug‘afurov A. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – 280-b.

### HOJI MUIN PUBLITSISTIKASIDA DIALEKTAL UNSURLAR

*Doniyor Tojiboyev,  
Alisher Navoiy nomidagi nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti mustaqil  
tadqiqotchisi*

**Annotasiya.** *Maqolada Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan fonetik, leksik, morfologik dialektizmlarning semantik-stilistik xususiyatlari, grammatik tarkibi haqida fikr yuritilgan. Ularning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *chegaralangan leksika, chegaralanmagan leksika, dialektal leksika, til yarusi, fonetik dialektalizm, leksik dialektizm, morfologik dialektizm, noadabiy leksika.*

Til barqaror kategoriya sifatida grammatik qurilishi va lug‘at tarkibining tez suratda o‘zgarib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu sababli ham adabiy til taraqqiyotining turli tadrijiy bosqichlarida qo‘llangan so‘zlar, grammatik shakllar hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham saqlanib qolgan. Biroq ayni paytda til ijtimoiy hodisa bo‘lgani bois, jamiyat taraqqiyoti, o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda lug‘at tarkibining qo‘llanish davri, qo‘llanish doirasiga ko‘ra ayrim o‘zgarishlarga uchraydi. Bu holat XX asr boshlaridagi davr adabiy tili leksikasining hozirgi o‘zbek adabiy tili materiallari bilan qiyosan tahlilida ham ko‘zga tashlanadi. Tilda bo‘ladigan bunday barqarorlik va o‘zgarishlarni tahlil qilganda, tarixiylik nuqtayi nazaridan jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lab o‘rganish zarur hisoblanadi.

Tadqiq etilayotgan obyekt, ya'ni Hoji Muin publitsistik maqolalari tilidagi leksemalarning aksariyatini qo'llanish doirasi chegaralanmagan, umumiste'moldagi leksika tashkil etib, ular hozir ham o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barachasi tomonidan keng qo'llanadi. Lekin shu bilan birga adib maqolalari tilida iste'mol doirasi chegaralangan leksika ham mavjud bo'lib, ular ichida dialektizmlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lum bir hududda yasovchi kishilar nutqiga xos leksemalar majmui dialektal leksikani tashkil etadi. Bunday birliklar ilmiy terminologiyada *dialektizm* deb ham yuritiladi. "Shevalardagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham: fonetik dialektizm, leksik dilalektizm, morfologik hamda sintaktik-stilistik dialektizm turlariga ega bo'ladi. Badiiy adabiyotda adiblar dialektizmlardan ikki o'rinda: 1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida; 2) adabiy tilda sinonimi bo'lmagan so'zlarni majburan qo'llashda foydalanishadi" [1;98].

Maqolalar matnida dialektizmlarning quyidagi turlari uchraydi: 1) fonetik dialektizmlar: "**Man** uch yil Kattaqo'rg'onda turg'on vaqtimda ham biron kishining **mundan** shikoyat qilg'onini eshitmagan edim" (TA, 75-bet); "Bu inqilobdan keyin Rusiyadagi turli millatlardan **ko'bisi** o'zlarining iste'dod va hozirliqlarig'a yarasha ish ko'rdilar" (TA, 74-bet); Shahar dumasi ochilg'ondan keyin polkovnik Poss janoblarini shahar raisligig'a **o'tkaribdirlar**" (TA, 74-bet). "Hatto "Oyna" jurnalining birinchi yilida ham **boyog'i** fikridan qaytmadi" (TA, 134-bet).

Misollardagi *man* (men), *mundan* (bundan), *ko'bisi* (ko'pi), *o'tkaribdirlar* (o'tkazibdirlar), *boyog'i* (boyagi) kabi birliklarda shevalarga xos fonetik xususiyatlar, ya'ni tovush almashish jarayoni sodir bo'lgan. "Men" kishilik olmoshining "man" shaklida; "bundan" ko'rsatish olmoshining "mundan" shaklda qo'llanishi Qarluq-uyg'ur lahjasi tarkibidagi Toshkent shevasiga xos qo'llanishdir. "O'tkazmoq" fe'lining arxaik shaklda "o'tkarmoq" tarzida talaffuz qilinishi Qipchoq tip shevalarida hozirda ham saqlangan" (O'TIL, V, 179-bet).

Maqolalar matnidagi faqat tovush tomonidan dialektga xos bo'lgan, umumiy fonetik xususiyatlariga ko'ra bir guruhni tashkil qiluvchi *Toshkan* - Toshkent (TA, 141); *tiydi* – tegdi (TA, 87); *to'xsan* – to'qson (TA, 105); *doru* – dori (TA, 115); *chumchug'* – chumchuq (TA, 116); *allap* – aldap (TA, 134); *dovush* – tovush (TA, 164); *birta* – bitta (TA, 164) kabi birliklarni ham fonetik dialektizmlar qatoriga qo'shish mumkin. 2) leksik dialektizmlar: “*Samarqand matbuotiga hukumat tomonidan senzura (nozir) qo'yildi. Va o'shal kundan e'tiboran “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi qisinqiliq ostida qoldi*” (TA, 130-bet); “*Bir vaqt qaragam hoppoy tashalab oldimda bir chiroyliq bola paydo bo'ldi*” (TA, 173-bet); “*“Tayoq” jurnali “Mehnatkashlar tovushi”ning poycho'kir tahrir hay'ati tomonidan yozilar edi*” (TA, 124-bet). Lug'atda “shevaga oid qistanglamoq leksemasi qistovga olmoq ma'nosini ifoda etishi aytilgan” (O'TIL, V, 308-bet). Muallif ushbu leksema asosidagi *qisinqiliq* dialektizmini qo'llagan.

“HOPPOY – Qashqadaryo hududi shevalarida *qadam* ma'nosida ishlatiladi” [2;127]. “POYCHO'KIR dialektizmi esa Farg'ona vodiysi shevalarida *sodda* ma'nosini ifodalashi qayd etiladi” [2;229]. E'tibor berilsa, o'zbek tilining har uch lahjasi shevalariga oid leksik dialektizmlar maqolalar matnida faol qo'llangan. Ayrim o'rinlarda leksik dialektizm adabiy tildagi varianti bilan bir sinonimik qatorda ketma-ket keltirilgan: *Shuncha azob va zahmatlaringiz ustiga, yana kanduxtur janoblaridan so'kishlar, turtki-no'qqilar ko'rushingiz “ustakcha”dir*” (TA, 172-bet); “*So'zning oxirida shuni ham yozib o'tamizkim, bizning katta aybimiz bo'lsa, ul ham kosaleslikni, xushomadgo'ylikni bilmasligimizdur*” (TA, 116-bet). Bu o'rinda *no'qqi* - *tortki*; *kosaleslik* - *xushomadgo'lik* sinonimik qatorlari yuzaga kelgan. Leksik dialektizmlar miqdori maqolalar matnida ancha salmoqli: *aqaldan* (TA, 70), *qo'pdi* (TA, 79), *bilkulli* (TA, 108), *bultur* (TA, 84), *mo'ltoq* (TA, 164), *ko'laga* (TA, 66), *durust* (TA, 110) kabilarni ham shu guruhga kiritish mumkin. 3) morfologik dialektizmlar: maqolalar matnida shevaga xos morfologik elementlarning ham uchrashi kuzatiladi: “*Holbuki, bizding dinimiz islom faqirlarga boqmoq to'g'risida turli yo'llar ko'rsatib buyruqlar qilg'ondir*” (TA,

73-bet). Misolda keltirilgan “biz” olmoshiga qo‘shilgan qaratqich kelishigining *-ding* formasi dialektal variant. O‘zbek tilining j-lovchi qipchoq shevalarida qaratqich kelishigi affiksi yumshoq o‘zak-negizlarda *-ding* shaklini olishi kuzatiladi.

“Nikoh to‘ylaridag‘i ro‘molcha, kashida, **chaponnar**, ta‘ziya kunlarida qabr ustida xalqqa pul va “yirtish berish” kabi isrofgarchilik udumlari yana ko‘runa boshladi” (TA, 136-bet). Ushbu misolda *-lar* ko‘plik shakli dialektal variantda *-nar* tarzida qo‘llangan. “J-lovchi shevalarda ko‘plik affiksining qo‘llanishi o‘zak-negizning qattiq-yumshoqligiga bog‘liq. Til orqa unlili o‘zak-negiz sonor tovushlar bilan tugagan bo‘lsa, ko‘plik qo‘shimchasi *-nar* tarzida qo‘shiladi” [3;202].

“Turkistonda ziroat ishlari avvalgi holidan ham **dim** keyinda qoldi” (TA, 110-bet). Qorluq-o‘guz tip shevalarda sifatning orttirma darajasini hosil qiluvchi *eng*, *juda* morfologik ko‘rsatkichlari o‘rnida *dim* so‘zi hozir ham faol qo‘llandi.

Fe‘l asosiga qo‘shilib, ayni fe‘lning o‘tgan zamon sifatdoshini hosil qiluvchi *-gan* affiksi o‘rnida qipchoq tip shevalarda *-dik* affiksi qo‘llanishi kuzatiladi. Aynan shunday qo‘llanish quyidagi matnda ham mavjud: “Tabiiy, bularning **bildiklari** mundan ellik yil burundagi odamlarning **bildiklaridin** oshuq emas edi” (TA, 105-bet).

Dialektologiyaga oid manbalarda III tip tuslovchilar buyruq-istak maylida bo‘lishi va shevalarda ularning o‘ziga xos qo‘llanishda bo‘lishi aytiladi. Jumladan, “Buyruq-istak maylining II shaxs ko‘plik shakli Toshkent, Qarshi shevalarida *-iyla* shaklida bo‘lishi qayd etilgan” [1;61]. Bunday qo‘llanish maqolalar matnida ham uchraydi va bu orqali morfologik dialektizm yuzaga kelgan: “Agar sizlar bir kunlik, bir soatlik boybachchalarni ko‘rmakchi bo‘lsangiz, u yoq-bu yoqqa qaramay to‘p-to‘g‘ri Tuproq qo‘rg‘ong‘a **keliyla**” (TA, 178-bet). Ko‘rib o‘tganimizdek, morfologik birliklarning shevalarga xos shakllari otlardagi son, kelishik; fe‘llardagi zamon, mayl kategoriyalarida mavjud. Biroq ular miqdori salmoqli emas.

XX asrning birinchi yarmi o‘zbek publitsistik uslubi tilida chegaralangan leksika tarkibidagi dialektizmlarning faol qo‘llanishi M.Behbudiy, A.Avloniy, Fitrat, Elbek, Cho‘lpon, A.Qodiriy kabi adiblar ijodida ham uchrashi tadqiqotchilar

tomonidan qayd etilgan. Ma’rifatparvar Hoji Muin publitsistikasida bunday unsurlar qo‘llanishidagi sabab va omillar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, bunday qo‘llanishning bosh sababi sifatida XX asr boshlaridagi davr adabiy tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik me’yorlarining to‘laligicha mukammal ishlab chiqilmaganligi deb ko‘rsatishimiz mumkin. Odatda dialektizmlarning badiiy asarlarda qo‘llanishi mahalliy sharoitni, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni tasvirlash, qahramonlar nutqini xoslashtirish bilan izohlanadi. Publitsistik nutq va uslubdagi dialektal unsurlar qo‘llanishini esa bunday baholab bo‘lmaydi. Biz tahlilga tortgan materiallar ham buni tasdiqlaydi. Hoji Muinning publitsistik maqola va hajviyalarida dialektizmlar faol qo‘llanishini muallifning o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshirishda xalq shevalariga asosiy manba sifatida tayanib ish tutgani bilan ham izohlash mumkin. Shuningdek, adib shevalardagi leksik paralellizmni bartaraf etish maqsadida muayyan shevaga xos so‘zni istifoda qilishda bu birliklarning barcha shevalarda iste’molda bo‘lishiga intilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021. – 176 b.
2. Musayeva F. O‘zbek xalq so‘zlari. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – 392 b.
3. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 300 б.

# UCHINCHI RENESSANS

**Ilmiy, adabiy-badiiy, ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy,  
ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy**

## JURNAL

Bosh muharrir: **M.Masharipov**  
Bosh muharrir o'rinbosari: **M.Matnazarov**  
Mas'ul kotib: **A.Saparbayeva**  
Texnik muharrir: **K.Raximov**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "UCHINCHI RENESSANS" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan vaqtda quyidagi keltirilgan rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. To'lov amalga oshirilgach, uning tasdig'ini (skrinshot yoki foto shaklida) reness.uz sayti orqali yoki @Masharipov5002 telegram manzili orqali biz bilan bog'lanishingizni so'raymiz. Tasdiq olingandan so'nggina, jurnalning har soni manzilingizga yetkazib beriladi.

"UCHINCHI RENESSANS" jurnali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 06-may kuni № 757745 raqamli guvohnoma berilgan.  
Litsenziya reestri bo'yicha tartib raqami: № 5669810. ISSN: 3093-9135

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026-yil  
Bichimi 60 x 84<sup>1/8</sup>. "Times New Roman"  
Ofset bosma usulida chop etildi.

Shartli bosma tabog'i 12,6. Adadi 100. Buyurtma № 18-04  
Tel: (33) 701 12 00, (99) 564 63 20

"Khwarezm publication" bosmaxonasida chop etildi.  
Urganch t. Zargarlar mahallasi Marvarid ko'chasi 8-yo'lak 4-uy